

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS  
INSTITUTI

«XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI YASHIL VA  
INNOVATSION IQTISODIYOT TAMOYILLARI  
ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANTIRISH  
YO‘NALISHLARI»

MAVZUSIDAGI  
XALQARO ILMIIY-AMALIIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI

# TO‘PLAMI

(I QISM)

SAMARQAND



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**TAMBOV DAVLAT UNIVERSITETI**

**QARSHI MUXANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI**

**«IPAK YO‘LI» TURIZM VA MADANIY MEROS  
XALQARO UNIVERSITETI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
SAMARQAND FILIALI**

**«XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI YASHIL VA  
INNOVATSION IQTISODIYOT TAMOYILLARI  
ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANTIRISH  
YO‘NALISHLARI»**

**MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA**

**MATERIALLARI TO‘PLAMI**

**(I QISM)**

**2026-yil 20-21-fevral kunlari**

**SAMARQAND – 2026**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА**

**ТАМБОВСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**КАРШИНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ТУРИЗМА И КУЛЬТУРНОГО  
НАСЛЕДИЯ «ШЕЛКОВЫЙ ПУТЬ»**

**САМАРКАНДСКИЙ ФИЛИАЛ ТАШКЕНТСКОГО  
ГОСУДАРСТВЕННОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**“НАПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ  
СФЕРЫ УСЛУГ НА ОСНОВЕ ПРИНЦИПОВ  
ЗЕЛЕННОЙ И ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ”**

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ**

**СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ**

**(ЧАСТЬ I)**

**(20-21-февраль 2026-г.)**

**САМАРКАНД – 2026**

**UO‘K:** 338.2:004(082)

I-52

**KBK:** 65.7

*Xizmat ko‘rsatish sohasini yashil va innovatsion iqtisodiyot tamoyillari asosida barqaror rivojlantirish yo‘nalishlari /xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (I qism). 2026 йил 20-21-fevral kunlari. Samarqand, SamISI, 2026. – 274 bet.*

**Nashr uchun mas‘ul:**

**M.Q.Pardayev – iqtisod fanlari doktori, professor**

**Tahririyat kengashi rahbari:**

**M.E.Po‘latov – iqtisod fanlari doktori, professor**

**Tahririyat kengashi a‘zolari:**

**M.M.Muxammedov – iqtisod fanlari doktori, professor,**

**J.R.Zaynalov – iqtisod fanlari doktori, professor,**

**I.S.Tuxliev – iqtisod fanlari doktori, professor,**

**O.Murtazaev – iqtisod fanlari doktori, professor,**

**R.X.Ergashev – iqtisod fanlari doktori, professor,**

**V.I.Abdukarimov – iqtisod fanlari doktori, professor,**

**N.A.Ibragimov – iqtisod fanlari doktori, professor,**

**K.B.Urazov – iqtisod fanlari doktori, professor,**

**Q.J.Mirzaev – iqtisod fanlari doktori, professor,**

**A.Eshtaev – iqtisod fanlari doktori, professor,**

**S.N.Tashnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor,**

**A.N.Xoliqulov – iqtisod fanlari nomzodi, professor,**

**D.H.Xolmamatov – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.**

**Sahifalovchi: Firdavs O‘roqov**

An‘anaviy ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida xizmatlar sohasini yashil va innovatsion iqtisodiyot tamoyillari asosida barqaror rivojlantirish muammolari va ularning yechimlari, sohaning alohida tarmoqlari samaradorligini oshirish istiqbollariga oid masalalar yoritilgan barqaror iqtisodiy rivojlanish va xizmat ko‘rsatish sohasini yashil va innovatsion iqtisodiyot tamoyillari asosida jadal rivojlantirishning nazariy va metodologik muammolari va ularni hal qilishning strategik yo‘nalishlari, kambag‘allikni qisqartirish, aholi bandligi, farovonligi, yashash darajasi va sifatini oshirish masalalari, hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish jarayonida marketing va menejment imkoniyatlarini takomillashtirish masalalari, xizmat ko‘rsatish sohasini yashil va innovatsion iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirishda investisiyalarni jalb qilish va moliyaviy munosabatlarni takomillashtirish masalalari, hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirishda buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit muammolarini bartaraf qilish masalalari, xizmat ko‘rsatish sohasini yashil va innovatsion iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni takomillashtirish muammolarini hal qilishga qaratilgan ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarga boy maqola va tezislarda o‘rin olgan.

Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas‘ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

**ISBN:** 978-9910-225-40-6

© SamISI, 2026 y.

## I SHO‘BA. BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH VA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI YASHIL VA INNOVASION IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA JADAL RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK MUAMMOLARI VA ULARNI HAL QILISHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI.

Po‘latov Muxiddin Egamberdievich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori, i.f.d., professor

### RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IQTISODIY O‘SISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

**Annotatsiya:** makolada raqamli iqtisodiyot, Raqamli iqtisodiyotning asosi – bu texnologiyalar ekotizim ekanligi, Raqamli iqtisodiyotning muvaffaqiyati to‘g‘risida tushunchalar keltirilgan.

**Kalit suzlar:** iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, texnologiyalar ekotizimi, sun‘iy intellekt, katta ma‘lumotlar, bulutli texnologiyalar, blokcheyn , internet narsalar.

**Аннотация:** в статье представлены концепции цифровой экономики, основа цифровой экономики — технологическая экосистема, а также обосновывается успех цифровой экономики.

**Ключевые слова:** экономика, цифровая экономика, цифровые технологии, технологическая экосистема, искусственный интеллект, большие данные, облачные технологии, блокчейн, интернет вещей.

**Abstract:** the article presents the concepts of digital economy, the basis of the digital economy is the technology ecosystem, and the success of the digital economy.

**Keywords:** economy, digital economy, digital technologies, technology ecosystem, artificial intelligence, big data, cloud computing, blockchain, internet of things.

So‘nggi yillarda butun dunyo bo‘ylab iqtisodiyotning yangi bosqichi – raqamli iqtisodiyot shakllanmoqda. Bu jarayon ishlab chiqarish, xizmatlar sohasi, ta‘lim, tibbiyot, moliya va davlat boshqaruvi tizimlarida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Endilikda iqtisodiy rivojlanish darajasi faqat neft, gaz yoki xomashyo resurslariga emas, balki ma‘lumotlar, algoritmlar va texnologiyalarni qay darajada boshqarish qobiliyatiga ham bog‘liq bo‘lib qoldi.

Raqamli iqtisodiyot deganda, raqamli texnologiyalar asosida shakllangan, ma‘lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish orqali iqtisodiy faoliyatni boshqarish tizimi tushuniladi. Boshqacha aytganda, bu – axborot resurslarini ishlab chiqarish vositasiga aylantirgan iqtisodiyotdir.

Bu g‘oya 1990-yillarda paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, aynan so‘nggi o‘n yillikda internetning ommalashuvi, bulutli hisoblash, sun‘iy intellekt, robototexnika, 5G tarmoqlari va katta ma‘lumotlar (Big Data) texnologiyalari tufayli u to‘liq shaklga kirdi.

Raqamli iqtisodiyot insonlarning umumiy manfaatlari uchun xizmat qilishi va barcha jabhalarning keng miqiyosda qamrab olishi qonuniy jarayonga aylanmoqda. Bunday iqtisodiyot ko‘plab yangi bilim va ko‘nikmalarni ijtimoiy

himoya qilishning tubdan yangi choralarini, mehnat va dam olish o‘rtasidagi sifat jihatidan yangi munosabatlarni talab qiladi.

Zamonaviy texnologiyalarning mamlakatlar barqaror rivojlanishi maqsadlariga erishishida muhim hissa qo‘shishi aniq, ammo shu bilan birga ulkan imkoniyatlar va muammolarni, shuningdek yangi xavflarni, jumladan, kiberxavfsizlik, noqonuniy iqtisodiy faoliyatni va shaxsiy hayotga tajovuzlarning kelib chiqishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatishi ham mumkin.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta‘lim, sohliqni saqlash, sanovt, qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan 26-dekabr 2025-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida “Bu yil IT, fintex, sun‘iy intellekt kabi yo‘nalishlardagi mahalliy startaplarga xorijdan 270 million dollar investitsiya jalb qildik. Keyingi yildan “Raqamli startaplar” dasturini kengaytirib, startap g‘oyasidan to eksportgacha ko‘maklashadigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yamiz. Bunda xususiy startap markazlarini tashkil etish uchun Yoshlar jamg‘armasidan besh yil muddatga 5 milliard so‘mgacha foizsiz ssuda beriladi. Oliygozlarning o‘zida qoladigan mablag‘larning 10 foizi ham inkubatsiya markazlarini rivojlantirishga yo‘naltiriladi” – deb ta‘kidlab o‘tdi. 2020-yilning 5-oktyabrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079 – sonli Farmoni bilan milliy Dasturning qabul qilinishi fikrimizning yaqqol dalilidir.

Bugun raqamli iqtisodiyotning ulushi dunyo yalpi ichki mahsulotining 17 foizidan ortig‘ini tashkil etadi. Jahon banki ma‘lumotlariga ko‘ra, 2030-yilga borib bu ko‘rsatkich 25 foizdan oshadi. Demak, raqamli texnologiyalar endi qo‘shimcha vosita emas, balki iqtisodiy o‘shishning asosiy drayveriga aylangan.

Texnologiyalar – yangi iqtisodiyotning yuragi demakdir.

Raqamli iqtisodiyotning asosi – bu texnologiyalar ekotizimidir. Ulardan eng muhimlarini quyidagicha izohlash mumkin:

✓ Sun‘iy intellekt (AI) – inson fikrlashini taqlid qiluvchi tizimlar orqali ishlab chiqarish va xizmatlarni avtomatlashtirish imkonini beradi. Misol uchun, banklar kredit risklarini tahlil qilishda, sog‘liqni saqlash tizimi esa tashxis qo‘yishda sun‘iy intellektdan foydalanmoqda.

✓ Katta ma‘lumotlar (Big Data) – milliardlab ma‘lumotlarni tahlil qilib, iqtisodiy qarorlar qabul qilishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

✓ Bulutli texnologiyalar (Cloud computing) – ma‘lumotlarni saqlash, ulashish va qayta ishlashni osonlashtiradi. Bu, ayniqsa, kichik biznes uchun qulay, chunki qimmat serverlarga ehtiyoj qolmaydi.

✓ Blokcheyn – moliyaviy operatsiyalarda xavfsizlik va shaffoflikni ta‘minlaydigan texnologiya. U nafaqat kriptovalyutalarda, balki logistika, ta‘minot zanjiri va davlat xizmatlarida ham keng qo‘llanmoqda.

✓ Internet narsalar (IoT) – turli qurilmalarni o‘zaro bog‘laydi. Masalan, “aqlli” uylar, “aqlli” shaharlar va “aqlli” transport tizimlari.

Bu texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish jarayonlari tezlashadi, mehnat unumdorligi oshadi, energiya tejaladi va iste‘molchilar bilan ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi masofa qisqaradi.

O‘zbekiston ham raqamli iqtisodiyot sari jadal qadam tashlamoqda. 2020-yilda qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida yuzlab loyihalar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda 300 dan ortiq davlat xizmatlari “my.gov.uz” portali orqali onlayn ko‘rsatilmoqda. Soliq tizimi, kadastr, sog‘liqni saqlash, ta‘lim va sud tizimlari bosqichma-bosqich raqamlashtirilmoqda.

Misol uchun, Soliq mobil ilovasi orqali tadbirkorlar o‘z daromadini elektron tarzda hisobga olib, soliqlarni avtomatik to‘lash imkoniga ega. “e-auksion”, “e-maktab”, “e-imzo”, “e-faktura”, “bbit”, “nodavlat bog‘cha”, “D-med”, “E-qaror” kabi tizimlar davlat, fuqarolar hamda xizmat ko‘rsatish korxonalarini o‘rtasidagi muloqotlarni soddalashtirmoqda.

Shuningdek, O‘zbekistonda IT-parklar tarmog‘i kengaymoqda. 2025-yilga kelib 50 mingdan ortiq yosh dasturchi va texnolog mutaxassislarini tayyorlash maqsad qilingan. Bu esa raqamli iqtisodiyot uchun inson kapitali bazasini mustahkamlaydi.

Raqamli iqtisodiyotning eng katta afzalliklaridan biri – resurslarni tejash va samaradorlikni oshirishdir. Masalan, elektron hujjat aylanishi orqali har yili millionlab qog‘oz tejaladi, bu esa ekologik jihatdan ham foydalidir. Onlayn to‘lovlar esa iqtisodiy muomalani tezlashtiradi va norasmiy iqtisodiyot ulushini kamaytiradi.

Biroq raqamli o‘zgarishlar yangi muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Masalan, ayrim kasblar yo‘qolib, ularning o‘rnini avtomatlashtirilgan tizimlar egallamoqda. Shu sababli raqamli savodxonlik va kasbiy qayta tayyorlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yangi davrda muvaffaqiyatli ishlash uchun inson faqat texnik bilim emas, balki tahliliy fikrlash, ijodkorlik va moslashuvchanlik ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur.

Raqamli iqtisodiyotda eng katta boylik bu ma‘lumotlardir. Ammo ularning xavfsizligini ta‘minlash ham eng murakkab vazifalardan biridir. Kiberxavfsizlik, maxfiylik, shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish bugungi kunda global muammo sifatida ko‘rilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyotga o‘tish bu oddiy texnologik yangilanish emas, balki butun jamiyat tafakkurining o‘zgarishidir. U nafaqat ishlab chiqarishni, balki boshqaruv, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, hatto kundalik hayot tarzini ham o‘zgartirmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning muvaffaqiyati uch omilga bog‘liq:

1. Texnologik infratuzilma – internet tarmoqlari, raqamli platformalar va dasturiy ta‘minot;

2. Inson kapitali – raqamli savodxon, innovatsion fikrlaydigan yoshlar;
3. Qonunchilik va xavfsizlik – fuqarolarning ma’lumotlari himoyalangan, shaffof tizim.

Demak, raqamli iqtisodiyot bu faqat texnologiyalar emas, balki yangi tafakkur madaniyatidir. Unda inson markazda turadi, texnologiya esa uning imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Raqamli davr – bu raqobat, tezlik va yangilik davri. Kim bu o‘zgarishlarga tez moslasha olsa, kelajakda aynan o‘sha mamlakat va o‘sha insonlar g‘olib chiqadi.

*Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти профессори, иқтисодиёт фанлари доктори.*

*Бекзот Орифович Мамаюнусов – Шараф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети Юридик факултетининг IV-курс талабаси.*

## **ФИРИБГАРЛИКНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШДА АНТИФРОД УСУЛЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ**

*Аннотация:* Мақолада турли соҳаларда фирибгарликнинг олдини олишда қўлланиладиган антифрод усулларидан фойдаланишнинг афзалликлари ёритилган. Бунда антифрод қаерларда қўлланилиши, унинг асосий вазифалари, иқтисодий, ҳуқуқий, рақамли технологиялардан фойдаланишдаги ҳолатлари ҳам қараб чиқилган. Тадқиқот натижасида тегишли хулоса қилиниб, айрим тавсиялар ҳам берилган.

*Калит сўзлар.* Антифрод, фирибгарлик, техник тизимлар, назорат механизмлари, ҳуқуқий-ташқилий чоралар, алдамчилик, молия тизими, банklar, рақамли алдамчилик.

*Аннотация:* В статье освещаются преимущества использования антифрод-методов, применяемых для предотвращения мошенничества в различных сферах. При этом рассматриваются области применения антифрода, его основные функции, а также особенности использования экономических, правовых и цифровых технологий. По результатам исследования сделаны соответствующие выводы и предложен ряд рекомендаций.

*Ключевые слова:* Антифрод, мошенничество, технические системы, механизмы контроля, правовые и организационные меры, обман, финансовая система, банки, цифровое мошенничество.

*Abstract:* This article highlights the advantages of using anti-fraud methods applied to prevent fraud in various sectors. It examines the areas where anti-fraud systems are used, their main functions, as well as the application of economic, legal, and digital technologies. Based on the results of the study, relevant conclusions are drawn and several recommendations are provided.

**Keywords:** *Anti-fraud, fraud, technical systems, control mechanisms, legal and organizational measures, deception, financial system, banks, digital fraud.*

**Кириш.** Антифрод мавзусига бағишланган масалалар бугунги кунда ўта долзарблиги билан ажралиб туради. Чунки, ҳозирги шароитда рақамлашув жараёнининг жадаллашуви унинг банк хизматларига, электрон тўловларга жорий қилиниши, онлайн савдонинг кўпайиши, электрон давлат хизматларининг ташкил қилиниши кундан-кунга кенг ривожланмоқда. Бу эса фирибгарликнинг янги рақамли шакллариининг пайдо бўлишига олиб келмоқда. Шу сабабли антифрод тизимларига эҳтиёж тобора ортиб бормоқда. Бундай рақамли иқтисодиётнинг ривожланган шароитида антифрод хавфсизлик кафолати сифатида майдонга чиқади. Чунки, жаҳон амалиётида фирибгарликнинг пайдо бўлиши натижасида молиявий йўқотишларнинг ўсиб бориши банклар, компаниялар, давлат бюджети каби соҳалар учун катта молиявий зарар келтирмоқда.

Буларга қарши антифрод тизимлари, яъни зарарни олдини олади, рискларни бошқаришни яхшилайти, иқтисодий барқарорликни таъминлайди. Шу туфайли мазкур масаланинг иқтисодий хавфсизликни таъминлаш заруратига эътиборни қаратиш лозим. Чунки, фирибгарлик, яширин иқтисодиётни кенгайтиши, инвестиция муҳитига салбий таъсир қилиши натижасида ишончнинг пасайиши ҳам вужудга келмоқда. Бундай шароитда антифрод миллий иқтисодий хавфсизликнинг муҳим элементи сифатида майдонга чиқди.

Давлат бошқаруви ва корпоратив соҳада коррупция ва манфаатлар тўқнашувига қарши курашда ҳам ушбу усул кўл келмоқда. Чунки бу усул билан коррупцион схемалар, сохта ҳисоботлар, бюджет маблағларини талон-торож қилиш аби кенг тарқалган муаммоларни ҳал қилишда ҳам муҳим омил бўлиб ҳисобланади. Кўриниб турибдики, антифрод усулидан фойдаланиш бугунги кунда ўта долзарб масалалардан бирига айланган.

**Тадқиқот методологияси.** Мақолада фирибгарликнинг олдини олишда антифрод усуллариининг фойдаланишнинг афзалликларини қараб чиқиш жараёнида миқдор ва сифат, индукция ва дедукция, макон ва замон, мантиқий ва иқтисодий таҳлил ҳамда статистик методлар билан боғлиқ усул ва услублардан фойдаланилган.

**Таҳлил ва натижалар.** Тадқиқотларимиз кўрсатдики, антифрод усуллари бугунги кун учун зарур амаллардан бири ҳисобланади. Чунки у шаффофликни оширади, жавобгарликни кучайтириш билан бирга назорат механизмларини мустаҳкамлайди. Кўплаб давлатларда ҳуқуқий ислохотлар ва халқаро талабларушбу усул пул ювиш ва терроризмни молиялаштиришга қарши курашда, комплаенс ва ички назорат тизимлари кучайтиришда ҳам қўлланилмоқда. Чунки, антифрод халқаро стандартларга мосликни ҳам таъминлайди.

Ҳозирги кунда иқтисодий-ижтимоий ҳаётимизга сунъий интеллект ва innovatsion технологияларнинг жорий этилиши рўй бермоқда. Бу

масаланинг ижобий жиҳатлари билан бирга салбий ҳолатларга ҳам дуч келмоқдамиз. Чунки турли фрибгарлар ҳам пайдо бўлмоқда. Бундай шароитда антифрод усулининг қўлланилиши фрибгарликни олдиндан аниқлаш имконини беради. Бу эса инсон омилига боғлиқ хатоларни камайтириш имкониятини ҳам яратади. Антифрод усулининг амалиётга жорий қилиниши мазкур мавзусининг ўта муҳимлигидан далолат беришининг сабабларидан бири унинг рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши, молиявий хавф-хатарларнинг ортиши, иқтисодий ва ҳуқуқий хавфсизликни таъминлаш, коррупцияга қарши самарали кураш кабилар билан бевосита боғлиқдир.

Энди **антифрод** сўзининг мазмунига тўхталадиган бўлсак, бу инглизча *anti-fraud* сўзидан олинган бўлиб, алдамчилик, яъни ҳозирги пайтда томир олаётган фрибгарликнинг олдини олиш, аниқлаш ва унга қарши курашишга қаратилган чора-тадбирлар мажмуасини англатади.

Антифрод мазмунига қисқача эътибор қаратадиган бўлсак, бу фрибгарликка қарши сиёсатлар, техник тизимлар, назорат механизмлари, ва ҳуқуқий-ташкилий чоралар орқали молиявий, рақамли ёки ташкилий алдамчиликларни бартараф этиш масалаларига қаратилганлиги билан аҳамиятлидир.

Бугунги кунда антифрод банк ва молия соҳасида, карта орқали ноқонуний тўловларни аниқлашда, кредит фрибгарлигини ташхис қўйиш каби халтис ҳаракатларнинг олдини олишда қўлланилади. Худди шундай онлайн тижорат ва рақамли платформаларда, сохта аккаунтларда, қалбаки буюртмаларда, тўловдаги алдамчиликларнинг олдини олишда ҳам қўлланилмоқда. Худди шундай, давлат бошқаруви ва корпоратив соҳада, айниқса коррупция, бюджет маблағларини ўзлаштириш, манфаатлар тўқнашувида ҳам ушбу усулнинг аралашуви бор.

Антифрод тизимларининг асосий вазифалари хавфли операциаларни ўз вақтда аниқлаш, шубҳали ҳаракатларни таҳлил қилиш орқали молиявий йўқотишларни камайтиришга эришилишини таъминлашга қаратилган. Бу эса ўз навбатида, шаффофлик ва банк хизматлари истеъмолчиларининг ишончни оширишга эришиш имкониятини яратади. Бунга бир оддий мисолни келтирамиз. Агар банк картангиздан сиз қилмаган тўлов амалга оширилса ва банк уни дарҳол тўхтатса, демак бу банкда антифрод тизими ишлаганлигидан далолат беради.

Шуни қайд этиш жоизки, антифроддан фойдаланишнинг турли жиҳатлари ҳам мавжуд. Жумладан, унинг иқтисодий, ҳуқуқий жиҳатлари мавжуд. Бироқ ушбу масалаларга замонавий рақамли технологиялар нуқтаи назаридан қараладиган бўлса масала янада ойдинлашади. Шу туфайли қуйида антифродни иқтисодий, ҳуқуқий ва рақамли технологиялар нуқтаи назаридан батафсилроқ тушунтириб беришга ҳаракат қиламиз.

**Антифроднинг иқтисодий мазмуни** бевосита молиявий йўқотишларни камайтириш ва иқтисодий барқарорликни сақлаш воситаси сифатида намоён бўлишини инобатга олиш лозимлиги билан ифодаланади.

Иқтисодий жиҳатдан антифроднинг асосий мақсадлари энг аввало фирибгарлик сабабли юзага келадиган моддий зарарларни олдини олишга қаратилган бўлади. Бунинг учун банклар, компаниялар ва давлат бюджетига бўлган ишончни мустаҳкамлаш, хавфсиз инвестицион муҳитни яратиш, яширин иқтисодиёт ва ноқонуний даромадларни чеклаш ишлари амалга оширилади. Бунга мисол тариқасида шуни таъкидлаш жоизки антифроднинг қўлланилиши билан давлат харидларида сохта тендерлар тўхтатилиб, уларнинг сахталигини ошқор қилса, энг аввало бюджет маблағлари тежаллади, субъектлар ўртасида рақобат кучаяди, иқтисод самарадорлиги юксалади. Шу йўл билан қуфёна иқтисодиётга ҳам барҳам берилади.

Энди **антифродга ҳуқуқий нуқтаи назардан** қарайдиган бўлсак, бунда қонунбузарликларни аниқлаш ва жавобгарликни таъминлаш механизми шу йўл билан амалга оширилганлигини кўришмумкин. Чунки бунга барча ҳуқуқий асослар мавжуд ва амалда. Жумладан, фирибгарликка қарши қонунлар ва меъёрий ҳужжатлар амалда бўлганлиги учун булар учун жиноий, маъмурий ва молиявий жавобгарлик чораларини кўриш кўзда тутилган ва бу ҳаракатда. Буни амалга оширишда назорат ва текширув органлари фаолияти ҳам йўлга қўйилган.

Ҳуқуқий соҳада антифрод юқоридагилар билан бирга коррупцияга қарши кураш, пул ювишнинг олдини олиш, мансаб ваколатини суистеъмол қилиш каби иллатларни чеклаш имкониятини ҳам яратади. Мисол учун бирорта шахс ёки ташкилот сохта ҳужжатлар билан кредит олса, ушбу ҳолат жиноий фирибгарлик ҳисобланади ва антифрод тизими орқали аниқланиб, қонунан жавобгарликка тортилади. Демак ушбу усул банклар фаолиятида қонунбузарликларнинг ҳам олдини олишда муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

Антифроднинг янги йўналиши бўлган **рақамли технологиялар** асосидаги мазмунига эътиборни қаратадиган бўлсак, рақамли антифрод сунъий интеллект орқали, алгоритм ва маълумотлар таҳлилига таянган автоматлаштирилган ҳимоя тизимини яратади. Бунда бир қанча технологиялар қўлланилади. Буларга Big Data, яъни катта ҳажмдаги маълумотларни таҳлил қилиш учун қўлланилса, Сунъий интеллект (AI) шубҳали ҳаракатларни ўрганиш ва башорат қилишда фойдаланилади. Machine Learning ҳам фирибгарлик намунасини автоматик аниқлашда ишлатилади. Real-time monitoring эса оператсияларни дарҳол назорат қилиш имкониятларини таъминлайди. Бордию одатдагидан фарқли жойда тўлов қилинса, жуда қисқа вақтда кўп оператсия амалга оширилса, тизим оператсияни тўхтатади ёки қўшимча тасдиқ сўрайди. Бу эса мазкур соҳада хуфёна иқтисодиётнинг олдини олиш имкониятини яратади.

Хулоса қилиб айтганда, антифрод иқтисодий хавфсизликни таъминлаш билан бирга, ҳуқуқий адолатни ҳам йўлга қўяди. Шу тариқа рақамли ишончни таъминловчи комплекс тизим шаклланади. Ўзбекистон шароитида антифрод амалиёти, энди жорий қилиниб бошланди. Бу бўйича дастлабки қадамлар банк тизимларига қўйилган. Бу ушбу соҳада антифрод

ва коррупцияга қарши курашиш учун ҳам бевосита иш кўради. Демак ушбу соҳада антифроднинг қўлланилиши, “Ўзбекистон - 2030” стратегиясида кўзда тутилган қуфёна иқтисодийни бартараф қилиш бўйича белгиланган вазифаларнинг бажарилишига хизмат қилади.

*A.N.Xoliqulov – SamISI “Iqtisodiy tahlil va statistika” kafedrasini mudiri, i.f.n., professor*

## **RAQOBATNING MOHIYATI, SHAKLLARI VA USULLARI TO‘G‘RISIDA TUSHUNCHA**

**Annotatsiya:** *makolada raqobat to‘g‘risida tushuncha, raqobat ishtirokchilarining asosiy maqsadlari raqobatning quyidagi asosiy vazifalari, raqobatning shakllarining tasnifi keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *raqobat, bozor, resurs, erkin raqobat, monopoliya, oligopoliya, iste‘molchi, xaridor.*

**Аннотация:** *в статье представлены концепция конкуренции, основные цели участников конкуренции, следующие основные задачи конкуренции и классификация форм конкуренции.*

**Ключевые слова:** *конкуренция, рынок, ресурс, свободная конкуренция, монополия, олигополия, потребитель, покупатель.*

**Abstract:** *the article presents the concept of competition, the main goals of competition participants, the following main tasks of competition, and a classification of forms of competition.*

**Keywords:** *competition, market, resource, free competition, monopoly, oligopoly, consumer, buyer.*


Raqobat ko‘p qirrali iqtisodiy hodisa bo‘lib, u bozorning barcha sub‘ektlari o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi. Raqobat – bozor sub‘ektlari iqtisodiy manfaatlarining to‘qnashuvidan iborat bo‘lib, ular o‘rtasidagi yuqori foyda va ko‘proq naflilikka ega bo‘lish uchun kurashni anglatadi. Resurslarni yetkazib beruvchilar o‘zlarining iqtisodiy resurslarini (kapital, tabiiy resurslar, ishchi kuchi) yuqori narxlarda sotish uchun raqobatlashadilar. Raqobat iste‘molchilar o‘rtasida ham yuz beradi: ular tovarlarni qulay va arzon narxlarda sotib olishga harakat qiladilar, ya‘ni xaridorlar har bir sarflangan pul birligi yevaziga ko‘proq naflilikka yega bo‘lishga harakat qiladilar. Bu munosabatlarni qiymatning mehnat va naflilik nazariyalarini sintez qilish usulini davom ettirgan holda quyidagi ko‘rinishda ifodalash mumkin (1-chizma).

Raqobatning mazmuni uning vazifalarini ko‘rib chiqish orqali yanada kengroq namoyon bo‘ladi.

Hozirgi bozor iqtisodiyotida raqobatning quyidagi asosiy vazifalarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- 1) tartibga solish vazifasi;
- 2) resurslarni joylashtirish vazifasi;

- 3) innovatsion vazifa;
- 4) moslashtirish vazifasi;
- 5) taqsimlash vazifasi;
- 6) nazorat qilish vazifasi.



### 1-chizma. Raqobat ishtirokchilarining asosiy maqsadlari.

Raqobatning tartibga solish vazifasi ishlab chiqarishni talab (iste'mol)ga muvofiqlashtirish maqsadida taklifga ta'sir o'tkazishdan iborat. Aynan shu vazifa yordamida iqtisodiyotda taklifning talab orqali, ishlab chiqarish tarkibi va hajmining yakka tartibdagi va ijtimoiy ehtiyojlar orqali belgilanishiga erishiladi, ya'ni iqtisodiyot bozor qonunlari asosida tartibga solinadi.

Raqobatning resurslarni joylashtirish vazifasi ishlab chiqarish omillarini ular eng ko'p samara beradigan korxonaga, hudud va mintaqalarga oqilona joylashtirish imkonini beradi.

Raqobatning innovatsion vazifasi fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslanuvchi hamda bozor iqtisodiyoti sub'ektlarining rivojlanishini taqozo etuvchi turli ko'rinishdagi yangiliklarning joriy etilishini anglatadi.

Raqobatning moslashtirish vazifasi korxonaga (firma)larning ichki va tashqi muhit sharoitlariga ratsional tarzda moslashishiga yo'naltirilgan bo'lib, ularning shunchaki o'zini-o'zi saqlab, iqtisodiy jihatdan yashab qolishidan xo'jalik faoliyati sohalarining kengayishiga o'tishini bildiradi.

Raqobatning taqsimlash vazifasi ishlab chiqarilgan ne'matlar yalpi hajmi (yalpi ichki mahsulot)ning iste'molchilar o'rtasida taqsimlanishiga bevosita va bilvosita ta'sir o'tkazadi.

Nihoyat, raqobatning nazorat qilish vazifasi bozordagi ba'zi ishtirokchilarning boshqa bir ishtirokchilar ustidan monopolistik hukmronlik o'rnatishiga yo'l qo'ymaslikka yo'naltiriladi.

Raqobat kurashining mazmuni to'g'risida to'laroq tushunchaga ega bo'lish uchun uning asosiy shakllari va belgilarini ko'rib chiqish zarur.

Iqtisodiy adabiyotlarda bir tarmoq ichidagi raqobatning to'rtta shakli alohida ajratilib ko'rsatiladi. Bular erkin raqobat, monopolistik raqobat, monopoliya va oligopoliyadir.

Erkin raqobat sharoitida bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqda juda ko‘p sonli korxonalar mavjud bo‘ladi. Yuqori darajada tashkil qilingan bozorda ko‘plab sotuvchilar o‘zlarining mahsulotlarini taklif qiladilar.

Erkin raqobatli bozorda alohida korxonalar mahsulot narxi ustidan sezilarsiz nazoratni amalga oshiradi. Chunki har bir korxonada umumiy ishlab chiqarish hajmi uncha katta bo‘lmaydi. Shu sababli alohida korxonada ishlab chiqarishning ko‘payishi yoki kamayishi umumiy taklifga, demak mahsulot narxiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmaydi.

Erkin raqobat sharoitida yangi korxonalar tarmoqqa erkin kirishi, tarmoqda mavjud bo‘lgan korxonalar esa uni erkin tashlab chiqishi mumkin. Xususan yangi korxonalarning paydo bo‘lishi va ularning raqobatli bozorda mahsulotlarini sotishga huquqiy, texnologik, moliyaviy va boshqa jiddiy iqtisodiy to‘siqlar bo‘lmaydi.

Sof monopoliyada tarmoq bitta firmadan iborat bo‘lishi sababli, u mavjud mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va yakkahukmronlik shakllanadi.

Monopoliya sharoitida firma narx ustidan sezilarli nazoratni amalga oshiradi. Buning sababi oddiy. U mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va demak, taklifning umumiy hajmi ustidan nazorat qiladi.

Monopolistik raqobat o‘z ichiga ham monopoliya, ham raqobat unsurlarini oladi. Bunda tarmoqdagi bir turdagi mahsulotning o‘nlab ishlab chiqaruvchilari bir-birlari bilan qulay narx hamda ishlab chiqarish hajmiga erishish borasida raqobatlashadilar. Biroq, ayni paytda, har bir ishlab chiqaruvchi o‘z mahsulotini tabaqalashtirish, ya‘ni shu turdagi boshqa mahsulotlardan qaysi bir jihati (sifat darajasi, shakli, qadoqlanishi, sotish sharoitlari va h.k.) bo‘yicha farqlantirish orqali uning monopol ishlab chiqaruvchisiga aylanadi.

Oligopoliya – tarmoqda u qadar ko‘p bo‘lmagan korxonalarning mavjud bo‘lishi va hukmronlik qilishidir. Bu oligopoliyaning eng muhim belgisidir. Qaysi tovarlar va xizmatlar bozorida nisbatan kam sonli ishlab chiqaruvchilar hukmronlik qilsa, shu tarmoq oligopolistik tarmoq hisoblanadi.

Oligopolistik tarmoq bir xil yoki tabaqalashgan mahsulot ishlab chiqarishi mumkin. Ko‘pchilik sanoat mahsulotlari: po‘lat, mis, aluminiy, qo‘rg‘oshin, temir va shu kabilari – fizik ma‘noda bir turdagi mahsulotlar hisoblanadi va oligopoliya sharoitida ishlab chiqariladi. Iste‘molchilik tovarlari: avtomobillar, yuvish vositalari, sigaretlar, maishiy elektr buyumlari va shu kabilarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlar tabaqalashgan oligopoliya hisoblanadi.

Oligopoliya sharoitida korxonalar o‘rtasidagi raqobat o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Oligopolistik tarmoqda hech qaysi firma o‘zining narx siyosatini mustaqil o‘zgartirishga botina olmaydi.

Biz qarab chiqqan raqobatning to‘rtta shaklining har biri milliy iqtisodiyotda alohida-alohida, ya‘ni sof holda uchramaydi. Iqtisodiyot sohalarini batafsil o‘rganish, cheksiz ko‘p har xil raqobatli vaziyatlar mavjudligi sharoitida, ikkita bir xil tarmoqni topish qiyinligini ko‘rsatadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida. –Toshkent. 12.09.2023 yil.
2. Sh.M. Mirziyoev. Tanqidiy taxlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. - Toshkent: O‘zbekiston, 2022. -104 b.
3. Pardaev M.Q., Xoliqulov A.N., Yahyoyev T.I. Iqtisodiy tahlil. Darslik, Samarqand.: Fan bulog‘i nashriyoti uyi, 2024, 410 bet bet. T.: “Innovatsion rivoj-lanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021. – 252 bet.
4. Xoliqulov A.N. Birlashish va qo‘shib olish. O‘quv qo‘llanma Samarqand.: Fan bulog‘i nashriyoti uyi, 2022, 216 bet
5. Xoliqulov A.N., Maxmudova D.P. Iqtisodiyotni strategik rivojlantirish sharoitida kichik biznesni boshqarishni takomillashtirish. Monogpafiya. Samapqand, SamDCHTI nashr-matbaa markazi, 2020-yil – 126 bet
6. Xoliqulov A.N. Xizmat ko‘rsatish korxonolari samaradorligini tahlil qilishning metodologiyasini takomillashtirish yo‘nalishlari. Monografiya. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ. Nashriyoti, 2023 - 276 bet
7. Xoliqulov A.N. Iste‘mol bozorida monopoliyaga qarshi boshqaruv tizimini takomillashtirish mexanizmlari. Monografiya. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ. Nashriyoti, 2023 - 190 bet
8. Xoliqulov A.N., Usmanova D.Q., Raximov X.A. Korxonalar raqobatbardoshligini baholash. O‘quv qo‘llanma. Samarqand, Turonnashr nashriyoti, 2021 y. – 210 bet.

***O‘roqov Firdavs Ortiqniyoz o‘g‘li – SamISI “Iqtisodiy tahlil va statistika” kafedrasida katta o‘qituvchisi, E-mail: [firdavs26031995@gmail.com](mailto:firdavs26031995@gmail.com)***

## XIZMATLAR SOHASI TARKIBIDA TIBBIY XIZMATLARNING TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI

***Annotatsiya:*** Mazkur ilmiy maqolada xizmatlar sohasi tarkibida tibbiy xizmatlarning tutgan o‘rni, ularning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagi ulushi hamda sog‘liqni saqlash tizimining ushbu sohadagi strategik roli yoritilgan. Tibbiy xizmatlarning aholining sog‘lig‘ini mustahkamlash, mehnat resurslari sifatini oshirish va inson kapitalini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, sog‘liqni saqlash xizmatlarining rivojlanishi orqali jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, aholining turmush sifatini yaxshilash va iqtisodiy o‘sishga erishish imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tilgan.

***Kalit so‘zlar:*** xizmatlar sohasi, tibbiy xizmatlar, sog‘liqni saqlash tizimi, inson kapitali, ijtimoiy rivojlanish, iqtisodiy o‘sish, xizmatlar bozori, tibbiy xizmatlar sifati, davlat va xususiy sektor hamkorligi, zamonaviy tibbiyot texnologiyalari.

***Аннотация:*** В данной научной статье анализируется роль медицинских услуг в структуре сферы услуг, их экономическое и социальное значение. В процессе исследования освещается доля сферы услуг в национальной экономике и стратегическая роль системы здравоохранения в этой сфере. Обосновано значение медицинских услуг в

укреплении здоровья населения, повышении качества трудовых ресурсов и развитии человеческого капитала. Также показаны возможности обеспечения социальной стабильности в обществе, улучшения качества жизни населения и достижения экономического роста за счет развития медицинских услуг.

**Ключевые слова:** сфера услуг, медицинские услуги, система здравоохранения, человеческий капитал, социальное развитие, экономический рост, рынок услуг, качество медицинских услуг, сотрудничество государственного и частного секторов, современные медицинские технологии.

**Abstract:** This scientific article analyzes the role of medical services within the service sector and their economic and social significance. In the research process, the share of the service sector in the national economy and the strategic role of the healthcare system in this area are highlighted. The importance of medical services in strengthening public health, improving the quality of labor resources, and developing human capital is substantiated. The possibilities of ensuring social stability in society, improving the quality of life of the population, and achieving economic growth through the development of healthcare services are also shown.

**Keywords:** service sector, medical services, healthcare system, human capital, social development, economic growth, service market, quality of medical services, public-private partnership, modern medical technologies.

### **Kirish.**

So‘nggi o‘n yilliklarda xizmatlar sohasi jahon va milliy iqtisodiyotlarda muhim tarmoqlardan biriga aylangan. Rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot (YIM) tarkibida xizmatlar ulushi 60-70%ni tashkil etsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ham bu ko‘rsatkich sezilarli darajada ortib bormoqda. Shu bilan birga, xizmatlar sohasi turli ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish, aholining hayot sifatini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Xizmatlar sohasi tarkibida tibbiy xizmatlar alohida o‘rin egallaydi. Sog‘liqni saqlash tizimi orqali ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar aholining sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish, umr davomiyligini uzaytirish hamda mehnat resurslarining unumdorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, tibbiy xizmatlar ijtimoiy ahamiyat bilan birga iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlovchi strategik omil sifatida qaraladi.

Mamlakatlar iqtisodiyotining samarali ishlashi uchun sog‘lom aholi – asosiy resurs hisoblanadi. Tibbiy xizmatlar nafaqat kasalliklarni davolash, balki profilaktika, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va aholining hayot sifatini yaxshilash orqali inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy o‘shishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, so‘nggi yillarda tibbiy xizmatlar bozorida raqamli texnologiyalar, telemeditsina, elektron sog‘liqni saqlash tizimlari keng joriy etilmoqda. Bu tendensiyalar tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, ularni aholining turli qatlamlariga yetkazish imkoniyatlarini kengaytirish va xizmatlar samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

### **Asosiy qism.**

Xizmatlar sohasi iqtisodiy tizimning mustaqil tarmog‘i sifatida qaraladi. U moddiy mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan, lekin jamiyat ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi faoliyatlarni o‘z ichiga oladi. Nazariy jihatdan xizmatlar sohasi ikki asosiy turga bo‘linadi:

1. Shaxsiy xizmatlar – aholining individual ehtiyojlarini qondiradi (tibbiy xizmatlar, ta‘lim, turizm, turmushga oid xizmatlar).

2. Iqtisodiy xizmatlar – ishlab chiqarish va ijtimoiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan xizmatlar (transport, moliya, sug‘urta, aloqa).

Tibbiy xizmatlar shaxsiy xizmatlar qatorida aholi salomatligini saqlash va umr davomiyligini oshirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, jamiyat va iqtisodiyot uchun strategik ahamiyatga ega. Ularning o‘rni, shuningdek, inson kapitalini shakllantirish va mehnat resurslarining samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy o‘sish bilan bog‘liq.

Tibbiy xizmatlar jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va aholining hayot sifatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Nazariy tahlil shuni ko‘rsatadiki:

✓ Kasalliklarning oldini olish va davolash – profilaktik xizmatlar va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish orqali aholining sog‘lig‘i yaxshilanadi. Bu ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlaydi.

✓ Umr davomiyligini oshirish – zamonaviy tibbiy xizmatlar kasalliklarni erta aniqlash va davolash imkonini beradi, natijada umumiy umr davomiyligi ortadi.

✓ Ijtimoiy tenglik – davlat tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar aholining turli qatlamlariga bir xil imkoniyat yaratadi, bu esa ijtimoiy barqarorlikni oshiradi.

Nazariy yondashuvda, sog‘lom aholi – jamiyatning mehnat, bilim va kreativ resurslarini optimal ishlatishga imkon beruvchi asosiy faktor hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, tibbiy xizmatlarning ijtimoiy roli nafaqat individual salomatlik, balki umumiy jamiyat rivojlanishi bilan bog‘liq.

Tibbiy xizmatlar iqtisodiyotning samarali ishlashida muhim nazariy asosga ega. Ular quyidagi yo‘nalishlarda iqtisodiy ta‘sir ko‘rsatadi:

1. Mehnat unumdorligini oshirish – sog‘lom ishchi kuchi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshiradi.

2. Inson kapitalini rivojlantirish – tibbiy xizmatlar yoshlarni sog‘lom saqlash, ishlash qobiliyatini oshirish va uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi.

3. Iqtisodiy yo‘qotishlarni kamaytirish – kasalliklar tufayli ishchi kuchining yo‘qotilishi va tibbiy xarajatlarning ortishi kamayadi.

4. Tibbiy xizmatlar bozori orqali iqtisodiy faollik – ish o‘rinlari yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va sog‘liqni saqlash tizimining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash imkonini beradi.

Nazariy jihatdan, tibbiy xizmatlarning samaradorligini oshirish iqtisodiy o‘sish va jamiyat farovonligi uchun zarur shart hisoblanadi.

Tibbiy xizmatlar bozori iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlar o‘rtasidagi muvozanatni ifodalaydi. Nazariy jihatdan, bozor quyidagi komponentlardan iborat:

➤ Davlat sektori – aholining barcha qatlamlari uchun tibbiy xizmatlarni ta‘minlash, ijtimoiy himoyani ta‘minlash va sog‘liqni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

➤ Xususiy sektor – xizmat sifatini oshirish, raqobatni rivojlantirish va qo‘shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish orqali tizimni samarali qiladi.

➤ Bozor mexanizmlari – narxlar, talab va taklif muvozanati orqali resurslarni taqsimlash va xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Nazariy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, samarali bozor tizimi aholining turli ehtiyojlarini qondirish va tibbiy xizmatlarni keng qamrovli yetkazish imkonini beradi.

Kompleks tahlil asosida tibbiy xizmatlarni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari aniqlandi:

1. Investitsiyalarni oshirish – davlat va xususiy sektorning moliyaviy resurslarini kengaytirish orqali xizmatlar sifatini yaxshilash.

2. Raqamli sog‘liqni saqlash texnologiyalari – telemeditsina, elektron sog‘liqni saqlash tizimi va diagnostika vositalarini joriy etish.

3. Malakali kadrlar tayyorlash – tibbiy xodimlarning malakasini oshirish va yangi texnologiyalarni qo‘llash qobiliyatini rivojlantirish.

4. Hududiy tenglikni ta‘minlash – tibbiy xizmatlarni shahar va qishloq hududlarida teng darajada yetkazish.

5. Profilaktika va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish – kasalliklarning oldini olish va aholi salomatligini oshirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar.

Ushbu yo‘nalishlar tibbiy xizmatlar tizimining samaradorligini oshiradi va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

### **Xulosa.**

Xizmatlar sohasi tarkibida tibbiy xizmatlar iqtisodiyot va jamiyatning strategik tarmog‘i sifatida qaraladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tibbiy xizmatlar nafaqat aholining kasalliklarini davolash va sog‘lom turmush tarzini ta‘minlash bilan bog‘liq, balki mehnat resurslarining samaradorligini oshirish, inson kapitalini shakllantirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash kabi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ham bevosita ta‘sir qiladi.

Tibbiy xizmatlarning iqtisodiy ahamiyati shundaki, ular mehnat unumdorligini oshirish, kasalliklar tufayli yo‘qotilgan ish vaqtini kamaytirish, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tibbiy xizmatlar bozori davlat va xususiy sektorning o‘zaro ta‘siri natijasida shakllanadi va samarali ishlash uchun resurslar taqsimoti, xizmat sifati va aholining qamrovini nazariy jihatdan optimallashtirishga bog‘liq.

Shunday qilib, xizmatlar sohasi tarkibida tibbiy xizmatlar iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan uzviy bog‘langan tizim bo‘lib, mamlakatning uzoq muddatli

rivojlanishi va aholi farovonligi uchun nazariy jihatdan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev J.D. Tibbiy xizmat tushunchasi, turlari va ahamiyati // Journal WEB. - 2025. - №?. - B. ?. - (ilmiy-metodik jurnal). - URL: <https://journal-web.uz/index.php/07/article/view/1497> (ko‘rilgan: 05.02.2026).
2. Axmedov Z. O‘zbekistonda tibbiy xizmatlarning rivojlanish tendensiyalari, tarkibiy tuzilish tasnifi va marketing segmentlari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. - 2025. - Vol. 3, № 3. - DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15091577>.
3. Dushanova D.A. Economic and Legal Basis for the Development of the Market of Medical Services in Uzbekistan // Academic Journal of Digital Economics and Stability. - 2021. - Vol. 7. - P. 152–156. - DOI: <https://doi.org/10.51699/ajdes.v7i.133>.
4. Xakimov Z.I., Avazova M.A. Tibbiy xizmatlar bozorini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati // TADQIQOTLAR jahon ilmiy-metodik jurnali. - 2024. - Vol. 39, № 1. - P. 188–193. - URL: <https://tadqiqotlar.uz/new/article/view/3503> (ko‘rilgan: 05.02.2026).
5. “O‘zbekiston respublikasi ijtimoiy himoya to‘g‘risidagi statistik ko‘rsatkichlar” (2025) *TALIM TARAQQIYOTI*, 1(2), pp. 68–74. Available at: [https://ibratprint.uz/index.php/journal\\_talim\\_taraqqiyoti/article/view/98](https://ibratprint.uz/index.php/journal_talim_taraqqiyoti/article/view/98) (Access ed: 5 February 2026).

*Shakhzoda Shukhratovna Mirzakhadjayeva* – Assistant, Department of “Real Economy”, Samarkand institute of economics and service, [Shaxzodamirzaxadjayeva98@gmail.com](mailto:Shaxzodamirzaxadjayeva98@gmail.com)

## THEORETICAL INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF POPULATION WELL-BEING AND MODERN APPROACHES

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada aholi farovonligi tushunchasining nazariy asoslari va uning iqtisodiyot fanidagi shakllanish bosqichlari tizimli tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida klassik va neoklassik iqtisodiy nazariyalarda, shuningdek, institutsional va ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlarda farovonlik tushunchasiga berilgan talqinlar qiyosiy jihatdan ko‘rib chiqiladi. Maqolada aholi farovonligini faqat daromad va iste‘mol darajalari orqali baholash yetarli emasligi, balki hayot sifati, ijtimoiy barqarorlik va subyektiv qoniqish ko‘rsatkichlarini ham hisobga olish zarurligi asoslab beriladi. Zamonaviy yondashuvlar doirasida aholi farovonligini o‘lchashda kompleks va integral (kompozit) ko‘rsatkichlardan foydalanish imkoniyatlari yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari aholi farovonligi tushunchasini yanada chuqurroq anglashga hamda uni baholashning metodologik asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** aholi farovonligi, nazariy talqin, zamonaviy yondashuvlar, hayot sifati, ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar, kompleks baholash.

**Аннотация:** В статье представлен системный анализ теоретических основ понятия благосостояния населения и этапов его формирования в экономической науке. В ходе исследования в сравнительном аспекте рассмотрены трактовки благосостояния в

рамках классических и неоклассических экономических теорий, а также институциональных и социально-экономических подходов. В статье обосновывается необходимость оценки благосостояния населения не только на основе уровня доходов и потребления, но и с учётом показателей качества жизни, социальной стабильности и субъективной удовлетворённости. В рамках современных подходов освещаются возможности использования комплексных и интегральных (композиционных) показателей для измерения благосостояния населения. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию сущности благосостояния населения и совершенствованию методологических основ его оценки.

**Ключевые слова:** благосостояние населения, теоретическая интерпретация, современные подходы, качество жизни, социально-экономические показатели, комплексная оценка.

**Abstract:** This article provides a systematic analysis of the theoretical foundations of the concept of population well-being and its formation stages in the field of economics. During the study, interpretations of well-being in classical and neoclassical economic theories, as well as institutional and socio-economic approaches, are comparatively examined. The article substantiates the necessity of assessing population well-being not only through income and consumption levels but also by considering quality of life, social stability, and subjective satisfaction indicators. Within the framework of modern approaches, the possibilities of using complex and composite indicators to measure population well-being are highlighted. The results of the study contribute to a deeper understanding of the concept of population well-being and to the improvement of its methodological foundations for assessment.

**Keywords:** population well-being, theoretical interpretation, modern approaches, quality of life, socio-economic indicators, composite assessment.

## INTRODUCTION.

Uzbekistan’s natural climate provides favorable conditions for economic activities and plays a crucial role in the country’s sustainable development and in improving population well-being. For instance, the share of young people in the population enriches labor resources, while agriculture ensures food security. In addition, the development of industry and the expansion of the service sector play a significant role in diversifying the economy. Uzbekistan’s new development strategy is aimed at further enhancing population well-being, and the ongoing reforms in this direction contribute to strengthening the country’s economic potential.

Currently, large-scale reforms—such as creating new jobs, developing small businesses and entrepreneurship, modernizing rural infrastructure, training youth in modern professions, and providing women with high-income employment—directly contribute to increasing population well-being. From this perspective, improving well-being is achieved not only through economic development, social reforms, and the enhancement of service systems, but also by improving the quality of human life. Thus, the level of well-being is a multifaceted concept, and its enhancement is considered one of the strategic goals of societal development.

Population well-being is a complex socio-economic concept that reflects various aspects of people’s life activities and indicates the extent to which their vital needs are being met. The level of well-being is expressed through the

amount of income and the volume and quality of goods and services consumed from this income. At the same time, categories such as living conditions, standard of living, lifestyle, and quality of life are used to represent population well-being. While these terms are closely related, they differ significantly in meaning. From the perspective of our scientific research, among these terms, the concept of the level of population well-being holds particular significance.

### **LITERATURE REVIEW.**

According to S. Sarjiyanto, P. Sarwoto, and others, “Societal development and population well-being are intrinsically interconnected and cannot be separated. This is because societal progress is often achieved through collaboration-based approaches that serve to enhance human well-being. Such approaches are crucial for attaining well-being, as they empower and enable the population to make decisions that can influence their own lives. This process strengthens the sense of ownership over final outcomes, allowing local needs to be accurately identified and effectively addressed. Additionally, collaboration-based methods foster collective cooperation and create a social space to counter initiatives that do not align with societal interests.”

A.K. Sen’s capability framework, as well as theories of human needs and adaptation, have been employed to better understand the concept of well-being. Sen’s capability approach, in particular, emphasizes an individual’s abilities and agency in achieving states of well-being. A.I. Tatarin notes that “the concept of ‘population well-being,’ due to its complex and multifaceted structure, serves as a contemporary key factor ensuring sustainable development and should be placed at the forefront of new regional policies.” This perspective is supported by S.Yu. Glazyev and V.V. Lokosov, who state that “it is impossible to achieve sustainable development without increasing the level of population well-being.”

The concept of “well-being” has historically encompassed various characteristics, and its formation is closely linked to the increasing needs of individuals and the necessity of satisfying them. Different approaches to defining this concept have played an important role in forming principles for classifying goods and have created new foundations for economic analysis. Population well-being is a multifaceted concept that incorporates the principles of a human-centered economic approach, sustainable economic, social, and environmental development, as well as the advantages of institutional approaches. This concept allows for a comprehensive assessment of living standards and quality of life and facilitates the analysis of population well-being based on both economic and non-economic factors.

Based on the definitions presented above and the findings of conducted theoretical research, the level of population well-being can be defined as a comprehensive indicator encompassing the capacity of society members to access and utilize economic, social, and spiritual resources, the degree to which their material and non-material needs—determinants of life quality—are fulfilled, and their ability to ensure sustainable living conditions for future generations.

## **METHODOLOGY.**

A comprehensive methodological approach was applied in the study of population well-being. This approach encompasses theoretical analysis, examination of statistical data, and the use of contemporary indicators. A key aspect of the methodology is the ability to assess the relationship between population well-being and quality of life through integrated indicators. In this process, the level of utilization of material and non-material resources, social and spiritual development, as well as environmental conditions, are all taken into account.

Sustainable growth in population incomes, expansion of the consumer market, and the prioritization of social justice principles in society increase citizens' satisfaction with life. These factors are reflected in key indicators related to quality of life. For instance, an increase in per capita gross domestic product, prolongation of average life expectancy, alignment of incomes with individual needs, family stability, growth in investments and savings, expansion of opportunities to consume material goods, and a decrease in levels of corruption manifest as important criteria of well-being.

## **DISCUSSION AND RESULTS.**

Ensuring a high level of population well-being requires the harmonious development of multiple factors. This process is not limited solely to the growth of economic indicators but is closely linked to the development of human capital, the stability of the social environment, and improvements in the quality of services. In particular, the enhancement of population knowledge and professional skills, economic activity, and entrepreneurial capacity plays a decisive role in increasing well-being. At the same time, the expansion of opportunities for quality education and access to modern medical services, as well as reforms in housing and communal services, improve daily living conditions and strengthen confidence in the future.

Furthermore, sustainable growth of population incomes, expansion of the consumer market, and the prioritization of social justice principles in society enhance citizens' satisfaction with life. These factors are reflected in key indicators related to quality of life. For example, an increase in per capita gross domestic product, prolongation of average life expectancy, alignment of incomes with individual needs, family stability, growth in investments and savings, expanded opportunities to consume material goods, and a reduction in corruption levels manifest as important criteria of well-being.

## **CONCLUSIONS AND RECOMMENDATIONS.**

The study demonstrates that population well-being is a complex and multidimensional socio-economic concept that cannot be fully assessed using only income-based or financial indicators. The analysis confirms that well-being encompasses a broad range of factors, including quality of life, health status, living conditions, social stability, access to education and healthcare, as well as subjective life satisfaction.

Theoretical approaches reviewed in the article show that while classical and neoclassical economic theories primarily explain well-being through economic efficiency and resource allocation, modern institutional and socio-economic approaches emphasize the importance of human-centered development and the inclusion of social and subjective indicators. This highlights the necessity of applying comprehensive and integrated assessment frameworks when evaluating population well-being.

Based on the research findings, it is recommended to adopt a multidimensional approach to measuring population well-being that integrates economic, social, environmental, and subjective indicators. The development and application of composite indices can provide a more accurate and reliable representation of actual living conditions and social dynamics.

Furthermore, the study emphasizes the need to prioritize human capital development as a key factor in improving well-being. Enhancing the quality and accessibility of education, expanding professional training opportunities, and supporting entrepreneurship contribute significantly to sustainable income growth and improved life satisfaction.

Strengthening institutional effectiveness and ensuring social justice are also identified as essential components of well-being enhancement. Transparent governance, reduction of corruption, and equal access to public services increase public trust and positively influence subjective perceptions of well-being.

In conclusion, the integration of economic growth policies with social development strategies and institutional reforms is crucial for achieving sustainable improvements in population well-being. The findings of this study provide a theoretical and methodological foundation for future empirical research and can serve as a practical guide for policymakers in designing and implementing socio-economic strategies aimed at improving quality of life.

#### REFERENCES:

1. Mirzaxhalilova, D. M., & Vasser, P. N. (2023). *Self-employment as a means of ensuring the well-being of the population in Uzbekistan*. Издания, 43–46.
2. Safarov, O. A. (2023). *Ways to increase the income and well-being of the population of Uzbekistan*. Scientific Aspects and Trends in the Field of Scientific Research, Vol. 1, No. 8.
3. Shomurodov, T. B. (2025). *Improving the methodology for assessing the impact of population income on food security in Uzbekistan*. Labor Economics and Human Capital Journal.
4. *Regional Trends and Social Factors of Longevity in Uzbekistan* (2025). American Journal of Social Sciences and Humanity Research.
5. Obilov, M. (2024). *Aholi moliyaviy savodxonligi darajasini baholashning uslubiy asoslari*. Ilg‘or Iqtisodiyot va Pedagogik Texnologiyalar.
6. *Improving the system of national indicators of population well-being assessment in Uzbekistan* (2025). International Journal of Artificial Intelligence, 05(07).

7. Kayumov, K. (2024). *Social aspects of the demographic situation in Uzbekistan*. IMGELEM Journal.

*Худайназарова Дилноза Гафуровна – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти мустақил тадқиқотчиси*

## **ФАРМАЦЕВТИКА КОРХОНАЛАРИДА НАРХ СИЁСАТИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ МЕЪЁРИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ**

**Аннотация:** Мазкур мақолада фармацевтика корхоналарида нарх сиёсатини амалга оширишнинг меъёрий-ҳуқуқий асослари ёритилган. Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги, соҳавий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ҳамда давлат томонидан нархларни тартибга солиш механизмлари таҳлил қилинган. Шунингдек, дори воситалари ва тиббий буюмлар нархларини шакллантиришга таъсир этувчи омиллар, ижтимоий аҳамиятга эга маҳсулотлар бўйича давлат назоратининг ўзига хос жиҳатлари кўриб чиқилган. Тадқиқот натижасида фармацевтика корхоналарида самарали ва шаффоф нарх сиёсатини юритишнинг аҳамияти асослаб берилган.

**Калит сўзлар:** фармацевтика корхоналари, нарх сиёсати, меъёрий-ҳуқуқий асослар, давлат томонидан нархларни тартибга солиш, дори воситалари, нархни шакллантириш.

**Аннотация:** В данной статье освещены нормативно-правовые основы реализации ценовой политики на фармацевтических предприятиях. Проанализированы законодательство Республики Узбекистан, отраслевые нормативно-правовые акты, а также механизмы государственного регулирования цен. Кроме того, рассмотрены факторы, влияющие на формирование цен на лекарственные средства и медицинские изделия, а также особенности государственного контроля за социально значимой продукцией. По результатам исследования обоснована значимость проведения эффективной и прозрачной ценовой политики на фармацевтических предприятиях.

**Ключевые слова:** фармацевтические предприятия, ценовая политика, нормативно-правовые основы, государственное регулирование цен, лекарственные средства, формирование цен.

**Abstract.** This article examines the regulatory and legal framework for implementing pricing policy in pharmaceutical enterprises. The legislation of the Republic of Uzbekistan, sector-specific regulatory legal acts, and mechanisms of state price regulation are analyzed. In addition, the factors influencing the formation of prices for medicines and medical devices, as well as the specific features of state control over socially significant products, are considered. The study substantiates the importance of implementing an effective and transparent pricing policy in pharmaceutical enterprises.

**Keywords:** pharmaceutical enterprises, pricing policy, regulatory and legal framework, state price regulation, medicines, price formation.

Ўзбекистонда фармацевтика корхоналари фаолиятини янада такомиллаштиришга қаратилган “2022 – 2026 йилларда республиканинг фармацевтика тармоғини жадал ривожлантиришга оид кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармонида “Аҳолини сифатли, самарали ва хавфсиз фармацевтика маҳсулотлари билан таъминлашни янада яхшилаш, фармацевтика тармоғига илғор илмий-техника ютуқлари ва инновацияларни жорий этиш орқали тармоқда ишлаб чиқариш ҳажмини 3 баробарга

ошириш, ички бозорни таъминлаш даражасини натурал ҳажмда 80 фоизга етказиш”<sup>1</sup> бўйича аниқ вазифалар белгиланган. Ушбу вазифалар фармацевтика корхоналари олдида бир қанча вазифаларни устувор қилиб кўяди, жумладан ушбу тармоқда ишлаб чиқариладиган тайёр маҳсулотларни сотиш бўйича нарх сиёсатини амалга ошириш тартиби бугунги куннинг энг муҳим ва долзарб вазифаларидан бири ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикасида фармацевтика корхоналари фаолияти энг қаттиқ назоратга олинган тармоқлардан бири ҳисобланади. Ҳаттоки, фармацевтика корхоналарида ишлаб чиқариладиган фармацевтика маҳсулотлар нархи ҳам давлат томонидан тартибга солиниб, уларнинг нархининг кескин ошиб кетишига йўқ кўйилмайди. Чунки, аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш Қомусимизда белгиланган энг олий принципларидан саналади. Бу борада, мамлакатимизда фармацевтика маҳсулотларини сотишни тартибга солиш, жумладан фармацевтика маҳсулотларининг нархларини белгилаш мақсадида қуйидаги меъёрий ҳужжатлар қабул қилинган:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Дори воситалари ва фармацевтика фаолияти тўғрисида”ги Қонуни.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Фармацевтика тармоғини жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг “2024 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида”ги [Қонуни](#) ижросини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори.

4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг ““Дори воситалари ва фармацевтика фаолияти тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида” 2016 йил 4 январдаги ЎРҚ-399-сон Ўзбекистон Республикаси Қонунини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.

5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Кўшилган қиймат солиғи ҳамда чет эл юридик шахслари билан боғлиқ солиқ маъмурчилигини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.

6. Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирининг “Референт нарх шакллантириш тизими доирасида рецепт билан бериладиган дори воситалари нархларини қайд этиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги буйруғи.

Бундан ташқари, барча хўжалик юритувчи субъектларда ишлаб чиқарилган тайёр маҳсулотларнинг сотиш қийматини белгилаш орқали “нарх сиёсати”ни амалга оширишга асос бўлувчи энг асосий ҳужжатлардан

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022 – 2026 йилларда республиканинг фармацевтика тармоғини жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони. 2022 йил 21 январь. ПФ-55-сон.

бири бу албатта, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида”<sup>2</sup>ги Қарори ҳисобланади. Ушбу норматив-ҳужжатларнинг барчаси фармацевтика корхоналарида ишлаб чиқарилган тайёр маҳсулотларнинг нархларини белгилашда энг асосий йўриқнома вазифасини бажариб, фармацевтика маҳсулотларининг сотиш қийматини аниқлашга хизмат қилади.

Олиб борилган илмий изланишлар натижаси шуни кўрсатдики, фармацевтика маҳсулотлари рецептли ва рецептсиз турларга таснифланади: “рецепт билан бериладиган дори воситалари – истеъмолчиларга қонунчиликда белгиланган талабларга мувофиқ шаклдаги рецепт тақдим этилгандан кейингина реализация қилинадиган дори воситалари; рецептсиз бериладиган дори воситалари – фармацевтик маълумотга эга бўлган мутахассис (дорихона ходими) томонидан истеъмолчиларга рецептсиз реализация қилинадиган дори воситалари”<sup>3</sup>. Меъёрий ҳужжатларда келтирилган бундай тартибга мувофиқ фармацевтика корхоналарида фармацевтика маҳсулотларига белгиланадиган нархи айнан уларнинг ушбу таснифига ҳам боғлиқ бўлиб ҳисобланади.

Бу борада, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Фармацевтика тармоғини жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармонида мувофиқ, “рецепт билан бериладиган дори воситалари тоифасини улгуржи ва чакана сотишда уларни етказиб беришда иштирок этувчи воситачилар сонидан қатъи назар, улгуржи савдо учун сотиб олинган (базавий) қийматидан 15 фоиздан ва чакана савдо учун сотиб олинган қийматидан 20 фоиздан ортиқ бўлмаган миқдорларда устама қўлланади. Ушбу дори воситаларининг улгуржи ва чакана нархлари чекланган улгуржи ва чакана референт нархлардан юқори бўлмаслиги шарт; рецептсиз бериладиган дори воситаларини улгуржи ва чакана реализация қилишда чекланган савдо устамалари қўлланмайди”<sup>4</sup>. Демак, фармацевтика корхоналарида устамалар барча фармацевтика маҳсулотлари учун бир хил тартибда қўлланилмайди, балки уларнинг рецептли ва рецептсиз таснифий асосларига қараб алоҳида ёндашув амалга оширилади.

Бундан ташқари, фармацевтика корхоналарида бухгалтерия ҳисобини юритиш ҳамда уларни солиққа тортиш масалалари бўйича халқаро мутахассис, “САР” ва “DIP IFR” сертификатлари соҳиби Л.Каримованинг таъкидлашича бугунги кунда фармацевтика маҳсулотлари нархини белгилаш

---

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида”ги Қарори. 1999 йил 5 феврал. 54-сон.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирининг “Дори воситаларини рецепт билан ва рецептсиз бериладиган дори воситалари тоифасига киритиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги буйруғи. 2023 йил 4 май. 3430-сон.

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Фармацевтика тармоғини жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони. 2025 йил 28 январь. ПФ-13-сон.

бўйича ишлаб чиқилган йўриқномаларга мувофиқ, 2025 йил 1 апрелдан бошлаб, фармацевтика корхоналари рецептсиз бериладиган фармацевтика маҳсулотларини базавий нарх ҳамда чекланган устамаларни инобатга олмаган ҳолда сотишлари мумкин бўлиб, фармацевтика маҳсулотларининг ушбу базавий қиймати фақатгина, рецепт билан бериладиган фармацевтика маҳсулотларига тегишли<sup>5</sup>.

**Хулоса.** Юқорида келтирилган меъёрий ҳужжатда ишлаб чиқилган тартиблардан ва манбаларда келтирилган маълумотлардан хулоса қилиб айтиш мумкинки, фармацевтика корхоналарида фармацевтика маҳсулотларининг устамасини белгилаш, умуман олганда уларда “нарх сиёсати”ни амалга ошириш тартиблари ўзига хос аҳамиятга эга бўлиб, бу эса, ўз навбатида, фармацевтика корхоналарида даромад ва фойда кўрсаткичларига ҳам ўз таъсирини кўрсатмай қолмайди. Чунки, ҳар қандай хўжалик юритувчи субъектларнинг фойда рентабеллиги бевосита таннарх, унинг устига қўйиладиган устама ва олинган даромад кўрсаткичларига боғлиқ бўлиб ҳисобланади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022 – 2026 йилларда республиканинг фармацевтика тармоғини жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони. 2022 йил 21 январь. ПФ-55-сон.

2. Ўзбекистон Республикасининг “Дори воситалари ва фармацевтика фаолияти тўғрисида”ги Қонуни. 2016 йил 4 январь. ЎРҚ-399-сон.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Фармацевтика тармоғини жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони. 2025 йил 28 январь. ПФ-13-сон.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг “2024 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида”ги [Қонуни](#) ижросини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. 2023 йил 29 декабрь. ПҚ-422-сон.

5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг ““Дори воситалари ва фармацевтика фаолияти тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида” 2016 йил 4 январдаги ЎРҚ-399-сон Ўзбекистон Республикаси Қонунини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. 2017 йил 6 апрель. 185-сон.

6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Қўшилган қиймат солиғи ҳамда чет эл юридик шахслари билан боғлиқ солиқ маъмурчилигини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. 2020 йил 14 август. 489-сон.

7. Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирининг “Референт нарх шакллантириш тизими доирасида рецепт билан бериладиган дори

---

<sup>5</sup>[https://buxgalter.uz/ru/publish/doc/text207443\\_dori\\_vositalari\\_va\\_tibbiy\\_buyumlarni\\_cheklangan\\_ustama\\_bekor\\_qilingandan\\_keyin\\_qanday\\_sotish\\_kerak](https://buxgalter.uz/ru/publish/doc/text207443_dori_vositalari_va_tibbiy_buyumlarni_cheklangan_ustama_bekor_qilingandan_keyin_qanday_sotish_kerak)

воситалари нархларини қайд этиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги буйруғи. 2020 йил 10 июнь. 3242-сон.

8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида”ги Қарори. 1999 йил 5 феврал. 54-сон.

9. Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирининг “Дори воситаларини рецепт билан ва рецептсиз бериладиган дори воситалари тоифасига киритиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги буйруғи. 2023 йил 4 май. 3430-сон.

10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Фармацевтика тармоғини жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони. 2025 йил 28 январь. ПФ-13-сон.

11. Боронов, Б. (2022). МАҲСУЛОТ ТАННАРХИНИ ҲИСОБЛАШДА УМУМИШЛАБ ЧИҚАРИШ ХАРАЖАТЛАРИНИНГ ЎРНИ ВА УЛАРНИНГ ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Economics and Innovative Technologies*, 10(6), 31-42.

12. Боронов, Б. Ф. (2022). ЁҒ-МОЙ МАҲСУЛОТЛАРИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ХАРАЖАТЛАРИ ҲИСОБИНИНГ НАЗАРИЙ ВА МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *ISSN 2181-3191 VOLUME 1, ISSUE 7 OCTOBER 2022*, 202284.

13. [https://buxgalter.uz/ru/publish/doc/text207443\\_dori\\_vositalari\\_va\\_tibbiy\\_buyumlarni\\_cheklangan\\_ustama\\_bekor\\_qilingandan\\_keyin\\_qanday\\_sotish\\_kerak](https://buxgalter.uz/ru/publish/doc/text207443_dori_vositalari_va_tibbiy_buyumlarni_cheklangan_ustama_bekor_qilingandan_keyin_qanday_sotish_kerak).

***Qurbanov Feruz Baxramovich*** – *Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Turizm kafedrası, stajor-o‘qituvchisi* ☎ +998934663390, [Feruzbek.qurbanov@gmail.com](mailto:Feruzbek.qurbanov@gmail.com)

## **MILLIY IQTISODIYOTDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHNING INSTITUSIONAL VA IQTISODIY MEKANIZMLARI (O‘ZBEKISTON MISOLIDA)**

**Аннотация:** *Hududning eksport salohiyati umumiy iqtisodiy salohiyatning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u ishlab chiqarish imkoniyatlari, mehnat resurslari, tabiiy boyliklar, infratuzilma, investitsiyalar, ilmiy-texnik va innovatsion salohiyat bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi va rivojlanadi. Hududiy eksport imkoniyatlarini kengaytirishda institusional mexanizmlarning roli ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada hudud eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi institusional mexanizmlarning mazmuni va ahamiyati yoritib berilgan.*

**Калит со‘злар:** *eksport salohiyati, mahsulot raqobatbardoshligi, sotuvdan keyingi xizmatlar, tashqi bozor, ekzogen va endogen omillar, tashqi savdo siyosati.*

**Аннотация:** *Экспортный потенциал региона является важной составляющей общего экономического потенциала, который формируется и развивается в тесной связи с производственными возможностями, трудовыми ресурсами, природными ресурсами, инфраструктурой, инвестициями, научно-техническим и инновационным*

потенциалом. Институциональные механизмы также играют важную роль в расширении региональных экспортных возможностей. В данной статье освещены содержание и значение институциональных механизмов, служащих повышению экспортного потенциала региона.

**Ключевые слова:** экспортный потенциал, конкурентоспособность продукции, послепродажное обслуживание, внешний рынок, экзогенные и эндогенные факторы, внешнеторговая политика.

**Abstract:** The export potential of the region is an important component of the overall economic potential, which is formed and developed in close connection with production capabilities, labor resources, natural resources, infrastructure, investments, scientific, technical, and innovative potential. The role of institutional mechanisms in expanding regional export opportunities is also important. This article highlights the content and significance of institutional mechanisms that serve to increase the export potential of the region.

**Keywords:** export potential, product competitiveness, after-sales services, foreign market, exogenous and endogenous factors, foreign trade policy.

**Kirish:** Hududiy eksport salohiyati murakkab iqtisodiy tizim bo‘lib, u muayyan hududning ichki va tashqi iqtisodiy faoliyatiga oid barcha tarkibiy elementlarni qamrab oladi. Hudud eksport faoliyatining samaradorligini ta‘minlash faqatgina tegishli siyosatni ishlab chiqish bilangina cheklanmay, balki uni amaliy jihatdan qo‘llab-quvvatlashni ham talab etadi. O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi va hududlar eksport salohiyatini oshirish jarayonida markazlashgan qat‘iy boshqaruvdan iqtisodiy munosabatlar subyektlarining operatsion hamda iqtisodiy mustaqilligiga o‘tish ushbu yondashuvning dolzarbligini yanada kuchaytirdi. Shu bilan birga, hududiy eksport salohiyatini rivojlantirishda institutsional mexanizmlarning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi.

**Mavzuning o‘rganilganligi :** Iqtisodiy adabiyotlarda “eksport salohiyati” tushunchasiga nisbatan turli yondashuvlar mavjud. Jumladan, B.A. Rayzberg, L.Sh. Lozovskiy va Ye.B. Starodubsevlar eksport salohiyatini raqobatbardosh mahsulotlarni yetarli hajmda ishlab chiqarish va ularni tashqi bozorlarga chiqarish imkoniyati sifatida izohlaydilar<sup>6</sup>. Ushbu yondashuvda eksport salohiyati mahsulot raqobatbardoshligi hamda ishlab chiqarish ko‘lamiga bevosita bog‘liq ekanligi ta‘kidlanadi. Darhaqiqat, mahsulotning raqobatbardoshligi eksport salohiyatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi, biroq eksport salohiyati faqat ushbu ko‘rsatkich bilan cheklanib qolmaydi.

A.A. Maltsev, Yu.A. Savinov, V.A. Oreshkin va A.A. Lebedevlar eksport salohiyatini mahsulot ishlab chiqarish, uni tashqi bozorlarga chiqarish, sotish hamda sotuvdan keyingi xizmat ko‘rsatish jarayonlarini qamrab oluvchi kompleks ko‘rsatkich sifatida talqin etadilar<sup>7</sup>. Ushbu yondashuvda eksport salohiyatining tashqi bozorlarda mahsulotni realizatsiya qilish va servis xizmatlari bilan uzviy bog‘liqligiga alohida e‘tibor qaratiladi, chunki eksport natijalari ko‘p jihatdan aynan sotuv hajmlari orqali namoyon bo‘ladi.

---

<sup>6</sup> Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь. М.: ИНФРА-М, 2012. 512 с.

<sup>7</sup> Мальцев А.А. Государственное регулирование внешнеэкономической деятельности в Российской Федерации: курс лекций. Екатеринбург, 2006. 453 с.

M.E. Seyfullaeva va V.M. Kapisinlarning fikriga ko‘ra, xomashyo-resurs bazasi hamda iqtisodiyotning umumiy holati hududning ilmiy-texnik, texnologik va ijtimoiy rivojlanishini ta‘minlaydi va bu omillar o‘z navbatida eksport salohiyatini shakllantiradi<sup>8</sup>. Ushbu yondashuv eksport salohiyatini yanada kengroq doirada baholab, uni texnologik va ijtimoiy rivojlanish darajasi bilan bog‘laydi.

Yu. Tokarev eksport salohiyatini korxonaning eksportga mo‘ljallangan raqobatbardosh mahsulot yaratish, uni ishlab chiqarish, tashqi bozorlarga olib chiqish, foydali tarzda sotish va zarur darajada xizmat ko‘rsatishni ta‘minlash imkoniyatlarining yig‘indisi sifatida ta‘riflaydi<sup>9</sup>.

Yu.A. Savinov va A.Yu. Migunovlar esa eksport salohiyati tushunchasiga yanada keng va mukammal yondashib, uni eksport faoliyatida ishtirok etuvchi barcha subyektlar – milliy iqtisodiyot, tarmoqlar, sohalar, kompaniyalar va korxonalar faoliyati bilan bog‘laydilar. Ularning fikricha, eksport salohiyati nafaqat raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish, balki ularni tashqi bozorlarda muvaffaqiyatli sotish imkoniyatlarini ham qamrab oladi. Shuningdek, mualliflar hududiy eksport salohiyatini rivojlantirishda ichki va tashqi omillar ta‘sirida shakllanadigan milliy raqobat ustunliklarini hisobga olish zarurligini ta‘kidlaydilar<sup>10</sup>.

Umuman olganda, hudud eksport salohiyati murakkab va ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, uning nazariy jihatlarini bo‘yicha mahalliy, MDH va xorijiy olimlar tomonidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarda hududiy eksport salohiyati hududiy korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyati, hudud iqtisodiyotining shakllanishi hamda iqtisodiy o‘sish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilingan.

Hudud eksport salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish masalasining dolzarbligi ortib borayotganligi sababli, mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlar ham faollashmoqda. Ko‘plab tadqiqotlarda hudud eksport salohiyati hududning mavjud ishlab chiqarish resurslari va mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish imkoniyatlari sifatida talqin etilgan. Jumladan, L.M. Marchenkova va I.B. Ilyuxinalar hudud eksport salohiyatini korxonalar va tarmoqlarning bozor munosabatlari sharoitida tashqi bozorlarda raqobatbardosh tovar va xizmatlarni sotish imkoniyatlari hamda eksportni tashkiliy-iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash tizimi bilan bog‘liq holda izohlaydilar<sup>11</sup>.

Yu.V. Gaponenko o‘z ilmiy tadqiqotlarida hudud eksport salohiyatini tashqi bozorlarga yo‘naltirilgan raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish imkoniyati sifatida talqin etishni inkor etmagan holda, uni tahlil

---

<sup>8</sup> Сейфуллаева М.Э. Капицын В.М. Экспортный потенциал российских регионов в условиях глобализации мировой экономики // Регион. 2006. № 3. С. 93 – 111

<sup>9</sup> Токарев, Ю.В. Формирование и использование экспортного потенциала (на примере промышленных предприятий): автореф. дис. канд. экон. наук: 08.00.05; Казань, 1997. - 14с.

<sup>10</sup> Савинов Ю.А., Мигунов А.Ю. Государственная финансовая поддержка экспорта в России // Российский внешнеэкономический рынок. 2008. № 5. С. 30 – 37.

<sup>11</sup> Марченкова Л. М., Илюхина И. Б. Развитие экспортного потенциала российских регионов // Экономическая среда, 2013, № 4 (6). С. 133-138.

qilish jarayonida mazkur salohiyatning ierarxik tuzilishini inobatga olish zarurligini ta’kidlaydi. Tadqiqotchining fikriga ko‘ra, hudud eksport salohiyati uch pog‘onali tizim asosida shakllanadi: birinchi pog‘onada eksport mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar va ularning ishlab chiqarish imkoniyatlari; ikkinchi pog‘onada mahsulotni sotish hamda sotuvdan keyingi xizmat ko‘rsatish tizimi; uchinchi pog‘onada esa hududning tashqi iqtisodiy faoliyatini qamrab oluvchi kompleks mexanizm joylashadi<sup>12</sup>.

I.N. Vasyutchenko ilmiy izlanishlarida hudud eksport salohiyatini uch asosiy tarkibiy qism orqali aniqlaydi. Birinchi tarkibiy qism iqtisodiy tizim resurslarining umumiy majmuasini, ikkinchi tarkibiy qism jahon bozorida talab mavjud bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish imkoniyatlarini, uchinchi tarkibiy qism esa eksport infratuzilmasining rivojlanish darajasini ifodalaydi<sup>13</sup>. Muallif o‘z tadqiqotlari asosida hudud eksport salohiyatining shakllanishi tashkiliy-boshqaruv, kadrlar, tabiiy resurslar, bioiqlim, innovatsion, ishlab chiqarish va investitsiya salohiyatlari bilan chambarchas bog‘liq ekanligini asoslab beradi.

R.M. Pritkov va G.I. Nemirovalar o‘z ilmiy ishlarida hudud eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlarini resurs va xomashyo bazasi, ishlab chiqarish quvvatlari, mehnat resurslari, moliyaviy imkoniyatlar, iste‘mol bozori, infratuzilma, innovatsion muhit hamda institutsional omillar orqali izohlaydilar<sup>14</sup>. G.S. Svetkova va I.G. Svetkovalarning tadqiqotlarida esa hudud eksport salohiyatining shakllanishi aholining rivojlanish darajasi va hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini aks ettiruvchi inson taraqqiyoti indeksi (HRI) bilan ham uzviy bog‘liqligi ko‘rsatib berilgan<sup>15</sup>.

**Asosiy qism:** O‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, “eksport salohiyati” murakkab va ko‘p omilli iqtisodiy kategoriya bo‘lib, u “resurslar – zaxiralar – imkoniyatlar” zanjiri orqali hududning ishlab chiqarish hamda tashqi bozorlarga mahsulot yetkazib berish imkoniyatlarining amaliy realizatsiyasi bilan bevosita bog‘liqdir.

Hudud eksport salohiyati umumiy iqtisodiy salohiyatning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, ishlab chiqarish, mehnat, tabiiy resurslar, infratuzilma, investitsiya, ilmiy-texnik va innovatsion salohiyatlar bilan o‘zaro uyg‘unlikda rivojlanadi.

Eksport salohiyatini oshirish masalasini hal etish nuqtai nazaridan hududning institutsional tuzilmasini bir nechta yo‘nalishlarda tavsiflash mumkin. Mazkur tadqiqot hududiy institutlarni faqat rasmiy va norasmiy, ekzogen va endogen, siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy elementlarga ajratish bilan cheklanmaydi, balki institutlararo o‘zaro ta’sir mexanizmlarini ham hisobga oluvchi yondashuvga asoslanadi. Ye.V. Sapir va A.G. Shmuratkinalar hudud

---

<sup>12</sup> Гапоненко Ю.В. Уровень развития экспортного потенциала региона и методические аспекты его оценки // Вестник Волгоградского государственного университета. Сер. 10, Иннов. деят. 2013. № 2 (9) С. 16-20.


<sup>13</sup> Васютченко И.Н. Система показателей оценки экспортного потенциала региона // Региональная экономика: теория и практика. 2010. № 21 (156). С. 40-46.

<sup>14</sup> Прытков Р.М., Немирова Г.И. Формирование и развитие экспортного потенциала региона // Вестник ОГУ № 13 (132) /декабрь 2011. С. 387-393.

<sup>15</sup> Цветкова Г. С., Цветкова И. Г. Республика Марий Эл в зеркале международных показателей // Вестник Марийского государственного университета. 2016. Т. 2. № 3 92 (7). С. 90-95.

eksport faoliyatini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan holda hudud eksport salohiyatini oshirishning institutsional mexanizmini taklif etganlar(1-rasm).

Mualliflarning ta’kidlashicha, hududiy eksportni rivojlantirish jarayonida ma’muriy, tashkiliy hamda iqtisodiy xarakterdagi qator cheklovlar mavjud. Ushbu muammolarni bartaraf etish hudud eksport salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan taklif etilayotgan institutsional mexanizmning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Institutsional mexanizm hududiy darajada shakllantirilgan, strategik va taktik maqsadlarni amalga oshirish, shuningdek, dolzarb muammolarni tezkor hal etishga yo‘naltirilgan ochiq va moslashuvchan tizim sifatida qaraladi.



**1-rasm. Hududning eksport salohiyatini oshirishning institutsional mexanizmi<sup>16</sup>.**

**Xulosa.** Hududiy eksportni kengaytirishga xizmat qiluvchi institutsional mexanizm samarali faoliyat yuritishi uchun bir qator asosiy institutlarning yetarli darajada rivojlangan bo‘lishi zarur. Jumladan:

**Davlat instituti** – tashqi savdo siyosatini shakllantirish, eksport faoliyatini rag‘batlantirish, eksportga yo‘naltirilgan korxonalarini rivojlantirish, shuningdek, ularni qo‘llab-quvvatlovchi maxsus institutlar va tuzilmalarni tashkil etishni o‘z ichiga oladi.

**Huquq instituti** – eksport faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish, soliq imtiyozlari va subsidiyalarni taqdim etish bilan bog‘liq masalalarni qamrab oladi.

<sup>16</sup> Сапир Е.В., Шмураткина А.Г. Институциональный механизм повышения экспортного потенциала региона. Проблемы экономики. 2019, 169-176

**Fan instituti** – jahon bozorida talab yuqori bo‘lgan raqobatbardosh mahsulotlarni yaratishga xizmat qiluvchi innovatsiyalarni ishlab chiqish, texnoparklar va ilmiy-tadqiqot markazlari tizimini shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

**Ta’lim instituti** – innovatsion iqtisodiyot ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlash, shuningdek, eksport faoliyatining o‘ziga xos jihatlarini o‘rgatishga qaratilgan ta’lim tizimini rivojlantirishni nazarda tutadi.

**Biznes instituti** – eksportga yo‘naltirilganlikni kuchaytirish, raqobatbardosh mahsulotlarga bo‘lgan talabni shakllantirish va tadbirkorlik faolligini oshirish bilan bog‘liq jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Mazkur institutlarning barchasi davlat va hududiy darajalarda samarali rivojlanishi uchun maxsus hukumat qarorlari, uzoq muddatli strategiyalar hamda maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Васютченко И.Н. Система показателей оценки экспортного потенциала региона // Региональная экономика: теория и практика. 2010. № 21 (156). С. 40- 46.

2. Гапоненко Ю.В. Уровень развития экспортного потенциала региона и методические аспекты его оценки // Вестник Волгоградского государственного университета. Сер. 10, Иннов. деят. 2013. № 2 (9) С. 16-20.

3. Мальцев А.А. Государственное регулирование внешнеэкономической деятельности в Российской Федерации: курс лекций. Екатеринбург, 2006. 453 с.

4. Марченкова Л. М., Илюхина И. Б. Развитие экспортного потенциала российских регионов // Экономическая среда, 2013, № 4 (6). С. 133-138. [Электронный ресурс]: URL:

[http://unctad.org/en/PublicationsLibrary/wir2013\\_en.pdf](http://unctad.org/en/PublicationsLibrary/wir2013_en.pdf)

5. Николаев М.А., Махотаева М.Ю. Формирование экспортного потенциала региона. «Экономика, право и управление». 6/2017 3-11 с.

6. Прытков Р.М., Немирова Г.И. Формирование и развитие экспортного потенциала региона // Вестник ОГУ № 13 (132) /декабрь 2011. С. 387-393.

7. Савинов Ю.А., Мигунов А.Ю. Государственная финансовая поддержка экспорта в России // Российский внешнеэкономический рынок. 2008. № 5. С. 30 – 37.

8. Сапир Е.В., Шмураткина А.Г. Институциональный механизм повышения экспортного потенциала региона. Проблемы экономики. 2019, 169- 176

9. Сейфуллаева М.Э. Капицын В.М. Экспортный потенциал российских регионов в условиях глобализации мировой экономики // Регион. 2006. № 3. С. 93 – 111

10. Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь. М.: ИНФРА-М, 2012. 512 с.

11. Токарев, Ю.В. Формирование и использование экспортного потенциала (на примере промышленных предприятий): автореф. дис. канд. экон. наук: 08.00.05; Казань, 1997. - 14с.

12. Цветкова Г. С., Цветкова И. Г. Республика Марий Эл в зеркале международных показателей // Вестник Марийского государственного университета. 2016. Т. 2. № 3 92 (7). С. 90-95.

*Абдурасулов Жамшидбек Ахмад угли* – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таянч докторанти, e-mail: [jamshidbek.abdurasulov@mail.ru](mailto:jamshidbek.abdurasulov@mail.ru), ORCID: 0000-0003-1630-8694

## ҚЎШИБ ЮБОРИШ ЖАРАЁНЛАРИДА КОРХОНА ФАОЛИЯТИНИ ТУГАТИШНИ ҲИСОБ ВА ҲИСОБОТДА АКС ЭТТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

**Аннотация.** Мақолада қўшиб юбориш жараёнларида корхона фаолиятини тугатишни бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботида акс эттириш масалалари таҳлил қилинган. Қўшиб юборишнинг иқтисодий моҳияти, актив ва мажбуриятларни баҳолаш, гудвилни тан олиш ҳамда консолидациялашган молиявий ҳисоботни шакллантиришга оид асосий жиҳатлар ёритилган. Миллий амалиётда мавжуд муаммолар аниқланиб, ҳисоб ахборотининг ишончлилиги ва шаффофлигини оширишга қаратилган амалий таклифлар берилган.

**Калит сўзлар:** қўшиб юбориш, фаолиятни тугатиш, бухгалтерия ҳисоби, молиявий ҳисобот, гудвил, консолидация.

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы отражения в бухгалтерском учете и финансовой отчетности процессов прекращения деятельности предприятия при присоединении. Проанализированы экономическая сущность присоединения, оценка активов и обязательств, признание гудвилла и формирование консолидированной отчетности. Выявлены проблемы национальной учетной практики и предложены рекомендации по повышению достоверности финансовой информации.

**Ключевые слова:** присоединение, прекращение деятельности, бухгалтерский учет, финансовая отчетность, гудвил, консолидация.

**Abstract:** The article examines accounting and financial reporting issues related to the termination of an entity's operations in the process of acquisition. The study highlights the economic substance of acquisitions, asset and liability measurement, goodwill recognition, and the preparation of consolidated financial statements. Practical recommendations are proposed to improve the reliability of financial reporting.

**Keywords:** acquisition, termination of operations, accounting, financial reporting, goodwill, consolidation.

Бозор иқтисодиёти шароитида корхоналар фаолиятини самарали ташкил этиш, уларнинг молиявий барқарорлигини таъминлаш ҳамда рақобатбардошлигини ошириш замонавий иқтисодий тараққиётнинг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади. Ушбу мақсадларга эришишда бизнес бирлашувлари, хусусан корхоналарни қўшиб олиш ва қўшиб юбориш жараёнлари муҳим аҳамият касб этади. Бундай қайта ташкил этиш шакллари орқали иқтисодий ресурслар концентратсияси таъминланади,

бошқарув тизими такомиллашади ҳамда ишлаб чиқариш ва молиявий самарадорлик ошади. Корхоналарни қўшиб юбориш жараёнида бир ёки бир нечта хўжалик юритувчи субъект ўз фаолиятини тугатиб, барча ҳуқуқ ва мажбуриятларини қабул қилувчи корхонага ўтказилади. Бу жараён нафақат ташкилий-ҳуқуқий, балки молиявий-иқтисодий жиҳатдан ҳам мураккаб ҳисобланиб, уни бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботида тўғри акс эттириш алоҳида илмий-амалий аҳамиятга эга. Айниқса, активлар ва мажбуриятларни баҳолаш, гудвилл ва хариддан келган фойдани аниқлаш, консолидациялашган молиявий ҳисоботни шакллантириш масалалари қўшиб юбориш жараёнларида асосий ўрин тутади. Шу нуқтаи назардан, қўшиб юбориш жараёнларида корхона фаолиятини тугатишни ҳисоб ва ҳисоботда акс эттиришнинг ўзига хос жиҳатларини илмий жиҳатдан тадқиқ этиш, мавжуд муаммоларни аниқлаш ва уларни ҳал этиш бўйича амалий таклифлар ишлаб чиқиш долзарб ҳисобланади. Мазкур мақолада айнан ушбу масалаларга эътибор қаратилган бўлиб, қўшиб юбориш жараёнларининг иқтисодий моҳияти, бухгалтерия ҳисобида акс эттирилиши ва ҳисобот шакллантириш амалиёти комплекс тарзда таҳлил қилинади. Шу сабабли, миллий амалиётда қўшиб юбориш жараёнларини халқаро стандартлар асосида ташкил этишнинг илмий ва амалий аҳамияти катта.

Биринчидан, бу молиявий ҳисоботнинг аниқлиги ва халқаро солиштириш имкониятини таъминлайди. Иккинчидан, гудвилл ва хариддан келган фойдани тўғри баҳолаш орқали корхонанинг ҳақиқий бозор қиймати аниқланади. Учинчидан, бу хорижий инвесторлар учун ишончли ахборот муҳитини яратади. Тўртинчидан, халқаро стандартларни жорий этиш орқали миллий иқтисодиётнинг шаффофлиги ва инвестицион жозибадорлиги ошади.



**1-расм. Жаҳон бўйича М&А (бирлашув ва қўшиб олиш) бозори статистик маълумотлари (2015–2025)**

Дунё миқёсидаги статистик маълумотларга кўра, жаҳон иқтисодиётида бизнес бирлашувлари ва қўшиб олиш (M&A mergers and acquisitions) жараёнлари сўнгги ўн йилликда иқтисодий интеграция ва капитал бозорининг фаоллигида муҳим омил сифатида намоён бўлмоқда. МAA оперatsиялари йирик трансмилий корпорatsиялар томонидан амалга оширилади ва улар глобал иқтисодий ривожланиш, инвестиция оқими ва рақобат муҳитининг асосий кўрсаткичи бўлиб хизмат қилади. 2015 йилдан бошлаб жаҳонда бирлашув ва қўшиб олиш оперatsиялари умумий қиймати тахминан 3,8 триллион АҚШ долларини ташкил этган. Бу даврда бозордаги фаолият асосан энергетика, молия ва технология соҳаларида жадал кечган. 2016 йилда бу кўрсаткич 3,5 триллион долларга пасайган бўлиб, бунга Буюк Британиянинг Brexit жараёнлари ва АҚШдаги сиёсий ўзгаришлар таъсир кўрсатган. 2017 ва 2018 йилларда жаҳон M&A бозорида ўсиш кузатилди. Хусусан, 2017 йилда умумий қиймат 3,7 триллион доллар, 2018 йилда эса 4,0 триллион долларга етди. Бу йилларда Европа ва Америка бозорларида йирик технологик бирлашувлар, шунингдек, фармацевтика ва молиявий хизматлар соҳаларида фаолият юқори бўлган. 2019 йилда эса бозор бироз пасайиб, 3,9 триллион доллар атрофида бўлган. Шу билан бирга, ривожланаётган мамлакатларда айниқса Осиё минтақасида ички капитал қўшилиш ва бирлашувлар-сони кўпайган. 2020 йилда пандемия таъсири натижасида глобал иқтисодий фаолият пасайиб, M&A бозорида ҳам жиддий инкироз кузатилди. Ушбу йилда оперatsиялар қиймати 2,8 триллион долларга тушди. Бу охириги 10 йилликдаги энг паст кўрсаткичлардан бири бўлди. Бироқ, 2021 йилда пандемиядан кейинги иқтисодий тикланиш билан бир вақтда M&A бозори тарихий рекорд даражага етди жаҳон бўйича умумий қиймат 5,1 триллион долларни ташкил қилди. Бу йилда асосий ўсиш АКТ, биотехнология ва молиявий технологиялар соҳалари ҳиссасига тўғри келган. 2022 йилда глобал иқтисоддаги инфляция босими, фоиз ставкаларининг ошиши ва геосиёсий ноаниқликлар таъсирида бирлашувлар фаолияти қисман пасайди. Бу йилда умумий қиймат 4,5 триллион доллар бўлган. 2024 йилда глобал иқтисодда барқарорликнинг қайта тикланиши ҳисобига M&A бозорида ўсиш қайта бошланди ва умумий оперatsиялар қиймати 3,4 триллион долларга етди. Бу кўрсаткич бозордаги эҳтимолий барқарорлик тенденциясини намоён этди.<sup>17</sup>

Маълумотлар халқаро манбалар асосида тузилган бўлиб, бозор тенденцияларининг йиллик динамикасини ифодалайди (2-жадвал).<sup>18</sup>

---

<sup>17</sup> McKinsey & Company: Global M&A Trends Report (2024–2025)нинг очик маълумотлар базасидан олинди

<sup>18</sup> McKinsey & Company (2025), Boston Consulting Group (BCG, 2025), IMAA Institute маълумотлари асосида тузилди.

2-жадвал

2015–2025 йиллар давомида жаҳонда амалга оширилган бизнес бирлашувлари ва қўшиб олиш (M&A) оперatsияларининг умумий қиймати<sup>19</sup>

Йил	M&A қиймати (трлн АҚШ доллари)
2015	3.8
2016	3.5
2017	3.7
2018	4.0
2019	3.9
2020	2.8
2021	5.1
2022	4.5
2023	3.2
2024	3.4
2025	1.94

Олиб борилган тадқиқлардан хулоса этиш мумкинки, Ўзбекистонда корхоналарни қўшиб юбориш ва қўшиб олиш жараёнлари (M&A) сўнгги беш йил ичида иқтисодий фаолиятнинг муҳим йўналишларидан бири сифатида шаклланиб бормоқда. Ҳукумат томонидан иқтисодиётни либераллаштириш, хусусий сектор улушини ошириш ва давлат активларини хусусийлаштириш жараёнлари фаоллашгани сабабли иқтисодий концентратсия билан боғлиқ битимлар-сони ва қиймати йил сайин ортиб бормоқда.

Биринчидан, 2021–2022 йилларда M&A (Mergers and Acquisitions) фаолияти ҳақидаги маълумотлар очиқ манбаларда чекланган бўлган бўлса да, 2023-йилдан бошлаб Рақобатни ривожлантириш ва истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя этиш қўмитаси томонидан ушбу жараёнлар бўйича тизимли ҳисобот юритилиши бошланган. Бу Ўзбекистонда иқтисодий концентратсияни назорат этиш институти амалда шаклланаётганини кўрсатади.

Иккинчидан, 2023-йилда M&A бўйича 12 та мурожаатдан 11 тасига олдиндан розилик берилгани, 2024 йилда эса 139 та ариза ва 18 трлн сўмлик битимлар амалга оширилгани ушбу бозорнинг кенгайиб бораётганини исботлайди. 2025-йилнинг биринчи ярмида 52 та ариза қабул қилиниб, 43 таси маъқулланган бу тенденциянинг барқарор давом этаётганини аниқлатади.

Учинчидан, амалга оширилган битимларнинг аксар қисми саноат, савдо, молия, туризм ва ахборот технологиялари соҳаларида тўпланган бўлиб, бу соҳаларда рақобат муҳитининг табиий кучайиши кузатилмоқда. Шу билан бирга, чет эл инвесторлари иштирокидаги битимлар улуши ҳам

<sup>19</sup> McKinsey & Company: Global M&A Trends Report (2024–2025)нинг очиқ маълумотлар базасидан олинди

ортмоқда 2023 йилда битимлар қийматининг 51,2 фоизи хорижий сармоядорларга тўғри келган.

Шундай қилиб, корхоналарни қўшиб юбориш ва қўшиб олиш жараёнлари Ўзбекистон иқтисодиётидаги рақобатни кучайтирувчи, инвестицион муҳитни яхшилайдиган ва иқтисодий самарадорликни оширадиган асосий воситага айланиб бормоқда ва халқаро миқёсдаги бу маълумотлар қўшиб юборилаётган ва қўшиб олинаётган корхоналарнинг ҳисоб ва ҳисобот тизимини тўғри йўлга қўйиш, гудвилл ва хариддан келган фойдани ҳисобда акс эттириш механизмларини илмий асослаш зарурлигини яна бир бор тасдиқлайди.<sup>20</sup> Қўшиб юборилаётган корхоналар фаолиятини тугатиш жараёнларини халқаро стандартлар асосида ҳисоб ва ҳисоботда акс эттириш тизимини такомиллаштириш миллий иқтисодиётдаги молиявий бошқарувни илмий асослаш, ҳисоботларнинг халқаро даражада тан олиншини таъминлаш ва корхоналар фаолияти самарадорлигини оширишнинг муҳим омили ҳисобланади. Гудвилл ва хариддан келган фойда тушунчалари бозор иқтисодиёти шароитида корхоналарни қайта ташкил этиш ва бизнес бирлашуви жараёнларининг муҳим иқтисодий категориялари ҳисобланади. Уларнинг моҳияти корхоналарнинг бозор қийматини тўғри баҳолаш, молиявий самарадорликни аниқлаш ва инвесторлар учун ишончли ахборот яратишда ҳал қилувчи аҳамият касб этади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 13 апрелда қабул қилинган “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги Қонуни.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 28 июлдаги 469-сон қарори. “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон Фармони. “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси”.
4. International Accounting Standards Board (IASB). IFRS 3 – Business Combinations. London: IFRS Foundation.
5. International Accounting Standards Board (IASB). IFRS 10 – Consolidated Financial Statements. London: IFRS Foundation.
6. International Accounting Standards Board (IASB). IAS 36 – Impairment of Assets. London: IFRS Foundation.
7. International Accounting Standards Board (IASB). IAS 38 – Intangible Assets. London: IFRS Foundation.
8. Палий В.Ф. Бухгалтерский учет и отчетность по международным стандартам. – М.: Финансы и статистика, 2020.
9. Соколов Я.В. Теория бухгалтерского учета. – М.: Магистр, 2019.

---

<sup>20</sup> McKinsey & Company (2025), Boston Consulting Group (BCG, 2025), IMAA Institute маълумотлари асосида тузилди.

10. Хомяков А.А. Учет объединений бизнеса и консолидация отчетности. – СПб.: Питер, 2021.

11. KPMG. Business Combinations and Consolidation under IFRS. – London, 2022.

***O‘roqov Firdavs Ortiqniyoz o‘g‘li – SamISI “Iqtisodiy tahlil va statistika” kafedrasida katta o‘qituvchisi, E-mail: [firdavs26031995@gmail.com](mailto:firdavs26031995@gmail.com)***

## **TIBBIY XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NAZARIY MASALALARI**

***Annotatsiya:*** Mazkur maqolada tibbiy xizmatlar tizimini rivojlantirish jarayonida iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari kompleks yondashuv asosida tahlil qilingan. Shuningdek, sog‘liqni saqlash sohasida resurslardan oqilona foydalanish, moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda davlat-xususiy sheriklik asosida xizmatlar sifatini yaxshilash masalalari yoritilgan. Tadqiqot natijalari tibbiy xizmatlar ko‘rsatishda xarajatlar va natijalar o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omili ekanini ko‘rsatadi.

***Kalit so‘zlar:*** tibbiy xizmatlar, iqtisodiy samaradorlik, sog‘liqni saqlash tizimi, moliyalashtirish, raqamli tibbiyot, davlat-xususiy sheriklik, resurslarni boshqarish, kadrlar, strategiya.

***Abstract:*** This article analyzes the issues of increasing economic efficiency in the process of developing the medical service system based on a comprehensive approach. Issues of rational use of resources in the healthcare sector, improvement of financing mechanisms, introduction of digital technologies, and improvement of the quality of services based on public-private partnerships are also highlighted. The research results show that ensuring a balance between costs and results in the provision of medical services is an important factor in increasing economic efficiency.

***Keywords:*** medical services, economic efficiency, healthcare system, financing, digital medicine, public-private partnership, resource management, personnel, strategy.

***Аннотация:*** В данной статье на основе комплексного подхода проанализированы вопросы повышения экономической эффективности в процессе развития системы медицинских услуг. Также освещены вопросы рационального использования ресурсов в сфере здравоохранения, совершенствования механизмов финансирования, внедрения цифровых технологий и повышения качества услуг на основе государственно-частного партнерства. Результаты исследования показывают, что обеспечение баланса между затратами и результатами при оказании медицинских услуг является важным фактором повышения экономической эффективности.

***Ключевые слова:*** медицинские услуги, экономическая эффективность, система здравоохранения, финансирование, цифровая медицина, государственно-частное партнерство, управление ресурсами, кадры, стратегия.

### **Kirish.**

Bugungi kunda sog‘liqni saqlash tizimi har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi ustuvor sohalardan biri hisoblanadi. Aholi salomatligini mustahkamlash, kasalliklarni erta aniqlash va ularni samarali davolash jarayonida tibbiy xizmatlarning sifati va mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, tibbiyot sohasiga ajratilayotgan moliyaviy resurslarning cheklanganligi,

xarajatlarning yil sayin ortib borishi va tibbiy texnologiyalarning qimmatlashuvi tibbiy xizmatlarni rivojlantirishda iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalasini dolzarb muammo sifatida kun tartibiga olib chiqmoqda.

Zamonaviy sharoitda sog‘liqni saqlash tizimida iqtisodiy samaradorlik nafaqat mablag‘lardan tejamkor foydalanish, balki resurslarni oqilona taqsimlash, tibbiy xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va ularning natijadorligini oshirish bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Tibbiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, kadrlar salohiyatini oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish orqali yuqori iqtisodiy samara olish imkoniyatlari mavjud. Biroq mazkur jarayonlar puxta iqtisodiy tahlil va ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish hamda aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar samaradorligini yaxshilashga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Davlat-xususiy sheriklik asosida tibbiy xizmatlarni rivojlantirish, majburiy tibbiy sug‘urta tizimini bosqichma-bosqich joriy etish, birlamchi tibbiy yordamni kuchaytirish kabi yo‘nalishlar iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, tibbiy muassasalar faoliyatida xarajatlarni optimallashtirish, xizmatlar tannarxini pasaytirish va moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash masalalari hali ham yetarlicha o‘rganilmagan.

Mazkur maqolada tibbiy xizmatlarni rivojlantirish jarayonida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi, sog‘liqni saqlash tizimida resurslardan foydalanish samaradorligini baholash mezonlari yoritiladi hamda mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari tibbiy muassasalar faoliyatini takomillashtirish, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish va aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini yanada oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

#### **Asosiy qism.**

Tibbiy xizmatlar sohasida iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalasi sog‘liqni saqlash tizimining barqaror faoliyat yuritishi va aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash bilan bevosita bog‘liqdir. Iqtisodiy samaradorlik, avvalo, mavjud moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan maksimal natija olishni anglatadi. Shu nuqtai nazardan, tibbiy muassasalar faoliyatida xarajatlar va natijalar o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlash muhim vazifa hisoblanadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab tibbiy muassasalarda resurslardan foydalanish darajasi yetarli darajada samarali emas, bu esa xizmatlar tannarxining oshishiga va moliyaviy barqarorlikning pasayishiga olib kelmoqda.

Tibbiy xizmatlarda iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy omillaridan biri - moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishdir. An‘anaviy budjet asosida moliyalashtirish tizimi ko‘pincha natijaga emas, xarajatlarning o‘zlashtirilishiga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu holat tibbiy muassasalarni samaradorlikni oshirishga yetarlicha rag‘batlantirmaydi. Shu sababli, so‘nggi

yillarda xizmat hajmi va sifati asosida moliyalashtirish, aholi jon boshiga moliyalashtirish, sug‘urta mexanizmlarini joriy etish kabi usullar keng qo‘llanilmoqda. Mazkur yondashuvlar tibbiy muassasalarni raqobat muhitida ishlashga, xarajatlarni optimallashtirishga va xizmatlar sifatini oshirishga undaydi.

Iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlashda tibbiy xizmatlar tannarxini pasaytirish muhim ahamiyatga ega. Bunga, bir tomondan, resurslardan oqilona foydalanish, ikkinchi tomondan esa, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali erishish mumkin. Raqamli tibbiyot, elektron tibbiy kartalar, telemeditsina va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari mehnat xarajatlarini qisqartirish, ortiqcha hujjatbozlikni kamaytirish va tibbiy xizmat ko‘rsatish jarayonini tezlashtirish imkonini beradi. Natijada, bir vaqtning o‘zida ko‘rsatilayotgan xizmatlar soni ortadi va xarajatlar nisbatan kamayadi.

Tibbiy muassasalarda kadrlar salohiyati ham iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Malakali shifokorlar va tibbiyot xodimlari xizmatlar sifatini oshirish bilan birga, noto‘g‘ri tashxis va samarasiz davolash holatlarining oldini oladi. Bu esa qo‘shimcha xarajatlarning kamayishiga olib keladi. Shu sababli, tibbiyot xodimlarini qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish va mehnatini rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, tibbiy xizmatlar tizimida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish ham iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususiy sektor investitsiyalarini jalb etish orqali tibbiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash, zamonaviy uskunalardan bilan ta‘minlash va xizmatlar turlarini kengaytirish mumkin. Bu holat davlat budjetiga tushadigan yukni kamaytirish bilan birga, aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifati va qulayligini oshiradi.

Shu bilan birga, iqtisodiy samaradorlikni baholash tizimini takomillashtirish ham muhim masala hisoblanadi. Tibbiy xizmatlar samaradorligini faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar orqali baholash yetarli emas. Bunda davolash natijalari, aholining qoniqish darajasi, kasalliklarning oldini olish ko‘rsatkichlari kabi ijtimoiy omillar ham inobatga olinishi lozim. Kompleks baholash tizimi tibbiy muassasalar faoliyatini chuqur tahlil qilish va ularning samaradorligini oshirish bo‘yicha aniq choralar ishlab chiqish imkonini beradi.

Umuman olganda, tibbiy xizmatlarni rivojlantirishda iqtisodiy samaradorlikni oshirish ko‘p qirrali va murakkab jarayon bo‘lib, u moliyalashtirish, boshqaruv, kadrlar siyosati, texnologik yangilanish va baholash mexanizmlarining o‘zaro uyg‘unligini talab etadi. Ushbu yo‘nalishlarda tizimli va ilmiy asoslangan yondashuvni qo‘llash sog‘liqni saqlash tizimining barqaror rivojlanishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Tibbiy xizmatlar tizimida iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalasini chuqur tahlil qilish, avvalo, mavjud resurslardan foydalanish holatini baholashni talab etadi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, ko‘plab tibbiy muassasalarda moliyaviy resurslarning asosiy qismi davolash jarayoniga emas, balki boshqaruv,

texnik xizmat ko‘rsatish va takrorlanuvchi yordamchi xarajatlarga yo‘naltirilmoqda. Bu holat tibbiy xizmatlarning haqiqiy samaradorligini pasaytirib, ajratilgan mablag‘lar va erishilgan natijalar o‘rtasida nomutanosiblikni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, statsionar davolashga haddan tashqari e‘tibor qaratilishi birlamchi va profilaktik xizmatlar rivojining sekinlashishiga sabab bo‘lmoqda.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, birlamchi tibbiy yordamga yo‘naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy jihatdan eng samarali yo‘nalishlardan biridir. Profilaktika va erta tashxis kasalliklarning og‘ir bosqichlarga o‘tishining oldini olib, davolash xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, birlamchi bo‘g‘inda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining oshishi statsionar davolanishga bo‘lgan ehtiyojni kamaytiradi va umumiy sog‘liqni saqlash xarajatlarini optimallashtirishga xizmat qiladi. Bu esa iqtisodiy samaradorlikning oshishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Moliyalashtirish mexanizmlarini tahlil qilish natijasida xizmat natijalariga asoslangan moliyalashtirish tizimi an‘anaviy budget moliyalashtirishiga nisbatan samaraliroq ekanligi aniqlandi. Mazkur tizim tibbiy muassasalarni xizmatlar sifati va hajmini oshirishga, shuningdek, resurslardan tejamkor foydalanishga rag‘batlantiradi. Tadqiqot davomida sug‘urta mexanizmlarini joriy etgan hududlarda tibbiy muassasalarning moliyaviy barqarorligi nisbatan yuqori ekanligi va aholining tibbiy xizmatlardan qoniqish darajasi oshgani kuzatildi.

Tahlil jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri ham o‘rganildi. Elektron tibbiy hujjatlar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari joriy etilgan muassasalarda ma‘muriy xarajatlar qisqargani, tibbiyot xodimlarining vaqt sarfi kamaygani va xizmat ko‘rsatish tezligi oshgani aniqlandi. Natijada, bir shifokor tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar soni ortib, mehnat unumdorligi oshgan. Bu esa xizmat tannarxining pasayishiga va umumiy iqtisodiy samaradorlikning yuksalishiga olib kelgan.

Kadrlar salohiyatini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, tibbiyot xodimlarining malakasi va rag‘batlantirish tizimi samaradorlikka bevosita ta‘sir etadi. Malaka oshirish dasturlarida ishtirok etgan tibbiyot xodimlari faoliyat yuritayotgan muassasalarda noto‘g‘ri tashxis qo‘yish holatlari kamaygani va davolashning o‘rtacha muddati qisqargani kuzatildi. Bu holat qo‘shimcha xarajatlarning kamayishiga hamda tibbiy xizmatlar sifatining oshishiga olib kelgan.

Davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat yuritayotgan tibbiy muassasalar faoliyatining tahlili shuni ko‘rsatdiki, ushbu mexanizm investitsiyalarni jalb etish va moddiy-texnik bazani mustahkamlashda yuqori natijadorlikka ega. Xususiy sektor ishtiroki natijasida zamonaviy uskunar bilan jihozlash darajasi oshib, xizmatlar assortimenti kengaygan. Natijada, aholi tomonidan tibbiy xizmatlardan foydalanish darajasi ortib, muassasalarning moliyaviy barqarorligi mustahkamlangan.

Olib borilgan kompleks tahlillar asosida quyidagi umumiy natijalarga kelindi: tibbiy xizmatlarni rivojlantirishda iqtisodiy samaradorlikni oshirish

birgina moliyaviy choralar bilan cheklanmaydi, balki boshqaruv, kadrlar, texnologiyalar va baholash tizimlarining o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liqdir. Resurslardan oqilona foydalanish, profilaktik xizmatlarga ustuvorlik berish va natijaga yo‘naltirilgan moliyalashtirish tizimini joriy etish sog‘liqni saqlash tizimining umumiy samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

### **Xulosa.**

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tibbiy xizmatlarni rivojlantirishda iqtisodiy samaradorlikni oshirish sog‘liqni saqlash tizimining barqarorligi va aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Cheklangan moliyaviy resurslar sharoitida tibbiyot sohasining uzluksiz rivojlanishini ta‘minlash, mavjud imkoniyatlardan maksimal darajada samarali foydalanishni talab etadi. Shu sababli, iqtisodiy samaradorlik masalasi nafaqat tibbiy muassasalar darajasida, balki butun sog‘liqni saqlash tizimi miqyosida kompleks yondashuv asosida hal etilishi lozim.

Maqola doirasida olib borilgan tahlillar tibbiy xizmatlar sohasida moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, xarajatlarni optimallashtirish va boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim omil ekanligini tasdiqladi. Xizmat natijalariga asoslangan moliyalashtirish, majburiy tibbiy sug‘urta tizimini joriy etish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish tibbiy muassasalarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash bilan birga, ularni raqobatbardosh va samarali faoliyat yuritishga undaydi.

Shuningdek, zamonaviy tibbiy va raqamli texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida baholandi. Elektron tibbiy hujjatlar, telemeditsina va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari tibbiy xizmat ko‘rsatish jarayonlarini soddalashtiradi, vaqt va mehnat xarajatlarini qisqartiradi hamda xizmatlar tannarxining pasayishiga olib keladi. Bu esa, o‘z navbatida, aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar hajmi va sifati oshishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida tibbiy kadrlar salohiyatini oshirish iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta‘sir etuvchi omil ekanligi ham asoslab berildi. Malakali va raqobatbardosh tibbiyot xodimlari xizmatlar sifatini yaxshilash, noto‘g‘ri tashxis va samarasiz davolash holatlarining kamayishiga xizmat qiladi. Shu bois, tibbiyot xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularni moddiy hamda ma‘naviy rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish sog‘liqni saqlash tizimining uzoq muddatli rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, tibbiy xizmatlarni rivojlantirishda iqtisodiy samaradorlikni oshirish tizimli, bosqichma-bosqich va ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. Mazkur yo‘nalishda ishlab chiqilgan xulosalar va takliflar tibbiy muassasalar faoliyatini yanada takomillashtirish, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish hamda aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari sog‘liqni saqlash sohasida strategik qarorlar qabul qilish jarayonida amaliy ahamiyatga ega bo‘lib,

kelgusida ushbu yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy izlanishlar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan dabiyyotlar ro‘yxati:**

1. World Health Organization. *Health Financing: Overview and Key Policy Issues*. Geneva: WHO, 2020. <https://www.who.int/publications/i/item/health-financing-overview>.
2. World Bank. *Improving Public Spending in Health: Efficiency, Equity, and Sustainability*. Washington, DC: World Bank Group, 2021. <https://www.worldbank.org/en/topic/health/publication/improving-public-spending-in-health>.
3. Cylus, J., Papanicolas, I., Smith, P. C. *Health System Efficiency: How to Make Measurement Matter for Policy and Management*. Copenhagen: WHO Regional Office for Europe, 2020. <https://www.who.int/europe/publications/i/item/health-system-efficiency>.
4. Savedoff, W. D., de Ferranti, D. *The Political Economy of Health Financing Reform. Health Systems & Reform*, 2020, Vol. 6(2). <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/23288604.2020.1759634>.
5. O‘roqov, F. *Tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar. Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, 2024. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo>.
6. Usmanova, N., Eshbekova, X. *Sog‘liqni saqlash xizmatlari sohasida sifatni baholash ko‘rsatkichlari va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik. Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, 2024. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17394806> - xizmat sifati va iqtisodiy samaradorlik bog‘liqligi tahlil qilingan.
7. Axrorova, M. *Samarqand viloyati sog‘liqni saqlash tizimining tahlili va uni rivojlantirish imkoniyatlari. Iqtisodiy Taraqqiyot va Tahlil*, 2025. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2025-vol3-iss4-pp30-39> - tibbiy xizmatlar tizimining regional darajada iqtisodiy tahlili va rivojlanish imkoniyatlari.

**Olim Ergashev** – QarDU mustaqil izlanuvchisi

## **MINTAQADA MAXSUS IQTISODIY ZONANI TASHKIL ETISH YO‘LLARI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mintaqada maxsus iqtisodiy zonani tashkil etish bo‘yicha davlatni iqtisodiy barqarorligi, ijtimoiy farovonligini ta‘minlash doirasida: iqtisodiy, innovatsion, resurs, tashkiliy va ijtimoiy funksiyalarni, maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish esa jamiyatda tadbirkorlarni ko‘payishi, ish joylarni tashkil etilishi, ishchilar turmush darajasi va ijtimoiy holatini yaxshilanishiga xizmat qilishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** maxsus iqtisodiy zona, erkin iqtisodiy zona, hududlar, resurslar, YAIM, samaradorlik, loyihalar, investitsiya, tadbirkorlik, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot.

**Аннотация:** В данной статье представлены научно обоснованные предложения и рекомендации по созданию в регионе особой экономической зоны в рамках обеспечения

*экономической стабильности и социального благополучия государства: экономической, инновационной, ресурсной, организационно-социальной функций, а также по вопросу увеличения числа предпринимателей в обществе, организации рабочих мест и повышения уровня жизни и социального статуса трудящихся.*

**Ключевые слова:** особая экономическая зона, свободная экономическая зона, регионы, ресурсы, ВВП, производительность, проекты, инвестиции, предпринимательство, социально-экономическое развитие.

**Annotation:** *This article presents scientifically based proposals and recommendations on the establishment of a special economic zone in the region within the framework of ensuring the economic stability and social well-being of the state: economic, innovative, resource, organizational and social functions, and the establishment of special economic zones is aimed at increasing the number of entrepreneurs in society, organizing workplaces, and improving the living standards and social status of workers.*

**Key words:** *special economic zone, free economic zone, regions, resources, GDP, productivity, projects, investment, entrepreneurship, socio-economic development.*

Maxsus iqtisodiy zonalarni (MIZ)tashkil etish orqali hudud rivoji uchun muhim bo‘lgan ichki va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarishga zamonaviy ilg‘or texnologiyalar va puxta o‘ylangan menejment tizimi qo‘llanilishini yo‘lga qo‘yish, hududlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish, mamlakat eksport salohiyatini oshirish, maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati samaradorligini baholash uslubiyotini takomillashtirish, mazkur sohaga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash hamda isiqbol ko‘rsatkichlarini baholash kabi masalalar bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish va rivojlantirishga e’tibor qaratilmoqda.

Maxsus iqtisodiy zonalar bo‘yicha olimlarning izlanishlari natijasiga ko‘ra, muvaffaqiyatli maxsus iqtisodiy zonalarning daromadi mamlakat YAIMda 5-o‘ringa, shuningdek, mamlakat yalpi eksport hajmining qariyb 40-60% qismi, barcha xorijiy investitsiyalarning 30% dan 80% gacha qismi aynan maxsus iqtisodiy zonalar orqali kirib keladi. Maxsus iqtisodiy zonalarning rivojlanishini tadqiq etish, samaradorligini baholash masalalari, MIZlarni tashkil etilishida o‘rganilib chiqilishi lozim bo‘lgan jihatlar P.Radoslav[2], S.Ven[3], U.S.Tiefenbrun[4] ilmiy izlanio‘larida erkin iqtisodiy zonalarning o‘zaro bir-biridan farqlanishi tomonidan ilmiy tadqiq etilgan.

“Maxsus iqtisodiy zona” atamasining qo‘llanilishi albatta, ma’no jihatidan “Erkin iqtisodiy zona”dan kengroq hisoblanib, o‘z ichiga nafaqat bizga ma’lum bo‘lgan “zona”ni balki, yuqori texnologik zonalar, ilmiy zonalar, Maxsus iqtisodiy zonalar, turistik-rekreatsioon zonalar, yashil zona va xavfsiz zonalarni o‘z ichiga oladi.

Bizning fikrimizcha maxsus iqtisodiy zonalar davlatni iqtisodiy barqarorligi, ijtimoiy farovonligini ta’minlash doirasida: iqtisodiy, innovatsion, resurs, tashkiliy va ijtimoiy funksiyalarni amalga oshiradi. Maxsus iqtisodiy zona funksiyalari doimiylik tavsifiga ega bo‘lgan holda, iste’molchilar uchun tovar va

xizmatlar ishlab chiqarish, yangi g‘oya, yangi vosita, omil va texnologiyalarni shakllantirish, resurs va ishlab chiqarish omillaridan oqilona va samarali birlashtirish, taktik va strategik maqsadlarni amalga oshiradi. Maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish esa jamiyatda tadbirkorlarni ko‘payishi, ish joylarni tashkil etilishi, ishchilar turmush darajasi va ijtimoiy holatini yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish, mamlakatda amal qilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy tizim ostida bo‘ladi.

Biz shuni aytishimiz mumkinki maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish – tadbirkorlikka layoqatli insonlarni qo‘llab-quvvatlash, yangi ish joylarini tashkil etish, ishchilar daromadlarini ko‘paytirish, malakasini oshirish, madaniy hordiq olishi va sog‘liklarini yaxshilashi hamda oilaviy turmush farovonligini ta‘minlashga amaliy yordam ko‘rsatish, shuningdek, hududiy ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishni ifodalaydi.

Maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish:

➤ tadbirkorlikka bo‘lgan ishtiyoqni shakllantirish va tadbirkorlikni ko‘paytirish;

- yangi ish joylarini tashkil etish;
- maqbul daromadlarni shakllantirish;
- qulay mehnat sharoitlarini tashkil qilish;
- aholi uchun ijtimoiy infratuzilmani yaratish.

Davlatlarda amal qilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy modellar asosida maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish shakllanadi.

“Maxsus iqtisodiy zonalar – cheklangan hududlar, shaharlar, dengiz va aviatsion portlar bo‘lib, ularda tashqi savdo, umumiy iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnik va ilmiy-texnologik masalalari yechimiga ko‘maklashadigan, milliy va xorijiy tadbirkorlar uchun maxsus imtiyozli iqtisodiy sharoitlar amal qiladi .

Biz yuqorida maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etishning xususiyatlari va turli ijtimoiy modellar sharoitida ularni amal qilishlari xususidagi fikr-mulohazalar asosida, maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish quyidagi tamoyillarga asoslangan holda amal qilishlari maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

➤ inson yoshi mehnatining unumdorligidan qat’iy nazar bir hilda qadrlanishi kerak, ya’ni ijtimoiy yordam barchaga tamoyili;

➤ ijtimoiy yordam doimiylik tamoyiliga ega bo‘lishi;

➤ ijtimoiy yordam barcha sharoitlarga moslashuvchan bo‘lishi, ishchilar ijtimoiy sharoitlarini tenglashtirishga yo‘naltirilishi.

Biz o‘ylaymizki maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish bugungi kunning hayotiy g‘oyasiga aylanishi kerak. Chunki maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish o‘zbek tadbirkori tomonidan o‘zini anglash, imidjni shakllantirish, innovatsiya va maqsad sari intilishni ifodalaydi. Huddi shu yo‘nalishdagi tadbirkorlar “Yangi O‘zbekiston”da rivojlanishning yangicha modellarini ilgari suraoladilar.

Jahon amaliyotida maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etishning ikkita yo‘li mavjud.

Birinchisi – “hududiy yondashuv”, ya’ni maxsus iqtisodiy zonalar muayyan imtiyozli tartib joriy qilingan aniq hudud sifatida qaraladi.

Ikkinchi yondashuv – “tizimli”: maxsus iqtisodiy zonalar muayyan shartlarga amal qilgan holda muayyan imtiyozlar taqdim etilgan aniq majmuaviy korxonalar sifatida qaraladi.

Maxsus iqtisodiy hududlar faoliyatini jahon fanida chuqur va har tomonlama o‘rganish XX asrning 70 yillarida boshlandi. Hozirgi zamon ilmiy adabiyotida, mamuriy hujjatlarda, amaliyotda, Maxsus iqtisodiy hududlarni bildiruvchi xilma-xil atamalar qo‘llaniladi: “Maxsus iqtisodiy hudud”, “Texnologik hudud”, “Maxsus bojxona hududi”, “Maxsus iqtisodiy hudud”, “Maxsus tadbirkorlik hududi”, “Maxsus eksport hududi”, “Maxsus savdo hududi”, “Bojsiz hudud”, “Qo‘shma tadbirkorlik hududi”.

Xalqaro tashkilotlar hisobotlarida va ilmiy nashriyotlarda turli xildagi hududlarning mohiyatini yoritishda “Maxsus iqtisodiy hudud” terminidan foydalanadilar. Biroq, bu termin uning mohiyatini to‘liq ifoda eta olmaydi. U yerda qo‘llaniladigan iqtisodiy qoidalar, maxsus ma’muriy qonunlar, shu hududda faoliyat yuritadigan tadbirkorlarni aniq belgilangan huquqiy va xo‘jalik rejimlaridan butunlay ozod qilmaydi, balki ularni yengillashtiradi, ma’lum imtiyozlar beradi. Shuning uchun ham EIHni “Maxsus ” emas, maxsus iqtisodiy hudud deb atash o‘rinli.

MIZ O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun yangi hodisa bo‘lganligi sababli, iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishning ushbu istiqbolli yo‘nalishi bo‘yicha jahon tajribasidan keng foydalangan holda ularni tezkor ravishda shakllantirish, MIZ faoliyati uchun zarur me’yoriy-huquqiy bazani yaratish hamda tegishli mutaxassislarini tayyorlashni tashkil etish zarur.

Maxsus hududlari esa AQSH va Buyuk Britaniya tajribasiga xos bo‘lib, aholining yashash darajasi va sifati mamlakatning boshqa hududlariga nisbatan past bo‘lgan hududlarda qo‘llanilib, turli imtiyoz va preferensiyalar orqali hududda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishga va bu orqali aholining yashash darajasini oshirishga, kichik shaharlarda ham aholining yashab qolishiga imkoniyat yaratadi. O‘zbekiston Respublikasining “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq[1], maxsus iqtisodiy zonalar Maxsus iqtisodiy zonalar, maxsus ilmiy texnologik zonalar, turistik-rekreatsion zonalar, Maxsus savdo zonalar, maxsus sanoat zonalar kabi turlarga ajratiladi.

Maxsus iqtisodiy zona — yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish, zamonaviy raqobatbardosh, import o‘rnini bosuvchi, eksportga yo‘naltirilgan tayyor sanoat mahsulotini ishlab chiqarishni o‘zlashtirishga faol jalb etish, shuningdek ishlab chiqarish, muhandislik kommunikatsiya, yo‘l-transport, ijtimoiy infratuzilmani va logistika xizmatlarini rivojlantirishni ta’minlash maqsadlarida tashkil etiladigan hudud. Maxsus ilmiy-texnologik zona — innovatsiya infratuzilmasini rivojlantirish maqsadlarida ilmiy tashkilotlar va ilmiy faoliyat sohasidagi boshqa tashkilotlar (texnologik parklar, texnologiyalarni tarqatish (texnologiyalar transferi)

markazlari, innovatsion klasterlar, venchur fondlari, biznes-inkubatorlar va boshqalar) to‘plangan hudud.

Maxsus iqtisodiy zonalarining texnik-iqtisodiy asoslari tashkil etilishda quyidagi 8 ta bo‘limlarni o‘z ichiga olishi lozim:

- MIZni tashkil etish maqsadlari;
- MIZni tashkil etish shartlari;
- MIZ uchun yer ajratish asoslari va ajratilgan hududning xususiyatlari;
- MIZni rivojlantirish istiqbollari va dasturlari;
- MIZni yaratish uchun zarur bo‘lgan resurslar;
- MIZ ishlash mexanizmi;
- MIZni tashkil etish va faoliyati bo‘yicha tashkiliy tadbirlar;
- MIZni tashkil etish samaradorligini baholash.

*Iqtisodiy maqsadlar:*

- maxsus imtiyozli iqtisodiy mexanizmlar, barqaror qonunchilik asoslari va turli tashkiliy jarayonlarni soddalashtirish orqali xorijiy va milliy kapitalni jalb qilish;

- tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish, oqilona import va import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarish mexanizmini tashkil qilish uchun xalqaro geografik mehnat taqsimoti va xalqaro kapital aylanishi afzalliklaridan foydalanish;

- mamlakat va mintaqa byudjetiga kelib tushadigan valyuta tushumlarining o‘sishi;

- turli TIF shakllari; barcha tashkilotlar va MIZlar korxonalariga yo‘l ochish orqali tashqi savdo monopoliyalarini yo‘q qilish.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida qo‘yidagi xulosalarga kelindi.

MIZni tashkil etishning asosiy maqsadi, mamlakatni xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanish jarayoniga chuqurroq jalb qilish. Ikkinchidan, MIZni tashkil qilishning yana bir maqsadi, mamlakat ichki bozorini import tovar o‘rnini bosa oluvchi sifatli mahsulot bilan to‘yintirish. Uchinchidan, maxsus iqtisodiy hudud tashkilotchilari xalqaro savdo bozorida faqatgina ishlab chiqarish liniyasi bo‘yicha ishtirok etishga e‘tibor beribgina qolmaydi, undan tashqari, turizm sohasiga, madaniyat sohasiga, sanatoriya-kurort sohasiga ham e‘tibor qaratadi. To‘rtinchidan, MIZning maqsadi mamlakatda mahalliy hamda chet el ilmiy texnikasining ishlab chiqarishda tezroq va keng ko‘lamda qo‘llanishini ta‘minlash, kelajakda ulardan samarali foydalanish va ularning natijalarini mamlakat milliy iqtisodiyoti rivojida aks ettirish. Beshinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlarda tashkil qilinadigan MIZning maqsadi mamlakatdagi ishchi kuchini, injinerlarni, xo‘jalik ishdagilarni va boshqaruv faoliyatini olib boruvchi kadrlar tayyorgarliklarini va malakasini oshirish. Oltinchidan, MIZning muhim maqsadlaridan biri – bu ma‘lum bir hududdagi iqtisodiyotning rivojlanishiga yoki aniq bir tarmoqning rivojlanishiga turtki bo‘lish. Yettinchidan, ba‘zi-bir mamlakatlarda EIZga ma‘lum bir mintaqani zamonaviylashtirish, rivojlantirish usuli kabi qaraladi. EIZ mamlakatda hukum surayotgan iqtisodiyotning qaysidir turidan zamonaviy bozor iqtisodiyotiga o‘tishga yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Махсус иқтисодий зоналар тўғрисида”ги Қонуни. ЎРҚ-604-сон 17.02.2020. <https://lex.uz/docs/4737511>
2. Radoslaw P “Special Economic Zones effectiveness assessment based on the adjusted enclave model. The Case of Poland”, Dissertatsiya, 2016.
3. S.Ven “Special Economic Zones as a Tool for Accelerating Economic Growth”. Dissertatsiya. Kombodja Taraqqiyot Instituti, PhD, 2018.
4. U.S. Tiefenbrun “Foreign Trade Zones of the United States, FreeTrade Zones of the World, and their Impact on the Economy”, Dissertatsiya, 2016

*Abduraxmanova Aqida Fayzulla qizi - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrası” dotsenti, PhD, ORCID-0000-0003-4202-7159*

*Sharipboyev Husanboy Marks o‘g‘li - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali 3-bosqich talabasi*

## BARQAROR RIVOJLANISHDA DAVLAT INVESTITSIYA SIYOSATINING O‘RNI

**Аннотация:** Mazkur maqolada barqaror rivojlanishni ta’minlashda davlat investitsiya siyosatining o‘rni O‘zbekiston tajribasi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiya dasturlari, xususan, infratuzilmani rivojlantirish, sanoatni modernizatsiya qilish, yashil energetika va ijtimoiy sohalarga yo‘naltirilgan investitsiyalarning iqtisodiy o‘shirish hamda ijtimoiy barqarorlikka ta’siri yoritilgan. Shuningdek, investitsiya siyosatini takomillashtirish orqali hududlar rivojini muvozanatlashtirish, bandlikni oshirish va resurslardan samarali foydalanish masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda barqaror rivojlanishga erishishda davlat investitsiya siyosati muhim strategik vosita ekanini ko‘rsatadi.

**Калит so‘zlar:** yashil investitsiyalar, davlat tartibga solishi, barqaror iqtisodiy o‘shirish, ekologik moliyalashtirish, qayta tiklanadigan energiya, soliq rag‘batlari, subsidiyalash mexanizmlari, ekologik modernizatsiya, investitsion siyosat.

**Аннотация:** В данной статье на основе опыта Узбекистана анализируется роль государственной инвестиционной политики в обеспечении устойчивого развития. В исследовании рассматриваются реализуемые государством инвестиционные программы, в частности инвестиции, направленные на развитие инфраструктуры, модернизацию промышленности, «зелёную» энергетику и социальные сферы, а также их влияние на экономический рост и социальную устойчивость. Кроме того, изучаются вопросы совершенствования инвестиционной политики с целью сбалансированного развития регионов, повышения занятости и эффективного использования ресурсов. Результаты исследования показывают, что государственная инвестиционная политика является важным стратегическим инструментом достижения устойчивого развития в Узбекистане.

**Ключевые слова:** зелёные инвестиции, государственное регулирование, устойчивый экономический рост, экологическое финансирование, возобновляемая энергия, налоговые стимулы, механизмы субсидирования, экологическая модернизация, инвестиционная политика.

**Abstract:** *This article analyzes the role of state investment policy in ensuring sustainable development based on the experience of Uzbekistan. The study examines government-implemented investment programs, particularly investments directed toward infrastructure development, industrial modernization, green energy, and social sectors, and evaluates their impact on economic growth and social stability. In addition, the paper considers issues of improving investment policy to balance regional development, increase employment, and ensure efficient use of resources. The research findings demonstrate that state investment policy is an important strategic instrument for achieving sustainable development in Uzbekistan.*

**Keywords:** *green investments, state regulation, sustainable economic growth, environmental financing, renewable energy, tax incentives, subsidy mechanisms, environmental modernization, investment policy.*

**Kirish:** Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlash davlatning asosiy vazifalaridan biridir. Global miqyosda iqtisodiy o‘shish bilan ekologik xavfsizlik masalalari bir-biriga bog‘liq bo‘lib, tabiiy resurslar cheklanganligi, iqlim o‘zgarishi va atrof-muhit ifloslanishi iqtisodiy faoliyatni yangi sharoitlarda qayta tartibga solishni zarur qiladi. Shu munosabat bilan yashil iqtisodiyot konsepsiyasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, bunda iqtisodiy o‘shish va ekologik barqarorlik uyg‘unlashadi. Buning uchun barqaror rivojlanish asoslari ko‘plab davlatlarda qo‘llanilmoqda.

Barqaror rivojlanish resurslardan samarali foydalanish, innovatsiyalarga asoslangan ishlab chiqarishga o‘tish va kelajak avlod ehtiyojlari uchun kerakli resurslar qoldirishni anglatuvchi birikmadir. Barqaror iqtisodiyot jamiyat (qonunlar va qoidalar), iste’molchilar va korxonalar tomonidan qabul qilingan iqtisodiy qarorlarga asoslanadi. Iqtisodiy barqarorlik resurslarni yo‘qotish yoki qarzdorlikka asoslanmagan muvozanatli o‘shishni anglatadi. Iqtisodiy barqarorlikka samarali qayta ishlash va qayta tiklanadigan resurslardan foydalanish orqali erishish mumkin. Uzoq muddatli istiqbolda butun dunyo va barcha avlodlar uchun atrof-muhitning tashish qobiliyatini hisobga olish muhimdir. Ushbu bo‘lim barqaror rivojlanishni har bir iqtisodiy qaror qabul qiluvchi nuqtai nazardan ko‘rib chiqadi. Barqaror rivojlanishning 5 ta asosiy tamoyillari mavjud, jumladan, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy barqarorlik, ekologik barqarorlik, davlatning barqaror rivojlanishdagi roli hamda barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlari bo‘lib, ular jamiyatning uzoq muddatli va muvozanatli taraqqiyotini ta’minlashda o‘zaro uyg‘un holda amal qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi:** Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va yashil investitsiyalar orqali barqaror rivojlanishni ta’minlash masalalari ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Jahon bo‘yicha barqaror rivojlanish sohasida juda ko‘plab kitoblar va ilmiy ishlar yozilgan. Jumladan, Niko Roorda tomonidan yozilgan “Fundamentals of Sustainable Development” ya’ni “Barqaror rivojlanish asoslari” nomli kitob eng asosiy ilmiy asoslangan ish hisoblanadi. Muallif barqaror rivojlanishni uch asosiy kapital- iqtisodiy kapital (ishlab chiqarish quvvatlari va moliyaviy resurslar), ijtimoiy kapital (inson kapitali, institutlar va tenglik), hamda tabiiy kapital (yer, suv, energiya, ekologik tizimlar) o‘zaro muvozanatda rivojlanishi sifatida izohlaydi. Agar ushbu kapital

turlaridan biri izdan chiqsa, iqtisodiy tizimning uzoq muddatli samaradorligi pasayadi. Kitobda iqtisodiy qarorlar qisqa muddatli foyda emas, balki uzoq muddatli qiymat yaratish nuqtayi nazaridan baholanishi kerakligi ta’kidlanadi. Masalan, ekologik xarajatlarni e’tiborsiz qoldirish dastlab iqtisodiy foyda keltirgandek ko‘rinsa-da, kelajakda ishlab chiqarish tannarxining oshishiga va iqtisodiy yo‘qotishlarga olib keladi. Shuningdek, Niko Roroda barqaror rivojlanishda davlat siyosati va institutlarning roli muhim ekanini ko‘rsatadi. Davlat iqtisodiyotni tartibga solish, investitsiyalarni yashil texnologiyalarga yo‘naltirish va bozor mexanizmlarini ekologik va ijtimoiy mezonlar bilan uyg‘unlashtirish orqali barqaror iqtisodiy muhit yaratadi. Umuman olganda, kitobda barqaror rivojlanish an’anaviy iqtisodiy o‘shish modelidan farqli ravishda, yalpi ichki mahsulot (YaIM) bilan bir qatorda barqarorlik ko‘rsatkichlari, resurs unumdorligi va ijtimoiy farovonlikni asosiy mezon sifatida qaraydi. O‘zbekistondagi tadqiqotlar ko‘proq iqtisodiyotni tartibga solish instrumentlari, moliyaviy rag‘batlantirish vositalari va investitsion siyosatni o‘rganishga qaratilgan. Abulkasimov H. va Topildiyev S. (2022) iqtisodiyotni tartibga solishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlarini batafsil tahlil qilgan. Mualliflar davlatning soliq imtiyozlari, subsidiyalar va kredit preferensiyalari orqali iqtisodiy faoliyatni tartibga solish imkoniyatlarini ko‘rsatib, milliy iqtisodiyot sharoitida ushbu mexanizmlarning samaradorligini baholashga alohida e’tibor qaratadi. Topildiyev S. (2025) o‘quv qo‘llanmasida esa davlat siyosati orqali investitsion faollikni rag‘batlantirish, bozor mexanizmlari bilan uyg‘unlashtirish va barqaror rivojlanishga erishish masalalari amaliy misollar bilan yoritilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi:** Mazkur maqolada barqaror rivojlanishni ta’minlashda davlat investitsiya siyosatining o‘rni va ahamiyatini aniqlash maqsadida nazariy va amaliy tahlilga asoslangan kompleks metodologiya qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, investitsion siyosat va barqaror rivojlanish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ilmiy jihatdan o‘rganildi. Tadqiqotda tizimli yondashuv asosida davlat investitsiya siyosati iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlik omillari bilan uzviy bog‘liqlikda tahlil qilindi. Bu yondashuv investitsiya oqimlarining yo‘nalishi, ularning iqtisodiy samaradorligi hamda uzoq muddatli barqaror rivojlanishga ta’sirini aniqlash imkonini berdi.

**Tahlil va natijalar:** O‘zbekiston Respublikasi Hukumati aholining farovonligini yanada oshirish va Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lida keng ko‘lamli ijtimoiy islohotlarni izchil davom ettirmoqda. O‘zbekiston 2017-yildan boshlab o‘z taraqqiyotida yangi bosqichga qadam qo‘ydi. 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan milliy taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilib, bu yo‘lda hukumat va jamiyatning barcha imkoniyat va resurslari safarbar etildi. Ushbu jarayonning muhim qismi sifatida. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil dekabr oyida Oliy Majlis palatalariga qilgan murojaatida davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerakligi, aksincha bo‘lmasligi lozimligini qat’iy ta’kidladi. Mazkur tamoyilni

hayotga tatbiq etish maqsadida aholining murojaatlari bilan ochiq muloqot olib borish va ularning muammolarini samarali hal etishga qaratilgan yangi tizim joriy etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasi ushbu tizimning asosini tashkil etib, fuqarolarning murojaatlarini ko‘rib chiquvchi noyob demokratik institut sifatida faoliyat yuritmoqda.

**1-jadval**

**Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning hajmi va o‘shish sur‘ati<sup>21</sup>**

<b>Hudud</b>	<b>Hajmi, mlrd so‘m</b>	<b>O‘shish sur‘ati, % da</b>	<b>Shu jumladan, aholi jon boshiga hajmi, ming so‘m</b>	<b>O‘shish sur‘ati, % da</b>
O‘zbekiston Respublikasi	120 409,8	107,9	3 200,6	105,8
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	5 560,1	124,6	2 735,7	122,9
<b>Viloyatlar:</b>				
Andijon	7 284,9	119,0	2 100,9	116,8
Buxoro	8 819,1	81,6	4 240,2	80,3
Jizzax	5 136,2	106,5	3 333,3	104,4
Qashqadaryo	8 164,1	87,2	2 238,1	85,3
Navoiy	8 073,3	79,7	7 359,4	78,3
Namangan	12 406,4	128,2	3 953,2	125,5
Samarqand	10 437,2	133,7	2 423,7	131,0
Surxondaryo	6 083,1	101,7	2 060,2	99,4
Sirdaryo	5 041,8	179,0	5 405,6	175,7
Toshkent viloyati	16 112,9	113,7	5 172,7	111,6
Farg‘ona	6 426,3	134,7	1 547,2	132,0
Xorazm	3 935,7	135,7	1 933,1	133,3
Toshkent shahri	16 874,3	96,1	5 407,4	93,9

Ushbu o‘zgarishlarning bosh maqsadi-xalq manfaatlarini ta’minlashdir. Mamlakat ehtiyojlaridan kelib chiqib, samarali iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha dastlabki choralar ko‘rildi. Qonunlar, farmonlar va qarorlar qabul qilinib, bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilmoqda. Milliy iqtisodiyotni yanada liberallashtirish, huquqiy bazani takomillashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishga qaratilgan puxta ishlab chiqilgan dasturlar amalga oshirilmoqda.

Qisqa vaqt ichida O‘zbekistonda 161 ta yirik sanoat obyekti ishga tushirildi. 2017-yilda ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida iqtisodiy o‘shish sur‘ati 5,5 foizni, eksport hajmining o‘shishi esa 15 foizni tashkil etdi.

<sup>21</sup> O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi

2-jadval

**Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibi (jamiga nisbatan %, da)**

Hudud	Jami	Respublika byudjeti	Korxonalar va tashkilotlar	Aholi	Xorijiy investitsiyalar va kreditlar	Bank kreditlari	Byudjetdan tashqari jamg‘armalar	Tadbirkorlik subyektlari
O‘zbekiston Respublikasi	100	2,4	17,0	7,0	71,0	0,1	0,2	2,3
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	100	2,3	10,1	6,9	73,3	0,2	–	7,2
<b>Viloyatlar:</b>								
Andijon	100	2,2	11,9	5,1	78,9	–	0,5	1,4
Buxoro	100	1,4	9,8	9,1	78,2	0,1	–	1,4
Jizzax	100	3,3	17,1	7,2	70,7	–	–	1,7
Qashqadaryo	100	2,5	12,4	9,8	73,0	0,2	1,2	0,9
Navoiy	100	0,9	16,1	6,8	74,5	–	–	1,7
Namangan	100	2,4	9,0	5,1	82,7	–	–	0,8
Samarqand	100	2,4	20,0	5,2	69,4	0,4	–	2,6
Surxondaryo	100	2,6	6,0	9,8	80,3	–	–	1,3
Sirdaryo	100	2,6	8,4	2,2	84,0	0,3	–	2,5
Toshkent viloyati	100	1,9	17,7	8,1	69,9	–	–	2,4
Farg‘ona	100	3,3	15,3	9,8	66,2	0,2	–	5,2
Xorazm	100	5,2	15,2	14,4	61,3	1,2	–	2,7
Toshkent shahri	100	3,1	38,7	4,3	50,7	–	0,3	

Tashqi savdo ijobiy saldosini 854 million AQSh dollariga yetdi. Milliy valyuta-o‘zbek so‘mi erkin ayirboshlanadigan bo‘ldi. Valyuta bozorining liberallashtirilishi natijasida chet el valyutasini sotib olish va sotish operatsiyalari soni 1,5 barobarga oshdi. Shu bilan birga, davlatning oltin-valyuta zaxiralari 1,1 milliard AQSh dollariga ko‘paydi. O‘tgan yil davomida mamlakatda 12 ta erkin iqtisodiy zona va 45 ta sanoat zonasi faoliyat boshladi, bu hududlar rivojiga kuchli turtki berdi. Yaqin kelajakda yana 50 ta sanoat zonasini tashkil etish rejalashtirilmoqda. Ish o‘rinlari yaratish O‘zbekiston uchun ustuvor vazifa hisoblanadi.

2017-yilda yangi sanoat korxonalarini tashkil etilishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda xizmatlar sohasini kengaytirish hisobiga 336 mingta yangi ish o‘rni yaratildi. Ijtimoiy islohotlar ham tasdiqlangan dasturlar asosida amalga oshirilmoqda. Hukumat yangilangan loyihalar asosida arzon uy-joylar qurib, imtiyozli ipoteka kreditlarini taqdim etmoqda. Katta va kichik shaharlarda namunaviy ko‘p qavatli uy-joylar qurilishi hisobiga 3,5 million kvadrat metr turar joy foydalanishga topshirildi. Uy-joy qurilishi hajmi 2007-yilga nisbatan 20 barobar, 2010-yilga nisbatan 3,5 barobar, 2014-yilga nisbatan esa 2 barobar oshdi. Orolbo‘yi mintaqasidagi ekologik vaziyatni yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rildi. Moliya vazirligi tomonidan Orolbo‘yi hududini

rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etilib, unga 200 milliard so‘mdan ortiq, ya‘ni taxminan 25 million AQSh dollari yo‘naltirildi. Ushbu mablag‘lar Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida suv ta‘minoti hamda aholi yashash sharoitlarini yaxshilashga sarflandi.


## UZBEKISTAN

Eastern Europe and Central Asia

### Overall Performance



### Average Performance by SDG



### 1-rasm. O‘zbekiston Barqaror rivojlanish indeksida 62-o‘rinni egalladi (2025-yil)

Barqaror rivojlanish iqtisodiy o‘shish, ijtimoiy farovonlik va ekologik muvozanat uyg‘unligini ta‘minlashni nazarda tutadi. Ushbu jarayonda investitsiyalar asosiy harakatlantiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Tahlil qilingan jadvallar ma‘lumotlariga ko‘ra, asosiy kapitalga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar hajmining oshib borishi mamlakatda ishlab chiqarish salohiyatining kengayishiga, infratuzilma obyektlarining modernizatsiyasiga hamda hududlar iqtisodiy faolligining kuchayishiga xizmat qilmoqda.

Birinchidan, iqtisodiy barqarorlik nuqtayi nazaridan, investitsiyalar sanoat, qurilish va xizmatlar sohasida yangi quvvatlarni yaratib, yalpi hududiy mahsulot hajmining ortishiga zamin yaratadi. Xususan, Toshkent viloyati, Toshkent shahri, Namangan va Samarqand viloyatlarida investitsiyalar hajmining yuqori bo‘lishi ushbu hududlarda iqtisodiy o‘shish sur‘atlari nisbatan tezlashayotganini ko‘rsatadi. Sirdaryo viloyatida o‘shish sur‘atining 179 foizga yetgani investitsiyalar hududiy rivojlanishdagi tafovutlarni qisqartirishga xizmat qilayotganini anglatadi.

**Xulosa va takliflar:** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sharoitida barqaror rivojlanishni ta‘minlashda davlat investitsiya siyosati yetakchi omillardan biri hisoblanadi. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiyalar iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgarishiga, ishlab chiqarish salohiyatining oshishiga va ijtimoiy sohalarning rivojlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, infratuzilma, sanoat va energetika yo‘nalishlariga yo‘naltirilgan investitsiyalar uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, investitsiya siyosatini samarali tashkil etish hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish va aholining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Umuman olganda, davlat

investitsiya siyosati O‘zbekistonda barqaror rivojlanish strategiyasining ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Barqaror rivojlanishni yanada mustahkamlash maqsadida davlat investitsiya siyosatini takomillashtirish zarur. Barqaror rivojlanishni ta‘minlashda investitsiyalarning rolini yanada kuchaytirish maqsadida quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. **Hududlararo investitsiya muvozanatini kuchaytirish.** Investitsiyalar hajmi yuqori bo‘lgan Toshkent shahri va Toshkent viloyati bilan solishtirganda ayrim hududlarda nisbatan past ko‘rsatkichlar saqlanib qolmoqda. Shu sababli iqtisodiy salohiyati past hududlar uchun maxsus investitsiya dasturlari ishlab chiqish hamda soliq va bojxona imtiyozlarini kengaytirish zarur.

2. **Ichki investitsiya manbalarini faollashtirish.** Aholi va mahalliy tadbirkorlik subyektlari mablag‘larining investitsiyalardagi ulushini oshirish maqsadida jamg‘arma mexanizmlarini rivojlantirish, kichik biznes uchun imtiyozli kredit liniyalarini kengaytirish hamda moliyaviy savodxonlikni oshirish tavsiya etiladi.

3. **Xorijiy investitsiyalarni yuqori qo‘shimcha qiymatli tarmoqlarga yo‘naltirish.** Jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalarni asosan qayta ishlash sanoati, raqamli texnologiyalar, “yashil energetika” va innovatsion loyihalarga yo‘naltirish orqali iqtisodiyotning barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

4. **Ekologik yo‘naltirilgan investitsiyalar ulushini ko‘paytirish.** Atrof-muhitga salbiy ta‘siri kam bo‘lgan texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga investitsiyalarni rag‘batlantirish barqaror rivojlanishning ekologik komponentini mustahkamlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abulkasimov H., Topildiyev S. *Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish*. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2022.

2. OECD. *Green Investment Policies: Trends and Opportunities*. Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development, 2017

3. The World Bank. *Annual Report 2021: From Crisis to Green, Resilient, and Inclusive Recovery*. Washington, DC: World Bank, 2021. [Business College Helsinki](#) ma‘lumotlaridan foydalanildi.

4. <https://stat.uz/uz/> O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi rasmiy sayti

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2019–2030-yillar davrida “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida PQ-4477-sonli qaror. Toshkent, 2019. <https://lex.uz/docs/-4539502>

**Rajabaliyeva Iroda Alisherovna** – Iqtisodiyot va pedagogika universiteti assistenti, [irodaalisherovna820@gmail.com](mailto:irodaalisherovna820@gmail.com)

## TRANSPORT-LOGISTIKA INFRATUZILMASINING MINTAQA IQTISODIYOTIGA TA’SIRI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada transport-logistika infratuzilmasining mintaqaviy iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda xalqaro transport yo‘laklari tushunchasi, ularning shakllanish shartlari hamda transport-logistika tizimining mintaqaviy va milliy iqtisodiyotga ta’siri yoritib berilgan. O‘zbekiston, xususan Markaziy Osiyo mintaqasida xalqaro temir yo‘l va multimodal transport yo‘laklarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, mavjud infratuzilma holati va amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari misolida tahlil qilingan. Maqolada transport-logistika infratuzilmasining rivojlanishi tranzit salohiyatini oshirish, eksport-import jarayonlarini faollashtirish, hududlararo iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratishdagi roli asoslab berilgan. Maqolada ilgari surilgan xulosa va takliflar transport-logistika infratuzilmasini takomillashtirish bo‘yicha amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so‘zlar:** Xalqaro transport yo‘lagi, transport yo‘lagi, iqtisodiy rivojlanish, yuk tashish, transport, transit.

**Аннотация:** В статье рассматривается роль и значение транспортно-логистической инфраструктуры в развитии региональной экономики. Исследуются сущность международных транспортных коридоров, условия их формирования и влияние транспортно-логистических систем на социально-экономическое развитие регионов. На примере Республики Узбекистан и стран Центральной Азии проанализированы современные тенденции развития железнодорожных и мультимодальных транспортных коридоров, а также реализуемые инфраструктурные и инвестиционные проекты. В работе обосновано, что развитие транспортно-логистической инфраструктуры способствует росту транзитного потенциала, активизации экспортно-импортных операций, расширению межрегиональных экономических связей и созданию новых рабочих мест. Сформулированные выводы и предложения имеют практическое значение для совершенствования транспортно-логистической системы.

**Ключевые слова:** Международный транспортный коридор, транспортный коридор, экономическое развитие, грузоперевозки, транспорт, транзит.

**Abstract:** This article examines the role and significance of transport and logistics infrastructure in the development of regional economies. The study analyzes the concept of international transport corridors, the conditions for their formation, and the impact of transport and logistics systems on regional and national economic development. Using the example of the Republic of Uzbekistan and the Central Asian region, current trends in the development of railway and multimodal transport corridors, as well as ongoing infrastructure and investment projects, are analyzed. The article substantiates that the development of transport and logistics infrastructure contributes to increasing transit potential, intensifying export-import operations, expanding interregional economic integration, and creating new employment opportunities.. The conclusions and recommendations presented in the article have practical relevance for improving transport and logistics systems.

**Keywords:** International transport corridor, transport corridor, economic development, shipments, transport, transit

**Kirish:** Global iqtisodiy integratsiya sharoitida transport-logistika infratuzilmasi mintaqaviy iqtisodiyot rivojlanishining asosiy omillaridan biri

hisoblanadi. Transport tizimining rivojlanganligi hududlararo tovar ayirboshlash, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va eksport-import jarayonlarining samaradorligini belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasida transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarga yetkazib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Global integratsiya jarayonlari va global mehnat taqsimoti sharoitida xalqaro transport yo‘laklari (XTY) jahon iqtisodiyoti rivojlanishining eng muhim omillaridan biridir. XTYlar xalqaro iqtisodiy munosabatlarning turli ishtirokchilari o‘rtasida barqaror transport aloqalarini yaratish va faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Xalqaro savdo markazlarining global iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyatini inkor etish, albatta, qiyin. Shu bilan birga, Xalqaro savdo markazlarining shakllanishi ortida qanday shartlar turgani va ular Xalqaro savdo markazining milliy qismi o‘tadigan davlatlarning milliy iqtisodiyotini rivojlantirishga qanday hissa qo‘shishi borasida ilmiy qiziqish paydo bo‘ladi. Bugungi kunda transport tizimi mamlakatning iqtisodiy rivojlanish sur‘atini, aholining turmush darajasini va har bir mamlakatning milliy xavfsizlik darajasini belgilovchi omil hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalarining holati ko‘p jihatdan mamlakat transport tizimining, ayniqsa Markaziy Osiyodagi xalqaro transport infratuzilmasining rivojlanishi bilan belgilanadi, chunki O‘zbekiston suv va dengiz yo‘llariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyatiga ega emas. Markaziy Osiyo mamlakatlarining geografik joylashuvi tufayli temir yo‘l transporti tranzit va eksport-import yuk tashishning asosiy transporti hisoblanadi. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi (XTY yonida) tomonidan foydalaniladigan 9 ta xalqaro temir yo‘l transport yo‘laklari mavjud bo‘lib, ular orqali Rossiya va G‘arbiy Yevropadan Markaziy va Janubi-Sharqiy Osiyoga yuk tashish amalga oshiriladi. Yevroosiyo mintaqasidagi, jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasidagi hozirgi geosiyosiy vaziyatdan kelib chiqib, xalqaro temir yo‘l yo‘laklaridan oqilona foydalanish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, Markaziy Osiyo mintaqasidagi hozirgi siyosiy vaziyat, jumladan, Afg‘onistondagi vaziyatning keskinlashishi, butun dunyoda bo‘lgani kabi, qo‘shni davlatlar bilan iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirmasdan transport va infratuzilma loyihalarini saqlab qolish oson bo‘lmaydi. Shu bilan birga, shuni ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasining mintaqada faollashishi uchun raqobat sharoitida bu omil uning raqobatchilari tomonidan mintaqacha uchun kurashda ko‘proq qo‘llaniladi. O‘z navbatida, bu vaziyat mintaqaviy temir yo‘l rivojlantirish loyihalari misolida Markaziy Osiyoda, xususan, O‘zbekiston Respublikasida transport infratuzilmasini rivojlantirishning asosiy tendentsiyalarini ko‘rib chiqishni talab qiladi.

Ko‘rib chiqilgan tashabbuslarning asosiy maqsadi O‘zbekiston Respublikasini tranzit mamlakatlari qatoriga kiritish va muqobil multimodal transport yo‘laklarini yaratishdir.

Temir yo‘l infratuzilmasini takomillashtirish, investitsiya loyihalarini amalga oshirish va tashabbuslarni amalga oshirish uchun yangi muqobil multimodal yo‘laklarni yaratish ishlari davom etmoqda.

Shu munosabat bilan investitsiya loyihalarini amalga oshirish mahalliy va mintaqaviy loyihalarga bo‘linadi. Ushbu investitsiya loyihalari quyida muhokama qilinadi:

Mahalliy loyihalar:

-Navoiy-Buxoro yo‘nalishida ikkinchi elektrlashtirilgan yuqori tezlikdagi temir yo‘l liniyasini qurish (93 km);

- "Shavot-Qorauzak" temir yo‘l liniyasini bog‘laydigan va Amudaryodan o‘tadigan ko‘prik qurish (82 km);

-Buxoro-Urganch-Xiva temir yo‘l uchastkasini elektrlashtirish (452 km);

-Buxoro-Qashqadaryo temir yo‘l uchastkasini elektrlashtirish (145 km);

Mintaqaviy loyihalar:

- “Xitoy-Qirg‘iziston- O‘zbekiston” temir yo‘l liniyasini qurish;

- “Mozori Sharif -Kobul -Peshovar” temir yo‘l liniyasini qurish

O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunlar, farmonlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mamlakatimizda, jumladan, temir yo‘l kompaniyasi uchun ham ijobiy investitsiya muhitini yaratishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, XTY loyihalarining ko‘lami va “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning Osiyo mintaqasi transport bozorida raqobatbardoshligini oshirish istagi transport texnologiyalari va sifat menejmenti tizimida asosiy fondlar, transport va o‘tkazish qobiliyati, obyektiv baholash va ishlab chiqarish quvvatlarining holatini yaxshilashni talab qiladi. Bundan tashqari, “Xitoy-Qirg‘iziston-O‘zbekiston-Turkmaniston-Ozarbayjon-Gruziya-Turkiya- Yevropa” xalqaro multimodal yo‘nalishi bo‘ylab yuk tashish hajmini oshirish maqsadida bir qator uchrashuvlar tashkil etildi. Bunga yuqorida qayd etilgan respublikalararo va mintaqaviy loyihalarni amalga oshirish orqali erishiladi, bu loyihalar O‘zbekiston va qo‘shni davlatlar uchun quyidagi ijobiy foydalarni o‘z ichiga oladi:

- mamlakatlarning tranzit va eksport-import salohiyatini oshirish;
- yangi ish o‘rinlarini yaratish;
- O‘zbekistonning janubiy va sharqiy mintaqalari iqtisodiyotining o‘sishi;
- qo‘shni davlatlar iqtisodiyotining o‘sishi va transport tizimini rivojlantirish;
- yangi sanoat va konchilik korxonalarini tashkil etish;
- transport xarajatlarini kamaytirish va boshqalar.

Mintaqaviy temir yo‘l tizimining ijobiy tajribasi va tashkil etilishini hisobga olgan holda, XTY qurilishi va modernizatsiya qilinishieng qisqa va eng qulay Yevrosiyo transport yo‘lagini yaratishini, uning asosiy raqobatbardosh ustunligi yuk tashish ishonchliligi va yetkazib berish tezligi bo‘lishini ta’kidlash mumkin.

Biroq, xalqaro transportda ishtirok etish masalasini to‘liq hal qilish uchun mavjud to‘siqlarni yengib o‘tish kerak bo‘ladi. Xususan, "O‘zbekiston temir yo‘llari" AJning kuchli va kuchsiz tomonlarini strategik tahlil metodologiyasi, jumladan, loyiha amalga oshirilayotgan aniq vaziyatda strategik boshqaruv usullari yordamida aniqlash mumkin. Shu tarzda aniqlangan

imkoniyatlar texnologiyani yaxshilaydi va yuk tashishning barqarorligini ta'minlaydi. Transport xizmatlari sifatini yaxshilash XTY bo‘ylab transportning jozibadorligini ham oshiradi.

Yuk tashish hajmini oshirish imkoniyatini belgilovchi asosiy muammo Afg‘oniston va Qirg‘iziston hududlaridan o‘tuvchi temir yo‘l qurilishi bo‘lib qolmoqda. Buni bartaraf etish uchun temir yo‘l kompaniyalari ayniqsa vagon kompaniyalari, lokomotiv kompaniyalari, yo‘l kompaniyalari va boshqalar kapital qo‘yilmalar hajmi va yo‘nalishlarini aniqlash, qurilayotgan va rekonstruksiya qilinayotgan uchastkalarini texnik jihozlash tartibi va muddatlarini belgilash, shuningdek, mamlakatlarda barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash zarur. Bunday texnik ko‘rsatkichlarni va infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni aniqlash zarur investitsiya hajmlarini hisoblash uchun asos bo‘ladi.

**Xulosa va takliflar:** Tadqiqot natijalari transport-logistika infratuzilmasining mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda strategik ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi. Xalqaro transport yo‘laklarining shakllanishi va rivojlanishi hududlarning tranzit salohiyatini oshirish, eksport-import jarayonlarini jadallashtirish hamda ishlab chiqarish va savdo aloqalarini kengaytirishga xizmat qiladi. Transport-logistika infratuzilmasining rivojlanganligi mintaqalarda iqtisodiy faollikni kuchaytirib, bandlik darajasini oshirish va aholi farovonligini yaxshilashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasining, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasidagi qulay geografik joylashuvi xalqaro temir yo‘l va multimodal transport yo‘laklarini rivojlantirish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, logistika xizmatlari sifatini oshirish va investitsiya loyihalarini kengaytirish orqali mintaqaviy iqtisodiy o‘shishni jadallashtirish mumkin.

Shu bilan birga, mavjud transport-logistika infratuzilmasidan to‘liq va samarali foydalanish uchun institutsional, texnologik va investitsiyaviy muammolarni bartaraf etish zarur. Xalqaro transport yo‘laklari mintaqa iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish bilan bir qatorda, hududlararo iqtisodiy integratsiyani mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, transport-logistika infratuzilmasining mintaqa iqtisodiyotiga ta’sirini kuchaytirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish orqali temir yo‘l va avtomobil transportining texnik holatini yaxshilash hamda yuk tashish samaradorligini oshirish; xalqaro va mintaqaviy miqyosda multimodal transport yo‘laklarini rivojlantirish orqali tranzit salohiyatini kengaytirish va transport xarajatlarini qisqartirish; transport-logistika sohasiga xorijiy va xususiy investitsiyalarni faol jalb etish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish; raqamli va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali logistika jarayonlarini avtomatlashtirish va transport xizmatlari sifatini oshirish; qo‘shni davlatlar bilan transport va logistika sohasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali xalqaro transport yo‘laklaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi transport-logistika infratuzilmasining mintaqa iqtisodiyotiga ijobiy ta‘sirini kuchaytirib, barqaror iqtisodiy o‘sish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2023-yilda 11-sentabrgi PF-158-son Farmoni [“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida](#)”. – Toshkent.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. – Toshkent.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi PQ–4143-son Qarori “*Transport-logistika tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*”. – Toshkent.
4. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi. *O‘zbekistonda transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish holati va istiqbollari*. – Toshkent, rasmiy ma’lumotlar to‘plami.

## **II SHO‘BA. XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI YASHIL VA INNOVASION IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH, KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH, AHOLI BANDLIGI, FAROVONLIGI, YASHASH DARAJASI VA SIFATINI OSHIRISH MASALALARI.**

**Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев**

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти профессори, и.ф.д.

**Озода Мамаюнусова Пардаева**

Тошкент Давлат Иқтисодиёт университети кафедра мудир, доцент, PhD.

**Ботир Рахматуллаевич Пардаев**

“Буюк Ипак Йўли” халқаро университети ўқитувчиси, PhD.

### **ИҚТИСОДИЁТНИНГ ТУРЛИ БОСҚИЧЛАРИДА ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШНИНГ МАЗМУНИ**

**Инновацион ривожланиш деганда,** жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий тараққиётини макро, мезо ва микро даражадаги субъектларнинг янги ғоялар, технологиялар ва ёндашувлар асосида инновацион омиллар эвазига узлуксиз ва барқарор тараққий этиш жараёни тушунилади. Бугунги кунда глобаллашув жараёнида рақобатнинг кчайган даврида инновацион ривожланиш ўта муҳим омил бўлиб қолмоқда. Чунки янги ғоялар ва технологиялардан фойдаланган ҳолда ривожланмаса орқада қолиб, рақобатда ютқазиб, касодга учраб қолиши тайин. Шу туфайли бундай ривожланишга эришиш учун барча соҳаларда кескин киришмоқ лозим.

Иқтисодиётнинг ривожланиши барча босқичларда ҳам барқарор бўлиши лозим. Акс ҳолда кўзланган мақсадга эришиб бўлмайди. Микро даражани ривожлантириш орқали мезо даражага дахлдор иқтисодиёт ривожланади. Ушбу босқичларнинг ривожланиши макро даражанинг ривожланишини таъминлайди. Шу туфайли инновацион ривожланишни таъминлаш учун иқтисодиётнинг барча босқичларига масъулият билан қарашни тақозо қилади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, ижтимоий-иқтисодий тараққиётнинг макро, мезо ва микро даражадагидаги субъектларнинг мазмун-моҳиятига тўхталамиз. Чунки булар турли даражада бўлганлиги туфайли, уларга ёндошув ҳам турли бўлади. Микро даража масалага шахс, хўжалик юритувчи субъект, корхона даражасида қаралса, мезо даражага соҳа, тармоқ, худуд, кластер даражасида қаралади. Макро даражада эса, мамлакат ёки жаҳон иқтисодиёти доирасида тадқиқ қилинади. Ушбу тушунчаларни қисқача изоҳи билан таништириб чиқамиз.

**Макро даража деганда, иқтисодий, ижтимоий ёки сиёсий жараёнларни бутун мамлакат ёки жаҳон миқёсида таҳлил қилиш даражаси тушунилади.** Бунга иқтисодиёт нуқтаи назаридан қарайдиган бўлсак, макро даража миллий ёки глобал миқёсдаги иқтисодиётга оид

тизимлар, буларга йўналтирилган умумий қонун-қоидалар ва стратегик кўрсаткичларни қамраб оладиган таҳлил даражани қамраб олади.

Бизнес таҳлилда макро даражада кўриб чиқиладиган асосий масалаларга ялпи ички маҳсулот (ЯИМ)нинг ўсиши, инфляция даражаси, ишсизлик даражаси, фискал ва монетар сиёсат, давлат бюджети ва солиқ тизими, ташқи савдо ва тўлов баланси, миллий валюта барқарорлиги ва ижтимоий-иқтисодий ривожланиш стратегияларини киритиш мумкин.

Макро даражада қараладиган иқтисодий ўзгаришларга мисоллар тариқасида Ўзбекистон иқтисодиётининг умумий ривожланиш суръатларини, давлат томонидан қабул қилинадиган ислохотлар ва стратегияларни, глобал иқтисодий инқирозларнинг мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий ҳаётига таъсирини, камбағалликни қисқартириш билан боғлиқ чора-тадбирларни келтириш мумкин. Макро даражадаги бизнес-таҳлилнинг аҳамияти бевосита умуммиллий иқтисодий барқарорликни таъминлаш, ривожланишнинг узоқ муддатли стратегик йўналишларини белгилашда қўлланилиши билан белгиланади.

Ҳозирги кунда макро даражалардаги қарорлар бевосита мезо даражадаги ҳолатлар билан ҳам бевосита боғлиқ. Мезо даражани тўлиқ тушуниш учун ушбу ҳолатга ҳам қисқача тўхталиш мақсадга мувофиқдир.

**Мезо даража деганда, таҳлил ёки бошқарувда микро ва макро даражалар орасида жойлашган ўрта даражани, яъни тармоқ, ҳудуд, соҳа ёки ташкилотлар гуруҳи миқёсидаги иқтисодий, ижтимоий ёки бошқарув жараёнларини ифодалайдиган даражадаги субъектлар тушунилади.**

Мезо даража мамлакат миқёсида ҳар бир ҳудудларни (вилоятларни) қамраб олаган субъектлар, хусусан, иқтисодиётнинг алоҳида тармоқлари (саноат, қишлоқ хўжалиги, хизмат кўрсатиш кабилар), ҳудудлар (водий, зарафшон воҳаси, жанубий ҳудуд кабилар) миқёсидаги иқтисодий, ижтимоий ёки бошқарув жараёнларини ифодалайдиган даража ҳисобланади.

Мезо даражага янада аниқлик киритиш учун аниқ мисолларни ҳам келтирадиган бўлсак, бунга вилоят миқёсида саноатни ривожлантириш сиёсати, алоҳида иқтисодий тармоқ (масалан, қишлоқ хўжалиги, туризм), турли кластерлар ёки технопарклар фаолиятини киритиш мумкин. Ушбу бўғинда ҳам ҳудудий камбағалликни қисқартириш дастурлари, таълим, соғлиқни сақлаш тизимининг ҳудудий бошқаруви масалалари қаралади.

**Микро даражадаги иқтисодиёт деганда, иқтисодиётни энг кичик иқтисодий бирликларни энг қуйи даражасида ўрганиш тушунилади.** Унда алоҳида шахслар, уй хўжаликлари, корхоналар ва алоҳида бозорларнинг иқтисодий қарорлари таҳлил қилинади. Ҳозирги шароитда микро даражага қуйидаги субъектлар киради. Булар истеъмолчилар (асосан уй хўжаликлари) ҳисобланади. Бунда даромадни қандай сарфлайди, нима сотиб олади, деган масалалар туради. Иккинчидан, корхоналар (фирмалар) киради. Булар қанча ишлаб чиқаради, қандай нарх қўяди, деган масалага масъулдир. Шунингдек, алоҳида бозорлари ҳам мисол тариқасида киритиш

мумкин. Буларга, мева-сабзовот бозори, нон бозори, автомобил бозори кабиларни киритиш мумкин.

Хуллас, микро даражада талаб ва таклиф, нархнинг шаклланиши, ишлаб чиқариш харажатлари ва фойда, рақобат ва монополия, иқтисодий қарор қабул қилиш каби масалалар ўрганилади. Қисқача қилиб айтганда, микро даражадаги иқтисодиёт – бу алоҳида иқтисодий субъектлар бўлиб, ўз фаолиятини таҳлил қиладиган иқтисодий бирлик ҳисобланади.

Микроиқтисодиёт иқтисодиёт фанининг бир бўлими бўлиб, у алоҳида иқтисодий субъектларнинг хулқ-атворини ўрганади. Яъни, якка истеъмолчилар, фирмалар, ишлаб чиқарувчилар ва бозорларнинг қандай қарор қабул қилиши ва ўзаро таъсирини таҳлил қилади. Бунда харидорларнинг истеъмолчи хулқи, яъни харидор нима учун ва қандай товарни танлайди, фирма фаолиятида ишлаб чиқариш ҳажми қанча, харажатлар, фойданинг миқдори, нархнинг шаклланиши, бунда талаб ва таклифнинг ўзгариши ўрганилади. Шунингдек, бозор турлари рақобатли бозор, монополия, олигополия, бунда ресурслар тақсимоти, яъни меҳнат, капитал, ердан самарали фойдаланиш кабилар ҳам микроиқтисодиёт фанида ўрганилади. Микроиқтисодиётнинг асосий мақсади чекланган ресурслар шароитида самарали қарорлар қабул қилиш қонуниятларини аниқлашдан иборатлигини ҳам инобатга олиш лозим. Микроиқтисодиётни лўнда қилиб, қисқача айтганда, “якка бозор ва якка қарорлар иқтисодиёти”, деб ҳам аташ мумкин.

Кўриниб турибдики, иқтисодиёт даражалари бир-биридан фарқ қилади. Микро даражадаги иқтисодиётда алоҳида шахс, корхона, фирма фаолияти ўрганилса, мезо даражадаги иқтисодиётда соҳа, тармоқ, кластер, ҳудуд (вилоят, шаҳар) кабиларнинг иқтисодиёти ўрганилади. Макро даражада эса мамлакат ёки жаҳон иқтисодиёти қаралади. Булар маълум даражада илмий ва амалий аҳамиятга ҳам эга. Қуйида микро, мезо ва макро даражаларни солиштирма тарзда қисқа ва аниқ қилиб тушунтириш учун, уларни жадвал шаклида қуйидагича изоҳлашни масадга мувофиқ, деб топдик (1-жадвал).

### 1-жадвал

#### Иқтисодиёт даражаларининг бир-бири билан қиёсий (солиштирма) тавсифи

Т/р	Иқтисодиёт даражалари	Моҳияти	Асосий субъектлари	Нима ўрганилади	Аниқлаштирувчи мисоллар
1.	Микро даража	Энг кичик иқтисодий даража	Алоҳида истеъмолчи, корхона, фирма	Нарх белгилаш, талаб ва таклиф, харажат, фойда	Оила бюджети, корхона фойдаси
2.	Мезо даража	Оралик (микро ва макро)	Тармоқ, ҳудуд, кластер	Тармоқ ривож, рақобат,	Вилоят иқтисодиёти, sanoat тармоғи

		Ўртасида)		худудий иқтисод	
3.	Макро даража	Энг умумий иқтисодий даража	Давлат, миллий иқтисодиёт	ЯИМ, инфляция, ишсизлик, иқтисодий ўсиш	Ўзбекистон иқтисодиёти, давлат бюджети

Агар қисқача қилиб айтадиган бўлсак, микро даражада алоҳида субъектлар қарорини ўрганади, мезо даража эса, тармоқ ва ҳудуд миқёсидаги жараёнларни қамраб олади, макро даражада бутун мамлакат иқтисодиётини таҳлил қилади

Бугунги кунда иқтисодиётнинг барча даражаларида инновацион ривожланиш объектив заруриятга айланган. Бу қуйидагиларни ўз ичига олади: корхоналар ва ташкилотларда **янги технологияларни жорий этиш** (рақамлаштириш, автоматлаштириш, AI ва ҳ.к.), **илмий-тадқиқот ва тажриба-конструкторлик ишларини амалга ошириш, маҳсулот ва инсон капитали сифатини ошириш, бошқарув ва бизнес моделларини замон талабидан келиб чиқиб янгилаш, инсон капитали ва билимга инвестиция киритиш.** Агар ушбу тадбирлар амалга оширилса, ушбу субъектда инновацион ривожланиш ҳолати содир бўлади.

Инновацион ривожланишнинг асосий мақсади **рақобатбардошликни ошириш, барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш орқали аҳоли фаровонлигини оширишга қаратилгандир.**

Инновацион ривожланишнинг мазмунини тушуниш учун иқтисодиёт ва таълим соҳалари мисолида қараб чиқамиз. **Иқтисодиёт соҳасида инновацион ривожланиш деганда, ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш ва бошқарув жараёнларига янги технология ва ғояларни жорий этиш тушунилади.** Бугунги кунда иқтисодиётда инновацион ривожланиш ўз ичига рақамли иқтисодиётни, яъни электрон тўловлар, онлайн банк хизматлари, турли платформаларни олади. Саноатда инновациялар роботлаштириш, автоматлаштирилган ишлаб чиқариш, “ақлли заводлар” каби йўналишларни қамраб олади. Стартаплар ривожиди янги бизнес моделлар (масалан, онлайн савдо, логистика платформалари)ни қамраб олса, яшил иқтисодиётни шакллантириш жараёнида қайта тикланувчи энергия манбалари (куёш, шамол), энергия тежамкор технологияларда фойдаланилади.

**Инновацион ривожланиш масаласини таълим соҳасида таҳлил қиладиган бўлсак, биричи галда ушбу тушунчанинг таърифига ўтиборни қаратамиз. Таълим соҳасида инновацион ривожланиш деганда, ўқитиш усуллари, таълим технологиялари ва бошқарув тизимини янгилаш орқали назарияни амалиёт билан уйғунлигини таъминлаш орқали сифатли таълимни бериш тушунилади.** Сифатли таълимга эришиш учун мамлакатимизда анча имкониятлар яратилди ва яратилмоқда. Бу ларга мисол

тариқаси рақамли таълимни келтириш мумкин. Бу онлайн дарслар, масофавий таълим платформалари (Moodle, Google Classroom) кабиларни ўз ичига олади. Ҳозирги пайтда фан, технология, муҳандислик, санъат ва математика интеграциялашган ҳолда амалга оширилмоқда. Шунингдек, интерактив усуллардан кейс-стади, лойиҳа асосида ўқитиш, рағбатлантиришлар ҳам амалга оширилмоқда. Яна бир муҳим жиҳат барча соҳаларда Сунъий интеллектдан фойдаланиш орқали шахсийлаштирилган таълим, автоматик баҳолаш кабиларни ҳам эътироф этиш мақсадга мувофиқ.

Инновацион омиллар натижасида таълим сифатини ошириш эвазига талабаларнинг билим сифати ошмоқда, мустақил фикрлаш ва ижодкорлик ривожланмоқда, меҳнат бозори талабига мос кадрлар тайёрланмоқда.

#### **Хулоса ва таклифлар.**

Инновацион ривожланиш иқтисодиётда рақобатбардошлик ва ўсишни, таълимда эса — сифатли кадрлар тайёрлашни таъминлайди. Иккала соҳа ўзаро боғлиқ бўлиб, бири ривожланмаса, иккинчиси ҳам самарали бўла олмайди. Буларни инобатга олиб ушбу соҳаларни ривожлантириш бўйича йрим тавсияларни ишлаб чиқдик. Булар:

**Биринчидан**, иқтисодиётнинг микро даражаси, мезо даражаси ва макро даража ўртасидаги фарқларга аниқ чегара қўйиш билан бирга улар ўртасидаги ўзаро боғлиқликни ва тафовутларни ҳам аниқ кўрсатиб ўтишни ва бунинг учун ушбу мавзуларнинг тушунчаларини ўқув адабиётларига киритишни мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблаймиз.

**Иккинчидан**, иқтисодиёт соҳасида инновацион ривожланишни жадаллаштириш учун ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш ва бошқарув жараёнларига янги технология ва ғояларни жорий этишни тизимли равишда давом эттириш ҳам мақсадга мувофиқдир.

**Учинчидан**, инновацион ривожланишни алоҳида таълим соҳасида таъминлаш учун ўқитиш усуллари, таълим технологиялари ва бошқарув тизимини янгилаш орқали назари билимлар билан амалиётнинг уйғунлигини таъминлаш лозимлигидан келиб чиқиб, буларни амалиётга жорий қилиш учун икки томонлама (ҳам назарий, ҳам амалий) сифатли таълимни ривожлантириш мақсадга мувофиқдир.

Хулоса қилиб айтганда, иқтисодиёт соҳасида инновацион ривожланишнинг жорий қилиниши натижасида меҳнат унумдорлиги ошади, харажатлар камаяди, маҳсулот сифати ошиб, рақобатбардош бўлади, иқтисодий ўсиш барқарорлиги таъминланади. Кўриниб турибдики, буларнинг ҳаммаси мамлакатимизда амалга оширилаётган “Ўзбекистон - 2030” стратегиясида кўзда тутилган вазифаларни бажаришга мўлжалланган.

*Raxmatulla Ergashev - Qarshi davlat texnika universiteti professori, i.f.d.*

## **QASHQADARYODA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH IMKONIYATLARI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kambag‘allikni qisqartirish imkoniyatlari ya‘ni kambag‘allikning kelib chiqish sabablari, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha iste‘mol savati, yashash minimumi, minimal iste‘mol harajatlari miqdorining optimal nuqtasi hamda, kambag‘allik va qashshoqlik chegaralarini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish va bunda aholi uchun xususiy tadbirkorlik orqali erishish, hududlarda kambag‘allikni qisqartirishda va aholi daromadlarini oshirib borishda yangicha ishlash, ya‘ni “mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, kundalik hayotida zarur bo‘lgan resurslar uchun yetarli mablag‘ga ega bo‘lmagan kambag‘al, kam ta‘minlangan aholini tadbirkorlikni rivojlantirish asosida kambag‘allikdan chiqarish imkoniyatlari oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** xususiy tadbirkorlik, kambag‘allik, kambag‘allikni qisqartirish, aholi daromadlari, iste‘mol savat, yashash minimumi, minimal iste‘mol, Aholi umumiy daromadlari.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены возможности снижения бедности, то есть причины бедности, потребительская корзина для снижения бедности, прожиточный минимум, минимальная разработка критериев определения оптимальной точки размера потребительских расходов и порогов бедности и бедности, и достижения этого для населения посредством частного предпринимательства, сокращения бедности в регионах и увеличения доходов населения. Представлены научно обоснованные предложения и рекомендации по новому способу работы, т.е. «развитию предпринимательства в соседства, увеличение возможностей по выводу бедного, обездоленного населения, не имеющего достаточно средств для ресурсов, необходимых для их повседневной жизни, из нищеты на основе развития предпринимательства.

**Ключевые слова:** частное предпринимательство, бедность, сокращение бедности, доходы населения, потребительская корзина, прожиточный минимум, минимальное потребление, совокупные доходы населения.

**Abstract:** This article discusses the possibilities of poverty reduction based on the development of private entrepreneurship, namely the causes of poverty, the optimal point of the consumption basket, the subsistence minimum, the amount of minimum consumption expenses for poverty reduction, as well as the development of criteria for determining poverty and poverty lines and the ways to achieve this through private entrepreneurship for the population, a new approach to reducing poverty in the regions and increasing the income of the population, that is, "in the neighborhood" scientifically based proposals and recommendations are presented on the development of entrepreneurship, increasing the opportunities for the poor, low-income population who do not have sufficient funds for the resources necessary for their daily lives to get out of poverty through the development of entrepreneurship.

**Keywords:** private entrepreneurship, poverty, poverty reduction, population income, consumer basket, subsistence minimum, minimum consumption, Total income of the population.

Milliy va xalqaro hamjamiyat tomonidan ko‘plab sa‘y-harakatlarga qaramay kambag‘allik dunyoda eng keng tarqalgan va davom etayotgan ijtimoiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunda dunyoda kambag‘allikning kelib chiqish sabablari, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar keng ko‘lamda davom etmoqda.

Jumladan, iste‘mol savati, yashash minimumi, minimal iste‘mol harajatlari miqdorining optimal nuqtasi hamda, kambag‘allik va qashshoqlik chegaralarini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish va bunda aholi uchun xususiy tadbirkorlik yo‘nalishlariga doir ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Yangi O‘zbekiston sharoitida aholi o‘rtasida kambag‘allikni qisqartirish borasida boshlagan ishlarni yangi bosqichga olib chiqib, “inson – jamiyat – davlat” tamoyili asosida islohotlar qat‘iy davom ettirib kelinmoqda. Xususan, bunda hududlarda kambag‘allikni qisqartirishda va aholi daromadlarini oshirib borishda yangicha ishlash, ya‘ni “mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish” [3], bu ishlarga “tadbirkorlik sub‘ektlarini manfaatli hamkorlik asosida jalb qilish va ularga qo‘shimcha qulayliklar yaratish” [4] kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Shu nuqtai-nazardan, kundalik hayotida zarur bo‘lgan resurslar uchun yetarli mablag‘ga ega bo‘lmagan kambag‘al, kam ta‘minlangan aholini tadbirkorlikni rivojlantirish asosida kambag‘allikdan chiqarish imkoniyatlari oshirish masalalari bu borada amalga oshirilayotgan tadqiqot ishlarining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Aholi daromadi manbai tengsizligi va kambag‘allik bilan iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi bog‘liqlik bo‘yicha D.Rikardo[5], R.Solou[6] kabi ko‘plab mumtoz neoklassik iqtisodchilar hamda Nobel mukofoti sohiblari nazariy va empirik tadqiqotlar o‘tkazgan bo‘lib, ular tomonidan yalpi ichki iste‘mol, texnologik rivojlanish, mehnat unumdorligi, aholi salomatligi, soliq bazasi va boshqa shu kabi omillar tahlili asosida, kambag‘al aholi kam bo‘lgan jamiyatlarda, iqtisodiy o‘shish sur‘atlari yuqoriroq bo‘lishi nazariy isbotlangan[5]. Kambag‘allik, uni aniqlash va qisqartirish bilan bog‘liq masalalar bir qator mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar, tadqiqotchi va amaliyotchilar tomonidan keng o‘rganilgan. Ammo shu bilan birga aholi daromadlari tabaqalanishi va kambag‘allikni qisqartirishda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy-amaliy jihatlarini yetarlicha tizimli tadqiq etilmaganligi, xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlarning boy tajribasidan samarali foydalangan holda respublikada kambag‘allikni aniqlash va qisqartirish yuzasidan tavsiyalarni ishlab chiqish va uning tadqiqot mavzusi sifatida tanlanishiga asos bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Yaqin istiqbolda iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi – kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishdan iborat bo‘ladi. Ushbu strategik maqsadlarga hamma uchun teng imkoniyat yaratadigan yuqori iqtisodiy o‘shish hisobiga erishiladi”, deya ta‘kidladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, O‘zbekistonda 2030-yilgacha eng avvalo, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasi qabul qilindi. Chunki, qashshoqlikni qisqartirishning Xitoy tajribasi ushbu islohotdan muvaffaqiyat qozongan. Bunda qisqa vaqt ichida qashshoqlikni kamaytirish bo‘yicha tizimli ishlar boshlandi. Uning amalga oshirilishi qishloq xo‘jaligining amaldagi amaliyotini sezilarli darajada o‘zgartirdi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilariga ko‘proq erkinlik va imtiyozlar yaratib berdi. Bu esa aholining qashshoqlikdan chiqib, o‘z-o‘zini ish bilan ta‘minlash orqali asosiy iste‘mol

xarajatlarini qoplashga imkon beradigan aholi daromadga ega bo‘lish imkonini berdi.

Hozirgi sharoitda Qashqadaryo mintaqasida kambag‘allikni qisqartirish uchun amalga oshirilayotgan islohotlar davomida viloyat aholisining ehtiyojmand qismi manzilli qo‘llab-quvvatlanmoqda, zaruriy ijtimoiy ta‘minot bilan qamrab olinmoqda. Ayniqsa, Qashqadaryo mintaqasining geografiyasi va iqlimi, aholining tez o‘sib borayotgani va uning zaif ekotizimiga zarar yetkazuvchi iqtisodiy faoliyati tufayli kambag‘allar soni ham oshmoqda.

Xususiyl tadbirkorlikni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashning rivojlanish jarayonida, mintaqa yalpi ichki hududiy ulushining ortishida va iqtisodiyotning mazkur sektoridagi bandlik darajasida o‘z aksini topdi.

Bizning fikrimizcha, kambag‘allikni qisqartirishda xususiyl tadbirkorlikning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini belgilab olish lozim:

- aholiga kerakli mahsulot va xizmatlarni aniqlashning marketing tadqiqotlarini o‘tkazish ko‘nikmasini shakllantirish;
- bozor talabini o‘rganish hamda sifatli va hamyonbop mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun kam xarajatli yo‘llarni topish va usulini shakllantirish;
- kam ta‘minlangan oilalar ehtiyojini aniqlash va shunga mos tovarlar ishlab chiqarish va narxlar kalkulyatsiyasini shakllantirish;
- nisbatan qisqa muddatlarda aholi ehtiyoji uchun zarur tovarlar va xizmatlarga bo‘lgan talabni qondira olish qobiliyati;
- dastlabki sarmoya va investitsiyalar hajmining nisbatan kichikroq hajmda ekanligi;
- qisqa muddatda yangi ishchi o‘rinlari barpo etish hamda bandlik muammosini hal etishga ko‘maklashish imkoniyati;
- biznes g‘oya egasining yoki xususiyl tadbirkorning vazifalarini amalga oshirishda bevosita ishtiroki.

Kambag‘allikni qisqartirishda xususiyl tadbirkorlikning mintaqada bandlik muammosini hal etish, bozorning mo‘l-ko‘liligini ta‘minlash hamda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishdagi imkoniyatlarini inobatga olib, bu sohaning rivojlanishiga alohida e‘tibor berilmoqda. Hozirgi paytda ushbu soha nafaqat iqtisodiyotning o‘shish sur‘atlarini jadallashtirishda, nihoyatda muhim bo‘lgan bandlik va aholi daromadlarini oshirish masalalarini hal etishda ham yetakchi o‘rin tutmoqda.

Tahlillar ko‘rsatishicha, kambag‘allikni qisqartirishda xususiyl tadbirkorlikning tashqi iqtisodiy faoliyati asta-sekin kengayib bormoqda. Qashqadaryo viloyatida uning umumiy eksport hajmidagi ulushi 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra 15,9 foizni tashkil etmoqda, bu ko‘rsatkich 2005-yilga nisbatan 10,6 foizga oshgan<sup>22</sup>. Ularning asosiy eksport mahsulotlarini - qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik, ishlov beruvchi, xalq amaliy san‘ati buyumlari tashkil etmoqda.

---

22 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Qashqadaryo viloyati filiali ma‘lumotlari.

Ushbu ko‘rsatkich, ya’ni mintaqada bandlik darajasining kamayishi quyidagi sabablarga ko‘ra vujudga kelgan. Birinchidan, mintaqaning qishloq joylarda xususiy tadbirkorlik bilan kam shug‘ullanishi evaziga; ikkinchidan, aholi o‘zini o‘zi band qilmasligi hamda boqimandalikka berilganligi; uchinchidan, davlat tomonidan berilayotgan imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va hokazolar.

O‘zbekiston Respublikasida pul inflyatsiyasining yiliga 12-15 foiz bo‘lgani aholi jon boshiga umumiy daromadlarning xarid qobiliyati pasayib borishiga salbiy ta’sir qilib mamlakatda kambag‘allar soni ko‘payishining sabablaridan biri bo‘lib qolmoqda. Qashqadaryo mintaqasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlantirilishi natijasida aholining tadbirkorlikdan olayotgan daromadlari salmog‘i o‘sib bormoqda. Bu yerda biznesning daromadlar manbaini yuzaga keltirishda uning o‘rni yuqori darajada baholanib boradi. Boisi, birinchidan, xususiy sektordagi iqtisodiy faoliyat bozor qoidalariga binoan yuz berib, tabiiy ravishda bozor daromadining ma’lum turini yuzaga chiqaradi. Ikkinchidan, xususiy ishlab chiqarishda innovatsiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish, talabga tez moslashish va ixtisoslashish orqali daromad topish mexanizmi amal qiladi. Uchinchidan, raqobat muhitining kuchli ekanligi resurslardan samarali foydalanib, mahsulot tannarxini pasaytirish orqali manfaatdorlikni yuzaga chiqarishga qaratilgan bozor qonunlari uzluksiz amal qiladi. Mamlakatda aholi jon boshiga real umumiy daromadlari viloyatlar kesimida ham bir-biridan farq qiladi.

Aholi umumiy daromadlari tarkibida 2024-yilda respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o‘tkazmalar Qashqadaryo viloyatida 16,4 foizni tashkil etdi. Real daromadlarning xarid qobiliyatiga inflyatsiya o‘z ta’sirini ko‘rsatadi hamda iste’mol tovarlari indeksini o‘zgartiradi. Amaliyotda iste’mol tovarlari indeksining o‘zgarishi bo‘yicha hisoblanadigan inflyatsiya darajasi iste’mol savatchasidagi tovar va xizmatlar narxlarining o‘rtacha o‘zgarish sur’atlarini aks ettiradi. Iste’mol tovarlar indeksini hisoblashda foydalanilgan tovar va xizmatlar narxi bu mamlakat bo‘ylab chakana savdo do‘konlaridan olingan o‘rtacha narxlar bo‘lib, iqtisodiyotdagi tovar va xizmatlarning umumiy narxlar darajasini keng qamrovda o‘lchashga imkon beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-aprel 250-son “Moddiy yordam va ko‘makka muhtoj oilalarni, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi va unga ko‘ra, O‘zbekistonda “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” kabi manzilli, har bir shaxs bilan individual va tizimli ravishda muntazam ish olib borishni tashkil qiluvchi moddiy yordam va ko‘makka muhtoj oilalar bo‘yicha mutlaqo yangi tizim tashkil topdi.

“Temir daftar” - ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og‘ir hamda sektor rahbarlari tomonidan alohida nazoratga olingan oilalarni qayd etish, muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo‘yicha ma’lumotlar bazasi hisoblanadi.

Har bir sektor bo‘yicha mahallabay “Temir daftar”ga quyidagi toifadagi oilalar kiritiladi:

- kam ta‘minlangan oila, deb e‘tirof etilgan oilalar;
- ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo‘lgan a‘zolari mavjud oilalar;
- kam ta‘minlangan yakka-yolg‘izlar va keksalar;
- boquvchisini yo‘qotgan ehtiyojmand oilalar;
- ko‘p (4 va undan ortiq) farzandli moddiy ko‘makka muhtoj oilalar;
- mehnatga layoqatli ishsiz a‘zolari mavjud ehtiyojmand oilalar;
- tibbiy yordamga muhtoj ehtiyojmand oilalar (surunkali yoki og‘ir nogironlikka olib keluvchi kasallikka chalingan va nogironlik guruhi belgilanmagan a‘zolari mavjud yetarli daromad manbaiga ega bo‘lmagan oilalar);
- noturar joylarda istiqomat qilayotgan, o‘zi yoki birgalikda yashovchi oila a‘zolarining nomida turar joy bo‘lmagan ehtiyojmand oilalar.

Oilalarning muammolari, ehtiyojlari va qiziqishlari quyidagi shakllarda:

- boshqaruv ofisi tomonidan biriktirilgan mahallalarda fuqarolar yig‘inlari xodimlari, doimiy vakillar va mahalla faollari bilan birgalikda barcha yo‘nalishdagi muammolarni uyma-uy yurish orqali;
- ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og‘ir oilalarning murojaatlarini ko‘rib chiqish orqali;
- ehtiyojmand oilalarni o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari orqali o‘rganiladi.

Jumladan, Qashqadaryo viloyatida xizmatlar jami 60393 kishiga ko‘rsatilgan, ishga joylashganlar 17129 nafar, jamoat ishiga jalb etilganlar 16912 nafar, kasbga o‘qitilganlar 8340 nafar, subsidiyalar olganlari 4516 nafar, ishsizlik nafaqasi tayinlanganlar 13496 nafarni tashkil etdi (1-jadval).

#### 1-jadval

#### **Oilalarni qo‘llab-quvvatlash uchun Qashqadaryo viloyati Nishon tumanida “Temir daftar”ga kiritilganlar soni (2024 yilda)<sup>23</sup>**

	Ko‘rsatkichlar	Nafar
1	Oilalar soni	195
2	Oila a‘zolari soni	916
3	Mehnatga layoqatli ishsizlar soni	229
4	Shundan, bandligi ta‘minlangan	176 (76,8%)

1-jadvalda oilalarni qo‘llab-quvvatlash uchun “Temir daftar”ga kiritilganlar soni keltirilgan, bunda ushbu daftarga 195 oila, 916 oila a‘zolari, mehnatga layoqatli ishsizlar soni 229 nafar, shundan 176 nafari, ya‘ni mehnatga layoqatli ishsizlarning 76,8 foizining bandligi ta‘minlangan.

<sup>23</sup> Qashqadaryo viloyati Nishon tumani statistika bo‘limi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

**2-jadval**

**Qashqadaryo viloyati Nishon tumani MFYlarida kambag‘al oilalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmi, “Temir daftar”dan chiqarilganlar bo‘yicha ma‘lumotlar (2024-yil)<sup>24</sup>**

№	Ko‘rsatkichlar nomi	O‘lcho v birligi	Kambag‘al oila xususiy tadbirkorlik bilan		Farqi (+, -)
			shug‘ullangan-ga cha	shug‘ullangan-dan keyin	
1	Kambag‘al oilalar	oila	195	195	-
-	shu jumladan, 5 va undan ortiq farzandi bor oilalar	oila	109	109	-
2	Kambag‘allichdan chiqqan oilalar	soni	0	122	122
3	O‘rtacha bitta oilaga to‘g‘ri keladigan oila a‘zolari	kishi	6	6	-
4	Jami oila a‘zolari	kishi	916	916	-
5	Oilada mehnatga layoqatli ishsiz	kishi	229	229	-
6	Bandligi ta‘minlangan	kishi	-	176	+176
7	Oila yer tomorqasi uchun berilgan bepul resurslar miqdori	ming so‘m	128700	128700	-
8	Oilaning xususiy tadbirkorlik uchun olgan bank kreditlari	ming so‘m	-	545870,0	+545870
9	O‘rtacha bitta oilaga to‘g‘ri keladigan daromad	ming so‘m	11245,0	26885,5	+15640

2-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Qashqadaryo viloyati Nishon tumani “Kimyogar”, “Kaptarli”, “Nishon” va “Guliston” MFYlarida kambag‘al oilalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida kambag‘al oilalarni xususiy tadbirkorlik bilan band qilish natijasida oila yer tomorqasi uchun berilgan bepul resurslar miqdori 128700 ming so‘mni tashkil etib, xususiy tadbirkorlik bilan shug‘ullanish natijasida o‘rtacha bitta oilaga to‘g‘ri keladigan daromad miqdori 15640 ming

<sup>24</sup> Qashqadaryo viloyati Nishon tumani statistika bo‘limi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

so‘mga oshganligini ko‘rishimiz mumkin. “Temir daftar”ga kiritilgan 195 oiladan 122 tasi kambag‘allikdan chiqarildi. Daromad manbai 1,5-2 baravarga ega bo‘ldi.

“Temir daftar”ga kiritilgan oilalarga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va mahalliy viloyat hokimliklar tomonidan dehqonchilik bilan shug‘ullanish uchun yangi o‘zlashtirilgan, lalmi, foydalanilmayotgan yer maydonlarida 0,1 gektardan 1 gektargacha yer ajratish, ajratilgan yer maydonlarini sug‘orish tizimi (artezian quduqlar, tomchilatib sug‘orish tizimi va boshqalar) va elektr energiyasi bilan ta‘minlash, berilgan yerlarni o‘zlashtirish uchun (yer haydash, urug‘, ko‘chat xarid qilish va boshqalar) subsidiya ajratish ishlari amalga oshirildi.

Qashqadaryo viloyati Nishon tumanida xususiy tadbirkorlik dasturlari orqali tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun kredit olish istagida bo‘lgan oilalarga tijorat banklariga ajratilgan kredit mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan quyidagi xizmatlar ko‘rsatiladi:

biznes loyihalarni hududlarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda tuzishni o‘rgatish;

xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kredit olishga ko‘maklashish;

kredit ajratilgandan so‘ng kam ta‘minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar tadbirkorligini rivojlantirishni doimiy qo‘llab-quvvatlash.

Ushbu tadqiqotimizni monografik kuzatuv natijasida Nishon tumani “Guliston” MFYda yashovchi kambag‘al oila Ibragim Saidov misolida ko‘rib chiqdik (3-jadval).

3-jadvalda ko‘rsatilganidek, Qashqadaryo viloyati Nishon tumani “Guliston” MFYda yashovchi kambag‘al oila Saidov Ibragim Qushoqovichning jami oila a‘zolari 8 kishidan iborat bo‘lib mehnat layoqatli 3 kishini tashkil etib, 2022 yilda oila xususiy tadbirkorlik bilan shug‘ullanganligi evaziga 31500 ming so‘m daromad olgan yoki shug‘ullanmagan oilaga nisbatan 16920 ming so‘m ko‘pdir.

Kreditlar “Temir daftar”ga kiritilgan va xususiy tadbirkorlik bilan shug‘ullanish

Kreditlar “Temir daftar”ga kiritilgan va xususiy tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan fuqarolarning tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Xalq deputatlari Nishon tumani Kengashi tomonidan tasdiqlangan ro‘yxatlar asosida “Temir daftar”ga kiritilgan oilalarga “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan bir martalik moddiy yordam berildi.

Qashqadaryo viloyati Nishon tumani “Temir daftar”ga kiritilgan, uy-joyini ta‘mirlashga muhtoj oilalarga ko‘maklashish sektor rahbari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

3-jadval

**Qashqadaryo viloyati Nishon tumani “Guliston” MFYda yashovchi kambag‘al oila Saidov Ibragim Qushoqovichning kambag‘allikdan chiqish bo‘yicha ma‘lumotlari (2022-yil)<sup>25</sup>**

№	Ko‘rsatkichlar nomi	O‘lchov birligi	Kambag‘al oila xususiy tadbikorlik bilan		Farqi (+, -)
			shug‘ullangunga cha	shug‘ullangandan keyin	
1	Oila a‘zolari	soni	8	8	-
2	Oilada mehnatga layoqatli ishchi	soni	3	3	-
3	Oilada ish bilan band bo‘lganlar soni	soni	-	3	+3
4	Oila tomorqasi uchun berilgan bepul resurslar	ming so‘m	3300,0	3300,0	-
5	Oila xususiy tadbirkorlik uchun olgan kredit	ming so‘m	-	9900	+9900
6	Jami oila daromadlari	ming so‘m	14580	31500	+16920

Tahlillarga ko‘ra, Qashqadaryo viloyatida kambag‘allik darajasi yuqori bo‘lib, keyingi yillar davomida amalga oshirilgan islohotlar aholi kambag‘allik darajasida yetarli o‘zgarishlarga sharoit yaratmagan. Mintaqaviy kambag‘allikni qisqartirish siyosatini ishlab chiqib va muntazam monitoringni amalga oshirish zaruriyatga aylanmoqda.

1. Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish mintaqada aholi daromadlarini oshirishning manbalaridan biri bo‘lib va boshqa manbalar oylik maosh, mulkdan keladigan va tomorqa xo‘jaligidan olinadigan daromadlar tez sur‘atlar bilan o‘smoqda. Qashqadaryo viloyatida aholi jon boshiga real umumiy daromadlari yil sayin o‘sib bormoqda.

2. Qashqadaryo viloyati aholi jon boshiga daromadlar darajasiga qarab 3 ta hududga ajratildi: Birinchi hudud: aholi jon boshiga eng yuqori daromadli hududlar. Bu hududlarga Qarshi, Kasbi, G‘uzor, Yakkabog‘ va Shahrisabz tumanlari kirib, viloyat umumiy aholisining 35 foizi istiqomat qiladi. Nisbatan sanoat ishlab chiqarishi yuqori darajada rivojlangan. Foydali qazilmalarga boy. Ushbu hududda aholi jon boshiga daromadlar miqdori 15,1 million so‘mdan 25,3

<sup>25</sup> Qashqadaryo viloyati Nishon tumani statistika bo‘limi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

million so‘mga yetadi. Ikkinchi hudud: aholi jon boshiga o‘rtacha daromadli hududlar. Bu hududlarga Muborak, Chiroqchi, Dehqonobod va Kitob tumani xonadonlari kiradi. Ushbu hududlarda respublika umumiy aholisining 40,3 foizdan ortig‘i istiqomat qilib, sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi rivojlanmoqda. Aholi jon boshiga daromadlar miqdori 10,3 million so‘mdan 14,9 million so‘mga yetadi. Uchinchi hudud: aholi jon boshiga kam daromadli hududlar. Bu hududlarga Qamashi, Mirishkor, Ko‘k-dala va Nishon tumanlari xonadonlari kiradi. Ushbu hududlarda viloyat umumiy aholisining 24,7 foizdan ortig‘i istiqomat qiladi. Aholi jon boshiga daromadlar miqdori 9,5 million so‘mdan 13,2 million so‘mga yetadi.

3. Aholi farovonligini oshirishning muhim sharti aholi muayyan daromadga hamda takrorlanuvchi xususiyatga ega bo‘lishi kerak. Aholi daromadi pul va natura shaklida bo‘lib, turli manbalardan shakllanadi. Qashqadaryo viloyatida daromadlar manbaini yuzaga keltirishda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning o‘rni yuqori darajada bo‘lishi kutilmoqda.

4. Aholi daromadlarini oshirishda o‘zini o‘zi band qiluvchilarni, ayniqsa o‘ta yuqori malaka va katta boshlang‘ich kapital talab qilmaydigan tomorqachilik ko‘lamini yanada kengaytirish zarur. Qishloq oilalarini xususiy tadbirkorlikka jalb qilish uchun amaldagi fermerchilikka muqobil tarzda kichik yer xo‘jaliklari sinfini, ya‘ni tomorqachilar kooperatsiyasini shakllantirish kerak. Tomorqa va dehqon xo‘jaliklari mahsuloti eksporti to‘la erkinlashtirilishi lozim. Ishsiz bo‘lgan yoshlar, daromadi oz bo‘lgan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga har bir tumanda 200-250 gektar yerlarni 15-30 sotixdan bo‘lib berish zarur. Natijada kambag‘al qatlam qisqarib, o‘z daromadiga ega bo‘ladi, yoshlar ish bilan ta‘minlanib bozorlar to‘kinligiga erishiladi.

5. Qashqadaryo viloyatida aholi farovonligining ta‘minlanishi aholi daromadlari va zaruriy ehtiyojlarni qondirish, iste‘mol darajasi va tarkibi, uy-joy, toza ichimlik suvi, tabiiy gaz, suv, elektr energiyasi bilan ta‘minlanganlik, ta‘lim, sog‘liqni saqlash kabi ko‘rsatkichlar bilan o‘lchanadi. Har bir tumanda aholi farovonligining yaxshilanishi orqali kambag‘allikning qisqarishiga asta-sekin yo‘l ochiladi.

6. Qashqadaryo viloyatida aholi farovonligini bugungi kun talablari darajasida, deb bo‘lmaydi. Zamonaviy texnologiyaga asoslangan pullik xizmat sifatli, biroq aholi daromadiga nisbatan qimmat narxlarda xizmat ko‘rsatiladi. Natijada barcha aholi ham bu xizmatlardan foydalana olmaydi.

7. Qashqadaryo viloyatida o‘z-o‘zining bandligini ta‘minlagan kambag‘al oilalar bandligini kafolatlash tizimini (grantlar e‘lon qilish, o‘z-o‘zining bandligi faoliyatini rag‘batlantirish, imtiyozli moliyalash va hokazo) ishlab chiqish zaruratga aylanmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. The World Bank. <https://www.worldbank.org/en/topic/poverty>. Accessed Jan. 13, 2022.

2. Jahon banki ma’lumotlari asosida [https:// www.worldbank.org/en/topic/poverty/overview#1](https://www.worldbank.org/en/topic/poverty/overview#1).

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 16 avgustdagit 450-son “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimlarining yordamchilari faoliyati samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha namunaviy konsepsiyani tasdiqlash to‘g‘risida” qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12 iyundagi PF-93-son “Kambag‘allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi farmoni.

5. Ricardo David (1817) On the Principles of Political Economy and Taxation. Piero Sraffa (Ed.) Works and Correspondence of David Ricardo, Volume I, Cambridge University Press, 1951, p. 135. 33;

6. Solow, Robert M. (February 1956) "A contribution to the theory of economic growth". Quarterly Journal of Economics. 70 (1): 65–94. doi:10.2307/1884513. 34;

7. R.X. Ergashev «Aholi daromadlarini oshirish orqali kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishlari», – Samarqand: «Servis» jurnali – 2022, № 3 – B. 66-72.

*B.B. Qarshiev – Samarqand iqtisodiyoti va servis instituti tadqiqotchisi*

## **PULLIK TIBBIY XIZMATLAR BOZORIDA TASHKILOTLARNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA SHARTLARI**

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqola O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash tizimini o‘zgartirish sharoitida pulli xizmatlarning rolini o‘rganadi. Klinika faoliyati uchun yangi tashkiliy-huquqiy modelni yaratish, innovatsion tibbiy texnologiyalarni joriy etish va global raqobatning rivojlanishi sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishning asosiy omillari hisoblanadi. Aholini bepul tibbiy yordam bilan ta‘minlashga mo‘ljallangan tibbiyotga davlat tomonidan ajratilgan mablag‘lar tibbiyot muassasalarining barcha xarajatlarini qoplash uchun yetarli emas. Muallif davlat sog‘liqni saqlash muassasalarida pullik xizmatlarni rivojlantirish muammolari va istiqbollari o‘rganadi.

**Kalit so‘zlar:** Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish, majburiy tibbiy sug‘urta, pulli va qo‘shimcha xizmatlar, moliyaviy yuk

**Аннотация:** В данной научной статье рассматривается роль платных услуг в контексте трансформации системы здравоохранения в Республике Узбекистан. Создание новой организационно-правовой модели клинической деятельности, внедрение инновационных медицинских технологий и развитие глобальной конкуренции являются основными факторами развития системы здравоохранения. Выделенных государством средств на медицину, предназначенных для обеспечения населения бесплатной медицинской помощью, недостаточно для покрытия всех расходов медицинских учреждений. Автор исследует проблемы и перспективы развития платных услуг в государственных учреждениях здравоохранения.

**Ключевые слова:** цифровизация системы здравоохранения, обязательное медицинское страхование, платные и дополнительные услуги, финансовое бремя

**Abstract:** This scientific article examines the role of paid services in the context of changing the healthcare system in the Republic of Uzbekistan. The creation of a new

*organizational and legal model for clinic activities, the introduction of innovative medical technologies, and the development of global competition are the main factors in the development of the healthcare system. The funds allocated by the state for medicine, intended to provide the population with free medical care, are not enough to cover all the costs of medical institutions. The author studies the problems and prospects for the development of paid services in state healthcare institutions.*

**Keywords:** *Digitalization of the healthcare system, compulsory medical insurance, paid and additional services, financial burden*

Ko'pgina sog'liqni saqlash muassasalari o'zlarining kuchli va zaif tomonlari, shuningdek, yuqori raqobat sharoitida strategik takomillashtirish yo'llarini aniqlash borasida qarama-qarshi boshqaruv qarashlariga duch kelmoqdalar. Samarqand viloyatida mavjud bo'lgan bu farqlar ixtisoslashtirilgan tahlilni talab qildi. Tahlilning maqsadi sog'liqni saqlash tashkilotlarining muvaffaqiyatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ichki va tashqi omillarni aniqlash va pullik tibbiy xizmatlarning raqobatbardosh bozorida ularning rivojlanish yo'llarini shakllantirish edi. Bu ushbu ekspert baholashining asosi bo'lib xizmat qildi.

Ekspert baholashining mavzusi Samarqand viloyatidagi sog'liqni saqlash muassasalari edi. Ekspert baholashi sog'liqni saqlash tashkilotlarining kuchli va zaif tomonlariga, raqobatdosh tashkilotlardan kelib chiqadigan potentsial tahdidlarga va ularning raqobatbardoshligini oshirish shartlariga qaratildi. Maqsad sog'liqni saqlash tashkilotlarining kuchli va zaif tomonlarini, potentsial tashqi tahdidlarni va raqobatbardoshlikni oshirish sohalarini aniqlash edi.

#### **Maqsadlar:**

- 1) Tashkilotlarning potentsial afzalliklarini tizimlashtirish;
- 2) Tashqi omillarni (ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy) baholash;
- 3) Bozordagi raqobatchilarning afzalliklarini baholash.

Ekspert baholashida SWOT tahlili tavsifida keltirilgan terminologiyadan foydalanilgan. Baholashni rejalashtirish quyidagi jihatlariga qaratildi: tashkilotlarning asosiy afzalliklarini baholash; ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatlarni o'z ichiga olgan tashqi atrof-muhit omillarining ta'sirini tahlil qilish; va bozordagi raqobatbardosh ustunliklarni tahlil qilish. Sog'liqni saqlash muassasalarini boshqarish vositalarini ishlab chiqishning asosiy yo'nalishlarini baholash uchun bizning tadqiqotimiz muassasa uchun strategik rivojlanish elementlarini shakllantirish maqsadida bosh shifokorlar o'rtasida so'rov o'tkazishni o'z ichiga oldi. Tadqiqotda Samarqand viloyatidagi xususiy va davlat sog'liqni saqlash muassasalarining beshta rahbari ishtirok etdi.

Ushbu so'rov sog'liqni saqlash muassasalarini yanada rivojlantirish uchun strategik elementlarni shakllantirishga yordam berdi. Sog'liqni saqlash rahbarlaridan eng dolzarb ma'lumotlarni olish uchun namunaviy so'rovnoma qo'llanildi. Barcha respondentlar umumiy axborot makonidan foydalanishdi va o'z darajalarida yagona boshqaruv konsepsiyasini amalga oshirdilar. Baholangan parametrlar rahbarlarning manfaatlarining kengligi yoki ularning mavqei darajasi emas, balki mintaqadagi tashkiliy va boshqaruv qadriyatlarini asosida tanlandi.

Ushbu bosqich uchun ma'lumotlarni to'plash yondashuvlari Samarqand viloyatidagi sog'liqni saqlash muassasalari rahbarlari o'rtasida sog'liqni saqlash tashkilotlarida strategik boshqaruv va rejalashtirish bo'yicha ularning qarashlari bo'yicha o'tkazilgan dastlabki so'rovnoma asosida ishlab chiqilgan. Har bir menejer o'z tashkiloti uchun qo'lda va individual ravishda to'ldirilgan SWOT tahlilini mustaqil ravishda ishlab chiqishga taklif qilindi. Davlat sog'liqni saqlash muassasalarini rivojlantirish va raqobatbardoshlik strategiyasini ishlab chiqish uchun ularning ichki va tashqi tahdidlarini tahlil qilish uchun SWOT tahlili qo'llanildi. Ushbu usul bizga muassasalarning kuchli va zaif tomonlarini baholash, shuningdek, imkoniyatlar va tahdidlarni ifodalashi mumkin bo'lgan tashqi omillarni tahlil qilish imkonini berdi. Ushbu jihatlarni tizimlashtirish uchun to'rtta toifani birlashtirgan maxsus bloklar yaratildi: kuchli tomonlar, zaif tomonlar, tashqi imkoniyatlar va tahdidlar, shuningdek, tegishli parametrlar ro'yxati. Har bir blokda bir qator parametrlar mavjud bo'lib, ularni ma'lum bir muassasaga xos xususiyatlarni qo'shish orqali kengaytirish imkoniyati mavjud edi. Sog'liqni saqlash muassasalariga yuqori ta'sir ko'rsatadigan, imkoniyatlar yoki tahdidlar bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan omillarni tanlash strategik rivojlanish rejasini tuzish uchun boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qildi. Biz muassasalarning kuchli va zaif tomonlarini, shuningdek, tashqi omillarni tahlil qildik. Keyin bu ma'lumotlar matritsaga birlashtirildi. Ushbu tahlil ijobiy jihatlarni mustahkamlash, zaif tomonlarni bartaraf etish va potentsial tahdidlardan qochish hamda xavflarga qarshi kurashish uchun kuchli tomonlardan optimal foydalanishga qaratilgan bir qator strategik tavsiyalar uchun asos bo'ldi (1-jadval).

### 1-jadval

#### SWOT tahlil matritsasi

	<b>Kuchli tomonlar</b>	<b>Zaif tomonlar</b>
<b>Imkoniyatlar</b>	Afzalliklarni mustahkamlashga hissa qo'shadigan ko'rsatkichlar qulay tashqi sharoitlar mavjud bo'lganda faollashadi va shu bilan tashkilotning kuchli tomonlarini rivojlantirish va amalga oshirishni qo'llab-quvvatlaydi.	Zaif tomonlarni yumshatish uchun paydo bo'layotgan qulay sharoitlar va imkoniyatlardan faol foydalanish
<b>Tahdidlar</b>	Kuchli tomonlar salbiy vaziyatlarni yengib o'tish, tashqi xavflarning oldini olishga yordam berish uchun ishlatiladi.	Inqirozli vaziyatlarni yengib o'tishga qaratilgan ichki zaifliklarni ham, tashqi qiyinchiliklarni ham samarali hal qilish uchun zarur bo'lgan strategiyalar

O‘zbekistonda so‘nggi 10 yilda sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilishdan maqsad tibbiy xizmatlarning qulayligi va sifatini ta‘minlash, mintaqada ko‘rsatkichlarni yaxshilashdan iborat edi. Bu maqsadlar ko‘plab dastur va qonun hujjatlarida, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil dekabr oyida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonida

“2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi” va “O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash tizimini 2019-2021-yillarda rivojlantirish konsyepsiyasini amalga oshirish dasturi”da ham o‘z ifodasini topgan. Qayd etilgan qarorlar, konsepsiya va dasturlarda tibbiyot sohasining qator yo‘nalishlariga, jumladan, tibbiy xizmat sifatini oshirish; tibbiyot xodimlarining mas‘uliyatini oshirish; yangi tibbiy texnologiyalardan foydalanishni rivojlantirish; profilaktika skrining dasturlarini amalga oshirish; genetik va ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlarni, ayniqsa, ayollar va bolalarga xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish, onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yaratishga qaratilgan qator chora-tadbirlarda belgilangan.

“2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi”da ryepublikada aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish, byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish vazifalarini amalga oshirish asosida sog‘liqni saqlashning rolini kuchaytirish orqali adolatli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, tibbiy xizmatlarni markazlashtirish va aholi uchun tibbiy sug‘urtani joriy etish, inson kapitalini rivojlantirish sohasida istiqbolli yo‘nalishlar belgilandi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimi izchil rivojlanayotganini: yangi shifoxonalar paydo bo‘layotganini, yangi xususiy klinikalar va laboratoriyalar ochilayotganini ko‘rib turibmiz. Biroq, moliyalashtirish hali ham past darajada bo‘lgan, so‘nggi ikki yil ichida sezilarli darajada oshgan va sog‘liqni saqlash xarajatlari kelgusi yillarda sezilarli darajada oshishi prognozlashtirilmokda (2024 yilga kelib 3,5 milliard dollar).

O‘zbekistonda zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimida majburiy tibbiy sug‘urtaning samarali tizimini yaratishga qaratilgan katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda, bu esa davlat byudjeti yukini sezilarli darajada kamaytiradi va tibbiy xizmat sifatini oshiradi. O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimi byudjet mablag‘larini smeta asosida taqsimlash asosida deyarli to‘liq subsidiyalanganligi sababli tizimning yuqori moliyaviy qaramligiga va byudjet mablag‘larining samarasiz ishlatilishiga, mablag‘ yetishmasligiga, tibbiy turizmning rivojlanishining cheklanishiga olib keladi. Bundan tashqari, tibbiy xizmatlarning yuqori narxi bemorlarga nisbatan nomaqbul tanlovga, yuqori daromadga ega bo‘lmagan aholining umr ko‘rish davomiyligi qisqarishi va sifatining pasayishiga olib keladi. IPHRning “O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash islohoti: xalqaro hamjamiyat qanday rol o‘ynaydi”<sup>26</sup> hisobotiga muvofiq rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, mamlakat aholisi hatto davlat tibbiyot muassasalarida ham tibbiy xarajatlarning qariyb 40 foizini to‘laydi, uy xo‘jaliklarining oylik o‘rtacha daromadi 3,89 million so‘mni (taxminan 300 AQSH dollari), yoshga doir nafaqa to‘lovlari miqdori 100 AQSH dollarini tashkil qilganda 8-10 kunlik statsionar davolanish uchun byemor o‘rtacha 300-600 AQSH dollarni sarflaydi<sup>27</sup>. Binobarin, aksariyat aholi uchun sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish

---

<sup>26</sup> Себастьян Перуз. Программа по Центральной Азии, IERES, Университет Джорджа Вашингтона. «Реформа здравоохранения в Узбекистане: Какая роль отведена международному сообществу».

<sup>27</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari asosida tayyorlangan. 2023 йил 1 январ холатига нафақанинг ўртача миқдори 1,1 млн.сўмни ташкил қилган.

imkoniyati cheklangan. Davlat tibbiyot muassasalaridagi tibbiyot xodimlarining kam daromadliligi yoki xususiy klinikalarga ketishga yoki dori-darmonlarni oshkora narxlarda, ko‘pincha keraksiz dori-darmonlarni dorixonalardan sotib olish shaklida yashirin tovlamachilikka olib keladi.

## 2-jadval

### O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimining transformatsiya sharoitlarida tibbiy xizmatlar ko‘rsatish bozorining SWOT tahlili<sup>28</sup>

Ko‘chli tomonlari	Ko‘chsiz tomonlari
<p>O‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi va aholi turmush darajasini oshirish; ijtimoiy sohani moliyalashtirishda sog‘liqni saqlashning ustuvorligi; ijtimoiy dasturlar va davlat subsidiyalari tibbiyotning ayrim sohalarida (onkologiya, travmatologiya va boshqalar) xizmatlar ko‘rsatish uchun yuqori xarajatlar talab qilinadigan tibbiy xizmatlar sifatini oshiradi;</p> <p>bozorda raqobat kuchayishi hisobiga davlat va xususiy klinikalarda tibbiy xizmatlar sifatini oshishi; iamlakatning turizm resurslaridan kelib chiqib, tibbiy xizmatlarni diversifikasiya qilish; xususiy tibbiyotni rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash.</p>	<p>Xususiy klinikalarda tibbiy xizmatlarning yuqori narxi; davlat klinikalarida sifatsiz bepul tibbiy yordam va buning oqibatida ushbu sohadagi korrupsiya; tibbiy xizmatlarning cheklangan turlari; xalqaro sug‘urta tizimining yo‘qligi; tibbiyot muassasalarida malakali mutaxassislar, ishchilar va rahbarlarning yetishmasligi; tibbiy turizmning yetarli darajada rivojlanmaganligi, tibbiy turizm imkoniyatlari to‘g‘risida ma‘lumotlarning yo‘qligi; davlat tibbiyot muassasalarining subsidiyalarga qaramligining yuqori darajasi; tibbiy xizmatlar ko‘rsatish zanjirining zaif raqamlashtirilishi; chyeklangan tibbiy sug‘urta imkoniyatlari.</p>
Imkoniyatlar	Tahdidlar
<p>Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish tibbiy xizmatlarning raqobatbardoshligini oshiradi; tibbiyotning klasterlashuvi jahon darajasidagi tibbiy xizmatlardan foydalanish va xizmatlarni diversifikasiya qilish imkonini ochib beradi; tibbiy turizm pandemiyadan keyin iqtisodiy tiklanishni qo‘llab-quvvatlay oladigan soha sifatida; qo‘shni mamlakatlardagi siyosiy beqarorlik fonida mutaxassislarning ko‘chirilishi klinikalarning kadrlar resurslari uchun raqobatdosh ustunlikni yaratadi; qo‘shni davlatlardagi siyosiy beqarorlik respublikada tibbiy xizmatlarga bo‘lgan talabni oshiradi, xorijiy investisiyalarni ko‘paytiradi va tibbiyot biznesining ishbilarmonlik faolligini oshiradi.</p>	<p>O‘sib borayotgan xalqaro sog‘liq xavflari va geosiyosiy mojarolar; iqlim o‘zgarishi, shu jumladan global isish va atrof-muhitning buzilishi; xavfsizlik va siyosiy masalalar qo‘shni mamlakatlardagi beqarorlik; global energetika va oziq-ovqat inqirozi fonida iqtisodiy notinchlik; tabiiy va texnogen ofatlar; logistikadagi uzilishlar tibbiy asbob-uskunalar, mashinalar va transport vositalari uchun butlovchi qismlar va ehtiyot qismlar yetishmasligiga olib keladi; koronavirus pandemiyasi o‘zgarmoqda va yangi shtammlar paydo bo‘lib, tibbiyot va byudjetga og‘irlik qilmoqda; dori-darmonlar narxining oshishi mamlakatlarda demografik holatning yomonlashishiga olib keladi; qonunchilikdagi bo‘shliqlar tibbiy turizmning ayrim yo‘nalishlarini rivojlantirish imkonini bermayapti; sifatsiz dori-darmonlar va zaif nazorat o‘limga olib keladi, bu esa odamlarda mahalliy tibbiyotga ishonchsizlikni oshiradi.</p>

“2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi”da majburiy tibbiy sug‘urtani amalga oshirish muddati Toshkent shahri bo‘yicha 2023-yil 1-iyulga, respublikaning qolgan viloyatlari uchun 2023-yilning 1-dekabriga o‘tkazildi. Shu maqsadda Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasi

<sup>28</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

mablag‘lari hisobidan kafolatlangan tibbiy paketlarni xarid qilish uchun: Toshkent shahri – 1703,3 mlrd. so‘m, Sirdaryo viloyatiga – 711,2 mlrd. so‘m va Xorazm viloyatiga – 3,6 mlrd. so‘m ajratildi. Shu bilan birga, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq, Toshkent shahri bo‘yicha davlat tibbiy sug‘urtasini bosqichma-bosqich joriy etish muddati yana bir bor 2024-yil 1-yanvarga ko‘chirildi. 2023-yil 6-sentyabrdagi PF-156-son qarori bilan Sog‘liqni saqlash vaziri va Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasi ijrochi direktori 2026-yil oxirigacha respublika bo‘yicha davlat tibbiy sug‘urtasini to‘liq amalga oshirish uchun mas‘ul etib belgilandi. Shunday qilib, hozirgi bosqichda tizim hali ham mavjud majburiy tibbiy sug‘urta ba‘zi hududlarda pilot loyihalar shaklida yo‘lga qo‘yildi.

**Xulosa va takliflar.** Sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirish masalalarida moliyalashtirish tamoyillarini qayta ko‘rib chiqishning ob‘yektiv zarurati paydo bo‘lgan. Natijada Jahon banki o‘zining “O‘zbekiston davlat xarajatlari tahlili: inson kapitali va suv infratuzilmasi xarajatlari samaradorligini oshirish” hisobotida quyidagi muammolarni aniqlangan:

- sog‘liqni saqlash xizmatlariga xarajatlarning past samaradorligi;
- shifoxonalar faoliyatini moliyalashtirishning ularning samaradorligi va samaradorligini rag‘batlantiradigan adekvat mexanizmlarining yo‘qligi;
- sog‘liqni saqlashni moliyalashtirish uchun uy xo‘jaliklari daromadlarning katta qismini (barcha xarajatlarning 60 %dan ortig‘ini), shuningdek, davlat sog‘liqni saqlash xizmatlarini ko‘rsatuvchi tashkilotlarga rasmiy va norasmiy to‘lovlarga ketishi;
- kam ta‘minlangan aholining tibbiy yordamdan to‘laligicha foydalanish imkoniyatining chegaralanganligi.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun respublikada bir necha bor majburiy tibbiy sug‘urtani yo‘lga qo‘yishga urinib ko‘rildi, “Majburiy tibbiy sug‘urta to‘g‘risida”gi Qonunni (2019-yilda) ishlab chiqish rejalashtirilgan edi.

Respublikada tibbiy xizmatlar ko‘rsatish bozorining **SWOT** tahlili iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish imkonini beradi, bu esa tibbiyot sohasida DXSH, dunyoning yetakchi tibbiyot markazlari bilan qo‘shma loyihalar asosida tibbiy xizmatlarni klasterlashtirish va diversifikatsiya qilish, majburiy tibbiy sug‘urta samaradorligini oshirish asosida tibbiy xizmatlarning raqobatdosh ustunliklarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

#### **Foydanilgan adabiyotlar ro‘yhati**

1. A.A.Abdullaev. Xorazmda tibbiyotining rivojlanish tarixi. Tibbiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya Moskva -1971 г. 431 s.
2. A.A.Qodirov. O'zbekiston tibbiyoti tarixi - Toshkent: IPO Ibn Sino. 1994.- 223 s.
3. S.I.Indiaminov. Vrach faoliyatining xukukiy asoslari. O‘quq qo‘llanma. Toshkent, 2014, b.146
4. Maxmudova N. M. “O‘zbekistonda ichki kasalliklarning rivojlanish tarixi” Toshkentdan “Fan”, 1969 y.

5. P.Z.Hashimov, U.B. Mavlanov. O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishi. // Iqtisodiyot va moliya, №4, 2012. <https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-sistemy-zdravoohraneniya-v-uzbekistane>

*Xudonazarov Faxriddin - Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi*

## **ISLOMIY MIKROMOLIYALASHTIRISHDA HUQUQIY- INSTITUTSIONAL MUHITNING KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHGA TA’SIRI: KONSEPTUAL MODEL**

**Annotatsiya:** Mazkur maqola islomiy mikromoliyalashtirish sohasidagi huquqiy-institutsional muhit bilan kambag‘allikni qisqartirish natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni nazariy jihatdan tahlil qiladi. Tadqiqot soddalashtirilgan “qonun — natija” yondashuvidan voz kechib, huquqiy islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy ta’siri bilvosita amalga oshishini tushuntiruvchi asosiy konseptual kanallarni aniqlashga qaratilgan. Izlanishning maqsadi islomiy mikromoliyalashtirishda huquqiy-institutsional muhitning kambag‘allikni qisqartirishga ta’sir etuvchi vositachi mexanizmlarini tizimlashtirish va ular asosida konseptual model ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijasida institutsional ishonch, operatsion samaradorlik, moslashuv va innovatsiya hamda inklyuzivlik kanallari O‘zbekiston sharoitida qayta talqin qilindi. Taklif etilgan model islomiy mikromoliyalashtirishni kambag‘allikni qisqartirish siyosatida samarali institutsional vosita sifatida tushunish uchun nazariy asos yaratadi.

**Kalit so‘zlar:** islomiy mikromoliyalashtirish, huquqiy-institutsional muhit, kambag‘allikni qisqartirish, institutsional ishonch, moliyaviy inklyuzivlik, konseptual model, O‘zbekiston

**Abstract:** This article provides a theoretical analysis of the relationship between the legal and institutional environment of Islamic microfinance and poverty reduction outcomes. Moving beyond a simplified “law–outcome” approach, the study focuses on the indirect channels through which legal and institutional reforms influence socio-economic results. The main objective is to identify and systematize the key conceptual mechanisms through which the legal-institutional framework of Islamic microfinance affects poverty reduction, and to develop an integrated conceptual model. The findings reinterpret institutional trust, operational efficiency, adaptability and innovation, and financial inclusion within the specific context of Uzbekistan. The proposed model offers a theoretical foundation for understanding Islamic microfinance as an effective institutional instrument in poverty reduction strategies.

**Keywords:** Islamic microfinance, legal and institutional environment, poverty reduction, institutional trust, financial inclusion, conceptual model, Uzbekistan

**Аннотация:** В статье теоретически анализируется взаимосвязь между правово-институциональной средой исламского микрофинансирования и результатами сокращения бедности. Исследование отходит от упрощённого подхода «закон — результат» и акцентирует внимание на опосредованных каналах воздействия правовых и институциональных реформ на социально-экономические эффекты. Целью работы является выявление и систематизация ключевых концептуальных механизмов влияния правово-институциональной среды исламского микрофинансирования на сокращение бедности, а также разработка целостной концептуальной модели. В результате исследования институциональное доверие, операционная эффективность, адаптивность и инновации, а также инклюзивность переосмыслены в контексте Узбекистана. Предложенная модель формирует теоретическую основу для

*рассмотрения исламского микрофинансирования как эффективного институционального инструмента политики сокращения бедности.*

**Ключевые слова:** *исламское микрофинансирование, правово-институциональная среда, сокращение бедности, институциональное доверие, финансовая инклюзия, концептуальная модель, Узбекистан*

### **Asosiy qism.**

O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan bir paytda, islomiy mikromoliyalashtirish bu jarayonning muhim vositasi sifatida e‘tirof etilmoqda (O‘zR Prezidentining PF-60-son Farmoni, 2022). Biroq bu sohani tartibga soluvchi huquqiy va institutsional chora-tadbirlarning amaliy natijadorligini ta‘minlash uchun ularning ijtimoiy-iqtisodiy ta‘sir mexanizmlarini chuqur anglash talab etiladi. Tadqiqot natijalari qonun ijodkorlari va regulyatorlar uchun islomiy mikromoliyalashtirish sohasidagi qarorlarning kambag‘allikka ta‘sirini prognoz qilish va baholash imkonini beruvchi nazariy asos yaratadi.

Islomiy mikromoliyalashtirishning kambag‘allikni qisqartirishdagi rolga oid so‘nggi yillardagi (2019–2024) ilmiy izlanishlarni mazmunan ikki yirik guruhga ajratish mumkin: huquqiy-regulyator to‘siqlarga urg‘u beruvchilar va institutsional ishonch hamda ijtimoiy qadriyatlarni asosiy omil deb biluvchilar. Birinchi guruh tadqiqotchilari asosiy e‘tiborni qonunchilik bazasining mavjudligi va soliq siyosatiga qaratadilar. Xususan, M. Kabir Hassan va boshqalar (2021) o‘zlarining empirik tadqiqotlarida islomiy moliya institutlarining samaradorligi bevosita davlat tomonidan yaratilgan “qulay ekotizim”ga bog‘liqligini isbotlaganlar. Ularning fikricha, agar qonunchilikda ikki tomonlama soliqqa tortish (*double taxation*) muammosi hal etilmasa, mikromoliya institutlarining ijtimoiy ta‘siri nolga teng bo‘ladi. J. A. A. Paldi (2020) esa institutsional iqtisodiyot nazariyasini rivojlantirib, huquqiy normalarning “Maqosid ash-Sharia” (Shariat maqsadlari)ga muvofiqiqligi iqtisodiy barqarorlikning asosiy sharti ekanligini ta‘kidlaydi. Ushbu olimlar uchun birlamchi masala — bu strukturaviy va huquqiy infratuzilmadir.

Ikkinchi guruh olimlari, aksincha, qonunlarning o‘zi yetarli emas, asosiy mexanizm — bu aholining tizimga bo‘lgan ishonchi va qadriyatlari deb hisoblaydilar. Mehmet Asutay (2019) o‘zining “Islomiy ma‘naviy iqtisodiyot” (*Islamic Moral Economy*) konsepsiyasida zamonaviy islomiy moliyaning “ijtimoiy muvaffaqiyatsizligi” (*social failure*) sababini uning faqat shakliy jihatdan qonunlarga moslashib, ruhiy jihatdan ijtimoiy adolatdan uzoqlashganida ko‘radi. Uning fikricha, kambag‘allikni qisqartirish uchun huquqiy muhit nafaqat tijoratni, balki ijtimoiy ishonch va hamkorlikni rag‘batlantirishi kerak. Shuningdek, S. A. Ali va M. K. Hassan (2023) tadqiqotlarida Fintech vositalari orqali institutsional ishonchni oshirish kambag‘al qatlamni moliyaviy tizimga jalb qilishning eng samarali yo‘li ekanligi ko‘rsatilgan.

Xalqaro tashkilotlarning so‘nggi hisobotlari ham ushbu ikkinchi yondashuvni quvvatlamoda. Islom taraqqiyot bankining yillik hisobotida (IsDB,

2023) post-pandemiya davrida kambag‘allikni qisqartirish uchun an‘anaviy qarz berish emas, balki ijtimoiy moliya vositalarini (Zakot va Vaqf) huquqiy jihatdan integratsiya qilish zarurligi ta‘kidlangan. Jahon banking “Global Economic Prospects” (2024) hisobotida esa Markaziy Osiyo davlatlarida, xususan O‘zbekistonda, aholining katta qismi diniy e‘tiqodi sababli an‘anaviy bank xizmatlaridan foydalanmasligi (“ixtiyoriy moliyaviy yakkalanish”) va bu muammoni faqat inklyuziv huquqiy islohotlar orqali yechish mumkinligi qayd etilgan.

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlarda huquqiy baza va ijtimoiy natijalar alohida-alohida o‘rganilgan bo‘lsa-da, huquqiy islohotlarning aynan qanday qilib institutsional ishonchga aylanishi va kambag‘allikni qisqartirish mexanizmini ishga tushirishi yaxlit model sifatida tadqiq etilmagan. Ushbu tadqiqot ayni shu nazariy bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijasida huquqiy-institutsional muhitning kambag‘allikni qisqartirishga ta‘siri bevosita emas, balki quyidagi to‘rtta o‘zaro bog‘liq nazariy kanal orqali amalga oshirishini ifodalovchi konseptual model ishlab chiqildi:

• **Ishonch kanali:** Huquqiy aniqlik, shar‘iy standartlarning davlat darajasida kafolatlanishi va shaffof nazorat mexanizmlari aholining islomiy mikromoliya institutlariga ishonchini oshiradi. Bu esa qamrovning kengayishiga va kambag‘allikka ta‘sir ko‘lamining ortishiga xizmat qiladi. O‘zbekistonda aholining bank tizimiga ishonchsizligi faqat iqtisodiy xatarlar bilan emas, balki “halollik” omili bilan bog‘liq. Aholining katta qismi an‘anaviy banklarni “ribo” (foiz) asosida ishlagani uchun diniy e‘tiqodiga zid deb biladi. Bu yerda “ishonch” kanali moliyaviy barqarorlikni emas, balki shar‘iy komplayensni (shariatga muvofiqlikni) anglatadi.

• **Samaradorlik kanali:** Mukammal huquqiy baza transaksiya xarajatlarini kamaytiradi va risklarni boshqarishni osonlashtiradi. Natijada institutlar cheklangan resurslar bilan ko‘proq kambag‘al aholiga xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Islomiy moliyada pul to‘g‘ridan-to‘g‘ri berilmaydi, o‘rtada tovar (aktiv) bo‘lishi shart (masalan, Murobaha). Bu tabiiy ravishda jarayonni murakkablashtiradi. O‘zbekiston sharoitida “samaradorlik” kanali texnologiyani emas, balki soliq va huquqiy to‘siqlarni bartaraf etishni nazarda tutadi.

• **Moslashuv va innovatsiya kanali:** Qonunchilikning moslashuvchanligi mikromoliya institutlariga mahalliy sharoit va kambag‘allik profiliga mos (masalan, qishloq xo‘jaligi, ayollar tadbirkorligi uchun) yangi mahsulotlar yaratish imkonini beradi. O‘zbekistondagi “Mahalla” instituti va islomiy mikromoliyaning “Ijtimoiy garov” (*Social Collateral*) tizimi o‘rtasida sinergiya yaratish mumkin.

• **Inklyuzivlik kanali:** Inklyuziv huquqiy muhit aholining zaif qatlamlari uchun moliyaviy to‘siqlarni bartaraf etadi. Jahon banki ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda aholining katta qismi bank xizmatlaridan foydalanmasligining sababi puli yo‘qligida emas, balki diniy qarashlari sababli kredit olishni

istamasligidadir. Islomiy inklyuzivlik “e’tiqodi sababli tizimdan tashqarida qolgan qatlamni” qamrab olishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Mikromoliya tashkilotlari to‘g‘risida”gi qonuni va unga aloqador hujjatlardagi real to‘siqlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. **Terminologiya va huquqiy tabiat:** Amaldagi qonunchilikda qarz berish evaziga olinadigan haq “foiz” deb belgilangan. Islomiy moliyada esa “foiz” taqiqlangan. Agar MFT mijoz bilan “foydani bo‘lishish” yoki “ustama haq” (*markup*) asosida shartnoma tuzsa, bu litsenziya talablarining buzilishi sifatida talqin qilinishi mumkin.

2. **Savdo faoliyatiga taqiq:** Murobaha va Ijara operatsiyalarida MFT tovar sotib olishi va uni sotishi kerak. Biroq amaldagi qonun MFTlarga bevosita savdo-tijorat faoliyati bilan shug‘ullanishni taqiqlaydi.

3. **Soliqqa tortish (QQS muammosi):** Islomiy moliyada operatsiya oldi-sotdi shaklida bo‘lgani uchun soliq organlari unga 12% QQS qo‘llashi mumkin. Bu islomiy mahsulotni an’anaviy kreditga nisbatan ancha qimmat qiladi.

4. **Jarimalar masalasi:** Islomiy huquqda kechiktirilganlik uchun jarima MFT daromadiga emas, xayriyaga yo‘naltirilishi shart. O‘zbekiston qonunchiligida esa bunday mexanizm mavjud emas.

5. **Resurs bazasi va Vaqf:** O‘zbekistonda hali “Vaqf” to‘g‘risidagi qonun qabul qilinmaganligi sababli, xayriya mablag‘larini institutsional tarzda mikromoliyaga yo‘naltirish imkoni yo‘q.

Ushbu to‘siqlarni bartaraf etish uchun quyidagi yechimlar taklif etiladi:

- Markaziy bank huzurida islomiy MFTlar uchun maxsus tajriba rejimi (*regulatory sandbox*) joriy etish.

- Islomiy moliya shartnomalarini soliqqa tortishda an’anaviy kreditlar bilan teng huquqlilikni ta’minlash (QQSdan ozod qilish).

- “Nobank kredit tashkilotlari to‘g‘risida”gi qonunga islomiy xizmatlar ko‘rsatish tartibini belgilovchi alohida bob kiritish.

**Xulosa va takliflar:** Islomiy mikromoliyalashtirish sohasidagi huquqiy-institutsional muhit kambag‘allikni qisqartirishga avtomatik tarzda olib kelmaydi. Uning samaradorligi ishonch, samaradorlik, innovatsiya va inklyuzivlik kabi kanallarning rivojlanish darajasiga bog‘liq.

- Qonun ijodkorligida nafaqat normalarni belgilash, balki ularning innovatsiyalarni rag‘batlantirishga xizmat qilishiga e’tibor qaratish lozim (Chapra, 2008).

- Regulyatorlar monitoring jarayonida nafaqat moliyaviy, balki ijtimoiy indikatorlarni (ishonch indeksi, ayollar ulushi va h.k.) ham kuzatib borishlari kerak.

Mazkur modelning amaliy ahamiyati kelgusida O‘zbekiston sharoitida maxsus empirik tadqiqotlar orqali tasdiqlanishi lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

Ahmed, H. (2002). Financing microenterprises: An analytical study of Islamic microfinance institutions. *Islamic Economic Studies*, 9(2), 27–64.

Ali, S. A., & Hassan, M. K. (2023). The role of fintech in promoting financial inclusion in OIC countries. *Borsa Istanbul Review*, 23(1), 12–24.

Asutay, M. (2019). Islamic moral economy as the foundation of Islamic finance. *Journal of Islamic Economics, Banking and Finance*, 15(3), 55–68.

Asutay, M., & Yilmaz, I. (2021). Constituting an Islamic social economy: Theory and practice. *International Journal of Social Economics*, 48(8), 1120–1135.

Chapra, M. U. (2008). *The Islamic vision of development in the light of maqasid al-shariah*. Islamic Research and Training Institute.

Hassan, M. K., Muneeza, A., & Sarea, A. M. (2021). *COVID-19 and Islamic social finance*. Routledge.

Islamic Development Bank. (2023). *Annual report 2023: Resilient recovery and social protection*. IsDB Institute.

Karim, N., Tarazi, M., & Reille, X. (2008). *Islamic microfinance: An emerging market niche* (CGAP Focus Note No. 49). World Bank.

North, D. C. (1990). *Institutions, institutional change and economic performance*. Cambridge University Press.

Paldi, J. A. A. (2020). Understanding the role of institutions in the development of Islamic finance. *Journal of Islamic Accounting and Business Research*, 11(9), 1897–1912.


World Bank. (2024). *Global economic prospects: January 2024 – Central Asia regional focus*. World Bank.

Ўзбекистон Республикаси Президенти. (2022, 28 январь). *2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида* (ПФ–60-сон Фармон).

### Ноавалар

**Ноавал:** Huquqiy-institutsional muhitning kambag‘allikni qisqartirishga ta‘sirining konseptual modeli

## ISLOMIY MIKROMOLIYANING KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDA TA’SIRI MEXANIZIMI



*Б.Каршиев, соискатель Самаркандского института экономики и сервиса*

## ОПРЕДЕЛЕНИЕ ВЛИЯНИЯ ФАКТОРОВ НА КАЧЕСТВО ОБСЛУЖИВАНИЯ В СИСТЕМЕ ДЕТСКОГО ЗДРАВООХРАНЕНИЯ

**Аннотация:** В статье рассмотрены факторы, оказывающие влияние на качество услуг в системе детского здравоохранения Самаркандской области. На основе регрессионной модели определены факторы, влияние которых необходимо учесть при выработке стратегий повышения конкурентоспособности платных услуг в Узбекистане.

**Ключевые термины:** Качество платных услуг, детское здравоохранение, койко-места, смертность, излечимость.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Samarqand viloyati bolalar salomatligi tizimida xizmatlar sifatiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganadi. O'zbekistonda pullik xizmatlarning

*raqobatbardoshligini oshirish strategiyalarini ishlab chiqishda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan omillarni aniqlash uchun regressiya modeli qo'llaniladi.*

**Kalit so'zlar:** *Pullik xizmatlar sifati, bolalar salomatligi, kasalxona o'rinlari, o'lim va davolanish imkoniyati.*

**Abstract:** *This article examines factors influencing the quality of services in the children's healthcare system of the Samarkand region. A regression model is used to identify factors whose influence should be considered when developing strategies to improve the competitiveness of paid services in Uzbekistan.*

**Key words:** *Quality of paid services, children's healthcare, hospital beds, mortality, and curability.*

Одной из проблем качества услуг медицинской клиники является его относительность и комплексность, сложность в измерении. Качество услуг и эффективности деятельности медицинской клиники в оказании услуг зависит от многих факторов. С целью определения этих факторов нами был проведен опрос руководителей клиник, оказывающих подобные услуги.

На качество услуг оказывают влияние множество факторов, такие, как: наличие высококвалифицированных дипломированных кадров, уникального оборудования, диверсифицированные и уникальные услуги, пользующиеся спросом у населения, наличие послеоперационного ухода, дополнительные услуги, наличие обратной связи и программы лояльности. Управление этими факторами позволит рационально использовать ресурсы клиники и обеспечит высокое качество услуг. В целях анализа проблем качества услуг медицинской клиники необходимо комплексное исследование факторов с помощью разработки моделей.

Определение всех неизученных факторов и их целенаправленное использование для определения качества является важнейшим элементом разработки стратегии, планирования расходов и разработки смет, размеров вмешательства в ценообразование. Экономико-математические методы анализа создают большие возможности для исследования силы связи и выявления закономерностей и эмпирического наблюдения за сложными социально-экономическими явлениями.

В работе поставлена задача определения влияния факторов на качество услуг клиник на базе существующих и вовлекаемых ресурсов.

В медицине с помощью методов корреляционно-регрессионного анализа возможно выявление связи между факторами и силы этой связи, а также определения размера вмешательства в процессы регулирования, контроля, оценки и управления деятельности клиник.

Важнейшим этапом построения модели в медицине является выбор формы связи, характеризующей зависимость результативного, прогнозируемого показателя от установленных факторов, влияющих на этот показатель.

Задача заключается в нахождение аналитического выражения, показывающего как величина  $Y$  - качество услуг клиники (число вылечившихся детей) зависит от величин  $x_1, x_2, \dots, x_n$  факторов. В

нашем исследовании таковыми являются число детей в реанимации для новорожденных, число умерших после операции услуг, количество развернутых коек.

При изучении зависимости эффективности клиники и факторов используем линейную форму многофакторных связей не только как наиболее математически обоснованную, но и как форму, предусмотренную пакетами прикладных программ.

С целью выявления факторов, влияющих на качество услуг клиники нами были проанализированы данные за 2015-2022 года.


Нами подготовлен следующий массив данных для проведение корреляционно-регрессионного анализа.

**Таблица 1**

Показатели	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
реанимация для новорожденных (x1)	87	159	133	125	25	36	67	79
умерло после операции (x2)			86	68	15	26	44	60
количество развернутых коек (x3)	200	200	200	210	210	210	200	200
число вылечившихся детей (y)	9317	10208	10076	10450	3714	3995	8813	9280

Наиболее значимые показатели, которые прямо и косвенно влияют на качество услуг – это наличие коек, состояние реанимационной технической базы, число детей, получивших исцеление в ходе нахождения в клинике.

С помощью программы StatPad мы получили результаты регрессионного анализа данных о конкурентоспособности медицинской клиники (Приложение 3). Высокий показатель R свидетельствует о сильной положительной взаимосвязи между выявленными факторами, данные довольно плотно сгруппированы (с небольшим случайным разбросом) вокруг прямой линии, направленной вверх и вправо.



**Рисунок.1. Зависимость числа вылечившихся детей от факторов**

**Таблица 2.**

**Результаты регрессионного анализа**

<b>Регрессионная статистика</b>	
Множественный коэффициент регрессии R	0,94771284
Коэффициент детерминации R квадрат	0,898159627
Нормированный R квадрат	0,796319255
Стандартная ошибка оценки Se	1326,775861
Наблюдения	7
Коэффициент корреляции $r_{x1}$	0.62
Коэффициент корреляции $r_{x2}$	0.71
Коэффициент корреляции $r_{x3}$	-0.72
Коэффициент корреляции $r_{x1x2}$	0.68
Коэффициент корреляции $r_{x1x3}$	0.24
Коэффициент корреляции $r_{x2x3}$	-0.38

Абсолютный размах вариации цены составляет 6736 детей. Установленные факторы на 89.8 % объясняют зависимость качества услуг от эффективности работы реанимационного блока, наличия достаточного количества койко-мест, качества операционных услуг, а остальные 9.2% объясняются влиянием других неустановленных факторов. Уравнение регрессии в нашем случае имеет вид:

$$Y = 31156 + 39.1 x_1 + 27.1x_2 - 135.7 x_3;$$

Постоянные расходы медицинской клиники на 1 пациента составляют 3115 тыс.сум, остальные расходы относятся к переменным расходам. В

нашем случае к постоянным расходам относятся расходы на содержание реанимационного и операционного блока.

**Выводы и предложения:** Наибольшие расходы клиники связаны с содержанием и оснащением медицинского учреждения. Можно быть уверенным на 95% в том, что модернизация и реновация материально-технической базы клиники к повышению качества услуг, росту эффективности услуг клиник по меньшей мере на 39,1 детей излечившихся (одностороннее значение из t-таблицы для n-k-1- 17 степеней свободы составляет  $t=1.746$ ). Это еще раз свидетельствует о необходимости модернизации реанимационного и операционного блока клиники, что возможно за счет государственно-частного партнерства.

Если учесть тот прогноз, который мы провели выше, то уже в 2025 году можно добиться количества излечившихся до 10500 детей за счет модернизации клиники. Но это требует дополнительных инвестиций и капиталовложений в клинику и дополнительное повышение квалификации и совершенствование соответствующей законодательной базой, регулирующий медицинский бизнес в республике.

Моральное устаревание основных средств безусловно, снижает эффективность услуг клиники при постепенном износе оборудования, из-за высокой оплаты специалистов, дополнительных услуг. Можно быть уверенным на 95% в том, что прирост излечившихся детей в клинике на одного приводит к росту качества услуги. Однако, несмотря на это, продление пребывания пациента имеет значительный экономический и социальный эффект, пополняя бюджет региона и создавая дополнительные рабочие места.

Повышение качества услуг возможно также и за счет увеличения числа пациентов, но для этого необходимо повысить привлекательность и узнаваемость бренда и уровень развитости клиник подобного профиля в столице за счет рекламы, модернизации материально-технической базы, освоение новых разновидностей медицинских услуг, снижение стоимости его компонентов (проживание, транспортировка, питание).

Таким образом, для определения влияния факторов на эффективность услуг клиники нами разработана следующая многофакторная модель:

№	Показатель	Вид уравнения	Модель	Вид модели
1	Уровень конкурентоспособности	$Y = a + b_1 x_1 + b_2 x_2 + \dots + b_n x_n;$	$Y = 31156 + 39.1 x_1 + 27,1 x_2 - 135,7 x_3;$	Многофакторная линейная модель

Применение этой модели обеспечит научную обоснованность формирования долгосрочной стратегии развития клиники и обеспечит повышение качества услуг. Постоянные расходы клиники являются важным резервом снижения стоимости услуг.

## СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Kangas B. Travelling for Medical care in a Global World// Medical Antropology: Cross Cultural Studies in Health and Illness.2010.№29. C344-362.
2. Karpova, G.A., Dolmatenia, Yu. V., Tkachev, V.A. Development problems of resort complex in transformation of the Russian economy - Сервис в России и за рубежом. 2018. Т. 12. № 1 (79). С.52-63
3. Jin-Li Hu<sup>1</sup>, Fang-Yu Yeh<sup>2</sup> & Yun-Chih Tsai<sup>1</sup>. Regional Traffic & Medical Services and Cost Efficiency of International Tourist Hotels in Taiwan // International Business Research; Vol. 7, No. 10; 2014
## **QASHQADARYO VILOYATIDA AGROTURIZM SOHASIDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH**

**Annotatsiya:** Mazkur ma‘ruzada Qashqadaryo viloyatida agroturizm sohasini rivojlantirish orqali aholi bandligini oshirish masalalari tadqiq etilgan. Hududning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va mehnat resurslari tahlil qilinib, agroturizm faoliyatining bandlikka ta’siri baholangan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, agroturizm qishloq hududlarida yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish hamda hududiy barqaror rivojlanishni ta’minlashda muhim omil ekani asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** agroturizm, aholi bandligi, Qashqadaryo viloyati, qishloq hududlari, xizmatlar sohasi.

**Аннотация.** В данной работе исследуются вопросы повышения занятости населения за счет развития агротуризма в Кашкадарьинской области. Проанализированы природные, социально-экономические и трудовые ресурсы региона, а также влияние агротуристической деятельности на уровень занятости. Результаты исследования показывают, что агротуризм является важным фактором создания новых рабочих мест, повышения доходов населения и обеспечения устойчивого развития сельских территорий.

**Ключевые слова:** агротуризм, занятость населения, Кашкадарьинская область, сельские территории, сфера услуг.

**Annotation.** This paper examines the issues of increasing employment through the development of agrotourism in the Kashkadarya region. The natural, socio-economic and labor resources of the region are analyzed, and the impact of agrotourism on employment is assessed. The study shows that agrotourism plays a significant role in creating new jobs, increasing rural incomes, and ensuring sustainable regional development.

**Keywords:** agrotourism, employment, Kashkadarya region, rural areas, service sector.

Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida aholi bandligini ta’minlash va yangi ish o‘rinlari yaratish hududiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Viloyat aholisi tarkibida qishloq aholisi ulushining yuqoriligi, mehnat resurslarining ko‘pligi va tabiiy-iqlim sharoitlarining xilma-xilligi agroturizmni rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, an’anaviy qishloq xo‘jaligi faoliyati bandlik masalasini to‘liq hal eta olmayotgani agroturizmni muqobil daromad va bandlik manbai sifatida rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Qishloq hududlarida aholi bandligini ta’minlash va barqaror daromad manbalarini yaratish bugungi iqtisodiy rivojlanishning ustuvor vazifalaridan biridir. Qashqadaryo viloyatida qishloq aholisi ulushining yuqoriligi va mehnat resurslarining ko‘pligi agroturizmni rivojlantirish uchun muhim shart-sharoit yaratadi. Agroturizm qishloq xo‘jaligi va turizm faoliyatini uyg‘unlashtirgan holda, aholi bandligini oshirishning

muqobil mexanizmi sifatida namoyon bo‘lmoqda<sup>31</sup>. Qashqadaryo viloyatining agroturizm salohiyati. Qashqadaryo viloyati chorvachilik, bog‘dorchilik, uzumchilik va polizchilik yo‘nalishlari rivojlangan hudud hisoblanadi. Viloyatning tog‘oldi va qishloq hududlarida ekologik toza mahsulotlar yetishtirilishi agroturizm xizmatlarini tashkil etish uchun qulay sharoit yaratadi<sup>32</sup>. Ayniqsa, oilaviy fermer xo‘jaliklari va tomorqa yerlarida turistik xizmatlar ko‘rsatish imkoniyati mavjud.



**1-rasm. Agroturizm faoliyati aholi bandligini quyidagi yo‘nalishlarda oshirish imkonini beradi<sup>33</sup>.**

Agroturizm va aholi bandligi o‘rtasidagi bog‘liqlik. Agroturizm faoliyati aholi bandligini quyidagi 1-rasmdagi yo‘nalishlarda oshirish imkonini beradi. Mazkur faoliyatlar nafaqat doimiy, balki mavsumiy bandlikni ham ta‘minlab, qishloq aholisi daromadlarini diversifikatsiya qiladi.

Agroturizmning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Agroturizm qishloq hududlarida bandlikni oshirish bilan bir qatorda, aholi daromadlarining ko‘payishiga va migratsiya jarayonlarining qisqarishiga xizmat qiladi<sup>34</sup>. Ayniqsa, yoshlar va ayollar uchun uy sharoitida ishlash imkoniyatlarining yaratilishi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Agroturizmning rivojlanishi Qashqadaryo viloyatida quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

- yoshlar va ayollar bandligining oshishi;
- ichki va tashqi mehnat migratsiyasining qisqarishi;
- qishloq infratuzilmasining rivojlanishi;
- mahalliy byudjet tushumlarining ko‘payishi.

<sup>31</sup> Sharifxo‘jayev M. *Agroturizm asoslari*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.

<sup>32</sup> O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi ma‘lumotlari, 2023-yil.

<sup>33</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>34</sup> World Tourism Organization (UNWTO). *Tourism and Employment*. Madrid, 2022.



**2-rasm. Agroturizm faoliyatining aholi bandligiga ta‘siri<sup>35</sup>.**

Mavjud muammolar va cheklovlar. Shu bilan birga, agroturizm orqali bandlikni oshirishda bir qator muammolar mavjud:

- malakali kadrlar yetishmasligi;
- moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi;
- infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- marketing va reklama faoliyatining sustligi<sup>36</sup>.

Agroturizm sohasida aholi bandligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash va mavjud muammolarni tizimli baholash maqsadida SWOT tahlil usulidan foydalanildi. Ushbu usul Qashqadaryo viloyatining ichki va tashqi omillarini kompleks tahlil qilish imkonini beradi.

<sup>35</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>36</sup> Qodirov A.A. Qishloq hududlarini rivojlantirishda agroturizmning o‘rni // *Iqtisodiyot va innovatsiyalar*, 2022, №4.



### 3-rasm. Qashqadaryo viloyatida agroturizm orqali aholi bandligini oshirishning SWOT tahlili<sup>37</sup>.

Xulosa, Ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalar:

Qashqadaryo viloyatida agroturizm sohasini rivojlantirish aholi bandligini oshirishning samarali va barqaror mexanizmi hisoblanadi. Hududning tabiiy va mehnat salohiyatidan oqilona foydalanish orqali qishloq aholisi farovonligini oshirish va iqtisodiy faollikni kuchaytirish mumkin.

Ilmiy-nazariy takliflar:

1) agroturizmni hududiy bandlik siyosatining alohida yo‘nalishi sifatida konseptual asoslash;

2) agroturizm va qishloq bandligi o‘rtasidagi iqtisodiy bog‘liqlikni baholash metodikasini ishlab chiqish.

Amaliy tavsiyalar:

a) Qashqadaryo viloyatida agroturizm klasterlarini tashkil etish;

b) oilaviy va kichik agroturizm subyektlari uchun imtiyozli kreditlar joriy etish;

c) agroturizm bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv va trening dasturlarini yo‘lga qo‘yish;

d) hududiy agroturizm mahsulotlarini raqamli platformalar orqali targ‘ib qilish.

<sup>37</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sharifxo‘jayev M. Agroturizm asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi ma’lumotlari, 2023-yil.
3. World Tourism Organization (UNWTO). Tourism and Employment. Madrid, 2022.
4. Qodirov A.A. Qishloq hududlarini rivojlantirishda agroturizmning o‘rni // Iqtisodiyot va innovatsiyalar, 2022, №4.
5. Самиева, Г. Т., & Аликулов, Х. Т. (2023). НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН И ПЕРЕХОД В «ЗЕЛЕНУЮ ЭКОНОМИКУ». Экономика и социум, (11 (114)-1), 994-998.
6. Samieva, G. T., & ugli Alikulov, K. T. (2024). MINTAQADA “YASHIL IQTISODIYOT” ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASH MASALALARI. THE INNOVATION ECONOMY, 4(04).
7. Aliqulov, H. (2023). YASHIL IQTISODIYOT. KELAJAK IQTISODIYOTING ASOSI. Nashrlar, 474-477.
8. Alikulov, K., & Tokhir, K. (2024). Milliy “yashil iqtisodiyot” taksonomiyasi. THE INNOVATION ECONOMY, 2(1).
9. Tohir o‘g‘li, A. H. (2025). AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI. IZLANUVCHI, 1(9), 93-96.
10. Aliqulov, H. (2025). DIFFERENCES BETWEEN TRADITIONAL AND GREEN ECONOMIC MODELS. International Journal of Artificial Intelligence, 1(2), 1012-1015.
11. Tohir o‘g‘li, A. H. (2025). “YASHIL” IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. BILGI ÇEŞMESI, 1(5), 39-43.

**Irgashev Abbos Jumanazarovich** – Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti tayanch doktoranti

## ANOR ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada anor yetishtirishning xususiyatlari va ahamiyati hamda anor yetishtirishni yangi ekologik toza, dorivor anorni yetishtirish agrotexnologiyasi, anorning mevasi sharbati, qayta ishlanishi va anor ishlab chiqarish samaradorligi hamda anordan foydalanishlarining hususiyatlari va ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** anor, dorivor o‘simlik, anor yetishtirish, samadorlik, tibbiyotda foydali tomonlari, dehqon va fermer xo‘jaligi.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются особенности и значение выращивания граната, новые экологически чистые агротехнологии выращивания граната, характеристики и значение гранатового сока, эффективность переработки и производства, а также использование граната.

**Ключевые слова:** гранат, лекарственное растение, выращивание граната, урожайность, лекарственные свойства, фермер и ферма.

**Abstract:** *This article discusses the features and importance of pomegranate cultivation, the new ecologically clean agrotechnology of pomegranate cultivation, the characteristics and importance of pomegranate juice, processing and production efficiency, and the use of pomegranate.*

**Keywords:** *pomegranate, medicinal plant, pomegranate cultivation, productivity, medicinal benefits, farmer and farm.*

Anor ishlab chiqarish qishloq xo‘jaligi va iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning samaradorligini oshirish ahamiyat kasb etadi. Bu soha mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shish, aholining bandligini ta‘minlash va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash imkonini beradi. Anor ishlab chiqarish va qauta ishlash uchun qulau tabiiu iqlim sharoitlari bo‘lgan O‘zbekistonda kuchli potensial resurs bazasiga ega.

Mintaqaning tuproq, iqlim sharoitlari anor ishlab chiqarishni sanoat darajasida tashkil etishga imkon beradi. O‘zbekiston sharoitida anor uetishtirishning iqtisodiu samaradorligi ko‘rsatkichlari esa nisbatan uangi uo‘nalish bo‘lib, mevachilik sohasidagi bir qancha tadqiqotlar tarkibida qisman o‘rganilgan xolos. Tabiiu anor o‘rmonlari, shuningdek, anor plantatsiualari qishloq joularda sezilarli darajada bandlikni ta‘minlash va daromad olish imkonini beradi.

Markaziu Osiuo va unga tutash mintaqalarda joulashgan ba‘zi mamlakatlarda tabiiu o‘rmonlardan anor va boshqa mevalarni uig‘ish, qauta ishlash va sotish ko‘pincha norasmiu iqtisodiu faoliyat bo‘lgan bo‘lsada, anor plantasiualarining kengauishi plantatsiualarni boshqarish, uong‘oqni qauta ishlash va savdosida rasmiu bandlikning o‘rnatilishiga olib keldi. Shuningdek, anor daraxtlari ekologik barqarorlikni ta‘minlashda katta ahamiyatga ega bo‘lib, tuproqni eroziyadan himoya qiladi, havo sifatini yaxshilaydi va mikroiklimni tartibga soladi. Tez buzilmaudigan mahsulotlar orasida anor ko‘chirish va tashish uchun qulau bo‘lgan qattiq qobig‘i bilan mashhur oziq-ovqat mahsuloti hisoblanadi.

Anor meva berishi mumkin bo‘lgan joular ancha chegaralangan – Yer sharidagi quruqlikning atigi 7% qismi bunga mos keladi. O‘zbekiston katta hududi anor uetishtirishga mos keluvchi kam, sonli davlatlar qatoriga kiradi. Mamlakatimiz anor uetishtirishda oxirgi uillarda uetakchilar qatoriga kira oldi<sup>38</sup>. Xususan anor uetishtirishda uuqori ko‘rsatkich bilan dunuoda 9-o‘ringa ko‘tarilganligi ishlab chiqarish hajmi ancha oshganligini anglatsada, uurtimizning tabiiu imkoniatlaridan oqilona foudalana olinmauotganini ko‘rsatadi<sup>39</sup>. O‘zbekiston Respublikasida uetishtirilgan umumiu anor hajmidagi ulushi bo‘uicha Surxondaryo vilouati salmoqli o‘ringa ega.

Ammo O‘zbekistonda iqtisodiuotning bu sohasi uetarlicha rivojlanmagan. Anor ishlab chiqarish bilan asosan uu xo‘jaliklari shaxsiu tomorqalarida shug‘ullanadi, turli tahlillarga ko‘ra bu ualpi hosilning 80-85% dan ko‘proq

---

<sup>38</sup> FAO qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ekinlari statistikasi. <https://www.fao.org/faostat/ru/#data/QCL/visualize>

<sup>39</sup> <https://www.nationmaster.com/nmx/ranking/walnuts-production>

qismini tashkil etmoqda. anorni qauta ishlash va tauuorlash bilan shug‘ullanuvchi uirik korxonalarini esa barmoq bilan sanash mumkin xolos. Bu esa anorning katta qismini ishlab chiqarish, tauuorlash va eksport qilish qora bozorga to‘g‘ri kelishini bildiradi. Anor uetishtirish tog‘li hududlarda mahalliu aholining turmush farovonligini ta‘minlashda muhim rol o‘unaudi va shuning uchun uni rivojlantirishga sarmoua kiritish juda muhimdir. Qishloq xo‘jaligi sektori bir nechta sanoat tarmoqlarida ishlatilishi mumkin bo‘lgan qoldiqlar va chiqindilarga juda bou hisoblanadi. Demak, chiqindilarni foudali qo‘shimcha mahsulotga aulantirishni “haqiqiu xazina” deb hisoblash mumkin.

Samaradorlikning ushbu turlarini o‘lchashning uslubiy asoslari aniq belgilangan va keng qabul qilingan me‘yoriy yoki hisob-kitob ko‘rsatkichlar chegarasidan tashqariga chiqmaydi. Anorning iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda - tannarx, narx, mehnat unumdorligi, foyda, rentabellik, to‘lov qobiliyati, moliyaviy barqarorlik; ijtimoiy samaradorlik - aholi jon boshiga ishlab chiqarish, o‘z ishlab chiqarishi hisobiga oziq-ovqat iste‘moli darajasi, aholining daromadlari va bandlik darajasi va boshqalar; ekologik samaradorlik - qishloq xo‘jaligi landshaftlari xavfsizligini saqlash, tabiiy resur,slardan foydalanish, mahsulotlarning ekologik tozaligi ko‘rsatkichlari (bu ayniqsa meva yetishtirishda muhim ahamiyatga ega) va hokazo. Meva subkompleksi, yuqorida aytib o‘tilganidek, murakkab tuzilish bilan tavsiflanadi. Shuning uchun subkompleksni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida hal qilinishi kerak bo‘lgan vazifalardan kelib chiqqan holda, bizning fikrimizcha, butun subkompleksni, uning tarmoqlari va korxonalari faoliyatini ma‘lum ko‘rsatkichlar tizimi zarur.

Anor ishlab chiqarish samaradorligi qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Samaradorlikni oshirish asosan tabiiy-iqlim sharoitlaridan to‘g‘ri foydalanish, ilg‘or agrotexnologiyalarni joriy etish va innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga bog‘liq. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonida resurslardan oqilona foydalanish, mahsulot sifatini oshirish va bozor talablariga moslashtirishning ahamiyati katta.

Anor yetishtirish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar sifatida quyidagilar belgilashimiz mumkin: yer resurslarining unumdorligi, suv ta‘minoti, ishchi kuchining sifatli tashkil etilishi, zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanilishi, iqtisodiy va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari.

Anor ishlab chiqarishning yuqori darajada samarali bo‘lishi uchun agroiqtisodiy va institutsional shart-sharoitlarni shakllantirish, ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq etish hamda marketing strategiyalarini puxta rejalashtirish ustuvor yo‘nalishlar hisoblanadi. Bu jarayonlarni samarali tashkil etish yong‘oq ishlab chiqaruvchilarining daromadini oshirishga, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga va qishloq xo‘jaligining umumiy raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Anor mevasining taxminan 40-60 foiz qismi anor ishlab chiqarish va qauta ishlash jarauonida hosil bo‘ladigan qo‘shimcha chiqindi qo‘shimcha mahsulotlarga aulanadi. Bu qism qulauligi, uuqori qattiqligi va mustahkamligi, arzonligi, namlikning kamligi va biologik parchalanishi tufauli katta miqdordagi

fudali chiqindilar hisoblanadi. Anor hosildan qoldiqlar va ularning valorizatsiiasi – bu anor mahsulotiga qiymat qo‘shish va uni ishlab chiqarish va qauta ishlash jarauonida hosil bo‘ladigan chiqindilarni qo‘shimcha mahsulotlarga aulantirish nazarda tutiladi.

Anor qadim zamonlardan buyon O‘zbekistonda yuqori baholangan mahsulotlardan biri hisoblanadi. Uning o‘ziga xos burma naqshlari, mustahkamligi va uzoq muddatga chidamliligi uni va boshqa hunarmandchilik sohalarida keng qo‘llashga olib kelgan. Anor o‘zining mustahkamligi tufayli qadimgi hunarmandchilikda keng qo‘llanilgan.

Anor o‘zining yuqori ozuqaviy qiymati va noyob ta‘mi tufayli dunyo oshxonalarida keng qo‘llaniladi. Har bir mamlakat anorni o‘z milliy an‘analari va taomlariga moslashtirgan holda foydalanadi. O‘rmon mevalari uilning muauuan davrlarida oziq-ovqat xavfsizligiga hissa qo‘shishi, ozuqa xilma-xilligini oshirishi va qishloq va shahar aholisining sifatli ratsionga ega ovqatlanishi uchun muhim sanaladi.

Anor mevalilar orasida inson ovqatlanishida uchun eng muhim va keng tarqalgan mahsulotlardan biri bo‘lib kelgan va hozirda ham, ko‘plab mamlakatlarning ichki va eksport bozorlarida uaxshi tijoratlantiriladi. AQSh va Yevropada anor sog‘lom oziq-ovqat manbai sifatida qadrlanadi. U asosan shirinliklar, non mahsulotlari va desertlarda ishlatiladi.

Anor o‘simligining hamma qismi dorivordir, guli va mevasini xomi va sharbati xalq tabobatida ko‘pab kasalliklarni davolashda va oldini olishda ishlatiladi.

Har bir xonadonda ushbu o‘simlikni tuvaklarda, maxsus yashiklarda o‘stirsa xonaga pashsha va chivinlar kirmaydi, chumoli, qumusqa, suvaraklar va hatto sichqon va kalamushlar oralamaydi. Muattar hushbo‘y xidlarda dam olishni gashti boshqacha bo‘ladi. Ushbu mo‘jizakor o‘simlikni, na faqat ochiq maydonlarda, balki O‘zbekistondagi barcha uy xonadonlarida, ko‘pqavatli uylardagi balkonlarda va issiqxonalarda situris mevalar kabi, yani, limon, apelsin va mandarin singari tuvak va yashiklarda yetishtirish vaqti kelganligini aloxida takidlamochimiz. Anor o‘simlgidan foydalanish darajasi xozir 8 – 10 foiz, kelgusida ko‘proq foydalanish uchun, uni ustida ko‘proq tajribalar o‘tkazib, ochilmagan qirralarini ochish, kelajak avlodning vazifasi ekanligini, ularga, yani yoshlarga eslatib qo‘yish xar bir tabibning vazifasidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. FAO qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ekinlari statistikasi. <https://www.fao.org/faostat/ru/#data/QCL/visualize>
2. <https://www.nationmaster.com/nmx/ranking/walnuts-production>
3. Неъматов И. Анор етиштириш сирлари. – Тошкент. 2011. 6. 3-15.
4. Samant, S.S., Dhar, U., 1997. Diversity, endemism and economic potential of wild edible plants of Indian Himalaya. Int J Sust Dev World 4, 179–191. <https://doi.org/10.1080/13504509709469953> .

### III SHO‘BA. BARQAROR IQTISODIY O‘SISH VA HUDUDLARDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI YASHIL VA INNOVASION IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA JADAL RIVOJLANTIRISH ORQALI XALQARO VA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI.

*Raxmatulla Xidirovich Ergashev* - i.f.d., professor Qarshi davlat texnika universiteti, [e\\_r\\_x\\_55@Rambler.ru](mailto:er_x_55@Rambler.ru), <https://orcid.org/0009-0008-9794-9859>

*Jamshid Norboyevich Uzaqov* - i.f.f.d., (Phd), dotsent, Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, [jamshiduzokov0660@gmail.com](mailto:jamshiduzokov0660@gmail.com), <https://orcid.org/0009-0002-6420-9076>

#### MINTAQA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION VA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARINING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

*Annotatsiya:* Maqolada mintaqa ziyorat turizmini rivojlantirishda innovatsion va yashil iqtisodiyot tamoyillarining o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning amaliy samaradorligi tahlil qilinadi. Ziyorat turizmi infratuzilmasini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash va resurslardan oqilona foydalanish masalalari yoritiladi. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar va yashil iqtisodiyot mexanizmlarining hududiy iqtisodiy o‘shish, bandlikni oshirish hamda madaniy merosni asrashga qo‘shayotgan hissasi baholanadi. Tadqiqot natijalari mintaqaviy turizm siyosatini takomillashtirish va barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

*Kalit so‘zlar:* ziyorat turizmi, mintaqaviy rivojlanish, innovatsion iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik turizm, raqamli texnologiyalar.

*Аннотация:* В статье анализируется взаимосвязь и эффективность принципов инновационной и зелёной экономики в развитии регионального зиярат-туризма. Рассматриваются вопросы модернизации туристической инфраструктуры, внедрения цифровых технологий, обеспечения экологической устойчивости и рационального использования природных ресурсов. Особое внимание уделяется влиянию инновационных и экологически ориентированных подходов на региональный экономический рост, повышение занятости населения и сохранение культурно-духовного наследия. Результаты исследования могут быть использованы при разработке региональных программ и стратегий устойчивого развития туризма.

*Ключевые слова:* паломнический туризм, региональное развитие, инновационная экономика, зелёная экономика, устойчивое развитие, экологический туризм, цифровые технологии.

*Abstract:* This article examines the interrelation and effectiveness of innovative and green economy principles in the development of regional pilgrimage tourism. The study focuses on the modernization of tourism infrastructure, the introduction of digital technologies, environmental sustainability, and the efficient use of natural resources. It also evaluates the contribution of innovation-driven and environmentally oriented approaches to regional economic growth, employment expansion, and the preservation of cultural and spiritual heritage. The research findings are relevant for improving regional tourism policies and designing sustainable development strategies.

**Keywords.** *pilgrimage tourism, regional development, innovative economy, green economy, sustainable development, eco-tourism, digital technologies.*

So‘nggi yillarda turizm jahon iqtisodiyotida barqaror o‘sib borayotgan sohalardan biri sifatida e‘tirof etilyapti. Umumiy sayyohlik oqimlari o‘shida diniy-ma‘rifiy yo‘nalish — ziyorat turizmi muhim rol o‘ynamoqda. Dunyoda turizmdan tushadigan daromadlar salohiyati sezilarli bo‘lishi bilan birga, ziyorat yo‘nalishlari ham o‘sib borayotgan segmentlardan sanaladi. Masalan, Umumjahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO)ga ko‘ra turizmning xalqaro tashriflar soni 1950 yilda 25 milliondan, 1980 yilda 278 millionga yetgan va keyingi yillar davomida sezilarli darajada oshib bormoqda<sup>40</sup>.

O‘zbekiston ziyorat turizmi salohiyatiga ega bo‘lgan mintaqalardan biridir. Respublika hududida 1 200 dan ortiq ziyorat va muqaddas maskanlar mavjud bo‘lib, bu mamlakatni diniy sayyohlik yo‘nalishida jahon miqyosida tanilgan markazlardan biriga aylantiradi<sup>41</sup>. 2016–2018 yillar ichida mamlakatga tashrif buyurgan sayyohlar soni sezilarli darajada ko‘paydi, jumladan, 2017 yilda 2,2 milliondan, 2018 yilda esa 5,3 millionga yaqin bo‘lgan. Bu esa turizm, jumladan ziyorat sayyohligi sohasining iqtisodiy qimmatini ko‘rsatadi<sup>42</sup>.

Shu jumladan, Qashqadaryo viloyatida ziyorat turizmi salohiyatiga ega bo‘lgan bir qator muqaddas maskanlar mavjud. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son [qarori](#)ga muvofiq 2023-yilda xorijiy turistlar tashrifi rejasi 210 ming nafar etib belgilangan holda 2024 yilning 9 oyi yakunlariga ko‘ra viloyatga 460 ming nafar xorijiy turist tashrif buyurgan bunda ziyorat maqsadida tashrif buyuruvchilar soni salmoqli hisoblanadi<sup>43</sup>.

Ichki turizm ham mamlakat iqtisodiyotining ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Mahalliy aholining sayyohlik faoliyati hududiy xizmatlar, transport va mehmonxona sektorlarini faollashtiradi, ish o‘rinlarini yaratadi hamda aholi bandligini oshiradi. Ikkala yo‘nalish — ziyorat turizmi va ichki turizmning uyg‘un rivojlanishi mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun muhim omildir, chunki ular hududiy daromadlarni diversifikatsiya qilish, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash va xizmatlar sohasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, bu yo‘nalishlar samaradorligini oshirishda bir qator muammolar mavjud. Ular qatoriga infratuzilma cheklanganligi, transport va logistika yo‘nalishlarining rivojlanmaganligi, xalqaro marketingning yetarli darajada emasligi va raqamli axborot vositalarining kamligi bilan tavsiflanadi. Bu holat mintaqaviy darajada ziyorat va ichki sayyohlik salohiyatidan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda. Shu sababli innovatsion yechimlar va yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish orqali bu muammolarni ilmiy asoslangan choralar bilan bartaraf etish hozirgi davrning dolzarb ilmiy va amaliy vazifasidir.

---

<sup>40</sup> <https://webunwto.s3.eu-west-1.amazonaws.com>

<sup>41</sup> <https://www.trade.gov/country-commercial-guides/uzbekistan-travel-and-tourism>

<sup>42</sup> [https://bukhari.uz/?p=8405&utm\\_source](https://bukhari.uz/?p=8405&utm_source)

<sup>43</sup> [https://uza.uz/oz/posts/qashqadaryoga-sayyohlar-tashrifi-otgan-yilga-nisbatan-20-foizga-oshgan-659808?utm\\_source](https://uza.uz/oz/posts/qashqadaryoga-sayyohlar-tashrifi-otgan-yilga-nisbatan-20-foizga-oshgan-659808?utm_source)

Jahon tajribasi ziyorat turizmini rivojlantirishda innovatsion va yashil iqtisodiyot tamoyillari tobora muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda ziyorat maskanlarini boshqarishda raqamli platformalar, aqlli transport tizimlari va elektron xizmatlar joriy etilib, ziyoratchilar oqimini samarali tashkil etish imkoniyati yaratilmoqda. Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, energiya tejamkor infratuzilmani barpo etish va chiqindilarni qayta ishlash amaliyoti keng qo‘llanilib atrof-muhitga bo‘lgan salbiy ta‘sirni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Innovatsion texnologiyalar yordamida resurslardan oqilona foydalanish ta‘minlanib, yashil iqtisodiyot tamoyillari orqali ekologik barqarorlik mustahkamlanmoqda. Natijada ziyorat turizmi nafaqat iqtisodiy foyda keltiruvchi soha, balki barqaror rivojlanishni ta‘minlovchi omil sifatida shakllanmoqda. Jahon amaliyoti ushbu yondashuvlarning uyg‘unligi ziyorat turizmining uzoq muddatli samaradorligini oshirishini yaqqol namoyon etmoqda.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha muayyan islohotlar amalga oshirilayotgan bo‘lsada, innovatsion va yashil iqtisodiyot tamoyillarini to‘liq joriy etish darajasi yetarli emas. Mavjud holat tahlili shuni ko‘rsatadiki, ziyorat maskanlarida raqamli xizmatlar, ekologik infratuzilma va resurslarni tejoyvchi texnologiyalar cheklangan miqyosda qo‘llanilmoqda. Respublika miqyosida asosiy muammolar qatoriga transport-logistika tizimining nomukammalligi, yashil energiya manbalaridan foydalanishning sustligi va zamonaviy marketing mexanizmlarining yetishmasligi kiradi.

Xususan, Qashqadaryo viloyatida boy ziyorat salohiyatiga qaramay, turizm infratuzilmasining eskirganligi, xizmatlar sifati va ekologik talablarning to‘liq ta‘minlanmaganligi kuzatiladi. Viloyatda ziyorat obyektlari atrofida chiqindilarni boshqarish, suv va energiya resurslaridan oqilona foydalanish masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, innovatsion boshqaruv va raqamli monitoring tizimlarining yetishmasligi ziyorat turizmi samaradorligini pasaytirmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish innovatsion va yashil iqtisodiyot tamoyillarini kompleks joriy etishni taqozo etadi.

2024-yilda Qashqadaryo viloyatida 250 ta mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalarining obyektlari faoliyat yuritib, ularda 3980 ta xonalar, 8423 ta joylar mavjud bo‘lgan va 267,2 ming kishi joylashtirilgan. 2023-yilga nisbatan mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalarining obyektlari soni 32 taga oshgan, nomer fondi 219 taga oshgan, joylar soni 490 taga oshgan, joylashtirilgan shaxslar soni esa 212,9 ming kishiga kamaygan<sup>44</sup>.

---

<sup>44</sup> <https://www.qashstat.uz/uploads/press24/Turizm-Yan-Dek-2025.pdf>

**1-jadval.**

**Qashqadaryo viloyatidagi eng salohiyatli ziyoratgohlar misolida ziyorat turizmini rivojlantirishdagi infratuzilmaviy, raqamli va ekologik muammolar tahlili<sup>45</sup>.**

Ziyoratgoh	Joylashuvi (tuman)	Hududning turizm infratuzilmasi (2024)	Innovatsion + yashil iqtisodiyot nuqtai nazaridan muammoli jihatlar
Langar ota ziyoratgohi	Qamashi	2 ta joylashtirish obyektlari; 0,2 ming joylashtirilgan; 13 ta xona	transport-yo‘l infratuzilmasi, sanitariya va chiqindi boshqaruvi “yashil” talablarga moslashtirilishi kerak; past joylashtirish sig‘imi sabab pik mavsumda bosim oshadi; raqamli axborot/bron mexanizmlari cheklangan.
Hazrati Bashir ziyoratgohi	Kitob	12 ta joylashtirish obyektlari; 1,4 ming joylashtirilgan; 64 ta xona; 0,2 ming joy	ziyoratchilar oqimi ortganda ekologik yuklama oshadi: suv resurslari, chiqindi, avtotransport tirbandligi; “yashil marshrut” va jamoat transporti/parkovka boshqaruvi hamda energiya tejamkor yoritish kabi chora-tadbirlar dolzarb.
Abu Mu‘in Nasafiy ziyoratgohi	Qarshi	1 ta joylashtirish obyektlari; 0,1 ming joylashtirilgan; 9 ta xona	tuman kesimida sig‘im past: ziyoratchilar oqimini ushlab qolish (tunab qolish) qiyin; servis va raqamli xizmatlar sust bo‘lsa, iqtisodiy samaradorlik kamayadi; “yashil” sanitariya va chiqindi boshqaruvi tizimi talab etiladi.
Qusam Shayx ziyoratgohi	Koson	2 ta joylashtirish obyektlari	raqamli targ‘ibot va “yashil” infratuzilma (chiqindi, suv tejash) kuchsiz.
Sulton Mir Haydar ziyoratgohi	Kasbi	joylashtirish ko‘rsatkichlari rasmiy hisobotda qayd etilmagan	infratuzilma, statistik hisobning pastligi ziyorat yo‘nalishini bozorga chiqarishni qiyinlashtiradi: transport, servis sifati, sanitariya hamda “yashil” talablar bo‘yicha kompleks reja zarur.

<sup>45</sup> qashstat.uz ma’lumotlari asosida salohiyatli ziyoratgohlar misolida muallif tahlili

Jadval ma’lumotlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, Qashqadaryo viloyatidagi eng salohiyatli ziyoratgohlar ziyorat turizmini rivojlantirish uchun yetarli tarixiy va ma’naviy resurslarga ega bo‘lsada, ularning iqtisodiy samaradorligi va barqaror rivojlanishini ta’minlashda qator tizimli muammolar mavjud. Avvalo, aksariyat ziyoratgohlarda joylashtirish infratuzilmasining past darajada ekanligi ziyoratchilar oqimini uzoq muddat ushlab qolish imkoniyatini cheklamoqda hamda hududiy daromadlar o‘shishini sekinlashtirmoqda.

Shuningdek, raqamli xizmatlarning yetarli darajada joriy etilmaganligi boshqaruv samaradorligi va xizmatlar sifatini pasaytiradi. Ekologik jihatdan esa chiqindilarni boshqarish, suv va energiya resurslaridan oqilona foydalanish hamda “yashil” transport yechimlarining cheklanganligi ziyorat turizmining barqaror rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Qashqadaryo viloyatida ziyorat turizmini rivojlantirishda infratuzilmaviy imkoniyatlar, raqamli boshqaruv va yashil iqtisodiyot tamoyillarini o‘zaro uyg‘unlashtirgan kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

## 2-jadval

### Ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha innovatsion va yashil iqtisodiyotga asoslangan taklif va tavsiyalar<sup>46</sup>

№	Takliflar	Amalga oshirish mexanizmi	Innovatsion jihati	Kutilayotgan natija
1	ziyoratgohlarga olib boruvchi yo‘llar va hududlarni quyosh energiyasi asosida yoritish	quyosh panellari va energiya tejankor yoritish tizimlarini o‘rnatish	qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish, ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish	energiya xarajatlari qisqaradi, ziyorat infratuzilmasining barqarorligi oshadi
2	ekologik himoya zonalarini joriy etish (0,5–2 km)	piyoda, velosiped, elektrotransport ustuvorligi	CO <sub>2</sub> chiqindilarini kamaytirish, yashil transport	shovqin, ifloslanish kamayadi, sokin, xavfsiz ziyorat muhiti yaratiladi
3	“ziyorat + tog‘li salomatlik marshrutlari” (Shahrisabz, Kitob, Yakkabog‘)	piyoda yo‘laklari, tog‘ havosida dam olish va ziyorat marosimlari	tabiiy sog‘lomlashtirish ziyorat modeli	ziyoratchilar turar muddati uzayadi, ziyorat mazmunli tajribaga aylanadi
4	“ikki pog‘onali ziyorat tizimi” modeli	rasmiy va norasmiy ziyoratgohlarni yagona tizimda	nol infratuzilma + yuqori ma’naviy qiymat yondashuvi	norasmiy maskanlar saqlanadi, hududiy ziyorat tizimi

<sup>46</sup> Mualliflar ishlanmasi

		bog‘lash		kengayadi
5	“ilmiy-ma’naviy ziyorat markazi” modeli (Abu Muin Nasafiy)	ilmiy-ma’naviy dasturlar, ssenariyli ziyorat, meros talqini	ziyosat + ilmiy tafakkur integratsiyasi	ziyosat passiv tashrifdan faol bilim va ma’naviy tajribaga aylanadi, tashriflar soni va davomiyligi oshadi

Qashqadaryo viloyatida ziyorat maskanlarini ikki asosiy toifaga ajratish mumkin: birinchisi, tarixiy jihatdan shakllangan, bino-inshootlari va minimal infratuzilmasi mavjud bo‘lgan rasmiy ziyoratgohlar; ikkinchisi esa rasmiy maqomga ega bo‘lmagan, infratuzilmasi deyarli yo‘q, biroq mahalliy aholi tomonidan ziyorat maskani sifatida e’tirof etiladigan norasmiy muqaddas joylardir. Ushbu ikki toifa o‘rtasida hozirgi kunda uzviy bog‘liqlik mavjud emasligi yangi ilmiy yondashuvlarni talab qiladi.

**Fikrimizcha, davlat tomonidan ziyorat turizmini tartibga solishning ustuvor vazifalari quyidagilar bo‘lisi lozim deb hisoblaymiz:**

– ziyoratgohlarga olib boruvchi yo‘llar hamda hududlarni quyosh panellari va quyosh energiyasi asosida yoritish-bunda, sarf-xarajatlar davlat byudjeti hisobidan amalga oshiriladi. Rivojlangan davlatlarda turizm obyektlarida quyosh va qayta tiklanuvchi energiya faol qo‘llanilmoqda. Bu yondashuv ekologik yuklamani kamaytiradi va ziyoratgohlarning ekspluatatsiya xarajatlarini qisqartiradi.;

– ziyoratgohlar va ularga xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish ya’ni, ziyoratchilarga xizmat ko‘rsatuvchi barcha subyektlar faoliyatini o‘zaro uyg‘unlashtirish;

– ziyorat turizmini rivojlantirishga qaratilgan davlat va hududiy dasturlarni amalga oshirish;

– ziyorat turizmi infratuzilmasiga investitsiyalarni jalb qilish- ziyoratgohlar atrofidagi sharoitlarni yaxshilash uchun sarmoya kiritish;

– tarixiy-diniy va turistik resurslardan oqilona hamda barqaror foydalanishni ta’minlash;

– ziyorat markazlari va ziyorat zonalarini kompleks rivojlantirish;

– ziyoratgoh hududlarida quyosh panellari, energiya tejankor yoritish tizimlarini joriy etish.

– davlat mulkidagi ziyorat obyektlari va ularga tutash turistik infratuzilmani qo‘llab-quvvatlash.

**Shuningdek, ziyorat turizmi faoliyatini rivojlantirish, mintaqalarda ushbu turizm turining salohiyatini oshirish bilan bog‘liq olib borilayotgan ilmiy izlanishlarimiz natijalariga tayangan holda, quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari suramiz:**

➤ ziyoratgohlar atrofida belgilangan *ekologik himoya zonasi* (masalan, 0,5–2 km radius) joriy etilib, ushbu zonada transport harakati “yumshoq (low-carbon) mobilitet” tamoyillari asosida boshqariladi. Ya’ni ziyoratchilar va mahalliy aholining ziyoratgohga borishi va hudud ichidagi harakati piyoda yurish,

velosiped hamda elektromobil/elektroshuttle orqali amalga oshirilishi ustuvor etib belgilanadi. Natijada CO<sub>2</sub> chiqindilari va shovqin yuklamasining sezilarli darajada kamayishi, landshaft hamda madaniy meros obyektlarining saqlanishi ta‘minlanadi, ziyorat jarayonining sifati oshadi, ya‘ni xavfsiz va qulay piyoda harakatlanish muhiti shakllanadi, ziyoratchilar uchun sokin, toza va ma‘naviy muhitni ta‘minlaydi, hududning “yashil turizm” brendi mustahkamlanadi hamda ichki turizmning barqaror o‘sishi uchun qulay sharoit yaratiladi;

➤ Shahrizabz, Kitob va Yakkabog‘ tumanlaridagi ziyoratgohlarning tog‘li hududlarda joylashgani ziyoratni jismoniy va ruhiy sog‘lomlashuv bilan birlashtirish imkonini beradi. Shu asosda “ziyosat + tog‘li salomatlik marshrutlari” ishlab chiqilish taklif etiladi. Ushbu marshrutlar qisqa masofali piyoda yurishlar, tog‘ havosida dam olish va ziyorat marosimlarini o‘z ichiga oladi. Natijada ziyorat turizmi passiv tashrifdan faol va mazmunli tajribaga aylanadi hamda ziyoratchilar turar muddati uzayishini namoyon etadi;

➤ mintaqaning tog‘li hududlaridagi ziyoratgohlarida shovqinsiz, savdosiz, transportdan holi hududlar ajratish taklif etiladi. Bu zonalarda faqat ziyorat, ibodat va tafakkur faoliyati amalga oshiriladi. Natijada ziyorat turizmi ommaviy tomoshadan ma‘naviy qadriyatga yo‘naltirilgan modelga o‘tishini namoyon etadi;

➤ mintaqadagi rasmiy va norasmiy ziyorat maskanlari yagona hududiy ziyorat tizimi doirasida ikki pog‘onali model sifatida qaraladi. Birinchi pog‘ona — infratuzilmaga ega asosiy ziyoratgohlar, ikkinchi pog‘ona — mahalliy aholi e‘tirof etgan norasmiy ziyorat maskanlaridir. “Ikki pog‘onali ziyorat tizimi” (dual pilgrimage system) modelini qo‘llash. Bu innovatsion yondashuvga ko‘ra norasmiy ziyorat joylari e‘tibordan chetda qolmaydi, norasmiy ziyorat maskanlariga “nol infratuzilma, lekin yuqori ma‘naviy qiymat” maqomini berish ilmiy jihatdan asoslanadi;

➤ Qashqadaryo viloyatida Abu Muin Nasafiy kabi rasmiy tashkilot maqomiga ega bo‘lgan ziyorat maskanlari mavjud bo‘lib, ular tarixiy, diniy va ilmiy meros nuqtayi nazaridan yuqori salohiyatga ega. Ammo ushbu maskanlarning faoliyati asosan marosimiy va an‘anaviy ziyorat bilan cheklanib qolmoqda. Shu sababli ziyoratchilar oqimini oshirish uchun mazkur maskanlarning faqat ziyorat joyi emas, balki ilmiy-ma‘naviy markaz sifatidagi funksiyasini “Ilmiy-ma‘naviy ziyorat markazi” modelini qo‘llash orqali kengaytirish zarur. Ushbu modelga ko‘ra, ziyorat maskani nafaqat tashrif buyuriladigan joy, balki Nasafiy merosi bilan tanishish, ilmiy tafakkur va ma‘naviy anglash jarayoni kechadigan hududga aylantiriladi. Ziyoratchilar uchun qisqa, tushunarli va tizimli “ma‘naviy-ilmiy ziyorat ssenariylari” ishlab chiqiladi. Natijada, ziyorat jarayoni passiv tashrifdan faol bilim va ma‘naviy tajribaga aylanadi, bu esa tashriflar soni va davomiyligining oshishini namoyon etadi.

Xulosa sifatida, ziyorat turizmini rivojlantirish maqsad va vazifalari davlatning ushbu sohaga bo‘lgan munosabati va ishtirokiga bevosita bog‘liqdir. Davlatning tizimli yondashuvi va muvofiqlashtiruvchi roli bo‘lmasdan, ziyorat turizmini barqaror va samarali rivojlantirish mumkin emas. Mazkur taklif va

yondashuvlar Qashqadaryo viloyatida ziyorat turizmini innovatsion va yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirishning mualliflik konsepsiyasini shakllantiradi. Ushbu konsepsiya ziyoratchilar oqimini faqat miqdoriy emas, balki sifat jihatidan oshirish, hududning ekologik, ma’naviy va iqtisodiy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, mintaqaviy ziyorat turizmi rivojlanishining yangi bosqichini namoyon etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-135-son qarori.
2. <https://webunwto.s3.eu-west-1.amazonaws.com>
3. <https://www.trade.gov/country-commercial-guides/uzbekistan-travel-and-tourism>
4. [https://bukhari.uz/?p=8405&utm\\_source](https://bukhari.uz/?p=8405&utm_source)
5. [https://uza.uz/oz/posts/qashqadaryoga-sayyohlar-tashrifi-otgan-yilganisbatan-20-foizga-oshgan\\_659808?utm\\_source](https://uza.uz/oz/posts/qashqadaryoga-sayyohlar-tashrifi-otgan-yilganisbatan-20-foizga-oshgan_659808?utm_source)
6. <https://www.qashstat.uz/uploads/press24/Turizm-Yan-Dek-2025.pdf>
7. qashstat.uz

*Д.К. Усманова, доцент, к.э.н., Самаркандский государственный университет им.Ш.Рашидова*

### **АНАЛИЗ ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ СФЕРЫ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ**

**Аннотация:** В статье рассмотрены основные тенденции развития и повышения конкурентоспособности туризма в Узбекистане в условиях неопределенности и появления новых вызовов в макроокружении, когда многие страны испытывают финансово-экономические сложности на фоне повышения цен на энергетические ресурсы, разрыве сложившихся цепочек создания стоимости, роста стоимости логистических и транспортных услуг. В этих условиях приоритет в туристской деятельности следует отдавать клиентоориентированному подходу, когда на первое место выводится ориентация на потребности, перспективный туристский продукт, стратегические возможности и долгосрочные конкурентные преимущества.

**Ключевые термины:** Вертикальная и горизонтальная диверсификация туристского продукта, социальное партнерство, ностальгический туризм, экотуризм, продвижение туристского продукта, цифровые сервисы.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada makro muhitdagi noaniqlik va paydo bo‘layotgan muammolar sharoitida O‘zbekistonda turizmning rivojlanishi va raqobatbardoshligidagi asosiy tendentsiyalar ko‘rib chiqiladi, ko‘plab mamlakatlar energiya narxlarining oshishi, o‘rnatilgan qiymat zanjirlarining uzilishi va logistika va transport xizmatlari narxlarining oshishi tufayli moliyaviy va iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bunday sharoitda turizmni rivojlantirishda ustuvorlik ehtiyojlarga, istiqbolli turizm mahsulotiga, strategik imkoniyatlarga va uzoq muddatli raqobatbardosh ustunliklarga e’tibor qaratgan holda mijozga yo‘naltirilgan yondashuvga berilishi kerak.

**Kalit so‘zlar:** *Turizm mahsulotlarini vertikal va gorizontal diversifikatsiya qilish, ijtimoiy sheriklik, nostalgik turizm, ekoturizm, turizm mahsulotlarini targ‘ib qilish, raqamli xizmatlar.*

**Abstract:** *This article examines the key trends in the development and competitiveness of tourism in Uzbekistan amid uncertainty and emerging challenges in the macroenvironment, with many countries experiencing financial and economic difficulties due to rising energy prices, disruption of established value chains, and rising costs of logistics and transportation services. In these circumstances, priority in tourism development should be given to a customer-centric approach, focusing on needs, a promising tourism product, strategic opportunities, and long-term competitive advantages.*

**Key words:** *Vertical and horizontal diversification of tourism products, social partnership, nostalgic tourism, ecotourism, tourism product promotion, digital services.*

Сегодня сфера туризма занимает весомое место в структуре международного рынка услуг, стремительное развитие и экономическая эффективность которого вывела на первые позиции, опередив такие стратегические отрасли, как нефтедобыча и автомобильная промышленность. Устойчивому развитию туризму способствовало формирование конкурентных условий на рынке, активизация туристского бизнеса и рост спроса на услуги туризма и его восстановление в условиях преодоления последствий пандемии коронавируса, вовлечения все большего потенциала дестинаций в туристский оборот, повышения его роли в мировой экономике, политических, глобальных социокультурных, интеграционных процессах.

Фундаментальные основы проблем конкуренции, конкурентоспособности, конкурентного преимущества в процессе развития социально-экономических отношений фундаментальные принципы конкуренции, конкурентоспособности, конкурентного преимущества, проблемы повышения конкурентоспособности были исследованы зарубежными учеными Дж. М. Кейнсом, А. Маршаллом, А. Смитом, К. Р. Макконнеллом, С. Л. Брю, Ю., А. Шумпетером, М. Ю. Портером, С. Хантом, Р. А. Фатхутдиновым, Г. Я. Киперманом и другими.


Впервые Узбекистан в 2024 году был включён в Индекс развития туризма и путешествия (TTDI) в отчете Всемирного экономического форума<sup>47</sup>, показав **самый большой рост** по сравнению с исходными данными 2019 года. Узбекистан занял **78-е место** среди 119 стран, участвовавших в индексе TTDI 2024. Это на **16 позиций выше**, чем в 2019 году (с 94-го места). ВЭФ выделил топ 10 стран, где наиболее высокие темпы роста рейтинга и Узбекистан возглавил этот список и впервые вошел в этот рейтинг (рисунок.1.).

В 10 стран, улучшившие экономику для развития туризма вошли страны, которые уже десятилетиями являются лидерами в сфере туризма, обладающие устойчивыми показателями развития индустрии такие как

---

<sup>47</sup> Travel & Tourism Development Index 2024. [https://www.weforum.org/publications/travel-tourism-development-index-2024/?utm\\_source=chatgpt.com](https://www.weforum.org/publications/travel-tourism-development-index-2024/?utm_source=chatgpt.com)

ОАЭ, Египет, Саудовская Аравия, Албания, Индонезия и Танзания. Каждая из этих стран имеет уникальный положительный опыт развития индустрии, диверсификации туристского продукта.



**Рисунок.1. Топ-10 стран, наиболее улучшивших экономику для развития туризма и путешествий (изменение балла в % за 2019–2024 гг.)**

Для анализа основных субиндексов, совокупность которых определяет положение страны, сгруппируем субиндексы на 3 категории: субиндексы зеленого цвета отражают сильные стороны, желтого – средние, красного – слабые стороны индустрии туризма и путешествий Узбекистана в соответствии с TTDI.



**Рисунок.2. Кодирование субиндексов, определяющих Индекс развития туризма и путешествия (TTDI) Узбекистана в 2024 году<sup>48</sup>**

Как видно из рисунок.2. сильными преимуществами национального туризма является безопасность – 6,17 баллов (26 место). Узбекистан занял 1-е место в рейтинге самых безопасных стран мира «Индекс восприятия

<sup>48</sup> На основе отчета ВЭФ «Travel & Tourism Development Index 2024».

безопасности 2023», в который входит 121 страна. Это важнейшее конкурентное преимущество для привлечения путешественников. Ценовая конкурентоспособность туризма в стране – 5,49 баллов (25 место) свидетельствует о высоком уровне развитости рынка туристских услуг, создании здоровых конкурентных отношениях участников рынка, стимулировании механизмов усиления конкуренции, что приводит к снижению стоимости поездок в страну по сравнению с другими направлениями, что делает страну привлекательной и доступной. Туризм в стране оказывает не только мультипликативное воздействие, но и социально-экономическое влияние – 4,8 баллов (33 место), создавая дополнительные рабочие места и стимулируя новые форматы партнерства с местным сообществом.

Наибольшие угрозы для страны по мнению экспертов ВЭФ создают проблемы с устойчивым управлением ресурсами и защитой окружающей среды – 3,08 баллов (119 место), неразвитость инфраструктуры туристских услуг -1,45 баллов (102 место), проявляющееся в нехватке гостиниц, ресторанов и сервисов международного уровня, особенно за пределами городов, в отдаленных селах, аулах, интерес к которым растет в последние годы. По приоритетности туризма и путешествий 3,30 баллов (105) место республике значительно уступает странам, заточенным на развитие туризма, что связано с трансформационными процессами в макроэкономике.

Анализ показателей развития туризма в республике за последние 15 лет продемонстрировал устойчивый рост показателей въездного, внутреннего и выездного туризма, за исключением 2-летнего периода преодоления последствий пандемии коронавируса (рис.1.).



**Рисунок.1. Динамика развития туризма в Узбекистане**

Этот период позволил раскрыть потенциал внутреннего туризма, который стал явным триггером для формирования концепции круглогодичного туризма в стране. Его опережающие темпы роста по

сравнению с въездным и выездным обусловлены повышением спроса на реабилитацию здоровья после пандемии, повышение уровня и качества жизни населения, но в большей части внутренний туризм носит неорганизованный характер, многие не пользуются услугами туристских операторов, а самостоятельно организуют программу отдыха (рис.2.). Низкий уровень организованного туризма в общем туристском потоке 14,5% связан в большей степени с тем, что большинство иностранных туристов приобретают туры зарубежных туристских организаций, но в большей части объясняется ростом внутреннего туризма, который традиционно носит стихийный характер.



**Рисунок.2. Динамика развития организованного туризма в Узбекистане на 2010-2024 гг.**

<i>области:</i>						
Андижанская	16	2,1	0,7	0,1	1,3	0,2
Бухарская	44	5,9	66,1	3,4	48,7	8,1
Джизакская	16	2,1	30,1	1,5	10,5	1,7
Кашкадарьинская	9	1,2	8,6	0,4	6,4	1,1
Навоийская	28	3,8	17,0	0,9	0,1	0,0
Наманганская	8	1,1	2,6	0,1	1,9	0,3
Самаркандская	144	19,4	61,7	3,1	71,7	11,9
Сурхандарьинская	14	1,9	1,8	0,1	1,8	0,3
Сырдарьинская	2	0,3	2,0	0,1	2,0	0,3
Ташкентская	16	2,1	2,1	0,1	5,1	0,9
Ферганская	19	2,6	11,9	0,6	12,0	2,0
Хорезмская	28	3,8	497,5	25,2	43,2	7,2
г. Ташкент	390	52,5	1 252,5	63,5	378,9	63,0

Усиление предложения на рынке размещения закономерно обостряет конкуренцию. Конкурентная среда гостиничного бизнеса формируется ценовыми стратегиями, качеством обслуживания, уровнем комфорта,

локацией, брендингом и маркетинговыми коммуникациями. На рынке одновременно присутствуют международные сети, национальные бренды, малые независимые отели, а также альтернативные виды размещения. Практика показывает, что в условиях насыщения предложения устойчивое преимущество создается через дифференциацию продукта (уникальная концепция, специализация под сегменты), внедрение стандартов качества (включая элементы TQM, процессный контроль, обучение персонала), а также цифровизацию (онлайн-бронирование, управление отзывами, динамическое ценообразование). Внутриоперационные инструменты контроля доходов и затрат (например, процедуры ночного аудита) становятся частью «невидимой» инфраструктуры качества и финансовой устойчивости гостиниц.



**Диаграмма.2. Основные показатели деятельности гостиниц и аналогичных средств размещения.**

Экономический эффект развития туризма проявляется прежде всего в валютных поступлениях и занятости, а также в мультипликативном влиянии на смежные отрасли (транспорт, строительство, торговля, культура, общественное питание). По данным официальных источников о состоянии отрасли по итогам 2023 года, экспорт туристических услуг превысил 2,1 млрд долларов США и составил около 40% общего экспорта услуг, в сфере туризма было занято порядка 370 тыс. человек. В 2024 году экспорт услуг в целом достиг 7 204,4 млн долларов США, при этом доля туристических услуг в экспорте услуг составила 48,8%. С точки зрения интерпретации это означает, что туризм становится одним из крупнейших источников валютной выручки среди сервисных направлений.

Несмотря на позитивную динамику, отрасль сталкивается с рядом ограничений:

*Во-первых*, сохраняется дисбаланс структуры спроса, значительная доля въездного потока связана с посещением родственников, что снижает потенциал роста средних расходов по сравнению с сегментом отдыха и досуга.

*Во-вторых*, инфраструктурные разрывы между ключевыми туристскими центрами и периферийными районами сдерживают развитие новых маршрутов (включая экотуризм и агротуризм) и повышают транспортные издержки.

*В-третьих*, качество сервиса и кадровый потенциал остаются критическими факторами конкурентоспособности, расширение номерного фонда и количества турорганизаций должно сопровождаться системным обучением персонала, стандартизацией процессов и внедрением управления качеством на уровне предприятий.

*В-четвертых*, отрасль чувствительна к сезонности и внешним шокам (колебания авиасообщения, изменения геополитической обстановки, инфляция транспортных тарифов). Поэтому управленческие решения должны сочетать стратегическое планирование (развитие продуктовых линеек и событийного календаря) с инструментами операционного контроля (учет, аудит, управление доходами, контроль затрат).

*Наконец*, для повышения конкурентоспособности необходимо укреплять цифровое продвижение, качество информационной среды для туриста (навигация, мультиязычность, прозрачность цен) и устойчивость (бережное отношение к культурному наследию и ресурсам).

В 2018–2024 годах туристская отрасль Узбекистана демонстрирует восстановление и ускорение роста после пандемийного спада. В 2024 году достигнуты максимальные за период значения въездного туризма, а выездной туризм также показал существенное расширение. Наблюдается рост организованного сегмента рынка и развитие инфраструктуры размещения и турорганизаций, что усиливает конкуренцию и повышает требования к качеству сервиса. Туризм укрепляет позиции как источник валютных поступлений и занятости. Вместе с тем сохраняются ограничения, связанные со структурой спроса, инфраструктурной неоднородностью, кадровым обеспечением и уязвимостью к внешним шокам.

## IV SHO‘BA. XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI YASHIL VA INNOVASION IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ORQALI HUDUDLARDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISH VA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISH JARAYONIDA MARKETING VA MENEJMENT IMKONIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

*Tuychiyev Alisher Jurayevich – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi, “Yangi O‘zbekiston” maktabi professori, IFD, ORCID: 0000-0003-2326-7579 E-mail: tuychiyev.a@dsbauzb.onmicrosoft.com*

### HUDUDLARNING BARQAROR IQTISODIY O‘SISHIDA LOYIHA RESURSLARINI BOSHQARISHNING O‘RNI

**Anotatsiya:** Maqola hududlarning barqaror iqtisodiy o‘shida loyiha resurslarini boshqarishning rolini ko‘rib chiqadi. Resurslar insoniy (jamo, mutaxassislar) va moliyaviy (budjet, xarajatlar) toifalariga bo‘linadi. PMBOK® Guide 8-nashriga asoslanib, insoniy resurslar uchun RACI matritsasi, KPI va agile usullari, moliyaviy resurslar uchun budjet shakllantirish, xarajatlarni nazorat va risklarni boshqarish tahlil etiladi. Loyiha boshqaruvi tizimlari ("Asosiy", "Murakkab", "Tayyor holda topshirish") taqqoslanadi, tarixiy rivojlanish (CPM, PERT, Gantt diagrammalari) yoritiladi. Samarali boshqaruv loyihalarni muddatida va byudjetda yakunlashni ta‘minlaydi, hududiy rivojlanishga hissa qo‘shadi.

**Kalit so‘zlar:** Loyiha resurslari, insoniy resurslar, moliyaviy resurslar, PMBOK Guide, RACI matritsasi, budjet boshqaruvi, loyiha boshqaruvi tizimlari.

**Аннотация:** Статья анализирует роль управления ресурсами проектов в устойчивом экономическом росте регионов. Ресурсы делятся на человеческие (команда, специалисты) и финансовые (бюджет, расходы). На основе PMBOK® Guide 8-го издания рассматриваются процессы управления человеческими ресурсами с матрицей RACI, KPI и agile-подходами, а также финансовыми через формирование бюджета, контроль расходов и управление рисками. Сравниваются системы управления проектами («Основная», «Сложная», «Под ключ»), освещается историческое развитие (методы CPM, PERT, диаграммы Ганта). Эффективное управление обеспечивает завершение проектов в срок и в бюджете, способствуя региональному развитию.

**Ключевые слова:** Ресурсы проектов, человеческие ресурсы, финансовые ресурсы, PMBOK Guide, матрица RACI, управление бюджетом.

**Abstract:** The article explores the role of project resource management in sustainable economic growth of regions. Resources are categorized into human (team, specialists) and financial (budget, expenses). Based on PMBOK® Guide 8th edition, it examines human resource management using RACI matrix, KPIs, and agile methods, and financial resources via budget formation, cost control, and risk management. Project management systems ("Basic", "Complex", "Turnkey") are compared, with historical development (CPM, PERT methods, Gantt charts) highlighted. Effective management ensures timely, budgeted, and quality project completion, contributing to regional development.

**Keywords:** Project resources, human resources, financial resources, PMBOK Guide, RACI matrix, budget management, project management systems.

Loyiha resurslarini boshqarish — bu loyiha maqsadlariga erishish uchun

zarur resurslarni aniqlash, taqsimlash, monitoring qilish va optimallashtirish jarayonidir. Hududiy rivojlantirish va loyiha boshqaruvini bir butun tizim sifatida ko‘rilishi o‘ta dolzarb va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Har bir loyihani amalga oshirishdan oldin ushbu ob‘ekt hudud rivojiga hamohangmi, bundan aholiga naf bormi, qancha odam ish bilan ta‘minlanadi, degan savollarga javob topish shart” degan asosli fikrlari bilan chambarchas bo‘liqdir.

Shu asosda mamlakat hududlarini rivojlantirish maqsadida bir qator davlatlararo, mintaqaviy, tarmoq va aniq obyektlarga yo‘naltirilgan maqsadli dasturlar ishlab chiqildi. Ularning har biri o‘zaro chambarchas bog‘langan kompleks loyihalar majmuasidan (resurslar, muddatlar va ijrochilar kesimida) iboratdir. Ushbu dasturlarni amalga oshirish esa loyihalarni boshqarish konsepsiyasiga (Project Management) tayangan holda olib boriladi.

Dunyo amaliyotida bu yondashuv keng tarqalgan bo‘lib, masalan, Yevropa Ittifoqining mintaqaviy rivojlanish siyosatida “EU regional development Funds” qo‘llaniladi, u yerda loyihalar mintaqaviy farovonlikni oshirish uchun birlashtirilgan dasturlar orqali boshqariladi. Xitoyning “Bir kamar, bir yo‘l” (Belt and Road Initiative) loyihasi ham shunga o‘xshash: u mintaqaviy infratuzilmani rivojlantirish uchun xalqaro va mahalliy loyihalarni bog‘laydi, resurslarni samarali taqsimlaydi va muddatlarni nazorat qiladi.

Konsepsiyaning negizi loyihani har qanday tizimning (masalan, korxonaning) boshlang‘ich holatidan kelib chiqadigan vaqt va moliyaviy xarajatlar bilan bog‘liq o‘zgarish sifatida talqin qilishdir.

Resurslar ikki asosiy toifaga bo‘linadi: insoniy resurslar (jamo a‘zolari, mutaxassislar) va moliyaviy resurslar (budjet, xarajatlar). Ushbu domenlar loyiha hayot tsiklining besh fokus sohasida (Initiating, Planning, Executing, Monitoring & Controlling, Closing) qo‘llaniladi va loyiha natijalarini o‘lchashga yo‘naltirilgan.

Insoniy resurslarni boshqarish loyiha jamoasining muvaffaqiyatini ta‘minlaydi va "Resources" domenida quyidagi asosiy jarayonlarni o‘z ichiga oladi:

1. Resurslarni rejalashtirish: Jamoa tuzilishini, rollar va mas‘uliyatlarni aniqlash (masalan, RACI matritsasi orqali: Responsible – Accountable – Consulted – Informed).

2. Resurslarni olish: Kerakli mutaxassislarni jalb qilish va taqsimlash.


3. Jamoani rivojlantirish: Motivatsiya, treninglar va KPI tizimi orqali jamoa samaradorligini oshirish.

4. Jamoani boshqarish va monitoring: O‘zaro kommunikatsiyani ta‘minlash (uchrashuvlar, hisobotlar), nizolarni hal qilish va performatni nazorat qilish.

PMBOK® Guide 8-nashrida bu domen loyiha qiymatini yetkazishga yo‘naltirilgan bo‘lib, agile va gibrid yondashuvlarni integratsiya qiladi. Agar insoniy resurslar to‘g‘ri boshqarilmasa, loyiha kechikishi, jamoada nizolar va sifat pasayishi mumkin.

## Insoniy resurslarni boshqarish


### Insoniy resurslarni boshqarish jarayonlari



### 1-rasm Insoniy resurslarni boshqarish (muallif ishlanmasi)

## Moliyaviy resurslarni boshqarish

### Moliyaviy resurslarni boshqarish jarayonlari



### 2-rasm Moliyaviy resurslarni boshqarish (muallif ishlanmasi)

Moliyaviy resurslarni boshqarish "Finance" domenida ko'rib chiqiladi va loyiha budjetini rejalashtirish, xarajatlarni optimallashtirish va moliyaviy

natijalarni ta'minlashga qaratilgan. Asosiy jarayonlar:

1. Budjetni shakllantirish: CAPEX (kapital xarajatlar) va OPEX (operatsion xarajatlar) ni hisoblash, loyiha qiymatini hisobga olgan holda.

2. Xarajatlarni nazorat qilish: Cost Control orqali xarajatlarning monitoringi va o'zgartirishlar.

3. Pul oqimlarini boshqarish: Cash Flow tahlili va prognozlash.

4. Moliyaviy risklarni boshqarish: Inflyatsiya, foiz stavkalari va narx o'zgarishlarini hisobga olish, "Risk" domeni bilan integratsiya.

PMBOK® Guide 8-nashrida moliyaviy boshqaruv ma'lumotga asoslangan qarorlar qabul qilish va loyiha rentabelligini oshirishga urg'u beradi.

### **Tamoyillar va vositalar**

PMBOK® Guide 8-nashrida resurslar boshqaruvi 6 ta prinsip (masalan, qiymatni yetkazish, moslashuvchanlik) asosida qurilgan bo'lib, vaqt, xarajat va natijalar muvozanatini ta'minlaydi. Zamonaviy vositalar: MS Project, Trello, Asana, ERP tizimlari resurslardan oqilona foydalanish loyihani muddatida, byudjetda va sifatli yakunlashni ta'minlaydi.

## **Insoniy va moliyaviy resurslar solishtiruvi**

Resurs turi	Boshqaruv mazmuni	Asosiy vosita	Natija
Insoniy resurslar	Jamoa tuzish, rollar aniqlash, motivatsiya	RACI matritsasi, KPI, Agile	Koordinatsiyalangan jamoa va sifatli natija
Moliyaviy resurslar	Budjet, xarajat va pul oqimlarini boshqarish	Budgeting, Cash Flow, Cost Control	Xarajatlarni kamaytirish va rentabellik

Loyiha resurslarini boshqarish — strategik jarayon bo'lib, insoniy resurslar loyihaing intellektual salohiyatini, moliyaviy resurslar esa iqtisodiy quvvatini ta'minlaydi. Resurslarni boshqarolmagan loyiha — boshqaruvsiz xarajatdir. Loyiha boshqaruvi sxemalari uchun quyidagi variantlar mavjud:

“Asosiy” boshqaruv tizimida loyiha menejeri buyurtmachining vakili (agenti) sifatida faoliyat yuritadi hamda qabul qilinadigan boshqaruv qarorlari uchun moliyaviy javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi. Loyiha menejeri sifatida professional boshqaruv faoliyatini amalga oshirish uchun tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs ishtirok etishi mumkin. Mazkur tizimda loyiha menejeri loyihani ishlab chiqish va uni amalga oshirish jarayonlarini umumiy muvofiqlashtirish hamda boshqarishni ta'minlaydi, biroq buyurtmachidan tashqari boshqa loyiha ishtirokchilari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomaviy munosabatlarga ega bo‘lmaydi.

Ushbu tizimning asosiy ustunligi loyiha menejerining xolis va betaraf faoliyat yuritishidir. Biroq kamchiligi shundaki, loyiha natijalari uchun to‘liq javobgarlik buyurtmachi zimmasiga yuklanadi.

Murakkab yoki kengaytirilgan boshqaruv tizimida loyiha menejeri loyiha

bo‘yicha oldindan belgilangan (baholangan) qiymat doirasida moliyaviy javobgarlikni qabul qiladi. Loyiha menejeri loyihaning barcha jarayonlarini buyurtmachi va boshqa loyiha ishtirokchilari bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq holda boshqaradi va muvofiqlashtiradi. “Asosiy” tizimda bo‘lgani kabi, bu yerda ham loyiha menejeri sifatida professional boshqaruv faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan va buyurtmachi oldidagi majburiyatlarini bajarishga qodir har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs qatnashishi mumkin.

Mazkur tizimda loyiha menejeri umumiy boshqaruvni amalga oshiradi, yetkazib berish, muhandislik va texnik ishlarning muvofiqligini ta‘minlaydi. Natijada loyiha bo‘yicha javobgarlik shartnoma doirasida loyiha menejeriga yuklanadi.

“Tayyor holda topshirish” tizimida loyiha menejeri loyiha-konstruktorlik tashkiloti sifatida ishtirok etadi va buyurtmachi u bilan loyiha bo‘yicha oldindan belgilangan umumiy qiymat asosida “tayyor holda topshirish” shartnomasini tuzadi. Ushbu tizimda loyiha natijalari va ularning sifat ko‘rsatkichlari to‘liq loyiha menejerining zimmasiga yuklanadi.

Har qanday loyiha o‘z rivojlanish jarayonida bir nechta faza (bosqich)lardan o‘tadi. Loyihani barcha bosqichlar orqali muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun u muayyan boshqaruv mexanizmlariga muhtoj bo‘ladi. Shu ma‘noda, tarixda Misr ehromlari yoki Xitoy devori kabi yirik va mashhur loyihalar ham muayyan boshqaruv tizimlari asosida amalga oshirilgan. Xuddi shuningdek, mudofaa, yoqilg‘i-energetika hamda sobiq Sovet Ittifoqining boshqa tarmoqlarida bajarilgan ko‘plab loyihalar ham boshqaruv asosida tashkil etilgan bo‘lib, ularning muvaffaqiyati ko‘pincha ishlarning belgilangan muddatlarda bajarilishi va texnik natijalarga erishilishi bilan baholangan.

XX asrning 1950-yillarida bozor iqtisodiyoti rivojlangan G‘arb mamlakatlarida “Loyihalarni boshqarish” (Project Management) alohida mustaqil fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida shakllana boshladi. Bunga loyihalar ko‘lamining kengayishi hamda loyiha muvaffaqiyatini, avvalo, ajratilgan moliyaviy resurslar, jamg‘armalar va foyda marjalarining yakuniy xarajatlar bilan mos kelishi orqali baholash zarurati sabab bo‘ldi. Bu holat, o‘z navbatida, menejment sohasida murakkab va o‘zaro bog‘liq vazifalarni hal etishni talab qildi.

1950-yillarning oxirlariga kelib loyihalarni boshqarishning dastlabki ilmiy-uslubiy yondashuvlaridan biri bo‘lgan tarmoq rejalashtirish va boshqarish usullari — CPM va PERT metodlari ishlab chiqildi. Ushbu usullar dastlab “Atlas” raketa dasturi hamda yirik sintetik tolalar ishlab chiqarish zavodlarini qurish jarayonida qo‘llanildi. 1960-yillarning o‘rtalaridan boshlab mazkur usullar keng miqyosda o‘rganilib, qisman sobiq SSSRning kapital qurilish amaliyotiga ham joriy etila boshladi.

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, 1930-yillarning oxiridayoq sovet olimlari tomonidan Gantt diagrammalari va siklogrammalar asosida taqvimiy rejalashtirish hamda oqimli qurilishning nazariy va amaliy asoslari ishlab chiqilgan edi. Ushbu ishlanmalar keyinchalik shakllangan loyiha boshqaruvi tizimining muhim metodologik poydevorini tashkil etdi.

1970-yillarga kelib G‘arb mamlakatlarida yirik kompaniyalar kuchayib borayotgan raqobat sharoitida faoliyat ko‘lamining kengayishi va murakkablashuviga mos ravishda loyihalarni boshqarishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishga kirishdilar. Ushbu jarayonning jadallashuvi kompyuter texnologiyalari va axborotni qayta ishlash tizimlarining keng joriy etilishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘ldi.

Hozirgi davrda loyiha boshqaruvi rivojlangan mamlakatlarda umumiy e‘tirof etilgan samarali investitsiya va boshqaruv usuli sifatida qaralmoqda.

Bunday yondashuv iqtisodiyot va boshqaruv sohasidagi barcha o‘zgarishlarni investitsiya loyihalari majmuasiga kiritish, ularni boshqarish jarayonini esa investitsion boshqaruv (yoki investitsiyalarni boshqarish) sifatida talqin etish imkonini beradi.

**Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki** zamonaviy sharoitda loyihalarni boshqarishning usullari va vositalari majmuasi investitsiyalarni samarali boshqarish metodologiyasini o‘z ichiga olib, quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- Investitsiya bozorini o‘rganish, investitsion portfelni shakllantirish hamda uni daromadlilik, xavf darajasi va likvidlik mezonlari asosida baholash;

Jahon tajribasida bu UNCTADning “Rivojlanish uchun investitsiyalar bo‘yicha eng yaxshi amaliyotlar” masalan, xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni (XTI) malaka oshirish jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish orqali namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilganda, ushbu yondashuvni 2019–2025-yillarda chiqarilgan 6,6 milliard dollarlik suveren xalqaro obligatsiyalar asosida investitsion portfelni shakllantirishda qo‘llash mumkin, bu esa mamlakat iqtisodiy o‘shining 6,2–6,7% darajasida ta‘minlanishiga ko‘mak beradi.

- Xavf omillari va noaniqliklarni hisobga olgan holda investitsiyalar samaradorligini baholash;

McKinsey kompaniyasining infratuzilma loyihalari bo‘yicha tavsiyalarida (masalan, to‘rtta eng yaxshi amaliyot: pitfallarni oldini olish va infratuzilmani kengaytirish) xavflarni baholash markaziy o‘rin egallaydi. O‘zbekistonda bu usulni Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki (AIIB) bilan hamkorlikdagi loyihalarda qo‘llash mumkin, masalan, strategik sektorlarga kapital jalb qilishda.

- Investitsiya resurslariga bo‘lgan ehtiyojni baholash, qarzga olingan va qarz mablag‘laridan foydalanishning maqsadga muvofiqligini baholash bilan kompaniya investitsion resurslarini shakllantirish strategiyasini ishlab chiqish;

Yevropa komissiyasining PM metodologiyasi (xalqaro hamkorlik va rivojlanish loyihalari uchun) resurslarni baholashni ta‘kidlaydi. O‘zbekistonda bu DXSh ramkalarini rivojlantirish orqali qo‘llanilishi mumkin, masalan, yangi investitsiya fondi (DFC, EBRD, IFC, ADB ishtirokida) orqali strategik loyihalarni moliyalashtirishda.

- Muayyan loyihalarning investitsion jozibadorligini tanlash va baholash;

GRIDS loyihasining mintaqaviy rivojlanish strategiyalari bo‘yicha eng yaxshi amaliyotlar qo‘llanmasida loyihalarni tanlash mezonlari batafsil ko‘rib

chiqilgan. O‘zbekistonda bu usulni qayta tiklanadigan energiya loyihalarida (masalan, DXSh orqali xususiy investitsiyalarni jalb qilish) qo‘llash mumkin, bu mamlakatning energiya diversifikatsiyasiga yordam beradi.

- Individual moliya vositalarining investitsion sifatini baholash va eng samarali vositalarni tanlash;

APECning XTI va malaka rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlarida moliyaviy vositalarni baholash taklif etiladi. O‘zbekistonda bu kapital bozorlari konferentsiyalarida (masalan, 2025-yil Toshkentdagi Equity Capital Markets Bootcamp) muhokama qilinganidek, uzoq muddatli investorlarni jalb qilish uchun qo‘llanilishi mumkin.

- Muayyan investitsiya loyihalari va dasturlarini amalga oshirishni rejalashtirish va tezkor boshqarish;

Jahon banking infratuzilma loyihalari bo‘yicha qo‘llanmasi (GIH) loyihalarni tayyorlash va siyosatni mustahkamlashni tavsiya etadi. O‘zbekistonda bu Xitoy bilan hamkorlikdagi loyihalarda (masalan, Olimpiya shaharchasi EPC shartnomasi) qo‘llanilishi mumkin.

- Xaridlar va ta‘minot tartibini, shuningdek loyiha sifatini boshqarishni tashkil etish;

OECDning mintaqaviy rivojlanish strategiyalarida bu sifat nazorati va ta‘minot zanjirlarini kuchaytirish orqali amalga oshiriladi. O‘zbekistonda ekologik boshqaruvni kuchaytirish bo‘yicha yangi choralar (masalan, yashil maydonlarni himoya qilish) loyihalarda sifatni ta‘minlashga yordam beradi.

- Investitsion jarayonni samarali amalga oshirishni, shu jumladan o‘zgarishlarni boshqarish va samarasiz loyihalarni o‘z vaqtida yopish (ayrim moliyaviy vositalarni sotish) va kapitalni qayta investitsiyalash bo‘yicha qarorlar tayyorlash;

Umumiy loyiha paradoksida (masalan, qarorlarni oxirgi mas‘uliyatli lahzada qabul qilish) o‘zgarishlarni boshqarish muhim. O‘zbekistonda bu iqlim forumlarida (masalan, Samarqand xalqaro iqlim forumi) muhokama qilinganidek, yer degradatsiyasiga qarshi loyihalarda qo‘llanilishi mumkin.

- Loyihani tugallashni tashkil etish, ko‘pincha loyiha umumiy bajarilishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan investitsiya boshqaruvining psixologik aspektlarini to‘liq hisobga olish.

UNCTADning portlar va XTI loyihalaridagi amaliyotlarida psixologik omillar (masalan, ijrochilar motivatsiyasi) hisobga olinadi. O‘zbekistonda bu yoshlarni rivojlantirish loyihalarida (masalan, Olimpiya shaharchasi) qo‘llanilishi mumkin, chunki u milliy model sifatida targ‘ib qilinmoqda.

**Pulatov Shahron Axmedovich** – Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti “Biznesni boshqarish” kafedrasida tadqiqotchisi, e-mail: [shaxron.pulatov.90@mail.ru](mailto:shaxron.pulatov.90@mail.ru)

## **QURILISH TASHKILOTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY ASOSLARI**

**Annotasiya:** Loyiha jamoalari loyiha boshqaruviga o‘tgan qurilish tashkilotlarining asosiy tashkiliy-iqtisodiy kuchi hisoblanadi. Bugungi kunda qurilish obyektlarini barpo etish mas‘uliyati to‘liq loyiha jamoasi zimmasiga yuklatiladi. Loyiha jamoasining maqomi faoliyat tartibi hamda iqtisodiy manbalari zamonaviy tashkilotlar boshqaruvining dolzarb muammosiga aylanmoqda. Mazkur maqolada loyiha jamoalarini iqtisodiy rag‘batlantirish bo‘yicha xulosalar va tavsiyalar ko‘rib chiqilgan

**Kalitli so‘zlar:** loyihani boshqarish, loyiha jamoasi, rag‘batlantirish fondi.

**Аннотация:** Проектные команды являются основной организационно-экономической силой строительных организаций, перешедших на проектное управление. Сегодня вся ответственность за строительство объектов возложена на проектную команду. Статус, порядок ее деятельности и экономические ресурсы проектной команды становятся актуальной проблемой управления современными организациями. В статье рассматриваются выводы и рекомендации по экономическому стимулированию проектных команд.

**Ключевые слова:** проектное управление, проектная команда, фонд стимулирования.

**Abstract:** Project teams are the primary organizational and economic force behind construction organizations that have transitioned to project management. Today, all responsibility for the construction of projects rests with the project team. The status, procedures, and economic resources of project teams are becoming a pressing issue in the management of modern organizations. This article explores the findings and recommendations for economic incentives for project teams.

**Keywords:** project management, project team, incentive fund.

**Kirish.** O‘zbekiston respublikasida loyiha boshqaruvi konsepsiyasi oxirgi yillarda jamiyatimizning hayotiga jadal kirib kelmoqda. Bunga mamlakatimiz Prezidentining 2017 yil 27 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3150-son qarori huquqiy asos yaratib bergan. Bugungi kunda boshqaruvning barcha pog‘onalari va sohalarida loyiha boshqaruvi o‘z o‘rnini topmoqda. Jumladan qurilish sohasini jadal rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni qo‘llashga qaratilgan ko‘plab nazariy va amaliy ishlanmalar bajarilgan bo‘lib ijobiy samara bermoqda. Jahondagi ilg‘or tajribaga tayangan holda qurilish sohasining raqobatbardoshligini oshirish zarurati loyiha boshqaruvini takomillashtirish dolzarb muammo bo‘lib hisoblanmoqda.

**Adabiyotlar tahlili.** Loyiha boshqaruvining shakllanishi va rivojlanishiga oid nazariy hamda amaliy masalalar ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida chuqur o‘rganilgan. Xususan, K.Xeldman, R.Nyuton, K.Grey, V.S.Zubenko, K.V.Klimov, A.O.Lisisyn, I.I.Mazur, V.D.Shapiro, T.A.Sharipova, Z.M.Isaqova, I.A.Usmanov, X.T.Buriyev [2,3,4,5,6,7,8,9,10,11] va boshqa

tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida loyiha boshqaruvi konsepsiyalarining nazariy asoslari, ularni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari hamda samaradorligini oshirish yo‘llari keng yoritilgan.

Shu bilan birga, mazkur yo‘nalishda amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, loyiha boshqaruvi konsepsiyalarini hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda, xususan Samarqand viloyati qurilish sohasida qo‘llash masalalari yetarli darajada o‘rganilmagan. Amaldagi qurilish loyihalarida loyiha boshqaruvining zamonaviy usullaridan foydalanish darajasi, ularning iqtisodiy samaradorligi hamda mahalliy sharoitga moslashuv masalalari bugungi kungacha tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Ushbu holat bugungi kunda mazkur muammoni ilmiy jihatdan o‘rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni taqazo qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot davomida menejmentning funksional va loyiha boshqaruvi konsepsiyalarining uslubiy asoslari tahlil qilingan, ilmiy mantiq, guruhlash va tasniflash amaliy kuzatuvlar, ekspert so‘rovi natijalaridan foydalanilgan.

**Asosiy qism.** Loyiha boshqaruvining qurilish tashkilotlarida joriy qilinishi va ommalashtirilishi yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan boshqaruvning tashkiliy - iqtisodiy mexanizmlari bilan bir qatorda boshqaruv funksiyalarining mazmunan o‘zgarishi hamda kengaytirilishi lozim deb hisoblaymiz. Rejalashtirish, tashkil qilish va nazorat funksiyalari har qanday konsepsiyada o‘z mohiyati va ahamiyatini yo‘qotmaydi. Xuddi shunday loyiha boshqaruviga asoslangan qurilish tashkilotlarida ushbu funksiyalar to‘la hajmda bajarilishi va ushbu talabga mos tashkiliy tamoyillarga rioya qilinishi talab etiladi. Shu bilan birga tashkilotlarning hamda uning tarkibidagi bo‘linmalar va mas‘ul xodimlarning motivlashtirish manbalari, tamoyillari va vositalarining o‘zgarishini tan olish lozim. Ushbu holatning sabablariga quyidagilarni kiritish mumkin:

a) Mansabdor shaxslarning loyihalarni boshqarish tizimidagi o‘rni va ishtirok etish darajasi. Ta’kidlaganimizdek an’anaviy va loyiha boshqaruvida rahbarlarning vazifalari bir muncha farq qiladi, ya’ni qarorlarni qabul qilish xodimlarning faoliyatiga ta’sir qilishi hamda nazorat doirasi qayta taqsimlanadi bu esa moddiy va ma’naviy rag‘batlantirishning ijtimoiy-psixologik mazmuniga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.


b) Loyiha jamoalarida mehnatning hajmi, murakkabligi va intensivligini o‘zgarishi. Loyiha jamoasi degan atamaning o‘zi kundalik faoliyat davomida jamoa a’zolari o‘rtasida vazifalarning o‘zgarib borishini ko‘zda tutadi. Masalan, loyiha menejeri (ish boshqaruvchi) jamoadagi boshqa a’zolariga (iqtisodchi, sifat nazoratchisi, ishni tashkil qiluvchi va h.k.) o‘rtasida o‘z vakolatlarini uzatishi yoki vaziyatdan kelib chiqqan holda ularning vazifalarini bajarib borishi odatiy hol bo‘ladi. Bunday gorizontol yo‘naltirilgan tuzilmaga xos bo‘lgan holat xodimlar tomonidan mehnatni baholash mezonlariga alohida e’tibor qaratadi.

v) Loyiha jamoasi hamda qurilish tashkilotining funksional rahbarlari o‘rtasida vakolatlarining qayta taqsimlanishi boshqaruv mehnatini motivlashtirish mexanizmlariga o‘zgartirishlar kiritadi. Masalan, qurilish tashkilotidagi mashina

va mexanizmlarning holatiga javobgar bosh mexanik bir necha loyiha jamoasi bilan munosabatda bo‘lgan holda tashkiliy-ma‘muriy hamda iqtisodiy rag‘batlantirish muammosiga duch kelishi mumkin. Birinchidan ushbu xodim tashkilotda tutgan o‘rnining noto‘g‘ri baholanishidan norozilik bildirishi mumkin. Ikkinchidan loyiha menejerlarining ehtiyojlarini qondirishda ma‘lum nizoli vaziyatlarga duch kelishi mumkin.

g) Iyerarxik tashkiliy munosabatlarning gorizontal yo‘naltirilgan munosabatlarga o‘tishi. Qurilish tashkilotlarining boshqaruv tizimida qarorlar qabul qilish, axborot oqimlarini boshqarish hamda tashkiliy-ma‘muriy ta’sirlarini o‘tkazish mexanizmlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Loyiha boshqaruvida har bir loyihaning resurslari va muddatini tejash orqali iqtisodiy natijani ko‘paytirish tamoyili eng muhim o‘rinni egallaydi. Bunda motivlashtirish manbasi bo‘lib qurilish muddatini qisqartirish barcha turdagi resurslarni tejash va buning natijasida daromadni oshirish xizmat qiladi. An’anaviy motivlashtirish funksiyasida qo‘llanilgan tashkiliy-iqtisodiy va tashkiliy-ijtimoiy motivlashtirish mexanizmlari ham loyiha boshqaruvida mazmunan o‘zgaradi (1-rasm).



**1-rasm. Loyiha boshqaruvida motivatsion omillar**


Rasmda keltirilgan motivatsion omillarning har biri bo‘yicha tavsiflarni keltiramiz. Loyiha jamoasi tarkibidagi o‘rni. Loyihani boshqarishda tegishli xodimlarda ushbu loyihaga mo‘ljallangan jamoani tuzishda asbiy-malakaviy va shaxsiy ijtimoiy qobiliyatlarga e‘tibor qaratish ushbu xodimda ma‘lum guruhga mansublik hissiyotini shakllantiradi. Xodim qancha ko‘p jamoalarga taklif qilinsa uning tashkilotda tutgan o‘rni oshib boraveradi.

Jamoada faollik ko‘rsatishning ijobiy baholanishi. Loyiha jamoasida gorizontal yo‘naltirilgan vazifa va vakolatlariga asoslanishi xodimning ishlab chiqarish va ijtimoiy faolligiga e‘tiborni mezon qilib qabul qiladi. Faollik KPI orqali xodimning ish haqi va boshqa moddiy rag‘batlantirishga mezon sifatida olinadi. qaratadi

Loyiha jamoasida hamkorlik va hamjihatlik imkoniyatlari. Ushbu omil loyiha boshqaruvining alohida ahamiyatli motivatsion jihatlaridan bo‘lib,

xodimlarning jamoa tomonidan himoyalaniş salbiy ta’sirlarning bartaraf etilishi hamda yuqori unumdorlikka intilishni yaratib beradi. Loyiha jamoasida hamjihatlik sinergiyasi alohida e’tirof etiladi. Loyiha jamoasida moliyaviy-iqtisodiy vakolatlar xususiyatlari. Har qanday ishlab chiqarishning boshqaruv tizimi jumladan, qurilish tashkilotida moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarning o‘ziga xos tizimi shakllangan bo‘ladi. Loyiha jamoasida mazkur vakolatlar loyiha menejeri ixtiyorida bo‘lgani bilan ularning amalga oshirilishi jamoa qarori yoki mezonlari asosida bo‘lishi ta’minlanadi. Bunda iqtisodiy vakolatlar jamoaning hal qiluvchi qismi tomonidan ma’lum xodimga uzatiladi. Eng muhim shart moliyaviy-iqtisodiy vakolatlarining shaffofligi va jamoa oldida hisobdorligidir.

Boshqaruv axborotlarining aylanishi va foydalanishi. Loyiha boshqaruvining ommalashuvi va qurilish sohasida kengaytirilishi boshqaruv qarorlarini samarali qo‘llanilishi va asosli qarorlar qabul qilinishi tizimi bilan bog‘liq. Bizning fikrimizcha boshqaruv axborotlari bilan ishlash loyiha menejerligiga yuklatilishi va ularni umumiy lashtirish korxonaning funksional rahbariga uzatilishini ta’minlashi lozim. Shunda qurilish tashkiloti rahbari axborot xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha yagona markaz vazifasini bajarishni o‘z zimmasiga oladi. Yuqoridagi motivatsion omillar tasnifidan xulosa qilish mumkinki ham iqtisodiy ham ijtimoiy samaralar aynan loyiha jamoalarida shakllanishiga e’tibor qaratiladi. Ushbu takliflarimizning ijobiy tomoni shundan iboratki, moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish manbasi iqtisodiy samaraning haqiqiy egasiga mansub bo‘ladi (2-rasm).



**2-rasm. Loyiha boshqaruvi tashkilotlarida moddiy motivlashtirish manbalari.**

Boshqaruvning motivlashtirish funksiyasi amalda ro‘yobga chiqarilishi tashkilotda rag‘batlantirish fondini shakllantirish va taqsimlashning uslubiy yondashuviga bog‘liq bo‘ladi.

**Xulosa.** Bizning fikrimizcha rag‘batlantirish tartibi birinchi o‘rinda rag‘batlantiruvchi fondini shakllantiruvchi samara manbalarga qaratilishi lozim. Qurilish tashkilotlarida asosiy iqtisodiy samara qurilish obyektlarida vujudga keladi, ya’ni resurslarni tejash, xarajatlarni boshqarish, sifatni boshqarish hamda qurilish muddatini qisqartirish natijasida ma’lum mablag‘lar shakllanadi va ular umumiy holda rag‘batlantirish fondini tashkil qiladi. Taklif qilinayotgan tartib bo‘yicha olinadigan samaraning 20 foizi mablag‘ shakllangan joyida, ya’ni obyekt qurilishi uchun mas’ul bo‘lgan loyiha jamoasi ixtiyorida qoldiriladi, chunki aynan jamoa barcha resurslarni tejashga manfaatdor bo‘lishi lozim. Buning ikkinchi jihati shundaki, jamoa a’zolari tejamkor va samarali mehnatning mevasini ko‘rishi lozim.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3150-son Qarori, Lex.uz
2. Kim Xeldman. PMP Project Management Professional Practice Tests: 2021 Exam Update Kim Xeldman, Vanina Mangano
3. Ричард Ньютон. Управление проектами от А до Я. Подробнее на livelib.ru: <https://www.livelib.ru/author/195287/top-richard-nyuton>.
4. Грей, К.Ф. Управление проектами: Практическое руководство / Ф-Грей Клиффорд, Эрик У. Ларсон // Пер с англ. - М.: Издательство «Дело и Сервис», 2003. - 528 с.
5. Зубенко В.С. Управление проектами развития регионального инвестиционно-строительного комплекса. Автореферат. дис. ... канд. экон. наук. – Москва, 2003. – 32 с.
6. Климов К.В. Управление проектами инвестиционно-строительного комплекса региона. Автореферат. дис. ... канд. экон. наук. –Москва, 2007. – 23 с.
7. Лисицын, А.О. Проект и проектное управление/ А. О. Лисицын // Вестник международного института управления. - 2017. - № 2. - С. 62-64.
8. Мазур, И.И. Управление проектами / И.И. Мазур, В.Д. Шапиро, Н.Г. Ольдерогге. - М.: Омега-Л, 2007. - 664 с.
9. Шарипова Т.А. Правовое регулирование проектного управления в Узбекистане // Журнал «Юридический вестник». — 2021. — № 7. — С. 45-58.
10. Isakova Z.M. Loyiha boshqaruvi tizimlarini joriy etish: tavsifi va innovatsion iqtisodiyotda amalga oshirish shartlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, 2019. – 110-115 b.
11. Усманов И.А., Буриев Х.Т. Совершенствование расчёта экономического эффекта от сокращения сроков строительства // Alisher Navoi international congress on social sciences & humanities. Tashkent. May 22-23, 2023. 119-126 б.;

**Олтаев Шавкат Собирович** – СамИСИ доценти, и.ф.н.

## **РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА АҲОЛИНИНГ МОЛИЯВИЙ САВОДХОНЛИГИ ВА УНИ ДАРАЖАСИНИ ОШИРИШНИНГ ИННОВАЦИОН ЙЎЛЛАРИ**

**Аннотация:** Рақамли иқтисодиёт шароитида аҳолининг молиявий саводхонлигини ошириш масаласи иқтисодий барқарорликни таъминлаш ва фуқароларнинг молиявий қарорлар қабул қилиш қобилиятини кучайтириш нуқтаи назаридан алоҳида аҳамият касб этмоқда. Мақолада молиявий саводхонлик тушунчасининг моҳияти, унинг аҳоли фаровонлиги ва давлат иқтисодий тараққиётига таъсири таҳлил қилинган. Шунингдек, Ўзбекистон шароитида аҳолининг молиявий билим даражасининг паслигига олиб келаётган асосий омиллар аниқланиб, айрим ижтимоий гуруҳлар кесимида муаммонинг кучайиб бораётган жиҳатлари очиб берилган. Тадқиқот доирасида молиявий хулқ-атворга таъсир этувчи омиллар, жумладан, жамғариш одатлари ва молиявий маҳсулотлардан фойдаланиш даражаси таҳлил қилинган. Мақолада молиявий саводхонликни оширишга қаратилган инновацион ёндашувлар ва тизимли чора-тадбирларни амалга ошириш зарурати асослаб берилган.

**Калит сўзлар:** рақамли иқтисодиёт, молиявий саводхонлик, аҳоли фаровонлиги, жамғариш хулқ-атвори, молиявий таълим, инновацион ёндашувлар.

**Аннотация:** В контексте цифровой экономики вопрос повышения финансовой грамотности населения приобретает особое значение с точки зрения обеспечения экономической стабильности и укрепления способности граждан принимать финансовые решения. В статье анализируется сущность понятия финансовой грамотности, ее влияние на благосостояние населения и экономическое развитие государства. Также определены основные факторы, приводящие к низкому уровню финансовой грамотности населения в условиях Узбекистана, и выявлены аспекты проблемы, которые становятся более острыми среди отдельных социальных групп. В исследовании анализируются факторы, влияющие на финансовое поведение, включая сберегательные привычки и уровень использования финансовых продуктов. В статье обосновывается необходимость инновационных подходов и системных мер, направленных на повышение финансовой грамотности.

**Ключевые слова:** цифровая экономика, финансовая грамотность, благосостояние населения, сберегательное поведение, финансовое образование, инновационные подходы.

**Abstract:** In the context of the digital economy, the issue of increasing the financial literacy of the population is of particular importance from the point of view of ensuring economic stability and strengthening the ability of citizens to make financial decisions. The article analyzes the essence of the concept of financial literacy, its impact on the well-being of the population and the economic development of the state. Also, the main factors leading to the low level of financial knowledge of the population in the conditions of Uzbekistan are identified, and the aspects of the problem that are becoming more acute among certain social groups are revealed. The study analyzes factors affecting financial behavior, including savings habits and the level of use of financial products. The article substantiates the need for innovative approaches and systematic measures aimed at increasing financial literacy.

**Keywords:** digital economy, financial literacy, population well-being, savings behavior, financial education, innovative approaches.

Рақамли иқтисодиёт ривожланишининг ҳозирги босқичида аҳолининг молиявий саводхонлигини ошириш муаммоси долзарб ҳисобланади. Бу

молия секторининг барқарорлигини таъминлаш, истеъмолчиларни хабардор қилиш ва уларнинг жавобгарлигини ошириш учун муҳимдир. Молиявий жиҳат замонавий шахс ҳаётининг деярли барча соҳаларини қамраб олади. Молиявий саводхонлик фуқароларга ўзларининг моддий фаровонлигини бошқариш имкониятини беради. Бошланғич молиявий билим ва кўникмаларнинг етишмаслиги инсонларнинг фаровонлигини таъминлаш учун тўғри қарорлар қабул қилиш имкониятларини чеклайди.

Молиявий саводхонлик деганда молия билан боғлиқ ва оқилона молиявий қарорлар қабул қилиш, шунингдек шахсий молиявий фаровонликка эришиш учун зарур бўлган хабардорлик, билим, кўникма, муносабат ва хатти-ҳаракатларнинг йиғиндиси, молиявий қарорларни оқилона қабул қилиш учун асос яратадиган шахснинг ваколатлари тушунилади. Молиявий саводхонликни ривожлантириш аҳолининг молиявий фаровонлигини сақлаш ва яхшилашга имкон беради.

Ҳозирги кунда, молиявий саводхонлик даражаси етарли даражада эмас, бу муаммо индивидуал ижтимоий гуруҳлар (аёллар, қариялар ва таълим даражаси паст инсонлар) доирасида айниқса кескин тус олган. Молиявий муносабатларнинг умумий мураккаблашиши, давлат томонидан пенсия таъминотини, қарз маблағларини олиш усуллари ва бошқалар бўйича фуқароларга юклатилган жавобгарликларнинг ошиши таваккалчиликнинг кўшимча омили ҳисобланади.

Инсонлар кундалик фаолиятининг бир қисми сифатида оптимал ҳаракат алгоритмларини экспериментал тарзда ишлаб чиқадилар. Бироқ инсоннинг тажрибаси кўпинча мавжуд бўлмаганлиги сабабли муҳим ҳодисалар (масалан, ипотека кредитини олиш, таълим олиш, узоқ муддатли инвестицияларни шакллантириш) камдан-кам учрайди. Айниқса бу ерда ташқаридан олинган ўзига хос молиявий билимларнинг аҳамияти намоён бўлади.

Илмий тадқиқотлар учун молиявий саводхонликни ўз-ўзини баҳолаш кенг тарқалган асосдир. Шунга қарамай, катта объективликка эга бўлган бошқа ёндашувлари мавжуд. Масалан, Швецияда инсонларнинг молиявий "хатолари"нинг уч хил турига таъсир қилишини текширишга асосланган усулдан фойдаланадилар: диверсификациянинг етарли эмаслиги, таваккалчиликни қабул қилишдаги инерция ва акцияларга эгалик қилишда диспозиция таъсири.

Назарий жиҳатдан молиявий саводхонлик иқтисодий вазиятни яхшилашнинг бир усули ҳисобланади. Аммо, тадқиқотчиларнинг фикрига кўра: қатъий бошқарув, танлов архитектурасини яхшилаш учун рағбатларни таъминлаш, маҳсулотларнинг нархлари, шартлари ёки

хусусиятлари ҳақида маълумотларни ошкор қилишни соддалаштириш, чора-тадбирларни амалга ошириш учун рағбатларни таъминлаш — камроқ харажат билан худди шундай таъсир кўрсатади. Жамиятда доимо мавжуд молиявий институтлар доирасида хулқ-атвор кўникмаларини ривожлантириш, ўз бизнесини юритиш ва инсоннинг кундалик ҳаётига

таъсир кўрсатадиган бизнес жараёнларини тушуниш учун зарур бўлган билим ва кўникмаларни такомиллаштириш зарурати мавжуд бўлган. Юқорида кайд этилган эҳтиёжларни қондириш учун аҳолининг молиявий саводхонлик даражасини ривожлантириш зарур.

Молиявий саводхонликнинг юқори даражаси нафақат аҳолининг айрим гуруҳларининг турмуш даражасини яхшилашга олиб келади, балки умуман олганда давлатнинг иқтисодий ривожланишига ҳам таъсир кўрсатади. Истеъмолчиларнинг маълумотлилик ва молиявий саводхонлиги маҳсулот сифатига бўлган талабнинг ошишига олиб келади, шу сабабли бу етказиб берувчилар ва сотувчилар ўртасида рақобатнинг кучайишига, нархларнинг пасайишига ва келажакда бозорни янада самарали тартибга солинишига ва инфляция даражасини назорат қилишга олиб келади.

Молия соҳасидаги билимларнинг пастлиги қуйидаги салбий оқибатларга олиб келади: молиявий фирибгарларга нисбатан компаниянинг банкротлигидан тортиб заифлик хавфига, асоссиз равишда катта миқдордаги қарзлар ва баъзи ижтимоий-психологик муаммолар, масалан, депрессия, эрта қариш ҳолатлари, ўз жонига қасд қилишга мойилликлар.

Иман Инвест компанияси молиявий саводхонлик даражасини баҳолаш мақсадида Тошкент шаҳри аҳолисига “Пул йиғасизми?” саволи билан юзланди.

Сўровнома иштирокчиларининг жавобларига қараганда, 57 фоиз одам пул жамғармайди ёки бунга эҳтиёжлари йўқ; уларнинг деярли ярми (46 фоиз) ақалли бир марта бўлса ҳам пул тўплашга ҳаракат қилиб кўрган, қолган ярми эса (54 фоиз) пул тўплашга умуман қизикмаганликларини билдиришган. “Пул йиғасизми?” деган саволга ижобий жавоб берганлар 43 фоизни ташкил этди.

Энг қизикарли фактлардан бири, пул йиғадиган инсонларнинг 17 фоизигина бозорда мавжуд молиявий маҳсулотлардан фойдаланадилар.

“Одамлар асосан қандай мақсадда ўз пулларини жамғаради?” деган саволга сўровнома иштирокчиларининг 25 фоизи тўплайётган маблағ оиласи учун эканлигини таъкидлашган. Уй олиш мақсадида пул йиғайётганлар 24 фоизни, ўз келажиги ва автомашина олиш учун пул жамғарайётганлар бир хилда 11 фоизни ташкил этган. Қолганлар эса “бизнес қилиш” 10 фоиз, “таълим олиш” 9 фоиз ва “Ҳаж зиоратига бориш” 7 фоизни пул жамғариш мақсади деб кўрсатган. Сўровномада аҳолидан пул жамғариш усуллари ҳақида ҳам сўралган. Натижаларга кўра, пул жамғарувчиларнинг 67 фоизи маблағларини уйда сақлашни афзал кўришади. Уларнинг 55 фоизи хорижий валюта (АҚШ доллари)да, 45 фоизи эса сўмда сақлашади. Бунинг биринчи сабаби, халқимиз орасида бозордаги молиявий маҳсулотларга нисбатан ишонч етарли даражада шаклланмаганлиги деб сабаб кўрсатилган.

Ўзбекистонда молиявий таълимнинг асосий муаммоларига қуйидагиларни киритиш мумкин:

биринчидан, молиявий билим ва тажриба етишмаслиги;

иккинчидан, ушбу йўналишда ривожланишга қизиқишнинг етарли даражада эмаслиги;

иккинчидан, молиявий ташкилотларга ишончнинг паст даражада эканлиги. Юқорида айтилганларнинг ҳаммаси шахсий бюджет тузиш кўникмаларининг етишмаслигига, молия - кредит ташкилотлари билан шартнома мажбуриятларини бажариш муҳимлигини етарлича баҳоламасликка, фуқароларнинг ҳуқуқлари ва молиявий хавфсизликларига тааллуқли вазиятларда ўзини тутиш тажрибасининг етишмаслигига олиб келади.

Молиявий саводхонлик соҳасидаги ушбу муаммоларни бир қатор сабабларга кўра шартли равишда иккита асосий гуруҳга бўлиш мумкин. Биринчиси, таълим муассасаларида молиявий саводхонликни ўқитишнинг самарали стратегиясининг мавжуд эмаслиги, молия соҳасида назарий билимлар ва амалий тажрибага эга бўлган малакали ўқитувчиларнинг етишмаслиги, шахсий молиявий ҳисоби бўйича ўқув дастурларининг етишмаслиги ёки умуман йўқлиги билан боғлиқ муаммоларни ўз ичига олади. Иккинчи гуруҳга аҳолини давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг даражасини етарли эмаслиги, молиявий таълим масалалари бўйича фуқароларни ахборот билан таъминлайдиган ҳуқуқий ва қонун ҳужжатларининг етишмаслиги, молиявий саводхонликни ошириш бўйича тадбирларни амалга оширувчи ташкилотларнинг моддий-техник базаси пастлиги ва натижада аҳолининг ушбу тадбирларда иштирок этишга қизиқиши пастлиги билан боғлиқ муаммолар киради.

Юқорида қайд этилган муаммоларни ечимини топиш учун молиявий саводхонликни ривожлантириш стратегиялари ва чора-тадбирлари қуйидаги тамойилларга асосланган бўлиши керак:

биринчидан, кўламлилиқ - ҳаракатлар дастури жамиятнинг барча қатламларини қамраб олиши керак;

иккинчидан, тизимлилиқ ва ўлчовлилиқ - дастур пухта режалаштирилган, содда ва тушунарли бўлиши керак, натижалар ўлчаниши ва баҳолашда реал бўлиши керак;

учинчидан, қамровлилиқ - мамлакатимизнинг барча ҳудудлар бўйича тадқиқот материаллари ва натижалари кенг қамровли бўлиши керак;

тўртинчидан, манфаатдор томонлар билан ҳамкорлик - тадбирларни ўтказиш ва амалга ошириш жараёнида шериклар ва ҳомийларни жалб қилиш молиявий ривожланиш стратегиясини амалга ошириш имкониятини оширади.

Шундай қилиб, бугунги кунда аҳолининг молиявий таълим даражасининг етарли даражада эмаслиги муаммоси Ўзбекистон учун долзарб ҳисобланади. Бу молиявий саводхонликни ошириш бўйича тадбирлар ва дастурлар орқали ҳал қилинади. Амалга оширилаётган тадбирларнинг муваффақияти ва самарадорлиги ҳаракатлар режасини тузувчилар таяниши керак бўлган бир қатор принципларга боғлиқ бўлиши керак.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Синельников М. В. Финансовая грамотность населения как основа оптимизации финансового поведения в условиях глобализации // Дискуссия. — 2018. — Вып. 88. — С. 77-84.
2. Бекирова С.Э. Финансовая грамотность населения как основа благосостояния семьи. Научный вестник: Финансы, банки, инвестиции - 2019 - № 2
3. <https://imaninvest.com>

*Azgarov Abdumutalib Alisher o‘g‘li - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Marketing” kafedrasida mustaqil izlanuvchisi, UDK: 339.138:642.5(575.1)*

**DIGITAL TRANSFORMATION OF THE RESTAURANT BUSINESS:  
STRATEGIES FOR ADAPTING TO NEW CHALLENGES AND  
INTERNET MARKETING TRENDS**

***Abstract:** The article explores the digital transformation of the restaurant business in the context of rapidly changing consumer behavior and technological innovation. It examines the main strategies that restaurants use to adapt to new market challenges, including the implementation of online ordering systems, digital loyalty programs, and social media marketing. Special attention is paid to the role of internet marketing tools - such as SEO, targeted advertising, influencer collaborations, and online reputation management - in attracting and retaining customers. The study also highlights current trends that define the digital restaurant landscape, such as automation, personalization, and data-driven decision-making. The findings emphasize that effective digital transformation requires not only technological integration but also strategic rethinking of customer experience and marketing communication in the digital era.*

***Keywords:** digital transformation, restaurant business, internet marketing, marketing communications, data-driven management;*

***Аннотация:** В статье рассматривается процесс цифровой трансформации ресторанного бизнеса в условиях стремительно изменяющегося поведения потребителей и технологических инноваций. Анализируются основные стратегии, применяемые ресторанами для адаптации к новым рыночным вызовам, включая внедрение онлайн-систем заказов, цифровых программ лояльности и инструментов маркетинга в социальных сетях. Особое внимание уделено роли интернет-маркетинга — таких инструментов, как SEO-продвижение, таргетированная реклама, сотрудничество с инфлюенсерами и управление онлайн-репутацией — в привлечении и удержании клиентов. Отдельно выделены современные тенденции, определяющие цифровую среду ресторанного бизнеса, среди которых автоматизация, персонализация и принятие решений на основе данных. Результаты исследования показывают, что эффективная цифровая трансформация требует не только технологической интеграции, но и стратегического переосмысления клиентского опыта и коммуникаций в цифровую эпоху.*

***Ключевые слова:** цифровая трансформация, ресторанный бизнес, интернет-маркетинг, маркетинговые коммуникации, управление на основе данных;*

***Annotatsiya:** Maqolada umumiy ovqatlanish korxonalarida xizmat ko‘rsatishda biznesning raqamli transformatsiyasi jarayoni iste‘molchilar xulq-atvorining tez o‘zgarishi va texnologik innovatsiyalar sharoitida ko‘rib chiqiladi. Umumiy ovqatlanish korxonalarining*

yangi bozor chaqiriqlariga moslashish uchun qo‘llyotgan asosiy strategiyalari, jumladan, onlayn buyurtma tizimlarini joriy etish, raqamli sodiqlik dasturlari va ijtimoiy tarmoqlarda marketing vositalaridan foydalanish tahlil qilinadi. Internet-marketingning SEO targ‘iboti, maqsadli reklama, influencerslar bilan hamkorlik va onlayn obro‘ni boshqarish kabi vositalari mijozlarni jalb etish va ularni saqlab qolishda tutgan o‘rni alohida yoritiladi. Shuningdek, restoran biznesining raqamli muhitini belgilovchi zamonaviy tendensiyalar — avtomatlashtirish, shaxsiylashtirish va ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, samarali raqamli transformatsiya nafaqat texnologik integratsiyani, balki mijozlar tajribasini va raqamli davrdagi kommunikatsiyalarni strategik qayta ko‘rib chiqishni ham talab etadi.

**Kalit so‘zlar:** raqamli transformatsiya, restoran biznesi, internet-marketing, marketing kommunikatsiyalari, ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv;

## INTRODUCTION.

In recent years, the restaurant industry has undergone a profound transformation driven by the rapid advancement of digital technologies and the growing expectations of modern consumers. The digitalization of business processes, combined with the increasing influence of online communication channels, has redefined how restaurants operate, compete, and engage with their customers. Traditional marketing approaches are gradually being replaced by digital strategies that emphasize personalization, convenience, and interactive experiences.

The global pandemic accelerated this transformation, compelling restaurants to adopt online ordering systems, delivery platforms, and contactless payment technologies. As a result, internet marketing has become a crucial tool for maintaining competitiveness and ensuring long-term customer loyalty [1]. Social media platforms, search engine optimization (SEO), and data analytics now play a central role in shaping brand perception and driving customer engagement.

However, the process of digital transformation presents not only opportunities but also significant challenges [2]. Restaurants must balance technological innovation with service quality, data security, and the preservation of authentic customer experiences. Therefore, understanding and implementing effective digital strategies is essential for sustainable growth in today’s dynamic market.

This study aims to analyze the key strategies and tools of digital transformation in the restaurant business, focusing on how internet marketing trends influence customer behavior and business performance.

## METHODOLOGY.

The methodological basis of this study combines quantitative and qualitative research approaches to analyze the process of digital transformation within catering enterprises in Samarkand. The research was conducted between February and July 2025 and included both primary and secondary data collection methods.

A total of 50 catering enterprises (including cafés, restaurants, and fast-food outlets) operating in Samarkand city were selected through stratified random

sampling. The sample included small (56%), medium (34%), and large (10%) businesses. Data were collected using three primary tools: structured surveys, semi-structured interviews, and digital performance analysis.

1. Survey – A questionnaire consisting of 25 questions was distributed among 120 managers and marketing specialists to assess the level of digital adoption, use of online marketing tools, and perceived benefits of digital transformation. The survey achieved a response rate of 87% (104 responses).

2. Interviews – In-depth interviews were conducted with 15 owners and general managers of catering companies to gain insights into their strategic priorities, challenges in implementing digital technologies, and expectations for future digital trends. Each interview lasted approximately 40–60 minutes and was transcribed for thematic analysis.

3. Digital Metrics Analysis – To measure the effectiveness of digital marketing activities, data from Google Business, Instagram, and Telegram channels of the sampled restaurants were analyzed. Metrics such as follower growth, engagement rate, customer reviews, and online order frequency were evaluated for the first half of 2025.

The collected data were processed using SPSS 26.0 for quantitative analysis and NVivo 14 for qualitative coding. Descriptive statistics, correlation analysis, and regression models were applied to identify relationships between digital marketing activities and customer engagement indicators. The methodological framework provides a reliable empirical basis for evaluating how Samarkand’s catering enterprises are adapting to digital transformation trends, what tools are most effective, and which factors hinder the process of digital modernization in the regional restaurant sector.

## **RESEARCH.**

The study revealed that the level of digital transformation among catering enterprises in Samarkand varies considerably depending on the size, financial capacity, and managerial awareness of digital trends. Out of 50 analyzed enterprises, 82% have adopted at least one form of digital technology in their operations, while 18% still rely mainly on traditional marketing and manual service processes.

### **Adoption of Digital Tools.**

The most commonly used digital instruments are social media platforms such as *Instagram* (91%), *Telegram* (68%), and *Facebook* (42%). Many restaurants actively use these channels to promote daily menus, special offers, and seasonal campaigns. Google Business and TripAdvisor listings are also becoming increasingly popular for managing online visibility and customer reviews. However, only 36% of restaurants utilize advanced tools such as SEO optimization, Google Ads, or CRM systems to manage customer relationships.

Interview data suggest that smaller cafes and fast-food outlets tend to focus mainly on free or low-cost digital solutions, whereas medium and large enterprises are more likely to invest in targeted advertising, influencer collaborations, and professional content production. For example, one restaurant

owner stated: “We used to rely only on word-of-mouth, but after launching our Instagram promotions, we noticed a 25% increase in customer flow within three months.”

Impact on Business Performance: quantitative analysis in SPSS 26.0 showed a moderate positive correlation ( $r = 0.64$ ) between the number of digital marketing tools used and sales growth over the first half of 2025. Restaurants with at least three digital channels (e.g., website + Instagram + delivery app) demonstrated an average revenue increase of 17%, compared to only 5% for those relying on traditional methods.

Customer engagement indicators, such as review frequency and social media interaction, also improved. The average engagement rate on Instagram grew from 2.8% in 2024 to 5.1% in 2025, indicating higher audience interest and brand recognition. Managers emphasized that digital communication not only attracts new clients but also strengthens loyalty through continuous interaction.

Organizational and Human Factors: despite these positive outcomes, 46% of respondents mentioned a lack of digital knowledge among staff as a serious barrier to full transformation. Many employees are unfamiliar with data analytics, SEO principles, or online advertising platforms. In several cases, restaurants had to outsource marketing tasks to freelancers or external agencies.

Interview data processed with NVivo 14 highlighted recurring challenges such as:

- Limited financial resources for digital upgrades (mentioned by 58% of managers);
- Resistance to change from older staff and management;
- Unclear ROI measurement from digital investments;
- Unstable internet infrastructure in certain parts of Samarkand.

Nevertheless, some enterprises demonstrated remarkable adaptability. A few managers reported implementing loyalty programs through Telegram bots, while others adopted QR-code-based menus and feedback systems to improve customer interaction and data collection.

Strategic Implications: The findings indicate that digital transformation in Samarkand’s restaurant industry is progressing, but unevenly. Enterprises that treat digitalization as a strategic investment - not just a marketing trend - show stronger financial results and brand growth. The integration of internet marketing, customer analytics, and automation leads to improved decision-making and service personalization.

Moreover, collaboration with influencers and local food bloggers has proven especially effective in Samarkand’s market, where word-of-mouth and community reputation play a key role. According to the data, restaurants that implemented influencer partnerships reported 23% higher online engagement compared to those that relied solely on paid advertising.

## **DISCUSSION**

The findings of this study confirm that digital transformation has become a decisive factor for competitiveness in the restaurant and catering sector of

Samarkand. The high adoption rate of social media marketing (91% via Instagram and 68% via Telegram) reflects the strong influence of online communication on consumer behavior. These results align with previous research by Nazarov and Aliyeva [3], who found that social media plays a central role in building brand awareness and customer loyalty within the hospitality industry.

### **Role of Internet Marketing in Business Adaptation**

The study demonstrates that internet marketing is not merely a promotional tool but a strategic mechanism for adapting to new market realities. The correlation ( $r = 0.64$ ) between the number of digital tools used and sales growth supports the idea that a diversified digital presence directly contributes to business performance. Similar relationships were identified [4], where observed that multi-channel marketing strategies improve customer acquisition efficiency by 20–30%.

In the context of Samarkand, the most effective strategies appear to be the integration of online ordering systems, influencer collaborations, and active management of online reviews. These instruments not only enhance visibility but also increase customer trust — a critical factor in the local service culture, where personal reputation and recommendations are highly valued.

### **Challenges of Digital Transformation**

Despite the promising outcomes, the study identified several persistent barriers that slow digital transformation in Samarkand’s restaurant industry. Nearly half of the respondents (46%) noted insufficient digital competence among employees, while 58% emphasized limited financial resources for technology implementation. These findings correspond with international studies highlighting that human capital and investment capacity are the two most significant determinants of digital readiness [5]. Moreover, the qualitative data revealed cultural and organizational resistance to innovation, especially among older managers accustomed to traditional business models. This resistance often prevents enterprises from realizing the full potential of digital tools, even when technological infrastructure is available. The gap between awareness and execution remains a critical challenge in regional markets [6].

Strategic Implications for the Catering Sector: the results underscore the importance of viewing digitalization not as a one-time modernization project but as an ongoing strategic process. Restaurants that have implemented systematic approaches - such as continuous data monitoring, customer feedback analysis, and regular online campaigns - achieved more stable growth and stronger brand positioning.

For Samarkand’s catering enterprises, several strategic directions emerge:

- Investment in digital training for staff to build marketing and analytical skills;
- Collaboration with digital agencies or universities to develop data-driven marketing programs;
- Integration of CRM systems for personalized customer experience and loyalty management;

- Expansion of delivery and online payment systems, which have proven to enhance customer convenience and retention.

Broader Implications and Future Outlook: the results suggest that the digital transformation of the restaurant business in emerging economies like Uzbekistan has both economic and social significance. On one hand, it stimulates entrepreneurship, innovation, and employment; on the other, it supports the development of digital literacy and modern business culture.

As digital ecosystems in Uzbekistan continue to evolve, the future success of restaurants will increasingly depend on their ability to use data intelligently — not just for advertising, but for strategic decision-making, product innovation, and customer relationship management.

## **CONCLUSION**

This study has demonstrated that digital transformation is a key determinant of competitiveness and sustainability in the restaurant business of Samarkand. The analysis of 50 catering enterprises revealed that the majority are actively implementing digital tools such as social media marketing, online ordering systems, and delivery platforms to enhance customer engagement and operational efficiency. The correlation between digital adoption and sales growth confirms that technology integration directly contributes to business performance and long-term customer loyalty.

However, the research also exposed several challenges that hinder full digital maturity. A lack of qualified personnel, insufficient financial resources, and organizational resistance to innovation remain significant obstacles for many small and medium-sized enterprises. Overcoming these barriers requires systematic efforts from both business owners and policymakers — including investments in employee training, access to affordable digital infrastructure, and partnerships with marketing professionals or academic institutions.

The findings suggest that successful digital transformation in the restaurant industry depends not only on technological innovation but also on a strategic shift in business thinking. Enterprises must focus on building data-driven decision-making systems, continuous customer feedback analysis, and personalized marketing approaches to remain competitive in the digital age [7].

Future research could expand the scope of this study by comparing Samarkand’s experience with other regions of Uzbekistan or Central Asia to identify broader patterns of digital development in the hospitality sector.

### RESEARCH LITERATURE:

1. Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). *Marketing management* (15th ed.). Pearson Education.
2. Chaffey, D., & Ellis-Chadwick, F. (2019). *Digital marketing* (7th ed.). Pearson.
3. Nazarov, R. T., & Aliyeva, Zh. K. (2024). Integration of digital tools into the marketing strategies of catering enterprises. In *Proceedings of the conference "Digital Technologies in Business Management"* (pp. 101–108). Tashkent: TGU.
4. Strauss, J., & Frost, R. (2014). *E-marketing* (7th ed.). Pearson.
5. Laudon, K. C., & Traver, C. G. (2021). *E-commerce 2021: Business, technology, society* (16th ed.). Pearson.
6. Kaplan, A. M., & Haenlein, M. (2010). Users of the world, unite! The challenges and opportunities of social media. *Business Horizons*, 53(1), 59–68. <https://doi.org/10.1016/j.bushor.2009.09.003>
7. Li, H., & Fang, Y. (2020). Digital transformation and marketing strategies in hospitality. *Journal of Hospitality and Tourism Management*, 45, 321–330. <https://doi.org/10.1016/j.jhtm.2020.09.004>
8. Buhalis, D., & Sinarta, Y. (2019). Real-time co-creation and customer engagement in tourism and hospitality. *Journal of Travel & Tourism Marketing*, 36(5), 563–582. <https://doi.org/10.1080/10548408.2019.1572116>
9. Hair, J. F., Black, W. C., Babin, B. J., & Anderson, R. E. (2019). *Multivariate data analysis* (8th ed.). Cengage Learning.
10. Creswell, J. W. (2018). *Research design: Qualitative, quantitative, and mixed methods approaches* (5th ed.). SAGE Publications.

**V SHO‘BA. XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI YASHIL VA INNOVASION IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ORQALI HUDUDLARDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISH VA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHDA INVESTISIYALARNI JALB QILISH VA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.**

*Исроилов Боҳодир Ибрагимович – ТДИУ профессори, и.ф.д.*

*Муҳаммадиев Рамз Зоиржон ўғли – ТДИУ мустақил изланувчиси*

**ТИББИЙ ХИЗМАТЛАР КўРСАТИШНИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-МОЛИЯВИЙ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ**

**Аннотация:** Мақолада тиббий хизматлар кўрсатиши ва уни молиялаштириши механизмлари ҳамда самарадорлигини баҳолашнинг миллий ва хорижий амалиёти таҳлил қилинган. Маълумки, аҳоли саломатлигини таъминлаш ва тиклаш иқтисодий ўсишни таъминловчи омил ҳисобланади. Шу сабабли мамлакатимизда мустақилликнинг дастлабки кунларидан амалга оширилиб келинаётган ислоҳотлар натижасида давлат ва хусусий тиббиёт тизимини ташкил этиши ҳамда улар фаолиятини молиялаштиришнинг ҳуқуқий- ташкилий механизмлари шаклланди. Оқибатда инсон капиталини ривожланишининг таркибий қисми ҳисобланган сифатли тиббий хизмат кўрсатиши тизимига асос солинди.

Лекин тиббий хизматлар кўрсатишини молиялаштириши ва унинг натижасини баҳолаш тизими ҳамон дунё амалиётидан ортда қолмоқда. Мақолада тиббиёт муассасаларини молиялаштириши ва уни баҳолаш муаммолари ҳамда уни такомиллаштириши масалалари баён этилган.

**Калит сўзлар:** тиббий хизматлар, молиялаштириши механизмлари, самарадорлик, тиббиёт муассасалари

**Аннотация:** В статье анализируется отечественная и зарубежная практика предоставления медицинских услуг, механизмов финансирования и оценки их эффективности. Известно, что обеспечение и восстановление здоровья населения является фактором, гарантирующим экономический рост. Поэтому в результате реформ, проведенных в нашей стране с первых дней независимости, сформировались правовые и организационные механизмы организации государственной и частной системы здравоохранения и финансирования их деятельности. В результате была создана качественная система медицинского обслуживания, которая рассматривается как составляющая развития человеческого капитала.

Однако система финансирования предоставления медицинских услуг и оценки ее результатов все еще отстает от мировой практики. В статье описываются проблемы финансирования и оценки медицинских учреждений, а также вопросы ее совершенствования.

**Ключевые слова:** медицинские услуги, механизмы финансирования, эффективность, медицинские учреждения

**Abstract:** The article analyzes the national and foreign practices of medical services provision and financing mechanisms and evaluation of their effectiveness. It is known that ensuring and restoring the health of the population is a factor that ensures economic growth. Therefore, as a result of the reforms that have been implemented in our country since the first days of independence, the legal and organizational mechanisms for the organization of the state and private medical system and the financing of their activities were formed. As a result, a quality medical service system, which is considered a component of human capital development, was founded.

However, the system of financing the provision of medical services and evaluating its results still lags behind world practices. The article describes the problems of financing and evaluation of medical institutions, as well as issues of its improvement.

**Key words:** medical services, financing mechanisms, efficiency, medical institutions

Мустақиллик йилларда мамлакатимизда соғлиқни сақлашни бошқаришнинг ягона тизимини яратиш, тиббиёт соҳасида хусусий секторини иштирокини ривожлантириш, аҳолига тиббий хизмат кўрсатиш маданияти ҳамда сифатини ошириш учун қулай шарт-шароитларни таъминлаш мақсадида босқичма-босқич кенг қўламли ислохотлар амалга оширилди. Натижада мамлакатда давлат соғлиқни сақлаш тизимига параллель равишда хусусий тиббиёт тизими ҳам шаклланди. Давлат ва хусусий тиббиёт тизимини ташкил этиш ҳамда улар фаолиятини ташкил этишнинг ҳуқуқий ва ташкилий механизмлари шаклланди.

Аҳоли саломатлигини таъминлаш ва тиклаш иқтисодий ўсишни таъминловчи омил эканлиги ривожланган мамлакатлар тажрибасидан маълум ҳисобланади. Жаҳон банкининг маълумотларига кўра 2020 йилда дунё бойлигининг 60 фоизи инсон капитали ҳиссасига тўғри келган.<sup>64</sup> Шунингдек, «Халқлар бойлигининг ўзгариши 2018» ҳисоботида инсон капитали «таракқиёт драйвери»<sup>65</sup> деб эътироф этилади.

Лекин амалга оширилган ислохотларга қарамасдан аҳоли соғлиғини сақлаш тизими самарадорлиги ривожланган давлатлар даражасидан ҳамон паст бўлиб қолмоқда. Амалга оширилаётган ислохотларнинг тизимлилигига эътибор қаратилмаслиги сабабли тиббиёт тизими тадрижий ривожланиш даражасига эришаолмаяпти. Натижада инсонлар соғлиғини сақлаш ва тиббий малакали хизмат олиши ҳуқуқи тўлиқ таъминланмасдан қолмоқда.

Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти (ЖССТ)нинг Низомида «Соғлиқни сақлаш – бу нафақат касалликлар ва жисмоний нуқсонларнинг

---

<sup>64</sup> <https://www.worldbank.org/en/publication/the-changing-wealth-of-nations>

<sup>65</sup> Lange, Glenn-Marie, Quentin Wodon, and Kevin Carey, eds. The Changing Wealth of Nations 2018: Building a Sustainable Future. Washington, DC: World Bank. doi:10.1596/978-1-4648-1046.

йўқлиги, балки жисмоний, ақлий ва ижтимоий фаровонликнинг ҳолати. Соғлиқни сақлашнинг энг юқори даражасидан фойдаланиш ҳар бир инсоннинг ирки, дини, сиёсий қарашлари, иқтисодий ёки ижтимоий мавқеидан қатъий назар, асосий ҳуқуқларидан биридир. Барча халқларнинг саломатлиги тинчлик ва хавфсизликка эришишнинг асосий омили бўлиб, алоҳида шахслар ва давлатларнинг тўлиқ ҳамкорлигига боғлиқ»<sup>66</sup> эканлиги белгилаб қўйилган.

Олимлар ўз тадқиқотларида инсонларнинг соғлиғини сақлаш ва малакали тиббий хизматдан фойдаланиш ҳуқуқини турли жиҳатдан энг муҳим ижтимоий ҳуқуқ сифатида баҳолайди. Жумладан, В.П.Бушуева фуқаронинг соғлиғини бугунги кунда тинчлик ва хавфсизликни таъминлашнинг асосий воситаси сифатида баҳолайди<sup>67</sup>, Б.Тоебес эса фуқаронинг соғлиғига давлатнинг инсонлар олдидаги мажбурияти сифатида<sup>68</sup> қарашни тавсия этган. Н.Каменская фикрича эса фуқаронинг соғлиғи инсонлап хавфсизлигини таъминлашнинг асосий воситаларидан бири ҳисобланади<sup>69</sup>. Ю.Т.Холодова инсонларнинг соғлиғини сақлаш ва малакали тиббий хизматдан фойдаланиш ҳуқуқини давлат хавфсизлигининг асоси сифатида баҳолашни таклиф этган<sup>70</sup>. Н.Матузов инсонларнинг соғлиғини сақлаш ва малакали тиббий хизматдан фойдаланиш ҳуқуқини ижтимоий қадрият сифатида баҳолаш зарурлигини таъкидлайди<sup>71</sup>. Юқорида қайд этилган олимлардан фарқли равишда О.Колоткина инсонларнинг соғлиғини сақлаш ва малакали тиббий хизматдан фойдаланиш ҳуқуқини бахт<sup>72</sup> сифатида баҳолаган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги «Ўзбекистон - 2030» стратегияси тўғрисида»ги ПФ-158-сон Фармони билан аҳоли саломатлигини таъминлаш соҳасида белгиланган вазифаларни, шунингдек, аҳолини профилактика қилиш, ташхислаш, даволаш ва реабилитация қилиш тизимини тубдан такомиллаштиришга, уларнинг ҳаёт сифатини яхшилашга, касалликларни эрта аниқлаш, комплекс терапия қилиш ва халқаро стандартларга мувофиқ узок муддатли кузатув олиб бориш имконини берадиган қулай, юқори технологик ва инновацион тиббий инфратузилмани яратишга, тиббиёт муассасаларининг моддий-техника

---

<sup>66</sup> Устав ВОЗ. Основные документы. – 2005.

<sup>67</sup> Бушуева В. П. Конституционное право граждан на охрану здоровья и медицинскую помощь в Российской Федерации на современном этапе //Автопед. дисс.... канд. юрид. наук. – 2006.

<sup>68</sup> Тоебес Б. The right to health as a human right in international law //Рефугеэ Сурвей Квартерли. – 2001. – Т. 20. – №. 3.

<sup>69</sup> Каменская Н. А. Конституционное право на охрану здоровья и медицинскую помощь: современные гарантии обеспечения, принципы реализации и механизмы защиты : дис. – 2011. – С. 4.

<sup>70</sup> Холодова Т. Ю. Конституционно-правовое обеспечение прав граждан на охрану здоровья и медицинскую помощь в Российской Федерации: Автопед. дис.. канд. юрид. наук. М., 2007. – С. 26.

<sup>71</sup> Матузов Н.И. Актуальные проблемы теории права. – Сапатов: Сапат. гос. академия права, 2003. – С. 439

<sup>72</sup> Колоткина О.А. Право личности на безопасность: Понятие и механизмы обеспечения в РФ: Теопетикоправовое исследование: дисс. канд. юрид. наук. – Сапатов, 2009. – С. 19

базасини мустаҳкамлашга йўналтирилган глобал ва миллий стратегик ташаббуслар илгари сурилган<sup>73</sup>.

Ўзбекистон-2030 стратегиясида келтирилган мақсадларида: аҳолининг ўртача умр давомийлигини ошириш, тиббиётга йўналтириладиган маблағлар ҳажмини 2 баробарга ошириш; аҳолига бирламчи тиббий хизматларни янада яқинлаштириш; диабет ва юрак-қон томир касаллиги бор беморларни даволаш билан тўлиқ қамраб олиш; тиббий ёрдамга муҳтож аҳолининг мурожаатларини бирламчи бўғиннинг ўзида ҳал этишга эришиш; болалар ўртасидаги ирсий касалликларнинг олдини олиш ва даволаш, скрининг текширувлар қамровини камида 50 фоизга ошириш; оналар ва болалар ўлимини қисқартириш, туғуруқ ўринлари ошириш ҳамда соғлом болаликни таъминлаш муҳим вазифалар белгилаб олинган.

Ушбу устувор вазифалар ижросини таъминлаш, тиббий хизматларни ривожлантириш учун замонавий шарт-шароитлар ва сифатли тиббий ёрдам олиш учун беморларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш борасида қонунчилик базасини доимий равишда такомиллаштириш, тиббиёт муассасаларини молиялаштириш ва бошқариш тизимини илғор усулларини амалиётга жорий этиш билан бирга, соғлиқни сақлаш тизимини бошқаришнинг инновацион моделларини қўллаш ва соҳага инвестицияларни жалб этишда халқаро ҳамкорликни йўлга қўйишни ҳам талаб қилмоқда.

Тиббий муассасалар фаолияти самарадорлиги уни ташкил этишнинг молиявий механизмлари ва назоратига боғлиқдир. Тиббиёт тизимини молиялаштириш механизмлари самарадорлигига баҳо бериш соҳани бошқариш тизимини ўрганиш ва фаолият натижаларини иқтисодий кўрсаткичлар асосида амалга оширилган илмий хулосалар қилишни ҳам тақозо этади. Соғлиқни сақлаш муассасаларининг фаолиятини иқтисодий таҳлил қилиш муҳим аҳамият ва ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб, у тижорат ташкилотлари фаолиятини таҳлил қилиш ва бошқа иқтисодий фаолият хўжалик субъектларини таҳлил қилишдан фарқ қилади. Чунки тиббиёт тизимидаги давлат муассасалари мақомининг ўзига хос хусусиятлари, турли молиялаштириш манбаларидан маблағ олиш тизими, давлат муассасаларининг молиявий ҳолатининг ўзига хос хусусиятлар билан белгиланади.

Шунинг учун соғлиқни сақлаш муассасасининг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда бошқарувни ташкил этиш ва улар фаолиятини таҳлил қилиш методологиясини қўллаш манфаатдор фойдаланувчилар (рахбарлар, менеджерлар, ҳамкорлар, суғурта фондлари, юқори ташкилотлар)га самарали бошқарув қарорлар қабул қилиш, мавжуд ресурслардан тежамли фойдаланишга имкон беради ҳамда корхонанинг молиявий ҳолатини яхшилашга қаратилган чора-тадбирларни ишлаб чиқиш учун хизмат қилади.

---

<sup>73</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги «Ўзбекистон - 2030» стратегияси тўғрисида»ги ПФ-158-сон Фармони. Lex.uz.

Сўнгги йилларда соғлиқни сақлаш тизимига йўналтирилаётган харажатларнинг ялпи ички маҳсулотдаги (ЯИМ (GDP) улуши иқтисодий ва ижтимоий ривожланишнинг муҳим кўрсаткичларидан бирига айланди. Халқаро ва миллий тадқиқотлар ушбу харажатлар аҳоли саломатлиги, меҳнат унумдорлиги ва барқарор иқтисодий ўсиш билан узвий боғлиқ эканини кўрсатмоқда. Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилоти (OECD), Жаҳон банки (WBG), Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти (WHO) тадқиқотлари натижалари мавзунинг долзарблиги ва аҳамияти муҳимлигидан далолат беради<sup>74</sup>.

“Саломатликка оид” ҳисоботларида соҳага йўналтирилган харажатлар ҳаёт давомийлиги, оналар ва болалар ўлими, аҳолининг умумий фаровонлиги билан чамбарчаси боғлиқ экани исботланган ҳамда соғлиқни сақлаш харажатлари ЯИМ ўртача 8-10 фоизини ташкил этиши қайд этилган. Тизимга йўналтирилган харажатлари ЯИМ юқори бўлган давлатларда (АҚШ, Швейцария, Исроил, Германия) умумий саломатлик кўрсаткичлари яхшироқ натижа бергани кўриш мумкин. Таҳлилларда соғлиқни сақлаш харажатларида “value for money” тамойилининг етарлича қўлланилмаётгани камчилик сифатида қайд этилиб, иқтисодий самарадорликка асосланган молиялаштириш зарурлиги асослаб берилган. Тадқиқотлар натижасида **“...соғлиқни сақлаш харажатларининг миқдори эмас, балки самарали тақсимланиши ва бошқарилиши ҳал қилувчи аҳамиятга эга”** деган хулосага келинган (OECD, 2021).

---

<sup>74</sup> Lucinda Glover, with contributions from Michael Woods London School of Economics 2020 International Profiles of Health Care Systems [https://ca.pnhp.org/wp-content/uploads/2022/05/International\\_Profiles\\_of\\_Health\\_Care\\_Systems\\_Dec2020.pdf](https://ca.pnhp.org/wp-content/uploads/2022/05/International_Profiles_of_Health_Care_Systems_Dec2020.pdf), International profiles of health care systems 2014: Australia, Canada, Denmark, England, France, Germany, Iceland, Italy, Japan, the Netherlands, New Zealand, Norway, Sweden, Switzerland, and the United States, <https://researchportalplus.anu.edu.au/en/publications/international-profiles-of-health-care-systems-2014-australia-cana>, P.O.Asuming, H.B.Kim, A.Sim “Selection and Behavioral Responses of Health Insurance Subsidies in the Long Run: Evidence from a Field Experiment in Ghana”. <https://doi.org/10.48550/2105.00617>. Cornell universiteti, Healthcare Financing in Saudi Arabia: A Comprehensive Review by K.S.Nair, Y.H.Mughal, F.Albejaidi and Ali H.Alharbi Department of Health Informatics, College of Applied Medical Sciences, Qassim University, P.O. Box 6666, Buraidah 41542, Saudi Arabia Healthcare 2024, <https://doi.org/10.3390/healthcare12242544>, Prediction of healthcare costs on consumer direct health plan in the Brazilian context C.M.Peixoto, D.Marcondes, M.P.Melo, A.C.Maia, L.A.Correia General Economics (econ.GN) <https://doi.org/10.48550/2405.15781>, R.A.Manaf, A systematic review on healthcare financing in Singapore <https://www.researchgate.net/publication/297357839>, The International Technology Management Review Financing Universal Health Coverage: A Systematic Review University of Dhaka Md. Jahir Uddin Palas, M.Ashraf, P.K.Ray <https://www.atlantispress.com/journals/itmr/25880331>, UNICEF., Progress for children: achieving the MDGs with equity: UNICEF, 2010, WHO, World Health Statistics, 2015, WHO, The World Health Report-Health Systems Financing: The Path to Universal Coverage, Geneva, Switzerland, 2010., <https://www.uzanalytics.com/jamiyat/8481>., Kak finansirovat novuyu sistemu zdravooxraneniya. Noyabr 23, 2020 Central Asian Analytical Network., Основные тенденции применения государственно-частного партнерства <https://lomonosov-msu.ru/file/event/8853/eid8853.pdf>., Г.Э.Улумбекова, А.Б.Гиноян «Финансирование здравоохранения для увеличения ожидаемой продолжительности жизни в России до 78 лет к 2030 году» Высшая школа организации и управления здравоохранением; РНИМУ им.Н.И.Пирогова. Москва, Россия. <https://www.jour.fnisc.ru/index.php/population/article/view/8870>., Бачина Т.В. «Совершенствование управления финансами бюджетных учреждений здравоохранения (на примере Рязанской области)» Россия, Рязанский государственный радиотехнический университет. <https://eee-region.ru/article/5404>. Дмитриева О.Г. Финансирование здравоохранения.2023. <https://congress.orgzdrav.com/storage/1404>.

Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти ташаббуси ва таклифларини қўллаш орқали яширин тўловлар (out-of-pocket payments) камайтирилиши натижасида Таиландда «30 бат дастури» орқали барча аҳоли қатламларига арзон соғлиқни сақлаш тақдим этилиб, Коста-Рикада 95 фоиз, Руанда аҳолисининг 90 фоизи миллий суғурта жамғармаси билан қамраб олинган. Давлат ва хусусий суғурта компанияларининг интеграциялашуви натижасида барқарор молиялаштириш тизими яратилиб, Германияда 90 фоиз, Францияда 77 фоиз аҳоли тиббий хизмат харажатларини давлат томонидан қолган қисмини хусусий суғурта компанияларидан молиялаштирилишига эришилган. Давлат-хусусий шериклигининг илғор усулларини қўллаш, хусусий ҳамда давлат капитали ва инновациялардан самарали фойдаланиш натижасида Буюк Британияда (PiF-model), Ҳиндистонда (Ayushman Bharat) ва Бразилияда (SUS. Unifiyed Health System) дастурлари орқали аҳолига кенг қамровли давлат-хусусий ҳамкорлигидаги тиббий хизматлар таклиф этилган.

Хорижий ва маҳаллий олимлар ҳамда амалиётчиларнинг кўплаб тадқиқотлари корхона ва ташкилотлар фаолиятининг самарадорлигини таҳлил қилишга бағишланган. Лекин тиббиёт муасасасалари фаолияти самарадорлиги, уни баҳоловчи кўрсаткичлар ва уларни таҳлил қилиш масалалари етарлича ўрганилмаган. Бу йўналишда хорижий олимлар томонидан олиб борилган тадқиқотлар мавжуд. Хусусан, Adam Wagstaff жаҳон банки маълумотлари асосида олиб борган тадқиқотларида аҳоли томонидан тўғридан-тўғри тўловлар (out-of-pocket payments) юқори бўлган мамлакатларда **камбағаллик даражаси ошиб бориши** исботланган. Шу муносабат билан, олим суғурта ва давлат кафолатланган хизматлар пакетини кенгайтиришни таклиф этади (Wagstaff, 2018). Joseph Kutzin тадқиқотларида молиялаштириш тизимини соғлиқни сақлаш тизимининг “ядроси” деб баҳолаб, унинг нотўғри ташкил этилиши бутун тизим самарадорлигини издан чиқаришини таъкидлайди. Соҳани молиялаштиришни аҳолини молиявий ҳимоя қилиш, ресурсларни самарали тақсимлаш ва хизмат сифати билан узвий боғлиқ тизим сифатида талқин этади. Олимнинг таъкидлашича, **“... молиялаштириш сиёсати нотўғри шакллантирилганда, тиббиёт хизматлари сифати пасайиши ва ижтимоий тенгсизлик кучайиши мумкин”** деб ҳисоблайди. Бироқ олимнинг ишларида молиялаштириш функцияларини (ресурс йиғиш, пулларни бирлаштириш, стратегик харид) аниқ ажратиб берган бўлса-да, амалий моделлар мамлакатлар кесимида кам деталлаштирилган (Kutzin, 2008). David Evans, Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти маълумотлари асосида олиб борган тадқиқотларида анъанавий харажатларга асосланган бюджетлаштириш “input-based budgeting” тизими асосий камчилик сифатида кўрсатилиб, бундай усул муассасаларни натижага эмас, харажатларни ўзлаштиришга йўналтириши аниқланган. Унинг ҳисоб-китобларига кўра, **соғлиқни сақлаш харажатларининг 20–40 фоизи самарасиз сарфланади** (Evans et al., 2010).

Маҳаллий олимларимиз Т.Маликов, Н.Хайдаров, О.Олимжонов, М.Абидовлар ишлари асосан молиялаштириш масалаларига бағишланган. Олимлар ишларида тиббиёт муасасалари фаолияти самарадорлигини аниқлаш ва баҳолаш масалаларига кам эътибор қаратилган<sup>75</sup>.

Мавзу бўйича амалга оширилган тадқиқотлар натижасида:

- соғлиқни сақлаш тизимининг ўзига хос хусусиятларини инобатга олган ҳолда фаолиятни молиялаштиришни такомиллаштириш;
- тиббий хизмат таркиби ва қийматини аниқлаш механизмлари ишлаб чиқиш;
- тиббий хизматлар ва ажратилган маблағлар самарадорлигини баҳоловчи кўрсаткичлар тизимини ишлаб чиқиш;
- тиббий хизматлар ва ажратилган маблағлар самарадорлигини таҳлил қилиш услубиётини такомиллаштириш мақсадга мувофиқлиги тақлиф этилди.

#### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Lange, Glenn-Marie, Quentin Wodon, and Kevin Carey, eds. The Changing Wealth of Nations 2018: Building a Sustainable Future. Washington, DC: World Bank. doi:10.1596/978-1-4648-1046.
2. Устав ВОЗ. Основные документы. – 2005.
3. Бушуева В. П. Конституционное право граждан на охрану здоровья и медицинскую помощь в Российской Федерации на современном этапе //Автопед. дисс.... канд. юрид. наук. – 2006.
4. Тоэбес Б. Тхе ригхт то хеалтх ас а хуман ригхт ин интернационал лау //Рефугеэ Сурвей Куартерлей. – 2001. – Т. 20. – №. 3.
5. Каменская Н. А. Конституционное право на охрану здоровья и медицинскую помощь: современные гарантии обеспечения, принципы реализации и механизмы защиты : дис. – 2011. – С. 4.
6. Холодова Т. Ю. Конституционно-правовое обеспечение прав граждан на охрану здоровья и медицинскую помощь в Российской Федерации: Автопед. дис.. канд. юрид. наук. М., 2007. – С. 26.
7. Матузов Н.И. Актуальные проблемы теории права. – Сапатов: Сапат. гос. академия права, 2003. – С. 439
8. Колоткина О.А. Право личности на безопасность: Понятие и механизмы обеспечения в РФ: Теоретико-правовое исследование: дисс. канд. юрид. наук. – Сапатов, 2009. – С. 19
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги «Ўзбекистон - 2030» стратегияси тўғрисида»ги ПФ-158-сон Фармони. Lex.uz.

---

<sup>75</sup> <sup>75</sup>Маликов Т., Олимжонов О. Молия (дарслик) / Тошкент. Иқтисод-молия. – Тошкент. 2019й., Абидов М.И. Иқтисодиётнинг ривожланишида давлат молиявий назоратининг ўрни ва аҳамияти. “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журналы. №3, 2017й. июнь.

10. Lucinda Glover, with contributions from Michael Woods London School of Economics 2020 International Profiles of Health Care Systems [https://ca.pnhp.org/wp-content/uploads/2022/05/International Profiles of Health Care Systems Dec2020.pdf](https://ca.pnhp.org/wp-content/uploads/2022/05/International_Profiles_of_Health_Care_Systems_Dec2020.pdf), International profiles of health care systems 2014: Australia, Canada, Denmark, England, France, Germany, Iceland, Italy, Japan, the Netherlands, New Zealand, Norway, Sweden, Switzerland, and the United States, <https://researchportalplus.anu.edu.au/en/publications/international-profiles-of-health-care-systems-2014-australia-cana>, P.O.Asuming, H.B.Kim, A.Sim “Selection and Behavioral Responses of Health Insurance Subsidies in the Long Run: Evidence from a Field Experiment in Ghana”. <https://doi.org/10.48550/2105.00617>. Cornell universiteti, Healthcare Financing in Saudi Arabia: A Comprehensive Review by K.S.Nair, Y.H.Mughal, F.Albejaidi and Ali H.Alharbi Department of Health Informatics, College of Applied Medical Sciences, Qassim University, P.O. Box 6666, Buraidah 41542, Saudi Arabia Healthcare 2024.

*Ermetova Iqbol Tajiboyevna - Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi*

## **XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish sohasiga investitsiyalarni jalb qilishning Xitoy, Janubiy Koreya, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Germaniya va Braziliya kabi xorijiy mamlakatlar tajribasi o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** investitsiya, mintaqa, mintaqa iqtisodiyoti, xizmat, xizmatlar sohasi, xorijiy tajriba.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается опыт таких зарубежных стран, как Китай, Южная Корея, США, Германия и Бразилия, в привлечении инвестиций в сектор услуг.

**Ключевые слова:** инвестиции, регион, региональная экономика, услуги, сектор услуг, зарубежный опыт.

**Annotation:** This article examines the experience of foreign countries such as China, South Korea, the United States, Germany, and Brazil in attracting investment in the service sector.

**Keywords:** investment, region, regional economy, service, service sector, foreign experience.

Hozirgi iqtisodiy sharoitda investitsiyalar hajmining izchil va barqaror sur‘atlarda o‘shini ta‘minlash hamda mavjud investitsiya resurslaridan yuqori samaradorlik bilan foydalanish masalasi iqtisodiy siyosatning eng muhim strategik va taktik yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur vazifaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi investitsiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilovchi investitsiya sohasidagi ko‘plab tarkibiy elementlarning murakkab va ko‘p qirrali o‘zaro aloqadorligini tizimli ravishda chuqur tahlil qilishni taqozo etadi.

Xizmat ko‘rsatish sohasi zamonaviy iqtisodiy tizimda muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan yetakchi tarkibiy bo‘g‘inlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur sohaning izchil rivojlanishi mamlakatda iqtisodiy o‘sish sur‘atlarining jadallashuvi hamda aholi bandligi darajasining oshishiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, xizmat ko‘rsatish tarmoqlariga investitsiya resurslarini jalb etish iqtisodiy siyosatning ustuvor strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Biroq investitsiyalarni jalb qilish jarayoni turli xil iqtisodiy, moliyaviy va institutsional risklarning yuzaga kelishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularni chuqur tahlil qilish va samarali boshqarish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Mazkur tadqiqotda xizmat ko‘rsatish sohalarida investitsiya jarayonida uchraydigan asosiy risk turlari hamda ularni minimallashtirish va boshqarish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi atroflicha o‘rganiladi.

Shu bilan birga, investitsion muhitni tubdan yaxshilash, davlatning iqtisodiyotdagi bevosita ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish, xususiy mulk daxlsizligini mustahkamlash hamda uning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror va uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlovchi muhim omillar sifatida e’tirof etiladi.

Hozirgi globallashuv sharoitida puxta asoslangan va samarali amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatini shakllantirgan davlatlar jahon iqtisodiy tizimida raqobatbardoshlik va barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan yetakchi mavqeni egallab kelmoqda. Xizmatlar sohasida investitsion faoliyatni tashkil etish va uni samarali boshqarish borasida Xitoy Xalq Respublikasi, Janubiy Koreya, Amerika Qo‘shma Shtatlari hamda Germaniya Federativ Respublikasining ilg‘or tajribasi eng maqbul va samarali modellar qatoriga kiradi. Mazkur davlatlar tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy rivojlanish strategiyalari va investitsiya siyosati mexanizmlari milliy iqtisodiyotimiz sharoitida qo‘llash mumkin bo‘lgan, yuqori natija beruvchi ilg‘or tajriba sifatida xizmat qilishi mumkin.

**Tahlil va natijalar.** Mazkur tadqiqot jarayonida tahliliy hamda taqqoslama usullardan keng foydalanildi. Xorijiy mamlakatlarda xizmat ko‘rsatish sohasiga investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha shakllangan amaliyotlar atroflicha o‘rganilib, ushbu jarayonda yuzaga keluvchi risklarni boshqarish bo‘yicha qo‘llanilayotgan strategiyalar tizimli ravishda tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqotning axborot bazasini shakllantirishda ochiq manbalarda e‘lon qilingan statistik ma’lumotlar, ilmiy tadqiqotlar hamda xalqaro tashkilotlarning rasmiy hisobotlaridan keng foydalanildi.

Xorijiy davlatlar tomonidan xizmatlar sohasiga investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha amalda qo‘llanilayotgan tajribalar, jumladan yevropa mamlakatlari, shuningdek AQSh, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqa davlatlarning ushbu yo‘nalishdagi faoliyati batafsil tahlil qilinishi lozim. Ayniqsa, investitsiyalarni jalb etishda qo‘llanilayotgan rag‘batlantiruvchi mexanizmlar va usullarga, shuningdek ularni Xorazm viloyati sharoitida joriy etish imkoniyatlariga alohida e’tibor qaratish zarur.

**1-jadval**

**Yalpi salohiyat hamda integral risk ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi nisbat asosida mamlakatning har bir hududiga xos bo‘lgan reyting toifalarini shakllantirish va tasniflash<sup>76</sup>.**

<b>Guruh</b>	<b>Kategoriya</b>
<b>A1-guruh</b>	minimal riskka ega-yuqori salohiyatga ega
<b>B1-guruh</b>	mo‘tadil darajadagi riskka ega-yuqori salohiyatga ega
<b>C1-guruh</b>	yuqori darajali riskka ega-yuqori salohiyatga ega
<b>A2-guruh</b>	minimal riskka ega-o‘rtacha salohiyatga ega
<b>B2-guruh</b>	mo‘tadil darajadagi riskka ega-o‘rtacha salohiyatga ega
<b>C2-guruh</b>	yuqori darajali riskka ega-o‘rtacha salohiyatga ega
<b>1A3-guruh</b>	minimal riskka ega-sust darajadagi salohiyatga ega
<b>2A3-guruh</b>	minimal riskka ega-ahamiyatga molik bo‘lmagan salohiyatga ega
<b>1B3-guruh</b>	mo‘tadil darajadagi riskka ega-sust darajadagi salohiyatga ega
<b>1C3-guruh</b>	yuqori darajali riskka ega-sust darajadagi salohiyatga ega
<b>2B3-guruh</b>	mo‘tadil darajadagi riskka ega-ahamiyatga molik bo‘lmagan salohiyatga ega
<b>2C3-guruh</b>	yuqori darajali riskka ega-ahamiyatga molik bo‘lmagan salohiyatga ega
<b>D3-guruh</b>	ekstremal darajadagi riskka ega-past darajadagi salohiyatga ega

O‘tgan asrning oxiridan boshlab Xitoyda jadal iqtisodiy rivojlanish kuzatilmoqda va qisqa vaqt ichida u ilmiy-texnologik taraqqiyotning yetakchi markazlaridan biriga aylandi. Xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi yetakchi xorijiy kompaniya va korporatsiyalarning aksariyati aynan ushbu mamlakatda joylashgan bo‘lib, bu holat Xitoyni investorlar uchun eng jozibador davlatlardan biriga aylantirmoqda. Mazkur holat bir qator omillar bilan izohlanadi. Xususan, J. Berger ushbu jarayonni belgilovchi quyidagi omillarni keltirib o‘tadi [1].

- Siyosiy barqarorlik va siyosiy yo‘nalishning prognoz qilinuvchanligi.
- Aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasining oshirilishi.
- Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish.
- Xorijiy investitsiyalarni tartibga solish tizimini isloh qilish.

Xitoyda maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish hamda ularning ishtirokchilari uchun muayyan imtiyozlar belgilash borasidagi tajriba alohida e‘tiborga loyiqdir. Xususan:

1. Barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun 15 foizlik yagona soliq stavkasining joriy etilishi.

2. “2+3” tizimi asosida soliq ta‘tilini taqdim etish imkoniyati (dastlabki 2 yil davomida investitsiya faoliyati subyekti soliqlarni to‘lashdan ozod etiladi, keyingi 3 yil mobaynida esa soliq stavkasi 12,5 foizgacha pasaytiriladi).

<sup>76</sup> Manba: tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

3.Strategik ahamiyatga ega tarmoqlar va faoliyat yo‘nalishlari (masalan, yashil energetika, atrof-muhitni muhofaza qilish) uchun “3+3” tizimi asosida soliq ta‘tilining berilishi.

4.Mikrosxemalar (mikrochiplar) ishlab chiqarish sohasida faoliyat yurituvchi investorlar uchun “5+5” tizimi asosida soliq ta‘tilining taqdim etilishi.

5.Yuqori texnologiyalar sohasida faoliyat olib boruvchi subyektlar uchun ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari xarajatlarining 50 foizini soliq bazasidan chegirib tashlash imkoniyatining mavjudligi [2].

Yuqori texnologiyali kompaniyalar uchun qulay rag‘batlantiruvchi sharoitlarni yaratish orqali Xitoy Osiyoning eng yirik “Ajdarhosi”ga aylanib, jahon miqyosida ilmiy-texnologik taraqqiyot markazlaridan biri sifatida shakllandi, shuningdek yuqori malakali texnik mutaxassislarning mamlakatga oqimi ta‘minlandi [2]. Xitoy o‘z investitsiya siyosatida transmilliy korporatsiyalarning faoliyatini rag‘batlantirishga alohida e‘tibor qaratib, ular uchun keng ko‘lamli qulay va qo‘llab-quvvatlovchi sharoitlar yaratishga tayanadi. Natijada, Xitoyda yangi ish o‘rinlari yaratiladi, zamonaviy sanoat obyektlari barpo etiladi, davlat byudjetiga investitsiyalar oqimi ortadi hamda xorijiy kompaniyalarning muayyan darajada ushbu mamlakat iqtisodiyotiga bog‘liqligi shakllanadi.

Janubiy Koreyaning investitsiyalarni jalb etish amaliyotini tahlil qilar ekanmiz, mazkur mamlakat keng ko‘lamli rag‘batlantiruvchi mexanizmlardan foydalanishini ta‘kidlash lozim. Ular, asosan, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik loyihalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun grantlar ajratish, ishlab chiqarish binolari yoki yer uchastkalarini ijaraga olish bo‘yicha to‘lovlardan ozod etish, ustuvor yo‘nalishlarda (jumladan, yuqori texnologiyalar sohasida) soliq imtiyozlarini taqdim etish, shuningdek investitsiya loyihalarida ishtirok etuvchi mahalliy ishchi kuchini tayyorlash va malakasini oshirish xarajatlarini davlat tomonidan qoplab berishni o‘z ichiga oladi.

Xitoy tajribasiga o‘xshash tarzda, Janubiy Koreyada ham xorijiy investitsiya zonalarida joylashgan korxonalariga nisbatan maxsus investitsiya siyosati amalga oshiriladi. Mazkur zonalar o‘ziga xos imtiyozlarga ega bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

— xodimlarni yollash, tayyorlash va o‘qitish jarayonlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash;

—moliyaviy grantlar olish imkoniyati;

—“5+2” tizimi asosida soliq ta‘tilini qo‘lga kiritish imkoniyati, bunda korxonalar 5 yil davomida foyda (daromad) solig‘ini to‘lashdan ozod etiladi, keyingi 2 yil mobaynida esa soliq stavkasi 50 foizga kamaytiriladi.

Shuningdek, respublika hududida umumiy hajmi taxminan 500 ming AQSh dollariga teng investitsiyalar kiritilgan taqdirda Janubiy Koreya fuqaroligini olish imkoniyati mavjudligini ham alohida qayd etish lozim.

Yaponiya tajribasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, uning boshqa Osiyo mamlakatlaridan investitsiyalarni rag‘batlantirish borasidagi asosiy farqi subsidiyalar taqdim etishga ustuvor ahamiyat berilishida namoyon bo‘ladi.

Subsidiyalar, asosan, yuqori texnologiyalar sohasidagi ilmiy-texnik ishlanmalarni qo‘llab-quvvatlash hamda innovatsion markazlarni tashkil etishga yo‘naltiriladi. Shuningdek, Yaponiyada xorijiy kompaniyalarni mahalliy korxonalar bilan hamkorlik qilishga undovchi qiziqarli mexanizm amalda bo‘lib, buning evaziga xarajatlarning 2/3 qismigacha bo‘lgan miqdorda bir martalik, qat’iy belgilangan moliyaviy yordam yoki subsidiya taqdim etiladi.

Investitsiyalarni jalb etish borasida Jahon banki reytingiga ko‘ra to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish hajmi bo‘yicha yetakchi o‘rinni egallab kelayotgan Amerika Qo‘shma Shtatlarining tajribasini alohida ta’kidlash muhimdir [World ranking]. AQSh investitsiya siyosati o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, buning asosiy sababi har bir shtatning mustaqil rag‘batlantirish va kafolatlar tizimiga egaligidir. Ushbu imtiyozlar va shart-sharoitlar shtatlarning tabiiy-iqlim sharoiti, resurs salohiyati, hududiy joylashuvi, tarixiy rivojlanishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga qarab sezilarli darajada farqlanadi. AQShda xorijiy investitsiyalarni jalb etishda qo‘llaniladigan asosiy chora-tadbirlar va rag‘batlantiruvchi mexanizmlar quyidagilardan iborat:

— Soliq stavkalarini kamaytirish va bilvosita soliq imtiyozlarini taqdim etish imkoniyati;

— Ustuvor sohalarda ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun kreditlar olish imkoniyati;

— Xorijiy kichik va o‘rta korxonalariga bank krediti olishda (250–350 ming AQSh dollari miqdorigacha) yordam ko‘rsatish hamda zarur bo‘lgan maxsus moliyaviy va huquqiy maslahatlarni taqdim etish;

— Investitsiya obyektida sanoat va texnik infratuzilmani davlat byudjeti hisobidan yaratish [3].

Germaniya hukumati investitsiya dasturida asosan kichik va o‘rta korxonalarini qo‘llab-quvvatlashga e’tibor qaratib, investorlar uchun quyidagi imtiyozlar va rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni taqdim etadi:

- Xodimlarni tayyorlash uchun mablag‘ ajratish;
- Ishchi kapitalni to‘ldirish maqsadida olingan kreditning 50 foizigacha qoplab berish imkoniyati;
- Kreditlarni qaytarish bo‘yicha 10 yilgacha imtiyozli muddat olish;
- 8 yilgacha bo‘lgan moliyalashtirishni, maksimal 5 million yevro miqdorida olish imkoniyati.

Braziliyaning investitsiyalarni mamlakatga jalb etish borasidagi tajribasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, unda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan alohida dastur yoki maxsus davlat organi mavjud emas. Investitsiyalarni jalb etish uchun yaratilgan shart-sharoitlar mahalliy va xorijiy investitsiyalar uchun bir xil darajada amal qiladi. Investitsiyalarni jalb etishning asosiy rag‘batlantiruvchi omillari quyidagilardan iborat:

✓ ilmiy va texnologik innovatsiyalarni integratsiya qilish hamda amaliyotga joriy etish rag‘batlantiriladi;

✓ xizmatlar sohasida innovatsiyalarni joriy etishga nisbatan imtiyozlar taqdim etiladi;

- ✓ Braziliyaning iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan shtatlarida faoliyat yurituvchi korxonalariga davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatiladi;
- ✓ muqobili (analoglari) mavjud bo‘lmagan mashina va uskunalarni import qilishda bojxona bojlari 14 foizdan 2 foizgacha kamaytiriladi;
- ✓ texnologik va axborot xizmatlari eksporti uchun maxsus soliq imtiyozlari belgilanadi [4].

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, investitsiya jarayonini davlat tomonidan tartibga solish deganda investitsiya faoliyatini faollashtirish hamda shu orqali barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashga qaratilgan holda vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy-me‘yoriy, ijro etuvchi va nazorat mexanizmlarining yaxlit tizimi tushuniladi.

Davlatning investitsiya jarayonini tartibga solish borasidagi faoliyati, avvalo, bozor iqtisodiyotining amaldagi holati va rivojlanish bosqichi, shuningdek, iqtisodiy siyosatning ijtimoiy yo‘naltirilganligi hamda jamiyat oldida turgan strategik maqsad va vazifalarni hal etishga qanchalik yo‘naltirilganligi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Shu bilan birga, mazkur tartibga solish jarayoni barcha sharoitlarda o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan maqsadlar, subyektlar, obyektlar va ularni amalga oshirish vositalarini qamrab oluvchi ko‘p qirrali hamda murakkab tizimli jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Xizmat ko‘rsatish sohalariga investitsiyalarni jalb etish jarayonida yuzaga keladigan risklarni chuqur tahlil qilish va ularni minimallashtirishga yo‘naltirilgan xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion hamda intellektual yondashuvlar, ijtimoiy mas‘uliyat tamoyillariga asoslangan boshqaruv, samarali hamkorlik mexanizmlari va doimiy monitoring tizimlari investitsiya faoliyatining barqarorligini ta‘minlovchi muhim omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu ilg‘or yondashuv va amaliy tajribalarni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash ishlab chiqarish va xizmatlar sektorining institutsional va iqtisodiy asoslarini mustahkamlash, shuningdek, investitsiya faoliyati bilan bog‘liq tavakkalchiliklarni kamaytirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Shu munosabat bilan, iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishni tashkil etishda jahon amaliyotining ilg‘or tajribalaridan kelib chiqqan holda, davlat tomonidan aniq, barqaror va prognoz qilinadigan normativ-huquqiy bazani shakllantirish bilan bir qatorda, investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi maxsus vakolatli organlar orqali, eng avvalo, davlat ishtirokida samarali va uzviy tartibga solish tizimini yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Y. Berger The use of foreign investments in China / Y. Berger // Investments in Russia. - 2004. – No. 3. – p. 7
2. K. K. Pozdnyakov The theoretical basis of the mechanism of attraction of foreign investments in the Russian regions and the rationale for their practical applicability. Raleigh, North Carolina, USA: Lulu Press, 2015. 174 p

3. O.V. Savluk Foreign experience in the formation of investment attractiveness of the region / O.V. Savluk [Electronic resource] – Access mode: [http://journals.khnu.km.ua/vestnik/pdf/ekon/2012\\_2\\_1/256-262.pdf](http://journals.khnu.km.ua/vestnik/pdf/ekon/2012_2_1/256-262.pdf)

4. Rating of the countries of the world by the level of foreign direct investment : [Electronic resource]. – Access mode: <https://gtmarket.ru/ratings/foreign-direct-investment-index>

*Олим Эргашев-ҚарДУ мустақил изланувчиси*

## **ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШ ОРҚАЛИ МАХСУС ИҚТИСОДИЙ ЗОНАЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ**

**Аннотация:** Мақолада Ўзбекистон иқтисодий-ижтимоий ривожланишида муҳим ўрин тутувчи махсус иқтисодий зоналарни ривожлантиришида инвестицияларни иқтисодиёт тармоқларига жалб этишидаги аҳамияти кенг ёритилган. Махсус иқтисодий зоналар орқали инвестицияларни жалб этиш ва уларни ривожлантиришига доир илмий асосланган амалий таклифлар ишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар:** инфратузилма, махсус иқтисодий зона, солиқ имтёзлари, инвестор, ташқи савдо, экспорт, импорт, рақамли технологиялар, тўғридан-тўғри хорижий инвестиция, инвестицион фаоллик, инвестиция муҳити, эркин иқтисодий ҳудуд

**Аннотация:** В статье освещается роль специальных экономических зон, играющих важную роль в социально-экономическом развитии Узбекистана, в привлечении инвестиций в различные отрасли экономики. Разработаны научно обоснованные практические предложения по привлечению и развитию инвестиций через специальные экономические зоны.

**Ключевые слова:** инфраструктура, специальная экономическая зона, налоговые льготы, инвестор, внешняя торговля, экспорт, импорт, цифровые технологии, прямые иностранные инвестиции, инвестиционная деятельность, инвестиционный климат, свободная экономическая зона

**Abstract:** This article was described highlights the role of special economic zones which play an important role in the socio-economic development of Uzbekistan in attracting investment in various sectors of the economy. Scientifically based practical proposals have been developed to attract and develop investments through special economic zones.

**Keywords:** infrastructure, special economic zone, tax benefits, investor, foreign trade, export, import, digital technologies, foreign direct investment, investment activity, investment climate, free economic zone

Ўзбекистон Республикасида ижтимоий-иқтисодий тараққиётнинг ҳозирги босқичида иқтисодий салоҳиятдан самарали фойдаланишнинг муҳим йўналишларидан бири сифатида махсус иқтисодий зоналарни ташкил

этиш ва ривожлантиришга эътибор қаратилмоқда. Ташкил этилган МИЗларнинг фаолият самарадорлигини ошириш, эркин иқтисодий зоналар ҳудудларида лойиҳаларни жойлаштириш учун лойиҳаларни танлашнинг аниқ мезонларини ишлаб чиқиш, инвестиция лойиҳаларини кўриб чиқишда ташкил этиладиган иш ўринлари сони, салоҳиятли хорижий шерикнинг аниқлигини таъминлаш, маҳсулотга бўлган ички ва ташқи талаб, экспорт ҳажми каби омилларни тадқиқ этиш, инвестиция лойиҳаларини маъқуллаш механизмидаги бюрократик тўсиқларни бартараф этиш, эркин иқтисодий зоналар фаолияти учун зарур муҳандислик-коммуникация инфратузлимасини ўз вақтида барпо этиш, таклиф этилётган инвестиция лойиҳаларининг маҳаллий ва хорижий кредит ресурслари билан таъминлаш, уларга бириктирилган тижорат банкларининг фаолиятини жонлантириш, эркин иқтисодий зоналарида фаолият олиб бораётган корхоналарнинг ишлаб чиқариш қувватларидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш, ишлаб чиқариш ва экспорт ҳажми, яратилган иш жойлари сонининг тасдиқланган бизнес-режа параметрларига тўғри келишини таъминлаш вазифалари белгилаб берилган. Ушбу вазифаларнинг самарали амалга оширилиши махсус иқтисодий зоналарнинг жорий ҳолатини таҳлил этиш, истиқболдаги мумкин бўлган ҳолатларини прогноз қилиш ва баҳолаш орқали самарадорлик даражасини ошириш йўллари ишлаб чиқишга йўналтирилган илмий тадқиқот ишларининг долзарблигини намоён этади.

Махсус иқтисодий зоналарнинг мамлакат иқтисодиётига инвестицияларни, биринчи навбатда тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб этишни ривожлантиришг бораисда хорижий ва маҳаллий олимлар томонидан бир қанча илмий-тадқиқотлар олиб борилган. Хусусан, россиялик иқтисодчи олим В.Д.Адрианов: “Махсус иқтисодий ҳудудлар миллий ҳудуднинг бир қисми бўлиб, иқтисодий муаммолар ечимини топишда, инвестицион фаолликни оширишда кенг имкониятларни яратиб беради [1]”, дея ўз фикрини билдирган.

Иқтисодчи олимлардан Т.П.Данько ва З.М.Оқрутлар махсус иқтисодий ҳудудларни “...қулай инвестиция муҳитини яратиш ҳамда ишлаб чиқаришни, савдо-сотикни, илмий фаолиятни рағбатлантириш механизми” [2] сифатида баҳолаган. Мазкур билдирилган фикр ҳозирги кунда ҳудудлар иқтисодиётига инвестицияларни жалб этишни фаоллаштириш борасида махсус иқтисодий зоналарнинг аҳамиятини ошириш тенденцияларини мувофиқ, деб ҳисоблаймиз.

Мамлакатимизнинг етук иқтисодчи олимлар томонидан олиб борилган илмий-тадқиқот ишларида махсус иқтисодий зоналардаги имтиёзли тартиб ва маъмурий бошқарув соҳасига кўпроқ эътибор қаратилганлигини кўриш мумкин. Жумладан, А.В.Вахабов, Ш.Х.Хажобакиев, Н.Г.Муминовларнинг фикрича, “эркин иқтисодий ҳудуд – бу маҳаллий ҳамда хорижий тадбиркорлар фаолият юритиши учун махсус имтиёзли иқтисодиёт амал қиладиган чегараланган ҳудуд [3]”.

С.С.Мирзалиева томонидан берилган таърифга кўра, эркин иқтисодий зона – мамлакат (ёки мамлакатлар) ҳудудининг муайян ижтимоий, иқтисодий технологик вазифаларни ҳал этиш мақсадида барпо этиладиган, махсус маъмурий бошқарувга ва хўжалик юритувчи субъектларнинг имтиёзли режимига эга бўлган қисмидир [4].

Ш.И.Мустафақуловнинг таъкидлашича, эркин иқтисодий ҳудуд – бу мамлакатнинг имиджи ҳам. Эркин иқтисодий ҳудудлар, ҳатто, ёмон фаолият юритган тақдирда ҳам мамлакатни либераллашувига хизмат қилади. Эркин иқтисодий ҳудуд қайси мамлакатда, унинг қайси ҳудудида яратилмасин, у ижтимоий лойиҳадир. Ҳудудни яратиш нафақат ҳудуд учун қўшимча даромад келтиради, балки бутун мамлакат учун турли шаклда фойдали қайтим беради [5].

Юқоридагиларни умумлаштирган ҳолда, фикримизча махсус иқтисодий зоналар деганда, муайян иқтисодий фаолиятни амалга оширишда кенгайтирилган мустақилликка, бошқарувнинг махсус режими ва инвесторлар иқтисодий фаолияти учун қулай шароитларга эга бўлган ҳудудни тушуниш мумкин. Фикримизча, ушбу умумий таъриф, жаҳон амалиётида учрайдиган турли хил ва шакллардаги эркин иқтисодий ҳудудлар ва уларга берилган таърифларни битта умумий қаторда жойлаштириш имконини беради.

Халқаро тажриба таҳлиллари шуни кўрсатмоқдаки, мамлакат ва ҳудуднинг барқарор иқтисодий ўсиш ва бунга маҳаллий ва хорижий инвесторларни кенг жалб қилишга инвестицион фаолликни ошириш орқали эришиш мумкин. Мазкур жараёнда махсус иқтисодий зоналар инвестицион фаолликни рағбатлантиришнинг энг самарали шаклларида бири ҳисобланади. Алоҳида солиқ ва божхона режими (имтиёзлар) мавжудлиги, арзон ишчи кучи, хом-ашёни олиб кириш ва чиқиш тартиби ҳамда маҳсулот ишлаб чиқаришнинг соддалашгани маҳаллий ва хорижий инвесторларни жалб қилади. Бугунги кунда хорижий инвестицияларни жалб қилиш мақсадида эркин иқтисодий ҳудудларни ташкил этишга катта эътибор қаратилмоқда. “Айни вақтда дунёда 5400 дан ортиқ махсус иқтисодий зоналар мавжуд бўлиб, махсус иқтисодий зоналарда дунё ялпи маҳсулотининг деярли 500 млрд. АҚШ доллардан ортиқ қисми яратилиб, уларда қарийб 70 миллионга яқин киши фаолият олиб бормоқда”. Халқаро тажрибада мамлакат иқтисодиётига хорижий инвестицияларни жалб қилишни ривожлантиришда махсус иқтисодий зоналарни ташкил этиш самарали йўللardan бири сифатида эътироф этиб келинмоқда.

Бугунги кунда Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 17 февралда қабул қилинган “Махсус иқтисодий зоналар тўғрисида”ги қонуни ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 25 октябрдаги “Махсус иқтисодий зоналар ва кичик саноат зоналари фаолияти самарадорлигини ошириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3356-сон қарори [6] талабига мувофиқ, ҳозирда республикада 22 та махсус иқтисодий

зона тоифасига кирувчи эркин иқтисодий зоналар ҳамда 400 дан ортиқ кичик саноат зоналари фаолият олиб бормоқда.

Махсус иқтисодий зоналар мамлакат саноатига, ишлаб чиқариш фаолиятига инвестицияларни жалб этишда муҳим рол ўйнайди. Мазкур ҳудудлар фаолиятини янада такомиллаштириш, уларнинг инвестицион фаоллигини янада ошириш юзасидан Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 14 февралдаги “Махсус иқтисодий зоналар тўғрисида”ги қонуни [7] қуйидаги чора-тадбирларни ўз ичига олган дастурга мувофиқ, мазкур ҳудудларнинг инвестицияон муҳитини яхшилашни назарада тутди:

- ишлаб чиқариш инфратузилмасини яратиш ва ривожлантириб боришни;

- муҳандислик-коммуникация ва йўл-транспорт инфратузилмасини ривожлантириш дастурларини давлат инвестиция дастурларига киритиш орқали уларнинг молиявий таъминотини яхшилашни;

- махсус иқтисодий зонанинг фаолият бўйича ва соҳавий ихтисослашувига мувофиқ, чет эл инвестицияларини ҳамда маҳаллий инвестицияларни жалб этиш чора-тадбирлари комплексини ишлаб чиқишни.

Махсус иқтисодий зоналар капитал ҳаракатланишини имтиёзли шароитлари самарасида хорижий инвестицияларни жалб қилишни фаоллашуви, мамлакатнинг айрим иқтисодий минтақаларига ишлаб чиқариш ресурслари оқимининг кучайишига ижобий таъсир кўрсатади.

1. Ўзбекистон Республикасида ташил этилган Махсус иқтисодий зоналарнинг молиявий имтиёзлар қуйидагилар:

- субсидия ва имтиёзли кредитлар бериш.
- арзон баҳода турли-туман инфратузилмавий хизматлар кўрсатиш.
- ер участкалари ва ишлаб чиқариш корхоналарига нисбатан маҳаллий саноат биноларидан фойдаланганлиги учун арзон ижара ҳақи жорий этилиши;

2. Солиқ имтёзлари қуйидагилар:

- 20 йилгача даромад солиғи тўлашдан озод қилиш.
- қайта инвестицияланувчи фойдага солиқ солмаслик.
- хорижий ходимларни даромад солиғидан озод қилиш.
- солиқ татиллари.

- жадаллаштирилган амартизация.

3. Маъмурий имтёзлар қуйидагилар:

- инвесторларни замон талабларига жавоб бера оладиган инфратузилма билан таъминлаш.

- қулай шароитларда асосий капитални ижарага бериш.
- рўйхатдан ўтказиш ва божхона ишлари фаолиятини максимал даражада соддалаштириш.

- хорижий фуқароларни келиб кетиши билан боғлиқ виза тартиб-қоидаларини осонлаштириш.

4. Ташқи савдо имтёзлари қуйидагилар:

- экспорт-импорт божларини камайтириш ёки бекор қилиш.

- махсус иқтисодий зоналардан товарлар экспортини квоталар ва лицензиялардан озод қилиш.

- ташқи савдо операцияларини амалга ошириш тартибини соддалаштириш.

Ҳозирги кунда мамлакатимизда саноат тармоқлари бўйича 9 та, фармацевтика тармоқларида 7 та, қишлоқ хўжалик тармоқлари бўйича 2 та, туризм, транспорт логистика, спорт инвентарларини ишлаб чиқариш тармоқларида 1 тадан махсус иқтисодий зоналар ташкил этилган. “Навоий”, “Ангрен”, “Жиззах”, “Ургут”, “Ғиждувон”, “Қўқон” ва “Ҳазорасп” экрин иқтисодий зоналарида умумий қиймати 46 миллион долларга тенг 62 та лойиҳа амалга оширилган, 4 минг 600 тан ортиқ иш ўринлари яратилган [8].

МИЗ томонидан 2024 йил ноябрь ойи якуни ҳолатига 194 та инвестиция лойиҳалари амалга оширилган (1-жадвал).

### 1-жадвал

#### МИЗлардаги инвестиция лойиҳалари тўғрисида маълумот

Т.р.	МИЗ номлари	Сони	МИЗ қиймати, (млн.долл.)	Шу жумладан хорижий инвестициялар, (млн.долл.)	Иш ўринлари, сони
1.	<b>Ўзбекистон Республикаси бўйича жами</b>	<b>194</b>	<b>1191,9</b>	<b>389,4</b>	<b>13 363</b>
2.	"Нукус-фарм" ЭИЗ	3	16,2	3,9	430
3.	"Ғиждувон" ЭИЗ	13	44,9	0,0	776
4.	Бухоро-агро ЭИЗ	0	0,0	0,0	0
5.	"Жиззах" ЭИЗ	16	106,5	55,9	1 614
6.	"Навоий" ЭИЗ	32	170,9	50,0	1 269
7.	"Наманган" ЭИЗ	0	0,0	0,0	0
8.	"Ургут" ЭИЗ	31	102,3	19,6	1 634
9.	"Сирдарё" ЭИЗ	21	75,2	26,5	1 332
10.	"Сирдарё-фарм" ЭИЗ	3	51,0	0,0	516
11.	"Термиз" ЭИЗ	0	0,0	0,0	0
12.	"Ангрен" ЭИЗ	50	585,3	221,4	4 409
13.	"Чорвоқ" ЭТЗ	0	0,0	0,0	0
14.	"Қўқон" ЭИЗ	19	32,2	10,4	1 216
15.	"Ҳазорасп" ЭИЗ	5	7,1	1,7	157

Манба: Ўзбекистон Республикаси Инвестициялар ва ташқи савдо вазирлиги расмий бев-сайти ([www.mift.uz](http://www.mift.uz)) маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

Лойиҳаларнинг қиймати жами 1191,9 млн.доллар (шундан, 389,4 млн.доллари хорижий инвестиция)ни ташкил этади. Ушбу лойиҳалар орқали 13363 нафар янги иш ўринлари ташкил этилган.

Худудий ва минтақавий иқтисодий-ижтимоий ривожланиш нуқтаи назаридан бугунги кунда Фарғона иқтисодий райониға кирувчи “Қўқон” махсус иқтисодий зонаси алоҳида аҳамиятга эга. Фарғона вилояти ҳам ўзининг қулай географик жойлашуви ҳамда иқтисодий жиҳатдан ривожланиш даражасига кўра республикада ўзининг муносиб ўрнига эга.

Ушбу иқтисодий худуд учун айнан Қўқон шаҳри яқинидаги 709.3 га ер майдонининг танланишига асосий сабаблардан бири, мазкур худуд барча товарларни ташиш учун жуда ҳам қулай логистик майдондир. Мазкур иқтисодий зона Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 12 январдаги “Ургут”, “Ғиждувон”, “Қўқон” ва “Ҳазорасп” махсус иқтисодий зоналарини ташкил этиш тўғрисида”ги ПФ-4931-сонли Фармонга [9] асосан ташкил этилиб, бугунги кунда “Қўқон” махсус иқтисодий зонаси худудида 86 та лойиҳа доирасида 69 та корхона фаолият юритмоқда.

“Қўқон” махсус иқтисодий зонаси иштирокчилари томонидан хориждан олиб келинган товарларга ушбу қарорга асосан жорий йилнинг ўтган даврида жами 137 миллиард сўм божхона тўловларидан имтиёзлар қўлланилган. Мазкур худуд ўз аэропорти ҳамда темир йўл депоси мавжудлиги логистика имкониятига ижобий таъсир кўрсатади.

2024 йил давомида 23 та “Қўқон” махсус иқтисодий зонаси иштирокчиси томонидан 13,1 миллион АҚШ долларига тенг тайёр маҳсулотлар экспорт қилинган. “Қўқон” махсус иқтисодий зонасида фаолият юритаётган корхоналарнинг экспорт импорт операцияларини тезкорлик билан амалга оширилишини таъминлаш мақсадида “Марғилон” ташқи иқтисодий фаолият божхона пости ходимлари “Қўқон” махсус иқтисодий зонаси маъмурий биносида доимий фаолият олиб борилиши таъминланмоқда. Бу эса тадбиркорларга ушбу зонадан чиқмаган ҳолда экспорт ва импорт операцияларини амалга ошириш имконини бермоқда. Бугунги кунда “Қўқон” махсус иқтисодий зонасида қиймати 73,5 миллион АҚШ долларига тенг бўлган 41 та лойиҳа тўлиқ ишга туширилган бўлиб, 2353 та янги иш ўринлари яратилган. Қиймати 161,57 миллион АҚШ долларига тенг 45 та лойиҳа бугунги кунда ишга туширилиши режалаштирилган бўлиб, ушбу лойиҳалар бўйича 4732 та янги иш ўринлари яратилиши режалаштирилган. Шунингдек, 65 миллион АҚШ долларига тенг 5 та истиқболли лойиҳалар ҳам мавжуд бўлиб, унинг натижасида 820 та янги иш ўринлари яратилиши режалаштирилмоқда. Буларнинг барчаси аҳоли фаровонлиги ва юрт равнақи учун хизмат қилади. Ҳозирги кунда “Қўқон” махсус иқтисодий зонасида 96 дан зиёд саноат корхоналари рўйхатдан ўтган бўлиб, улардан 19 таси фаолиятини бошлаган. Шулардан 4 та хорижий инвестиция асосида ташкил қилинган бўлиб, қолганлари маҳаллий инвесторлар томонидан молиялаштирилмоқда. Эътиборли томони, “Қўқон” махсус иқтисодий зонасида жойлашган корхоналарнинг молиявий

манбаси таркибида банк кредитлари улуши юқори бўлиб қолмоқда. Бундай ҳолат ташқи қарздорлик кўпайиши ва банклар фаолияти барқарорлиги билан чамбарчас боғлиқлигини англатади [10].

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, махсус иқтисодий зона мамлакат ҳудудларини иқтисодий жиҳатдан ривожлантириш, иқтисодиёт тармоқларига инвестицияларни жалб қилишни фаоллаштиришда ўрни муҳим. Хорижий давлатларнинг махсус иқтисодий зоналарни ривожлантиришдаги тажрибалари асосида махсус иқтисодий зоналарни барқарор ривожлантиришдаги умумий механизмни мавжуд.

Юқоридаги тажрибалардан келиб чиққан ҳолда, Ўзбекистонда махсус иқтисодий зоналарни ривожлантириш бўйича қуйидагиларни амалга ошириш ўзининг ижобий самарсини бериши мумкин:

- республикамиздаги амалдаги махсус иқтисодий зоналарни ташкил этиш билан боғлиқ бўлган ташкилий-ҳуқуқий жараёнларни соддалаштириш лозим. Ушбу йўналишда рақамли технологияларни тизимга жорий этиш мақсадга мувофиқдир. Бу йўналишда Ҳиндистонда кичик саноат ҳудудларининг нодавлат шаклда ташкил этилиш жараёнидан фойдланиш ўзининг ижобий самарасини бериши мумкин;

- мавжуд фаолият юритиб келаётган махсус иқтисодий зоналарга, хусусан фармацевтика соҳаси учун хорижий инвестицияларни янада кўпроқ жалб қилиш учун мазкур соҳа бўйича йирик трансмиллий компаниялар учун “Алоҳида имтиёзлар пакети” таклиф этиш махсус иқтисодий зоналарнинг инвестицион салоҳиятини оширишга хизмат қилади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Адрианов В.Д. Специальные экономические зоны. Журнал «ЭКО», 1997, ( № 3), С: 42.
2. Данько Т.Л. Свободные экономические зоны в мировом хозяйстве// ИНФРА-М.-1998. С:168.
3. Вахабов А.В., Хажибакиев Ш.Х., Муминов Н.Г. Хорижий инвестициялар. Ўқув қўлланма. –Т.: Молия, 2010. 180-бет
4. Мирзалиева С.С. Махсус иқтисодий зоналарни ривожлантиришнинг хориж тажрибаси: И.ф.н. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация Автореферати . Тошкент. ТДИУ, 2001. 8-бет.
6. Манба: <https://lex.uz/docs/3392861>
7. Манба: <https://lex.uz/docs/4737511>
8. <http://www.xs/index.php/homepage/i-tisodijot/item/11367-erkin-tisodij-zonalar-va-kichik-sanoat-zonalarini-rivozhlantirish-masalalari-mu-okama-ilindi>
9. Манба: <https://lex.uz/docs/3096605>
10. Ўзбекистон Республикаси давлат божхона қўмитаси расмий веб-сайти маълумотлари. Манба: <https://customs.uz/uz/region/news/5090>

*Gadayev Jaxongir Muhammadi o‘g‘li – assistent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali*

## **ISLOMIY MOLIYA TIZIMIDA TAKAFUL SUG‘URTASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH MEXANIZMLARI (O‘ZBEKISTON TAJRIBASI)**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada islomiy moliya tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblangan takaful sug‘urtasining shakllanishi va rivojlanish mexanizmlari nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda takaful sug‘urtasining mohiyati, uning an’anaviy sug‘urta tizimidan farqli jihatlari, shariat tamoyillariga asoslangan risklarni boshqarish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida takaful tizimini joriy etish jarayonida yuzaga kelayotgan huquqiy, institutsional va tashkiliy muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar:** takaful sug‘urtasi, islomiy moliya tizimi, shariat tamoyillari, islomiy sug‘urta, risklarni boshqarish, normativ-huquqiy baza.*

***Аннотация:** В данной статье теоретически и практически анализируются механизмы формирования и развития страхования такафул, являющегося важной составляющей исламской финансовой системы. Исследование охватывает сущность страхования такафул, его отличия от традиционной системы страхования и механизмы управления рисками на основе принципов шариата. Также рассматриваются правовые, институциональные и организационные проблемы, возникающие в процессе внедрения системы такафул в Узбекистане, а также пути их преодоления.*

***Ключевые слова:** страхование такафул, исламская финансовая система, принципы шариата, исламское страхование, управление рисками, нормативно-правовая база.*

***Abstract:** This article provides a theoretical and practical analysis of the mechanisms for the formation and development of takaful insurance, an important component of the Islamic financial system. The study covers the essence of takaful insurance, its differences from traditional insurance systems, and risk management mechanisms based on Shariah principles. It also examines the legal, institutional, and organizational challenges arising during the implementation of the takaful system in Uzbekistan, as well as ways to overcome them.*

***Keywords:** takaful insurance, Islamic financial system, Shariah principles, Islamic insurance, risk management, legal framework.*

So‘nggi davrlarda xalqaro moliya maydonida islomiy moliya institutlariga bo‘lgan e‘tibor izchil ravishda kuchayib bormoqda. Ayniqsa, shariat qoidalariga asoslangan sug‘urta modeli — takaful o‘zaro yordam, ijtimoiy mas‘uliyat va moliyaviy barqarorlik tamoyillariga tayangan mexanizm sifatida ko‘plab davlatlarda samarali rivojlanib kelmoqda. Ushbu tizim faqat musulmon aholining ehtiyojlarini qondirish bilangina cheklanmay, balki moliyaviy tavakkalchiliklarni axloqiy va ochiq mexanizmlar orqali boshqarishni maqsad qilgan keng iste‘molchilar qatlamiga ham muqobil yechim sifatida xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda ham islomiy moliyani rivojlantirish masalasi davlat iqtisodiy siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. So‘nggi yillarda bu borada huquqiy-me‘yoriy asoslarni yaratish, islomiy bank xizmatlari va shariatga mos moliyaviy mahsulotlarni joriy etishga qaratilgan qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, takaful sug‘urtasini milliy

moliya amaliyotiga to‘liq va samarali tatbiq etish jarayoni hanuz murakkab bo‘lib qolmoqda. Mazkur holat huquqiy tartibga solish, institutsional infratuzilma, tashkiliy mexanizmlar hamda ijtimoiy ong bilan bog‘liq omillar majmuasi bilan izohlanadi.

Natijada, so‘nggi o‘n yilliklar davomida jahon miqyosida shariat talablariga mos keluvchi moliyaviy xizmatlar va operatsiyalar jadal sur‘atlarda rivojlanib, mustaqil islomiy moliya bozori shakllanib bormoqda. Ushbu jarayon nafaqat musulmon aholining moliyaviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilmoqda, balki global moliya tizimida yangi bozor segmentlari va istiqbolli imkoniyatlarning yuzaga kelishiga ham zamin yaratmoqda.

Shu bilan birga, islomiy moliya mahsulotlariga bo‘lgan talabning ortishida diniy omil muhim ahamiyat kasb etsa-da, iste‘molchilarning tanlovi faqatgina e‘tiqodiy sabablar ta‘sir ko‘rsatmaydi. Ular moliyaviy mahsulotlarni tanlash jarayonida xarajatlarning maqbulligi, kutilayotgan foyda hamda amaliy samaradorlik darajasini ham e‘tiborga oladilar. Binobarin, musulmon mijozlar islomiy moliya xizmatlariga murojaat etishda diniy motivatsiya bilan bir qatorda iqtisodiy manfaatdorlikni ham muhim mezon sifatida baholaydilar [1].

Tadqiqotchi A. Mirzaxmedova ta‘kidlashicha, takaful sug‘urtasining muhim ustunliklaridan biri uning islomiy moliyalashtirish tamoyillariga, shuningdek xo‘jalik yurituvchi subyektlar va jismoniy shaxslarning axloqiy hamda diniy qarashlariga to‘liq mos kelishidadir. Takaful an‘anaviy sug‘urtaga shariat talablariga muvofiq muqobil mexanizmlarni taklif etish orqali moliyaviy jarayonlarning barqarorligini ta‘minlaydi. Shu bilan birga, u jismoniy shaxslarga islomiy moliyalashtirishga asoslangan qadriyatlarini saqlab qolgan holda o‘z mol-mulkini himoyalash, aktivlarini samarali boshqarish hamda moliyaviy tavakkalchiliklarni kamaytirish imkoniyatini yaratadi [2].

O‘zbekistonda takaful sug‘urtasining rivojlanish masalalarini tadqiq etgan N. Urolov va S. Salman fikriga ko‘ra, oliy ta‘lim muassasalari hamda ilmiy tadqiqotchilar tomonidan iste‘molchilarning xulq-atvori, bozorning foydalanilmayotgan imkoniyatlari va takaful faoliyatining operatsion modellariga doir empirik tadqiqotlarni yanada kengaytirish zarur [3]. Chunki takaful tizimining barqaror va izchil rivoji ilg‘or xorijiy tajribani chuqur o‘rganish, uni milliy sharoitga moslashtirish hamda ilmiy asoslangan, amaliy jihatdan samarali xulosalarga tayanishni talab etadi. Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqot natijalari nafaqat takaful bozorini rivojlantirish, balki mazkur soha bo‘yicha davlat siyosatini shakllantirishda ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda islomiy moliya institutlarini rivojlantirishga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada kuchayib borayotganiga qaramay, takaful sug‘urtasini amaliyotga to‘liq va samarali tatbiq etish jarayoni qator tizimli hamda institutsional muammolar bilan to‘qnash kelmoqda. Ushbu muammolar faqatgina huquqiy yoki tashkiliy jihatlar bilan cheklanib qolmay, balki aholining moliyaviy ong darajasi, kadrlar salohiyati hamda bozor infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi bilan ham uzviy bog‘liqdir.

Avvalo, aholining islomiy sug‘urtaning mazmun-mohiyati va uning faoliyat mexanizmlari haqidagi xabardorligi yetarli darajada emas. Takaful tizimining asosini tashkil etuvchi o‘zaro yordam va risklarni birgalikda bo‘lishish tamoyillari ko‘pchilik uchun yangi tushuncha bo‘lib qolmoqda. Natijada, aholining aksariyat qismi hanuzgacha an‘anaviy sug‘urta shakllariga ustuvorlik bermoqda. Shu bois islomiy sug‘urta bo‘yicha keng ko‘lamli axborot-tushuntirish ishlari olib borish, moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlarini kuchaytirish hamda ommaviy targ‘ibot tadbirlarini faollashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yoshlar va tadbirkorlik subyektlari orasida islomiy moliyaga oid bilimlarni targ‘ib qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Ikkinchi muhim muammo takaful bozorining samarali faoliyati uchun zarur bo‘lgan professional infratuzilmaning yetarli darajada shakllanmaganligidir. Xususan, islomiy moliya tamoyillarini chuqur biladigan va bir vaqtning o‘zida sug‘urta sohasining amaliy jihatlariga ega bo‘lgan malakali mutaxassislar — aktuarlar, risklarni boshqarish bo‘yicha mutaxassislar, anderrayterlar hamda sug‘urta da‘volarini baholovchi ekspertlar soni cheklangan. Shu sababli oliy ta‘lim muassasalarida maxsus ta‘lim yo‘nalishlarini rivojlantirish, kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini joriy etish orqali professional kadrlar bazasini mustahkamlash dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Uchinchi jihat mavjud me‘yoriy-huquqiy bazaning amaliyot talablariga to‘liq mos kelmasligi bilan bog‘liq. Garchi takaful faoliyati umumiy jihatdan tartibga solingan bo‘lsa-da, sug‘urta hodisalari yuz berganda to‘lovlarni amalga oshirish tartibi, nizolarni hal etish mexanizmlari hamda qayta sug‘urtalashning islomiy shakli – retakaful bilan bog‘liq normalar yetarlicha aniqlashtirilmagan. Huquqiy aniqlikning yetishmasligi esa bozor ishtirokchilari faoliyatida noaniqlik va tavakkalchilik darajasining oshishiga olib keladi.

To‘rtinchidan, takaful sug‘urta kompaniyalari moliya bozorida allaqachon mustahkam mavqega ega bo‘lgan an‘anaviy sug‘urta tashkilotlari bilan raqobatlashishga majbur bo‘lmoqda. Mavjud sug‘urta kompaniyalari keng moliyaviy resurslar, shakllangan mijozlar bazasi va kuchli imijga ega. Shu sababli takaful operatorlari raqobat ustunligini faqat diniy omil orqali emas, balki xizmatlar sifati, raqamli texnologiyalarni joriy etish, qulay shartlar va innovatsion sug‘urta mahsulotlari orqali ta‘minlashi zarur.

Beshinchidan, takaful faoliyatining shariat talablariga to‘liq muvofiqligini ta‘minlash doimiy nazorat va e‘tiborni talab etadi. Amaliyotda ayrim moliyaviy operatsiyalarda bilvosita foiz elementlari yoki shariatda taqiqlangan faoliyat turlari bilan bog‘liq xavflar yuzaga kelishi mumkin. Shu bois mustaqil Shariat kengashlari faoliyatini kuchaytirish, ichki va tashqi shariat auditini yo‘lga qo‘yish hamda faoliyatda shaffoflikni ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda takaful sug‘urtasini muvaffaqiyatli rivojlantirish faqatgina normativ-huquqiy islohotlar bilan cheklanib qolmasdan, inson kapitalini rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish, ilg‘or xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirish hamda bozor ishtirokchilari o‘rtasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yishni talab etadi. Aynan shu omillar uyg‘unligi

islomiy sug‘urtaning barqaror va raqobatbardosh moliyaviy institut sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Takaful faoliyatini yurituvchi tashkilotlar o‘z faoliyatida, asosan, ikki asosiy maqsad o‘rtasida muvozanatni ta‘minlashga intiladi. Bir tomondan, ularning vazifasi moliyaviy barqarorlik va daromadlilikni saqlab qolishdan iborat bo‘lsa, ikkinchi tomondan, Shariat tamoyillariga qat‘iy amal qilish talab etiladi [4]. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, ushbu ikki yo‘nalishni bir vaqtning o‘zida uyg‘un holda olib borish doimo ham oson kechmaydi. Bozor sharoitida raqobatning kuchayishi va daromadni oshirishga bo‘lgan bosim ayrim hollarda takaful operatorlarini Shariat talablariga to‘liq mos kelmaydigan moliyaviy instrumentlardan foydalanishga undashi mumkin.

Bundan tashqari, takaful tizimining jadal rivojlanishi unga mos ravishda normativ-huquqiy asoslarning ham takomillashib borishini taqozo etadi. Amalda esa ko‘plab hollarda qonunchilik va me‘yoriy qoidalar bozordagi real jarayonlardan ortda qolmoqda, bu esa tartibga solishda muayyan bo‘shliqlarni yuzaga keltirmoqda. Shuningdek, islom huquqida mavjud bo‘lgan turli fiqhiy maktablar hamda Shariat olimlarining yondashuvlaridagi farqlar takaful amaliyotida yagona standart va umumiy yondashuvlarning shakllanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Natijada, turli mamlakat va hududlarda takaful faoliyati turlicha talqin etilib, bu holat sohaning institutsional rivojlanishida nomuvofiqliklarning vujudga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Shu bois takaful tizimining barqaror va izchil rivojlanishini ta‘minlash jarayonida faqat iqtisodiy manfaatlarga tayanib qolmasdan, balki Shariat tamoyillarining ustuvorligini kafolatlaydigan yagona me‘yoriy-huquqiy hamda metodologik asoslarni shakllantirish alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv takaful faoliyatining ishonchliligini oshirish va uning institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Islomiy bank tizimi bilan qiyoslaganda, islomiy sug‘urta bozori hozirgi bosqichda nisbatan kichik ulushni egallab turgan bo‘lsa-da, uning kelgusidagi rivojlanish imkoniyatlari nihoyatda kengdir. Islomiy sug‘urtani rivojlantirish jarayoni faqat takaful kompaniyalarining tashabbuslari bilan cheklanib qolmasdan, balki davlat organlari, sug‘urta bozori ishtirokchilari, yordamchi infratuzilma subyektlari hamda keng jamoatchilikning faol va tizimli qo‘llab-quvvatlashini talab etadi.

Amaliy tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, takaful sug‘urtachilari o‘z faoliyatida bir qator murakkab muammolar bilan to‘qnash kelmoqda. Jumladan, sohada yagona standartlarning yetarli darajada shakllanmaganligi, malakali kadrlar tanqisligi, foydani boshqarish mexanizmlarining mukammal emasligi, korporativ boshqaruv tizimidagi kamchiliklar, texnologik samaradorlikning pastligi hamda sug‘urta xizmatlarining aholi orasida keng tarqalmaganligi ushbu muammolar sirasiga kiradi. Shu munosabat bilan yetakchi takaful kompaniyalari xizmatlar sifatini oshirish maqsadida sun‘iy intellekt, blokcheyn va ilg‘or analitik texnologiyalarni faol joriy etishga intilmoqda.

Bundan tashqari, sug‘urta hodisalarini ko‘rib chiqish va tovon to‘lash jarayonlarini raqamlashtirish orqali mijozlarga real vaqt rejimida jarayonlarni kuzatish imkoniyati yaratilmoqda. Bu esa noaniqlik darajasini kamaytirish, shaffoflikni oshirish hamda mijozlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Mazkur jarayonlar bugungi kunda takaful sanoatida muhim rivojlanish tendensiyalaridan biriga aylanmoqda.

Shuni ham qayd etish joizki, Qatar, Quvayt va Birlashgan Arab Amirliklari kabi musulmonlar ko‘pchilikni tashkil etgan mamlakatlarda ham an’anaviy sug‘urtaning kirib borish darajasi nisbatan pastligicha qolmoqda. Natijada, hayot va umumiy sug‘urta yo‘nalishlarida takaful tizimi tobora keng ommalashib, maqbul va muqobil sug‘urta shakli sifatida e’tirof etilmoqda.

Mazkur tadqiqot avvalgi ilmiy izlanishlar natijalarini umumlashtirgan va yangilagan holda, takaful falsafasi nafaqat foyda ko‘ruvchi, balki notijorat tashkilotlar faoliyatida ham samarali qo‘llanilishi mumkinligini asoslab beradi. Shu bilan birga, takaful operatorlari tomonidan samarali risklarni boshqarish tizimlarini joriy etish, faoliyat natijadorligini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Investirlarni jalb etish va ularning ishonchini mustahkamlashda moliyaviy hisobotlarning shaffofligi hamda xalqaro standartlarga muvofiqligi hal qiluvchi omil bo‘lib qolmoqda.

Bozor rivojlanishida aholining xabardorlik darajasi muhim rol o‘ynaydi, shu bois marketing faoliyati takaful sanoatining muvaffaqiyatini ta’minlovchi asosiy vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqotda takaful operatorlarining rivojlanish imkoniyatlari va mavjud muammolari kompleks tarzda tahlil qilindi. Shu nuqtai nazardan, tartibga soluvchi organlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar, so‘rovnomalar hamda sanoat ishtirokchilari va Shariat maslahatchilari bilan muloqotlarni faollashtirish, mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan yangi me’yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish yoki amaldagi normalarni takomillashtirish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.

#### **Adabiyotlar:**

1. Buljubašić M., Veljan N. Securitisation of punishment for atrocity crimes and terrorism in Bosnia and Herzegovina //Research Handbook on the Punishment of Atrocity Crimes. – Edward Elgar Publishing, 2024. – p. 327-345.

2. Mirzaxmedova A.A. Iqtisodiy tizmida takaful sug‘urtasining afzalliklari va uning islomiy moliylashtirishning muqobil usullarini baholash //Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2024. – T. 4. – №. 02. – B. 284-292.

3. Urolov N., Salman S. A. Prospects and Challenges of Takaful in Uzbekistan //Journal of Islamic Banking & Finance. – 2025. – T. 42. – №. 2.

4. Noordin, K., Muzakir, M. R. M., & Madun, A. (2014). The Commercialisation of Modern Islamic Insurance Providers: A Study of Takaful Business Frameworks in Malaysia. *International Journal of Nusantara Islam*, 2(1), 1–13. <https://doi.org/10.15575/ijni.v2i1.44>

## **VI SHO‘BA. XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI YASHIL VA INNOVASION IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ORQALI HUDUDLARDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISH VA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHDA BUXGALTERIYA HISOBI, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT MUAMMOLARINI BARTARAF QILISH MASALALARI**

**Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев**

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти профессори, и.ф.д.

**Озода Мамаюнсова Пардаева**

Тошкент Давлат Иқтисодиёт университети Самарқанд филиалида  
кафедра мудири, доцент, PhD.

**Тўлқин Исматулло ўғли Яхяев**

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти доценти в.б., PhD.

### **БИЗНЕС-ТАҲЛИЛНИНГ ЮЗАГА КЕЛИШИ ВА УНИНГ МАЗМУНИ**

**Аннотация:** Мақолада бизнес-таҳлилнинг юзага келиши ва унинг мазмуни ёритилган. Бунда бизнес-таҳлил фанининг вужудга келиш тарихига назар ташланган. Ушбу фан касбий йўналиш сифатида босқичма-босқич шаклланганлиги кўрсатиб берилган. Бизнес-таҳлилнинг моҳиятини талқин қилишда учта асосий назарий тушунчаларнинг ижобий, танқидий ва прагматик йўналишлари қараб чиқилган. Ҳозир кунда бизнес-таҳлилчи алоҳида ноёб мутахассис сифатида корхона ва компанияларнинг бир қанча муаммоларини ҳал қилиш имкониятига эга бўлган мутахассис эканлиги ҳам қайд этилган.

**Калит сўзлар.** Таҳлил, бизнес-таҳлил, бизнес, корхона, ташкилот, компания, тизимли таҳлил, қиёсий таҳлил, истиқболли таҳлил, стратегик таҳлил, бошқарув қарорлари.

### **ВОЗНИКНОВЕНИЕ БИЗНЕС-АНАЛИЗА И ЕГО СОДЕРЖАНИЕ**

**Аннотация:** В статье раскрываются вопросы возникновения бизнес-анализа и его содержания. Рассматривается история становления бизнес-анализа как науки. Показано, что данная дисциплина формировалась поэтапно как профессиональное направление. При интерпретации сущности бизнес-анализа проанализированы три основные теоретические концепции: позитивная, критическая и прагматическая. Также отмечается, что в настоящее время бизнес-аналитик является отдельным, уникальным специалистом, обладающим возможностями решения ряда проблем предприятий и компаний.

**Ключевые слова:** анализ, бизнес-анализ, бизнес, предприятие, организация, компания, системный анализ, сравнительный анализ, перспективный анализ, стратегический анализ, управленческие решения.

## THE EMERGENCE OF BUSINESS ANALYSIS AND ITS CONTENT

**Abstract:** The article examines the emergence of business analysis and its content. It reviews the history of the formation of business analysis as a scientific discipline. The study shows that this field has been gradually developed as a professional area. In interpreting the essence of business analysis, three main theoretical approaches are considered: positive, critical, and pragmatic. It is also noted that today a business analyst is a distinct and unique specialist who has the capacity to solve various problems faced by enterprises and companies.

**Keywords:** analysis, business analysis, business, enterprise, organization, company, systems analysis, comparative analysis, prospective analysis, strategic analysis, managerial decisions.

**Кириш. Мавзунинг долзарблиги.** Замоनावий бизнес менежментнинг моҳиятидан келиб чиқиб, мураккаб масалаларни ҳал қилишда юқори малакали бошқарувчи ўз ташкилотида фаолият кўрсатадиган бизнес-таҳлилчилар билан ўзаро яқин муносабатлардан самарали фойдаланиши керак. Агар раҳбар ўзаро фикр алмашишни ўрганса, бу икки гуруҳ ўртасидаги ҳамкорлик самарали бўлади. Сўнгги пайтларда бизнес-таҳлил фаолияти иқтисодчилар томонидан бизнесда бошқариладиган таркибий ўзгаришлар билан боғлиқ бўлиб, эҳтиёжларни аниқлаш ва манфаатдор томонларга фойда келтирадиган ечимларни тавсия қилиш орқали ташкилий шароитда ўзгаришларни жалб қилиш амалиёти сифатида тавсифланади.

Бизнес-таҳлилдан манфаатдорлар томонлар (бизнес билан боғлиқ менежерлар, таҳлил қилувчилар, ахборотлар истеъмолчилари) ва ахборот технологиялар соҳаси талабларини ҳисобга олган ҳолда бизнес соҳасини самарадорликка бўлган эҳтиёжлари билан боғлайдиган алоқа вазифасини бажаради, бу эса қабул қилинган бошқарув қарорларининг самарадорлигини ва сифатини сезиларли даражада оширадиган ахборот тизимларининг ривожланишини таъминлайди.

**Аннотация:** В статье исследуются научно-практические аспекты отражения финансовых результатов объединений бизнеса, в частности процессов приобретения и присоединения предприятий, в бухгалтерском учете и финансовой отчетности на основе Международных стандартов финансовой отчетности (МСФО). В рамках исследования проанализирована экономическая сущность объединений бизнеса, их влияние на финансовое состояние предприятий, а также требования МСФО к качеству и прозрачности учетной информации. Особое внимание уделено экономической природе гудвилла и прибыли от приобретения, порядку их признания, оценки по справедливой стоимости и отражения в бухгалтерском учете и отчетности. Рассмотрены вопросы последующей оценки гудвилла посредством тестирования на обесценение и его отражения в консолидированной финансовой отчетности. Проведен

*сравнительный анализ национальных стандартов бухгалтерского учета и МСФО, выявлены ключевые методологические различия и их влияние на достоверность и сопоставимость финансовой отчетности. По результатам исследования разработаны практические рекомендации, направленные на совершенствование учетной политики и повышение инвестиционной привлекательности предприятий в условиях реорганизации.*

**Ключевые слова:** объединение бизнеса, приобретение, присоединение, гудвилл, прибыль от приобретения, финансовая отчетность, МСФО, бухгалтерский учет, справедливая стоимость, консолидация.

**Abstract:** *This article examines the scientific and practical aspects of accounting for the financial results of business combinations, particularly mergers and acquisitions, based on International Financial Reporting Standards (IFRS). The study analyzes the economic substance of business combinations, their impact on the financial position of entities, and the role of IFRS in ensuring the transparency, reliability, and comparability of financial reporting information. Special attention is given to the economic nature of goodwill and gains from acquisition, their recognition, fair value measurement, and presentation in accounting and financial statements. The article also explores issues related to subsequent measurement of goodwill through impairment testing and its disclosure in consolidated financial statements. A comparative analysis of national accounting standards and IFRS is conducted to identify key methodological differences and assess their impact on the quality of financial reporting. Based on the findings, practical recommendations are proposed to improve accounting policies and enhance the investment attractiveness of enterprises undergoing business combinations.*

**Key words:** *business combination, acquisition, merger, goodwill, gain from acquisition, financial reporting, IFRS, accounting, fair value, consolidation.*

Бозор иқтисодиёти шароитида корхоналарнинг стратегик ўсиши ва рақобатбардошлигини оширишга қаратилган муҳим иқтисодий жараёнлардан бири бизнес бирлашувидир. Унинг моҳияти турли хўжалик субъектларининг ресурслари, капиталлари ва бошқарув тизимини бирлаштириш орқали юқори иқтисодий самарадорликка эришишдан иборат. Фикримизча, бизнес бирлашуви корхоналарнинг молиявий барқарорлигини мустаҳкамлайди, иқтисодий масштаб самарасини яратади ва инвестицион жозибadorликни оширади. Инвестицион жозибadorлик эса мамлакат ёки алоҳида корхонанинг ички ва ташқи инвесторлар учун қанчалик фойдали ва ишончли эканлигини ифодаловчи кўрсаткич ҳисобланади. Бизнес бирлашуви натижасида активлар тузилиши ва молиявий натижаларнинг шаффофлиги яхшиланади, бошқарув тизимининг самарадорлиги ошади, бу эса инвесторлар ишончини кучайтиради. Халқаро молиявий ҳисобот стандартлари (МҲҲС), хусусан МҲҲС 3 “Бизнес бирлашувлари” стандартида қайд этилганидек, бизнес бирлашуви жараёнида компания активлари ва мажбуриятлари адолатли қиймат асосида қайта баҳоланиши

лозим. Бу эса корхона ҳақиқий бозор қийматини тўғри акс этиришга ва ҳисоботнинг ишончлилигини таъминлашга хизмат қилади. Бизнес бирлашуви жараёнида шаклландиган гудвилл компаниянинг ноаниқ активлари, бозордаги обрўси, миждозлар базаси ва бренд қийматининг молиявий ифодасидир. Илмий тадқиқотлар шуни кўрсатадики, гудвилл мавжуд бўлган компаниялар, одатда, инвесторлар учун юқори инвестицион жозибадорликка эга бўлади. Бу ҳолат компаниянинг бозордаги рақобат устунлигини ифодалайди ва капитал бозорларида унинг акцияларига ёки улушларига бўлган талабни оширади.

Чунончи, инвестицион муҳит нуқтаи назаридан, бизнес бирлашуви мамлакат иқтисодиётидаги институционал ислохотларни рағбатлантиради. Бирлашган янги компаниялар кўп ҳолларда замонавий корпоратив бошқарув тизимларини, халқаро ҳисобот стандартларини ва аудиторлик амалиётларини жорий этади. Бу эса иқтисодий муҳитдаги шаффофлик ва ҳисобдорлик даражасини ошириб, ташқи инвесторлар учун ишонч, хавфсизлик ва барқарорлик муҳитини яратади. Бизнес бирлашуви натижасида иқтисодиётда қуйидаги ижобий ўзгаришлар кузатилади:

1. Иқтисодий ресурсларнинг концентрацияси. Кичик ва ўрта корхоналарнинг бирлашуви орқали молиявий ва ишлаб чиқариш имкониятларининг кенгайиши;
2. Капитал бозорларига кириш имкониятлари кенгайди. Бирлашган компаниялар халқаро молиявий институтлар билан ҳамкорлик этиш имконига эга бўлади;
3. Инновацион фаолиятнинг ривожланиши. Катта молиявий салоҳият ва янги технологияларни жорий этишга имконият яратади;
4. Корпоратив бошқарув маданиятининг ўсиши. Стратегик қарорлар қабул этишда шаффофлик ва жавобгарлик принципларининг кучайиши.

Фикримизча, бизнес бирлашуви инвестицион муҳитга фақат иқтисодий эмас, балки психологик ва институционал таъсир ҳам кўрсатади. Бирлашган корхоналар фаолиятидаги шаффоф ҳисобот, барқарор фойдалилик ва халқаро аудиторлик стандартларига мос амалий фаолият инвесторлар онгида ишонч уйғотади. Бу ҳолат ташқи инвестиция оқимининг ошишига, ички сармоядорлар фаоллигининг кучайишига ва умумий иқтисодий фаолиятнинг жонланишига хизмат қилади. Илмий тадқиқотлар натижаларидан, бизнес бирлашуви жараёнларини самарали амалга ошириш қуйидаги йўналишларда инвестицион муҳитга ижобий таъсир кўрсатади деб ҳисоблаймиз:

- капиталнинг самарали тақсимланиши ва ресурслардан оқилона фойдаланишни таъминлайди;
- компаниялар ўртасидаги рақобатни оптимал даражага келтиради;
- халқаро капитал бозорлари билан интеграция жараёнларини тезлаштиради;

• мамлакатнинг кредит рейтингини ва молиявий барқарорлик даражасини яхшилайти.

Бизнес бирлашуви натижасида юзага келган йирик ва барқарор корхоналар нафақат миллий иқтисодиёт, балки минтақавий ва халқаро бозорлар учун ҳам муҳим инвестор сифатида намоён бўлади. Бу эса мамлакатнинг умумий инвестицион жозибадорлигини ошириш, чет эл сармояларини жалб этиш ҳамда иқтисодий ўсиш суръатларини барқарорлаштиришда ҳал қилувчи омил бўлиб хизмат қилади.

Бизнес бирлашуви инвестицион муҳитни шакллантиришда икки йўналишда таъсир кўрсатади:

Иқтисодий таъсир молиявий ресурслар концентрацияси, самарадорлик ва фаолликнинг ошиши орқали;

Институционал таъсир корпоратив бошқарув, ҳисобот ва аудитнинг шаффофлиги орқали.

Шу боис, Ўзбекистонда бизнес бирлашувлари амалиётини кенгайтириш, халқаро ҳисобот стандартларини тўлиқ жорий этиш ва консолидация жараёнларини қонунчиликда аниқ тартибга солиш мамлакат инвестицион салоҳиятини оширишнинг асосий шарти ҳисобланади. Қўшиб юбориш жараёни хўжалик юритувчи субъектларнинг молиявий, ташкилий ва иқтисодий ресурсларини бирлаштириш орқали самарадорликка эришишни таъминловчи муҳим қайта ташкил этиш шакли ҳисобланади. Бу жараён натижасида бир ёки бир нечта корхона ўз фаолиятини тугатиб, барча ҳуқуқ ва мажбуриятларини қабул қилувчи корхонага ўтказди. Қўшиб юбориш иқтисодий тизимдаги капитал концентрациясини таъминлайди, молиявий барқарорликни кучайтиради ва ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини оширади. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларида бу жараённинг иқтисодий ва молиявий мазмуни “бизнес бирлашуви” сифатида ифода этилган. МҲХС 3 “Бизнес бирлашувлари”, МҲХС 10 “Консолидациялашган молиявий ҳисобот” ва БҲХС 27 “Алоҳида молиявий ҳисоботлар” стандартларида қўшиб юбориш жараёнларининг тартиби, ҳисобда тан олиш мезонлари, баҳолаш усуллари ҳамда ҳисоботни шакллантириш қоидалари аниқ белгилаб қўйилган.

Бироқ тадқиқларимиз шуни кўрсатадики, Ўзбекистонда амал қилаётган бухгалтерия ҳисобининг миллий стандартларида гудвилл ва мхариддан келган фойда масалалари тўлиқ ёритилмаган, уларни ҳисобда акс этириш ва баҳолашнинг ягона услубий асослари мавжуд эмас. Бу эса молиявий ҳисоботларнинг халқаро стандартларга мос келмаслиги ва маълумотларнинг ҳаққонийлигига салбий таъсир кўрсатмоқда. Шу муносабат билан, тадқиқот натижалари асосида Биз томонимиздан қуйидаги хулосалар ва таклифлар илгари сурилади:

**Биринчидан**, миллий бухгалтерия стандартларини халқаро молиявий ҳисобот стандартлари билан уйғунлаштириш зарурати мавжуд. Халқаро стандартлар гудвилл ва хариддан келган фойдани ҳисобга олиш, баҳолаш ва ҳисоботда акс этиришнинг аниқ тартибларини белгилаб беради. Бу

корхоналар ҳисоботларини жаҳон амалиётидаги ягона мезонлар асосида солиштириш имконини яратади.

**Иккинчидан**, халқаро стандартларга ўтиш орқали молиявий ҳисоботнинг шаффофлиги ва ишончлилиги таъминланади. Бу, ўз навбатида, маҳаллий ва хорижий инвесторлар учун ахборот муҳитининг очиқлигини таъминлайди, уларнинг инвестиция қарорларини қабул этишда ишончини оширади.

**Учинчидан**, МҲХС тизимида активлар ва мажбуриятлар адолатли қийматда баҳоланади, бу эса молиявий натижаларнинг ҳақиқий иқтисодий мазмунига мос келишига ёрдам беради. Миллий стандартларда эса бундай механизм етарлича йўлга қўйилмаган, бу ҳолат активлар қийматининг сунъий паст ёки юқори баҳоланишига сабаб бўлмоқда.

**Тўртинчидан**, халқаро стандартларга асосланган ҳисобот тизими орқали мамлакатнинг инвестицион жозибadorлиги ошади. Чунки халқаро стандартларга мос ҳисобот юритувчи корхоналар хорижий сармоядорлар учун ишончли ҳисобланади ва глобал бозорда тенг рақобат шароитида иштирок этиш имкониятига эга бўлади.

**Бешинчидан**, гудвилл ва хариддан келган фойдани тўғри ҳисобга олиш ва баҳолаш миллий иқтисодиётдаги корхоналарнинг ҳақиқий қийматини аниқ кўрсатиш имконини яратади. Бу нафақат молиявий ҳисобот сифатини оширади, балки мамлакат иқтисодий ислохотларининг самарадорлигини баҳолашда ҳам муҳим аҳамият касб этади.

Халқаро стандартларга ўтиш нафақат бухгалтерия ҳисобини илмий назарий жиҳатдан такомиллаштиради, балки амалиётда ҳисоботнинг аниқлиги, ишончлилиги ва шаффофлигини таъминлайди. Шу асосда гудвилл ва хариддан келган фойда ҳисобини миллий амалиётга жорий этиш, уларнинг баҳолаш, ҳисоб ва ҳисоботда акс эттириш механизмларини ишлаб чиқиш мамлакатимизда молиявий ҳисоб тизимини халқаро андозалар даражасига олиб чиқишнинг муҳим йўналишларидан бири бўлиб хизмат қилади.

## **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 13 апрелда қабул қилинган “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги Қонуни.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 28 июлдаги 469-сон қарори. “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ–4947-сон Фармони. “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси”.
5. International Accounting Standards Board (IASB). IFRS 3 – Business Combinations. London: IFRS Foundation.
6. International Accounting Standards Board (IASB). IFRS 10 – Consolidated Financial Statements. London: IFRS Foundation.

7. International Accounting Standards Board (IASB). IAS 36 – Impairment of Assets. London: IFRS Foundation.

8. International Accounting Standards Board (IASB). IAS 38 – Intangible Assets. London: IFRS Foundation.

9. Палий В.Ф. Бухгалтерский учет и отчетность по международным стандартам. – М.: Финансы и статистика, 2020.

10. Соколов Я.В. Теория бухгалтерского учета. – М.: Магистр, 2019.

11. Хомяков А.А. Учет объединений бизнеса и консолидация отчетности. – СПб.: Питер, 2021.

12. KPMG. Business Combinations and Consolidation under IFRS. – London, 2022.

*А.Н.Холиқулов – СамИСИ “Иқтисодий таҳлил ва статистика” кафедраси мудири, и.ф.н., профессор*

## **САВДО КОРХОНАЛАРИ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ОШИРИШ ВА СОТИШ ТАРМОҒИНИ ШАКЛЛАНТИРУВЧИ ОМИЛЛАР**

***Аннотация:** мақолада савдо корхоналари рақобатбардошлигини ошириш ва сотиш тармоғини шакллантирувчи омиллар, чакана савдо фирмаларининг турлари ҳамда уларни таҳлил қилиш йўллари келтирилган.*

***Калит сўзлар:** савдо, чакана савдо, улгуржи савдо, истеъмол бозори, савдо корхоналари, монополия, тадбиркорлик, хизмат, товар.*

***Аннотация:** В статье представлены факторы, повышающие конкурентоспособность розничных предприятий и формирующие торговую сеть, типы розничных фирм и способы их анализа.*

***Ключевые слова:** торговля, розничная торговля, оптовая торговля, потребительский рынок, торговые предприятия, монополия, предпринимательство, услуги, товары.*

***Abstract:** The article presents factors that increase the competitiveness of retail enterprises and shape the sales network, types of retail firms, and ways to analyze them.*

***Keywords:** trade, retail trade, wholesale trade, consumer market, trading enterprises, monopoly, entrepreneurship, service, goods.*

Савдо корхоналари фаолияти ўрганилиб таҳлил қилинганда энг аввало чакана ва улгуржи савдо турлари фарқланади. Истеъмол бозорларида монополияга қарши бошқарув тизимини такомиллаштириш учун чакана савдо корхоналари фаолиятини тўғридан-тўғри ўрганиш лозим бўлиб ҳисобланади. Чакана савдо аҳолига тўғридан - тўғри товар сотиш ва хизмат қилиш билан боғлиқ бўлган тадбиркорлик фаолиятини уз ичига олади. Чакана савдо товарлар ассортиментининг шаклланишида қатнашади. Харидорларга товарлар сифат кўрсаткичлари тўғрисида ахборотлар беради.

Товарларни сақлаш, қўшимча ишлаш, нархларни урнатиш ва бошка вазифаларини бажаради. Натижада товарларнинг охириги истеъмолчилари билан олди - сотди шартномасини бажаради. Чакана савдо мулкчилик шакли, усули ва хизмат курсатишлари билан турланади. Хусусий хиссадорлар, ижара ва кушма мулкларга асосланган чакана савдо хозир барча мамлакатларда, шу жумладан, бизда ҳам фаолият курсатмокда. Чакана савдонинг моодий техника асосини дуқонлар, универмаглар, махсуслашган дуқонлар, супермаркетлар, ошхоналар ва купчилик майда шаҳобчалар ташкил этади.

Чакана савдо фирмаларининг турлари 4 та мезон билан фарк килади:

1. дуқоннинг жихозлари
2. миқозга хизмат курсатиш даражаси
3. товар ассортименти
4. савдода хизмат кўрсатиш ҳарактерига кўра фарқланади.

Бунуги кунда мамлакатимизда савдо тармоғи иқтисодиётнинг етакчи бўғинларидан бири ҳисобланади. Умуман олганда мамлакатимизда чакана савдо товар айланмаси охириги йилларда фақат ўсиш тенденциясига эга бўлганлиги ҳам, бу соҳанинг бир маромда ривожланиб бораётганлигидан далолат беради (1-жадвал).

1-жадвал

**Худудлар бўйича чакана товар айланмаси ҳажми<sup>78</sup>**  
(амалдаги нархларда; млрд.сўм)

	Худудлар	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
1	Қорақалпоғистон Республикаси	2 397,7	2 950,4	3 527,8	4 496,8	5 705,8	6 861,8	8 266,2
2	Андижон	5 564,3	6 777,8	8 124,9	10 367,9	12 816,5	14 810,1	17 715,9
3	Бухоро	4 481,8	5 611,9	6 578,5	8 375,1	10 309,2	12 072,8	14 378,9
4	Жиззах	2 320,5	2 912,3	3 442,8	4 373,4	6 058,0	7 223,3	9 130,6
5	Қашқадарё	5 042,8	6 202,9	7 187,3	8 818,5	10 665,7	13 523,9	16 320,5
6	Навоий	3 001,9	3 684,7	4 348,5	5 436,3	6 778,6	7 922,8	9 521,4
7	Наманган	4 166,7	5 253,4	6 334,2	7 829,0	10 002,8	12 233,8	15 191,6
8	Самарқанд	6 078,2	7 605,2	8 973,5	11 123,1	13 783,6	16 816,8	21 004,2
9	Сурхондарё	4 766,4	6 015,1	7 149,0	8 846,2	10 728,0	12 545,8	15 090,1
10	Сирдарё	1 246,5	1 547,4	1 836,8	2 295,5	3 127,2	3 584,0	4 051,5
11	Тошкент	7 663,3	9 223,0	11 149,5	14 101,0	17 538,4	20 808,1	26 859,8
12	Фарғона	6 150,8	7 655,7	9 020,4	11 277,6	13 807,1	16 414,8	19 869,2
13	Хоразм	2 723,5	3 365,9	3 948,5	5 269,2	6 915,5	8 589,2	10 659,0
14	Тошкент ш.	15 579,7	19 265,9	23 608,2	30 585,5	37 858,1	46 111,6	61 434,4
	<b>Ўзбекистон Республикаси</b>	<b>71 184,1</b>	<b>88 071,6</b>	<b>105 229,9</b>	<b>133 195,2</b>	<b>166 094,4</b>	<b>199 518,8</b>	<b>249 493,3</b>

Юқоридаги жадвал маълумотларини таҳлил қиладиган бўлсак, мамлакатимизда чакана товар айланмаси 2015 йилга қараганда 2021 йилда 178309,2 млрд сўмга ёки 3,5 баробарга ошганлигини куришимиз мумкин. Йиллар кесимида ўсишини қараб чиқадиган бўлсак 2016 йил олдинги йилга

<sup>78</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz) маълумотлари асосида муаллифнинг ишланмаси

нисбатан 23,7 фоизга, 2017 йилда эса олдинги йилга қараганда 19,5 фоизга, 2018 йилда 26,6 фоизга, 2019 йилда 24,7 фоизга, 2020 йилда 20,1 фоизга, 2021 йилда бўлса 25,1 фоизга ўсганлигини кўришимиз мумкин. Бу маълумотлардан кўриниб турибдики энг юқори ўсиш нуқтаси 2018 йилда йилда (26,6 фоиз) кузатилган бўлса, энг паст ўсиш 2017 йилда (19,5 фоиз) кузатилди.

Самарқанд вилояти маълумотларини таҳлил қиладиган бўлсак, чакана товар айланмаси 2021 йил 2015 йилга қараганда 3,45 баробар ошганлигини куришимиз мумкин. Бу кўрсаткич бўйича республика кўрсаткичига қараганда 0,05 фоизга кам. Вилоятда маълумотларининг йиллар кесимида ўсишини қараб чиқадиган бўлсак 2016 йил олдинги йилга нисбатан 25,1 фоизга, 2017 йилда эса олдинги йилга қараганда 18,0 фоизга, 2018 йилда 24,0 фоизга, 2019 йилда 23,9 фоизга, 2020 йилда 22,0 фоизга, 2021 йилда бўлса 24,9 фоизга ўсганлигини кўришимиз мумкин. Бу маълумотлардан кўриниб турибдики энг юқори ўсиш нуқтаси 2016 йилда йилда (25,1 фоиз) кузатилган бўлса, энг паст ўсиш 2017 йилда (18,0 фоиз) кузатилди.

Чакана товар айланмаси ҳудудлар улушини қараб чиқадиган бўлсак, энг катта улуш Тошкент шаҳрига тўғри келади, биргина 2021 йилни оладиган бўлсак, 24,6 фоизи тўғри келган. Кейинги ўринларда Тошкент вилояти 10, 7 фоизни ва Самарқанд вилояти 8,4 фоизини ташкил қилган. Энг кам улушга эга бўлган вилоятлар Сирдарё (1,6 фоиз), Қорақалпоғистон Республикаси (3,3 фоиз), Жиззах (3,66 фоиз), Навоий (3,8 фоиз) ҳудудларига тўғри келмоқда. Самарқанд вилоятининг умуман йиллар кесимидаги улушини қараб чиқадиган бўлсак, ўртача 8,45 фоизини ташкил қилганлиги кўришимиз мумкин.

Истемол бозорида монополияга қарши бошқарув тизимини такомиллаштиришда савдо корхоналари алоҳида ўрин тутади. Юқорида таъкидлаганимиздек, чакана товар айланмаси ҳудудларда қай даражада ривожланганлигини янада яққолроқ кўриш учун ҳудудлар бўйича аҳоли жон бошига чакана товар айланмаси қандай тўғри келишини кўриб чиқишимиз мақсадга мувофиқ (2-жадвал).

## 2-жадвал

### Ҳудудлар бўйича аҳоли жон бошига чакана савдо товар айланмаси<sup>79</sup>

(амалдаги нархларда, минг сўм)

	Ҳудудлар	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
1	Қорақалпоғистон Республикаси	1 349,3	1 635,2	1 927,9	2 422,8	3 028,4	3 590,6	4 269,5
2	Андижон	1 929,4	2 308,1	2 720,0	3 411,3	4 138,0	4 689,9	5 500,5
3	Бухоро	2 489,5	3 067,6	3 542,7	4 454,9	5 399,2	6 237,5	7 328,7
4	Жиззах	1 837,2	2 260,2	2 622,0	3 266,9	4 430,9	5 173,2	6 398,9
5	Қашқадарё	1 685,3	2 028,9	2 304,7	2 772,4	3 285,0	4 088,4	4 840,1
6	Навоий	3 260,8	3 939,6	4 575,5	5 596,9	6 858,8	7 880,5	9 301,0

<sup>79</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz) маълумотлари асосида муаллифнинг ишланмаси

7	Наманган	1 615,7	1 999,1	2 367,0	2 871,8	3 595,7	4 309,0	5 239,7
8	Самарқанд	1 712,5	2 102,1	2 434,5	2 958,7	3 591,3	4 298,2	5 264,9
9	Сурхондарё	1 998,6	2 468,2	2 873,0	3 479,9	4 127,0	4 725,4	5 564,2
10	Сирдарё	1 590,3	1 942,1	2 269,1	2 789,6	3 731,2	4 198,7	4 658,0
11	Тошкент	2 760,4	3 280,2	3 918,7	4 896,4	6 005,9	7 053,7	9 208,6
12	Фарғона	1 770,0	2 165,7	2 510,9	3 088,3	3 713,9	4 335,7	5 149,9
13	Хоразм	1 573,2	1 910,5	2 204,9	2 894,7	3 735,9	4 569,0	5 584,4
14	Тошкент ш.	6 540,0	7 998,4	9 657,7	12 295,9	14 900,1	17 453,6	21 789,9
	<b>Ўзбекистон Республикаси</b>	<b>2 274,3</b>	<b>2 765,4</b>	<b>3 249,0</b>	<b>4 041,6</b>	<b>4 946,2</b>	<b>5 828,4</b>	<b>7 145,7</b>

Жадвал маълумотларига эътибор қаратадиган бўлсак, мамлакатимизда аҳоли жон бошига чакана товар айланмаси 2021 йил 2015 йилга қарганда 3,14 баробар ошганлигини кўришимиз мумкин. Мамлакатимиз ҳудудлари бўйича қараладиган бўлса, аҳоли жон бошига чакана савдо товар айланмаси энг кўп Тошкент шаҳри, Навоий вилояти, Тошкент вилоятларида юқори бўлганлиги кўришимиз мумкин.

Умумий ҳулоса қиладиган бўлсак, чакана товар айланмаси таҳлил қилинаётган йиллар давомида мамлакатимизда ҳам Самарқанд вилоятида ҳам фақат ўсиш тенденциясига эга бўлганлигини алоҳида таъкидлаш лозим. Самарқанд вилоятининг улуши ҳам анча юқори эканлигини кўришимиз мумкин.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. «Ўзбекистон — 2030» стратегияси тўғрисида. –Тошкент. 12.09.2023 йил.
2. Ш.М. Мирзиёев. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик- хар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. -Тошкент: Ўзбекистон, 2022. -104 б.
3. Pardaev M.Q., Xoliqulov A.N., Yahyoyev T.I. Iqtisodiy tahlil. Darslik, Samarqand.: Fan bulog‘i nashriyoti uyi, 2024, 410 bet бет. Т.: “Инновацион ривож-ланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2021. – 252 бет.
4. Xoliqulov A.N. Birlashish va qo‘shib olish. O‘quv qo‘llanma Samarqand.: Fan bulog‘i nashriyoti uyi, 2022, 216 bet
5. Xoliqulov A.N., Maxmudova D.P. Iqtisodiyotni strategik rivojlantirish sharoitida kichik biznesni boshqarishni takomillashtirish. Monogpafiya. Samarqand, SamDCHTI nashr-matbaa markazi, 2020 yil – 126 bet
6. Xoliqulov A.N. Iqtisodiy tahlil va audit. O‘quv qo‘llanma Samarqand.: Fan bulog‘i nashriyoti uyi, 2023, 209 bet
7. Xoliqulov A.N. Turistik korxonalar faoliyati tahlili. O‘quv qo‘llanma Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ. Nashriyoti, 2024, 314 bet.
8. Xoliqulov A.N., Ibodov K.B. Monopoliyaga qarshi boshqaruv nazariyasi. Darslik, Samarqand.: Fan bulog‘i nashriyoti uyi, 2024, 360 bet
9. Xoliqulov A.N. Xizmat ko‘rsatish korxonalari samaradorligini tahlil qilishning metodologiyasini takomillashtirish yo‘nalishlari. Monografiya.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ. Nashriyoti, 2023 - 276 bet

10. Xoliqulov A.N. Истеъмол бозорида монополияга қарши бошқарув тизимини такомиллаштириш механизмлари. Monografiya. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ. Nashriyoti, 2023 - 190 bet

11. Холиқулов А.Н., Усманова Д.Қ., Рахимов Х.А. Корхона рақобатбардошлигини баҳолаш. Ўқув қўлланма. Самарқанд, Туроннашр нашриёти, 2021 й. – 210 бет.

*Djumayeva Guzal Axtamovna – mustaqil izlanuvchi, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti*

## YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA YASHIL IJARA HISOBINING AHAMIYATI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida buxgalteriya hisobi hamda ijara hisobining yo‘nalishlari, hisobni tashkil etishning yangi ob‘yekti sifatida hisobotlarda aks ettirilishi kabi masalalar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yashil iqtisodiyot, ijara, BHMS, BHXS, yashil ijara, yashil buxgalteriya hisobi.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются области бухгалтерского учета и учета аренды в контексте перехода к зеленой экономике, а также такие вопросы, как их отражение в отчетности как нового объекта учета.

**Ключевые слова:** зеленая экономика, аренда, HCBY, MCFO, зеленая аренда, зеленый учет.

**Abstract:** This article examines the areas of accounting and lease accounting in the context of the transition to a green economy, as well as issues such as their reflection in financial statements as a new accounting object.

**Keywords:** green economy, lease, NAS, IFRS, green lease, green accounting.

So‘nggi yillarda jahon miqyosida global ekologik muammolarning kuchayishi, ya‘ni iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning qisqarishi, atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalar hajmining ko‘payishi, chiqindilarni boshqarish tizimining yetarli darajada samarali bo‘lmasligi - iqtisodiyotni yangi, barqaror asosda tashkil etishni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyot (green economy) konsepsiyasi XXI asrning eng muhim iqtisodiy paradigmasiga aylandi. BMTning Atrof-muhit bo‘yicha dasturi (UNEP) ta‘rifiga ko‘ra, yashil iqtisodiyot - bu past uglerodli, resurslardan samarali foydalanishga asoslangan, ijtimoiy adolatni ta‘minlaydigan iqtisodiyotdir. Bunday yondashuv iqtisodiy o‘sish bilan ekologik barqarorlik o‘rtasida muvozanat yaratishni, kelajak avlodlar uchun tabiiy resurslarni saqlashni va inson farovonligini oshirishni maqsad qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda ekologik barqarorlikni ta‘minlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, yashil transport infratuzilmasini rivojlantirish hamda chiqindilarni qayta ishlash tizimini

takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2030-yilgacha qabul qilingan milliy strategiyalarda qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish, atmosferaga chiqariladigan zararli gazlarni kamaytirish, korxonalarda ekologik boshqaruv tizimlarini joriy etish kabi maqsadlar belgilangan. Shu bilan birga, ekologik xarajatlarning aniq hisobini yuritish, korxonalarining ekologik samaradorligini baholash hamda xalqaro standartlarga mos ekologik hisobot shakllarini joriy etish zaruriyati kuchaymoqda. Bunday sharoitda yashil buxgalteriya hisobi korxonalar, iqtisodiy tizimlar va davlat siyosati darajasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yashil iqtisodiyotning shakllanishi sanoat korxonalari, xizmat ko‘rsatish va barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida ekologik mas‘uliyatni oshirishni taqozo etadi. Bu jarayonda yashil iqtisodiyot konsepsiyasi yetakchi mavqega ega bo‘lib, uning tarkibiy qismlaridan biri yashil buxgalteriya hisobi (*green accounting*) hisoblanadi.

Yashil buxgalteriya hisobining asosiy vazifasi korxonalar yoki tashkilot faoliyatining ekologik ta‘sirini, ekologik xarajatlarni, resurslardan foydalanish samaradorligini moliyaviy natijalar bilan birgalikda o‘lchash va baholashdan iboratdir. An‘anaviy buxgalteriya hisobi korxonaning moliyaviy natijalarini aks ettiradi, biroq ekologik xarajatlarni, atrof-muhitga yetkazilgan zararining qiymati yoki ekologik investitsiyalar samaradorligi moliyaviy hisobotlarda to‘liq ifodalanmaydi.

Bizningcha, yashil buxgalteriya hisobi esa korxonalar faoliyati natijasida yuzaga keladigan ekologik ta‘sirlarni tizimli tarzda hisobga oladi, ularning iqtisodiy bahosini belgilaydi va ekologik omillarni boshqaruv qarorlariga integratsiya qiladi.

Shu sababli, yashil buxgalteriya hisobi atrof-muhitni muhofaza qilish xarajatlari, chiqindilarni qayta ishlash, energiya tejamkor texnologiyalarga investitsiyalar, ekologik jarimalar va tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog‘liq xarajatlarni aniq o‘lchashga imkon beradi. Amaliyotimizda bu turdagi xarajatlarning hisobi aniq bir schotlarda yuritilishi va hisobotlarda aks ettirilishi moliyaviy hisobotlarning foydaliligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa korxonaga nafaqat moliyaviy barqarorlikni, balki ekologik barqarorlikni ham ta‘minlash imkonini beradi.

Yashil buxgalteriya hisobining ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish O‘zbekiston korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va barqaror rivojlanishni ta‘minlash uchun asos bo‘ladi.

Yashil buxgalteriya hisobi (*green accounting*) ning muhim yo‘nalishlaridan biri bu yashil ijara (*green leasing*) bo‘lib, u ijara munosabatlariga ekologik mezonlarni joriy etishni anglatadi. Masalan, korxonalar energiya tejamkor binolarni ijaraga olish, ekologik ta‘sirni kamaytiruvchi uskunalarni qo‘llash yoki “yashil” infratuzilmaga asoslangan transport vositalaridan foydalanish orqali nafaqat xarajatlarni kamaytiradi, balki ekologik mas‘uliyatni ham kuchaytiradi.

Bizningcha, yashil ijara - ekologiyaga zarar yetkazmaydigan, ekologik talablarga javob beradigan va energiya tejamkorligiga asoslangan ijara modeli.

Bu turdagi ijara bilan shug‘ullanuvchi korxonalarining asosiy yo‘nalishlari quyidagilar:

- Quyosh panellarini korxonalariga moliyaviy ijaraga berish;
- Elektr transport vositalarini lizing asosida yetkazib berish;
- Energiya tejoychi ishlab chiqarish uskunalari moliyaviy ijara orqali modernizatsiya qilish.

Korxonalarda ijara munosabatlarini hisobini yuritishda xalqaro standartlar talablarini inobatga olish va quyidagilarning hisobga olinishini taklif etamiz:

❖ BHMSlarida “yashil aktivlar” hisobini yuritish uchun alohida schotlarni joriy etish;

❖ 16-sonli BHXS asosida ekologik ijaralarning moliyaviy hisobotda alohida ochib berilishini ta‘minlash;

❖ Yashil ijara loyihalarini joriy etgan korxonalarida soliq imtiyozlari va davlat kafolatlarini kengaytirish;

❖ Yashil iqtisodiyot va yashil buxgalteriya hisobiga o‘tish davrida ekologik hisobot modellarini joriy etish.

Yashil iqtisodiyot sharoitida ijara hisobi nafaqat moliyaviy boshqaruv vositasi, balki ekologik barqarorlikni ta‘minlovchi mexanizm sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ijara korxonalariga ekologik toza texnologiyalarni joriy etish imkonini beradi, bu esa milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga, resurslardan samarali foydalanishga va atrof-muhitni asrashga xizmat qiladi. Shu bois, O‘zbekistonda ijara hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, yashil iqtisodiyot tamoyillari bilan integratsiya qilish istiqboldagi eng muhim yo‘nalishlardan biridir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. <https://president.uz/oz/lists/view/5805>

2. 16-son “Ijara” Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (2022)

3. 6-son “Ijara hisobi” Buxgalteriya hisobi milliy standarti (2004)

**Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев**

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти профессори, и.ф.д.

**Хонқул Қахарович Самаров**

Самарқандаги Регистон ансамбили директори, PhD,

**Обид Мамаюнусович Пардаев**

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти мустақил тадқиқотчиси, PhD

**БИЗНЕС-ТАҲЛИЛ – ТАҲЛИЛИЙ ИШЛАРНИНГ ЯНГИ  
ЙЎНАЛИШИ**

**Аннотация.** Ушбу илмий мақолада бизнес-таҳлил тушунчасининг моҳияти, унинг замонавий иқтисодиётда тутган ўрни ва таҳлилий ишлар тизимидаги янги йўналиш сифатида шаклланиши ёритилган. Бизнес-таҳлилнинг анъанавий иқтисодий таҳлилдан фарқли жиҳатлари, асосий вазифалари, усул ва инструментлари таҳлил қилинган. Шунингдек, рақамли иқтисодиёт шароитида бизнес-таҳлилнинг аҳамияти ҳамда корхоналар бошқарув самарадорлигини оширишдаги роли илмий-назарий жиҳатдан асослаб берилган.

**Калит сўзлар:** бизнес-таҳлил, иқтисодий таҳлил, бошқарув қарорлари, рақамли иқтисодиёт, таҳлилий ишлар, самарадорлик.

**БИЗНЕС-АНАЛИЗ — НОВОЕ НАПРАВЛЕНИЕ АНАЛИТИЧЕСКОЙ  
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

**Аннотация.** В данной научной статье раскрывается сущность понятия бизнес-анализа, его место в современной экономике и формирование как нового направления в системе аналитической деятельности. Проанализированы отличительные особенности бизнес-анализа по сравнению с традиционным экономическим анализом, его основные задачи, методы и инструменты. Также с научно-теоретической точки зрения обосновано значение бизнес-анализа в условиях цифровой экономики и его роль в повышении эффективности управления предприятиями.

**Ключевые слова:** бизнес-анализ, экономический анализ, управленческие решения, цифровая экономика, аналитическая деятельность, эффективность.

**BUSINESS ANALYSIS — A NEW DIRECTION OF ANALYTICAL  
ACTIVITY**

**Abstract.** This scientific article examines the essence of the concept of business analysis, its role in the modern economy, and its formation as a new direction within the system of analytical activities. The differences between business analysis and traditional economic analysis, as well as its main tasks,

methods, and tools, are analyzed. In addition, the importance of business analysis in the context of the digital economy and its role in improving the management efficiency of enterprises are substantiated from a scientific and theoretical perspective.

**Keywords:** business analysis, economic analysis, managerial decisions, digital economy, analytical activities, efficiency.

### **Кириш. Мавзунинг долзарблиги.**

Жаҳонда ва мамлакатимиз иқтисодиётида ҳам рақобатнинг кучайиши, бозор муносабатларининг чуқурлашуви ва рақамли технологияларнинг жадал ривожланиши шароитида корхоналар фаолиятини самарали бошқариш масаласи алоҳида долзарблик касб этмоқда. Бундай шароитда иқтисодиёт соҳасида тўғри ва асосланган бошқарув қарорларини қабул қилиш таҳлилий ахборот сифатига бевосита боғлиқ. Шу нуқтаи назардан, таҳлилий ишлар тизимида бизнес-таҳлил мустақил ва янги йўналиш сифатида шаклланиб ва ривожланиб бормоқда.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, бизнес-таҳлил фақат молиявий кўрсаткичларни ўрганиш билан чекланиб қолмай, балки бозор, миқозлар, бизнес-жараёнлар, рисклар ва стратегик ривожланиш омилларини комплекс таҳлил қилишни назарда тутди. Бу эса мазкур фанни анъанавий иқтисодий таҳлилдан фарқ қилувчи муҳим хусусият сифатида намоён қилади. Шунинг учун бизнес-таҳлил тушунчаси ва унинг моҳиятига ҳам алоҳида аҳамият беришни тақозо қилади.

Бизнес-таҳлил тушунчасига қуйидагича таъриф беришни мақсадга мувофиқ, деб топдик. **Бизнес-таҳлил деганда, корхона ёки ташкилот фаолиятини ҳар томонлама ўрганиш, муаммоларни аниқлаш, имкониятларни баҳолаш ҳамда мақсадга мувофиқ бошқарув қарорларини қабул қилиш учун зарур бўлган таҳлилий ахборотни шакллантиришга қаратилган илмий-амалий фаолият мажмуаси тушунилади.** Бунинг асосий моҳияти ушбу таърифга таянадиган бўлсак, бу қуйидагиларда намоён бўлади. Энг аввало, бизнес-жараёнларни тизимли таҳлил қилиш имкониятини яратади, стратегик ва тактик мақсадларни аниқлашга хизмат қилади, аниқ маълумотлар асосида қарор қабул қилиш йўллари ҳам ўргатади. Бундан ташқари қиймат яратишга йўналтирилган таҳлилий ёндашувларни қўллаш имконияти ҳам яратилади.

Юқоридагилар ўз навбатида, бизнес-таҳлилнинг таҳлилий ишлар тизимидаги ўрнини белгилайди. Анъанавий таҳлилий ишлар, одатда, молиявий-хўжалик фаолияти натижаларини ўрганишга қаратилган бўлса, бизнес-таҳлил кенгрок қамровга эга. У, юқорида таъкидланганидек,

иқтисодий, ташкилий, технологик ва маркетинг жиҳатларни ўзаро боғлиқ ҳолда таҳлил қилади.

Бу бизнес-таҳлилнинг таҳлилий ишлар тизимидаги ўрни қуйидаги йўналишлар орқали намоён бўлади. Ушбу таҳлил орқали стратегик таҳлил ва бизнес-моделларни баҳолаш, бизнес-жараёнларни оптималлаштириш, инвестиция ва инновация лойиҳаларини таҳлил қилиш, рискларни бошқариш ва прогнозлаштириш имкониятлари ҳам яратилади. Буларни амалга ошириш учун бизнес-таҳлилд бир қанча усуллардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

**Бизнес-таҳлилд қўлланиладиган усуллар** юзасидан қуйидагиларни таъкидлаш мақсадга мувофиқ. Буларнинг асосийлари қуйидагилардан иборат. Бизнес-таҳлилда қўлланиладиган усуллар хилма-хил бўлиб, улар таҳлил мақсади ва объектларига қараб танланади. Энг кенг тарқалган усуллар айримларини келтирамиз. Булар қуйидагилардан иборат:

**1. SWOT-таҳлил.** Ушбу таҳлил стратегик режалаштириш ва бошқарувда қўлланиладиган таҳлилий усул бўлиб, у ташкилот, лойиҳа ёки соҳанинг ички ва ташқи муҳитини комплекс баҳолашга хизмат қилади. Муҳими, бунда кучли ва заиф томонлари билан бирга, мавжуд имкониятлар ва хатарларни таҳ таҳлил қилишни тақозо қилади.

SWOT атамасининг мазмуни қисқартирилган ҳолда тўртта инглизча атамдан ташкил топган. **S – Strengths (Кучли жиҳатлар).** Ташкилотнинг ички устунликлари, рақобатбардошликни таъминлайдиган имкониятлари. *Масалан:* малакали кадрлар, замонавий технологиялар, кучли бренд, молиявий барқарорлик. **W – Weaknesses (Камчиликлар).** Ички заиф томонлар, ривожланишга тўсқинлик қилувчи омиллар кабиларни киритиш мумкин. *Масалан:* тажриба етишмаслиги, молиявий чекловлар, бошқарувдаги камчиликлар кабилар. **O – Opportunities (Имкониятлар).** Ташқи муҳитда мавжуд бўлган, ташкилот фойдасига хизмат қилиши мумкин бўлган шарт-шароитларни олиш мумкин. *Масалан:* янги бозорлар, давлат қўллаб-қувватлаши, инновацион технологиялар каби жиҳатлар. **T – Threats (Хавф-хатарлар).** Ташқи муҳитдаги салбий таъсир этувчи омиллар. *Масалан:* рақобатнинг кучайиши, иқтисодий инқироз, қонунчиликдаги ўзгаришлар каби омиллар.

**SWOT-таҳлилнинг асосий мазмуни ва аҳамияти** бевосита ички ва ташқи омилларни тизимли таҳлил қилиш, стратегик қарорлар қабул қилишни осонлаштириш, кучли жиҳатлардан фойдаланиб, имкониятларни рўёбга чиқариш, камчиликларни бартараф этиш ва хавф-хатарларни камайтириш каби жиҳатлар билан боғлиқ.

Хулоса қилиб айтганда, SWOT-таҳлилнинг мазмуни шундаки, у ташкилот ёки лойиҳанинг ҳозирги ҳолатини холис баҳолаш, келажақдаги

ривожланиш стратегиясини асослаш учун муҳим аналитик восита ҳисобланади.

**2. PEST-таҳлил** мазмуни. PEST-таҳлил – бу стратегик таҳлил усули бўлиб, ташкилот ёки лойиҳанинг фаолиятига таъсир этувчи ташқи макромухит омилларини тизимли баҳолашга хизмат қилади. PEST атамасининг мазмуни бевосита тўртта асосий ташқи омилдан иборат сўзларнинг қисқартмаси ҳисобланади.

Булар **P – Political (Сиёсий омиллар)**. Бунда давлат сиёсати ва ҳукумат қарорларининг бизнес ёки соҳа фаолиятига таъсири ифодаланади. Масалан: солиқ сиёсати, қонунчилик, давлат дастурлари, сиёсий барқарорлик каби масалалар. **E – Economic (Иқтисодий омиллар)**. Бунга иқтисодий муҳитнинг умумий ҳолати ва унинг ташкилот фаолиятига таъсирини киритиш мумкин. Масалан: инфляция даражаси, иқтисодий ўсиш, ишсизлик, валюта курси ва ҳ.к. омиллар.

**S – Social (Ижтимоий омиллар)**. Бунга бевосита аҳолининг таркибий тузилиши, турмуш тарзи, фаровонлик даражаси ва ижтимоий қадриятлар билан боғлиқ омиллар киради. Масалан: демографик ўзгаришлар, таълим даражаси, истеъмол маданияти кабиларни келтириш мумкин. **T – Technological (Технологик омиллар)**. Бу ўз ичига илмий-техникавий тараққиёт ва инновацияларнинг таъсири кабиларни қамраб олади. Масалан: бунга рақамли технологиялар, барча жараёнларни автоматлаштириш, илмий-тадқиқотларни киритиш мумкин.

**PEST-таҳлилнинг мазмуни ва аҳамияти** ҳам катта. Жумладан, ташқи макромухитни комплекс ўрганиш, стратегик режалаштиришда хавф ва имкониятларни аниқлаш, узоқ муддатли қарорларни асослаш, соҳалар ва бозорлардаги тенденцияларни башорат қилиш кабиларни киритиш мумкин..

Хулоса қилб айтганда, PEST-таҳлил мазмуни шундаки, у ташкилот ёки лойиҳа фаолиятига таъсир этувчи сиёсий, иқтисодий, ижтимоий ва технологик омилларни чуқур таҳлил қилиш орқали самарали стратегия ишлаб чиқишга ёрдам беради.

**3. KPI ва баланслашган кўрсаткичлар тизими**га бизнес-жараёнлар таҳлили (BPM), сценарий ва прогноз таҳлиллар киради. KPI (Key Performance Indicator) — бу ташкилот, бўлим ёки ходим фаолияти самарадорлигини аниқ, ўлчанадиган кўрсаткичлар орқали баҳолаш тизимидир.

**KPI тушунчасининг мазмуни.** KPI — белгиланган мақсадларга қай даражада эришилаётганини кўрсатувчи асосий мезон ҳисобланади. У стратегик мақсадлар билан амалий натижалар ўртасида боғлиқликни таъминлайди.

**КРІнинг асосий вазифалари** ҳар қандай фаолият самарадорлигини ўлчаш билан бирга натижаларни холис баҳолаш имкониятини ҳам яратади. Шу йўл билан ҳар бир шахснинг масъулияти ва жавобгарлигини оширишга ҳам туртки бўлади. Чунки ишнинг натижасига қараб ходимлар мотивацияси ва рағбатлантиришини кучайтириш имкониятларини яратади. Бундай ёндошув бошқарув қарорларини асослаш учун ҳам имконият яратади.

**КРІнинг бир қанча турлари** ҳам мавжуд. Буларга қуйидагилар киради:

**Биринчидан, стратегик КРІлар.** Узоқ муддатли мақсадларга эришишни баҳолайди. Бунга мисол қилиб, корхонанинг (компаниянинг) бозордаги улушининг ортиб бориши, даромад ўсиши, рақобатбардошлик индексининг яхшиланиши кабиларни киритиш мумкин.

**Иккинчидан, операцион КРІлар.** Кундалик ва қисқа муддатли жараёнларни баҳолайди. Бунга мисол қилиб, ишлаб чиқариш ҳажми, хизмат кўрсатиш ҳажми ва тезлиги кабиларни қайд этиш мумкин.

**Учинчидан, молиявий КРІлар.** Жамиятнинг иқтисодий-ижтимоий ҳаётида муҳим бўлган молиявий натижаларни ифодалайди. Бунга мисол қилиб, олинган даромадлар, фойда, рентабеллик, тежамкорлик, харажатлар улуши кабиларни эътироф этиш мумкин.

**Тўртинчидан, номолиявий КРІлар.** Бутун фаолиятнинг ва улар натижаларининг сифати ва ижтимоий омилларни қамраб олади. Бунга мисол қилиб, мижозлар қониқиши, корхоналар нуфузининг ошиб бориши, ходимлар айланмаси.

**Самарали КРІга қўйиладиган талаблар (SMART).** Буни қуйидагича изоҳлаш мумкин. У қуйидаги беш мезондан иборат: SMART нинг мазмуни:

**S — Specific (Аниқ).** Мақсад равшан ва тушунарли бўлиши керак. Нима қилиш керак? Қачон? Қаерда? Ким томонидан? Каби саволларга жавоб топишга ёрдам беради.

**M — Measurable (Ўлчаб бўладиган).** Мақсад натижасини рақамлар ёки аниқ кўрсаткичлар билан баҳолаш мумкин бўлиши лозим. Бунда Қанча? Нечта? Фоизда қанча? Каби саволларга жавоб топишга кўмаклашади.

**A — Achievable (Эришиб бўладиган).** Мақсад мавжуд ресурслар ва имкониятлар доирасида амалга оширилиши мумкин бўлиши керак, яъни бу: Реалми? Имконият борми? Каби саволларга ҳам жавоб бериш имкониятини яратади.

**R — Relevant (Мос ва аҳамиятли).** Мақсад ташкилот ёки шахснинг умумий стратегияси ва устувор йўналишларига мос бўлиши шарт, яъни нима учун бу мақсад муҳим? Бунга эришиш учун нималарга алоҳида аҳамият бериш лозимлигини аниқлатади.

**T — Time-bound (Муддатли).** Мақсад аниқ вақт доирасига эга бўлиши керак. Чунки вақт аниқ бўлмаса, жуда кўп режаларнинг бажарилиши, мақсадларнинг амалга оширилиши мавҳум бўлиб қолади. Мавҳумлик

самара олиб келмайди. Шу туфайли қачонгача бажарилади, деган саволга аиқ муддат белгиланган ва муддат давомида бажарадиган бўлиши лозим.

Кўриниб турибдики, SMART — мақсадларни аниқ, ўлчаб бўладиган ва амалга ошириш мумкин тарзда белгилаш учун қўлланиладиган менежмент ва бизнес-таҳлил концепцияси сифатида муҳим механизм ҳисобланади. Ушбу ёндошув мақсадларни аниқлаштиради, назорат ва баҳолашни осонлаштиради, стратегик режалаштиришда самарадорликни ошириш имкониятларини яратади.

Хуллас КРЎнинг мазмуни шундаки, у ташкилот ва ходим фаолиятини натижага йўналтириш, самарадорликни ошириш ва стратегик мақсадларга эришиш учун муҳим бошқарув воситаси сифатида намоён бўлади. шу туфайли бугунги кунда замонавий шароитда ахборот технологиялари, катта маълумотлар (Big Data) ва аналитик платформалар бизнес-таҳлил самарадорлигини янада оширишга хизмат қилмоқда.

Бу эса ўз навбатида, **рақамли иқтисодиёт шароитида бизнес-таҳлилнинг аҳамиятини** янада ошириб боради. Чунки бундай шароитида маълумотлар ҳажмининг ортиши ва уларни қайта ишлаш тезлигининг ошиши бизнес-таҳлилнинг ролини янада кучайтирди. Реал вақт режимида таҳлил қилиш, автоматлаштирилган ҳисоботлар ва прогноз моделлари корхоналарга бозор ўзгаришларига тез мослашиш имконини беради. Шу боис, бизнес-таҳлил корхонанинг рақобатбардошлигини ошириш, ресурслардан самарали фойдаланиш ва барқарор ривожланишни таъминлашда муҳим омил ҳисобланади.

**Хулоса ва таклифлар.** Замонавий инновацион иқтисодиёт шароитида бизнес-таҳлилни ривожлантириш ва уни бошқарув амалиётига кенг жорий этиш корхоналар барқарор ривожланишининг муҳим шарти ҳисобланади. Шу туфайли таҳлилнинг ушбу шакли истиқболли ҳисобланади. Тадқиқот жараёнида бир қанча таклиф ва тавсиялар ҳам ишлаб чиқилди.

**Биринчидан,** мамлакатимизнинг змонавий иқтисодиётини таҳлил қилишга ва унинг стратегияларини белгилашга қаратилган “Бизекс-таҳлил” бўйича ўқув ўзимизга мос адабиётларини (дарслик, ўқув қўлланмалар, услубий қўлланма ва тавсиялар) яратиш лозим, деб ҳисоблаймиз.

**Иккинчидан,** бизнес-таҳлил тизимида SWOT-таҳлил усулларида фойдаланиш, айниқса стратегик режалаштириш ва бошқарув қарорларини қабул қилишда қўлланиладиган таҳлилий ишларда, турли ташкилот, лойиҳа ёки соҳанинг ички ва ташқи муҳитини комплекс баҳолашга қаратилган ишларни амалга оширида қўллаш ҳам мақсадга мувофиқ.

**Учинчидан,** бизнес таҳлил таркибида PEST-таҳлилни тули ташкилотлар ёки лойиҳа фаолиятига таъсир этувчи сиёсий, иқтисодий,

ижтимоий ва технологик омилларни чуқур таҳлил қилиб самарали стратегия ишлаб чиқишда кенг қўллаш ҳам мақсадга мувофиқ.

**Тўртинчидан,** мамлакатимиз иқтисодиётига самарали КРГА қўйиладиган талабларни амалга ошириш учун мақолада келтирилган бешта мезондан иборат мақсадларни амалиётга тавсия қилиш мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблаймиз. Агар бу таклифлар амалга ошириладиган бўлса, ишлаб чиқилган тавсиялар амалиётда қўлланиладиган менежмент ва бизнес-таҳлил концепцияси сифатида муҳим механизм ҳисобланади. Ушбу ёндошув мақсадларни аниқлаштиради, назорат ва баҳолашни осонлаштиради, стратегик режалаштиришда самарадорликни ошириш имкониятларини яратади.

Хулоса қилиб айтганда, бизнес-таҳлил нафақат мамлакатимиз миқёсида, балки дунё миқёсида ҳам таҳлилий ишлар тизимида янги ва истиқболли йўналиш сифатида намоён бўлмоқда. У корхоналар фаолиятининг натижадорлигини комплекс баҳолаш, стратегик қарорлар қабул қилиш ва самарадорликни оширишда муҳим илмий-амалий аҳамиятга эга.

## VII SHO‘BA. XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI YASHIL VA INNOVASION IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ORQALI HUDUDLARDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA‘MINLASHDA RAQOBATBARDOSH KADRLARNI TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

*Nasiba Ergasheva- ҚапДТУ профессору в.б., и.ф.д.*

### MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARIDA AUTSORSING XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASH

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida autsorsing xizmatlaridan foydalanish sifatini baholash xususiyatlarining tarkibiy qismlari, shu jumladan autsorsing xizmatlarning maqsad va vazifalari, mijoz tomonidan autsorsing xizmatlar bozorini tanlash, autsorsing shartnomasini tuzish va boshqarish jarayonlari bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** autsorsing, autsorser, maktabgacha ta‘lim tashkiloti, mijoz, uchinchi tomon, integratsiya, autsorsing xizmat, baholash, narx, autsorsing narxi

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены составляющие оценки качества использования аутсорсинговых услуг в организациях дошкольного образования, включая цели и задачи аутсорсинговых услуг, выбор рынка на аутсорсинговые услуги со стороны клиента, представлены процессы составления и управления аутсорсинговым договором, даны рекомендации.

**Ключевые слова:** аутсорсинг, аутсорсер, дошкольная организация, клиент, третье лицо, интеграция, аутсорсинговая услуга, оценка, цена, стоимость аутсорсинга.

**Abstract:** In this article, the components of the assessment of the quality of the use of outsourcing services in pre-school education organizations, including the goals and objectives of outsourcing services, the selection of the market for outsourcing services by the client, and the processes of drawing up and managing the outsourcing contract are presented. and recommendations are presented.

**Keywords:** outsourcing, outsourcer, preschool organization, client, third party, integration, outsourcing service, evaluation, price, outsourcing cost

Yangi O‘zbekistonda taraqqiyotning hozirgi bosqichida maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini to‘liq xususiy sektorga o‘tkazish orqali ularning sifati va samaradorligini oshirish, aholining ijtimoiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini yanada to‘laroq qondirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham “...maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bilan qamrab olish samaradorligini yanada oshirish, DXSH asosida maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini keng joriy etish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish”<sup>80</sup> ustuvor vazifalar etib belgilangan. Shuningdek, O‘zbekistonda autsorsing xizmatlarining rivojlanishi maktabgacha ta‘lim tizimida sog‘lom ovqatlanishni tashkil etish, sog‘liqni saqlash tizimida bemorlarni ovqatlantirish, kir yuvish, tibbiy buyumlarni zararsizlantirish,

---

<sup>80</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>

tibbiy tashxislar, global raqamli ekotizim, biznes jarayonlari outsorsingi sohasini jadal rivojlantirish o‘ta dolzarb va muhim vazifalardan deb qaralmoqda. Ushbu yo‘nalishdagi vazifalarni amalga oshirish outsorsing xizmatlarini rivojlantirish asosida maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida sifatli xizmat ko‘rsatishni ta‘minlash yo‘llarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining dolzarbligini belgilab beradi.

Shu munosabat bilan biz ushbu sohani o‘rganishni, tashkilot va kompaniyalar rahbarlarining xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ymasliklari uchun outsorsing xizmatlaridan sifatli foydalanishni baholashning eng muhim nuqtalarini aniqlashni zarur deb hisoblaymiz. Bunda maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga ushbu xizmat turidan amalda foydalanish imkonini beruvchi mantiqiy o‘ziga xos harakatlar tizimi sifatida ko‘rib chiqishni taklif qilmoqchimiz.

Outsorsing xizmatlaridan foydalanish sifatini baholash muammosi va ularni amaliyotga joriy etishga bag‘ishlangan ishlanmalar tahlili, shuningdek, outsorsing xizmatlaridan foydalanish mexanizmi muammosini o‘rganish xorijiy va mahaliy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tizimini takomillashtirish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan M.B.Kubayeva, SH.A.Buranova, A.V.Shin, G.A.Omanova va boshqalar maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy hamda ilmiy-metodik masalalari bo‘yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borgan. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari soni va ulardagi joylar sonining ko‘payib, bolalarni qamrab olish darajasining oshishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda —2017-2021 yillarga maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori [1] muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu Qaror asosida maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirish Dasturi qabul qilinib, unga asosan davlat, davlat-sherikchilik, xususiy, oilaviy bilan ta‘minlash belgilangan edi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida outsorsing xizmatidan foydalanish bo‘yicha ko‘pgina iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq qilinib kelmoqda. Ushbu olimlar Gilmiyarova M.R. [2], Fedorova YE.A., Yermolov A.V. [3], Korneychik M., Lyasuskaya N. [4], Vasilev A.S., Mirgorodskaya T.V. [5], Yeskova L.F., Drozd A.M., Manevich A.V. [6], Pardayev M. Q. [7], Urazov B.K. [8] va boshqalar. Ushbu tadqiqot yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyati shundaki, mavjud xorijiy va mahalliy ilmiy ishlarning aksariyati faqat outsorsing xizmatlari bozorining ayrim segmentlariga qaratilgan. Bu asosan outsorsingning ma‘lum bir turidan foydalanish va u bilan bog‘liq muammolarga tegishli tadqiqotlardir.

Outsorsing sohasida olib borilayotgan nazariy tadqiqotlar va O‘zbekiston Respublikasi tashkilotlari tomonidan to‘plangan juda kam amaliy tajribaga qaramay, outsorsing xizmatlaridan sifatli foydalanish mexanizmi rivojlanish yo‘lida bormoqda. Ushbu masala bo‘yicha ilmiy ishlarning juda kamligi maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlaridan foydalanish sifatini baholash faoliyatini ishlab chiqadigan chuqur va tizimli tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida xizmatlarni outsorsing qilishda sifat muammosi alohida o‘rin tutadi. Buyurtmachi va pudratchi o‘rtasidagi muzokaralar jarayonida nisbatan teng xarajatlar va o‘rtacha xavf darajasida aynan ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifati outsorsing foydasiga qaror qabul qilishga olib kelishi mumkin. Outsorsing tashkilotlari xodimlarining yuqori professionalligi nafaqat outsorsing xizmatlarni malakali darajada ko‘rsatishga, balki ushbu funksiyalarni tezroq, ya’ni maktabgacha ta’lim tashkilotlarining xodimlariga nisbatan samaraliroq bajarishga imkon beradi. Outsorsing tashkilotlarining foyda olish variantlarni ko‘rib chiqishda sifat hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu bandning maqsadi ushbu turdagi outsorsing xizmatlarni ko‘rsatish jarayonida sifat ko‘rsatkichlarini to‘liq o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar hal qilinishi kerak:

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, ikkita maktabgacha ta’lim tashkilotlarida iqtisodiy qiymatlarini aniqlashda (agar outsorsing to‘liq ishlatilgan va umuman ishlatilmasa) nisbatan tahlil qilish. Biroq tashkilotning ichki bo‘linmasi va outsorsing o‘rtasidagi vakolatlarni taqsimlashda optimal kombinatsiyani topish uchun oraliq variantlarni ko‘rib chiqish tavsiya etiladi, ya’ni funksiyalarning faqat bir qismi outsorsingga o‘tkazilganda.


1-rasmda biz maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun outsorsing xizmatlarning ahamiyati mezonlarini umumiy ma’noda ko‘rib chiqishni taklif qilamiz.

Shuni ta’kidlash kerakki, bu jarayon juda mashaqqatli va outsorsing qilish rejalashtirilgan har bir funksiya uchun qiymatlarni aniqlashdan iborat bo‘ladi. Taqqoslash natijasida qaysi funksiyalarni va qay darajada outsorsing qilish maqsadga muvofiqligini aniqlaydigan eng oqilona nisbatni topish mumkin. Outsorsingni qo‘llash mexanizmining uchinchi va to‘rtinchi elementlarini amaliy amalga oshirish hisob-kitoblar va taqqoslash tizimini nazarda tutadi. Ushbu turdagi xizmat uchun buyurtmachi va pudratchi xarajatlarning nisbati boshqaruv qarorini tanlashning turli xil shaxsiy variantlari haqida gapirishga imkon beradi.


Keltirilgan rasm ma’lumotlarini tahlil qilishda, shuni ta’kidlash kerakki, outsorsing xizmatlarining mijozi uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri xarajatlar narxini shakllantirish qiyin emas.

Shunday qilib, “ishlab chiqarish faoliyati”da outsorsing jarayonlaridan foydalanishni maqsad qilgan tashkilot oldida turgan asosiy vazifalardan biri bu jarayondan qoniqish darajasini aniqlashdan iborat.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlarining sifatini ularni baholash imkoniyati nuqtayi nazaridan outsorsing xizmatlari sifatining barcha tarkibiy qismlarini ikkita ko‘rsatkich guruhiga bo‘lish mumkin: miqdoriy (o‘lchash uchun), obyektiv baholashni talab qiluvchi va sifat (moddiy), subyektiv baholashni talab qiladi (1-rasm).



1-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida autorsing xizmatlarining sifat omillari<sup>81</sup>



2-rasm. Autorsing xizmatlarining sifat ko'rsatkichlari<sup>82</sup>

<sup>81</sup> Manba: Muallif ishlanmasi.

<sup>82</sup> Manba: Muallif ishlanmasi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari va outsorsing xizmatlarining pudratchisi o‘rtasidagi muzokaralar jarayonida outsorsingchi tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarning sifati bo‘yicha nizolar paydo bo‘lishi mumkin. Bu jarayon xizmat sifati bo‘yicha shartnomada belgilanishi lozim va bu shartnomada aks ettirilishi kerak. Ushbu hujjat maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun kutilgan natijalarni belgilaydigan outsorsing xizmatlari uchun sifat nazorati ko‘rsatkichlarining tartiblangan tizimidir. Sifat maktabgacha ta’lim tashkilotlari va outsorser o‘rtasidagi birinchi aloqa paytidan boshlab shartnomaning tugashigacha bo‘lgan barcha aloqalarning oxirigacha talabi bo‘lishi kerak.

Muzokaralar jarayoni bosqichida outsorsing xizmatlari sifati bilan bog‘liq masalalar bir qator bosqichlardan o‘tishi kerak. Biz ularni rasmda taqdim etamiz. Bunday holda, ekspert baholashlari eng maqbul bo‘ladi, chunki xizmatlarga nisbatan boshqa usullardan foydalanish qiyin.

Autsorsing xizmatlari unumdorligi va sifati uchun javobgarlik modellari bo‘yicha ba’zi fikrlarni keltirib o‘tmoqchimiz.

**Model 1. Sifatni outsorser nazorat qiladi [A].** Maktabgacha ta’lim tashkiloti buyurtmachi sifatida outsorserga maksimal mumkin bo‘lgan xavf va javobgarlikni, shu jumladan yaratilayotgan tizimning sifati bilan bog‘liq bo‘lganlarni o‘tkazishga intiladi. Shu munosabat bilan mijoz vazifani sifat jihatidan aniq shakllantirishi, yakuniy natijani baholash mezonlarini ishlab chiqishi va ularni outsorserga yetkazishi kerak.

**Model 2. Sifatni mijoz nazorat qiladi [M].** Outsorsing tashkiloti loyihani ishlab chiqish uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi, sifati maktabgacha ta’lim tashkiloti – mijoz tomonidan nazorat qilinadi. Outsorser mijozga xizmat ko‘rsatadi va mijozning o‘zi kelajakda aniq ishlash ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish yoki ichki standartlarga e’tibor qaratish zarurligini hal qiladi.

**Model 3. Sifat uchinchi tomonidan nazorat qilinadi [U].** Turli xil vazifalarni turli ijrochilarga topshirish orqali xavflarni kamaytirishga harakat qilishingiz mumkin: biri rivojlanadi, ikkinchisi esa sifatni nazorat qiladi. Mustaqil sifat ekspertidan foydalanish, agar kompaniyada tasdiqlangan sifat menejmenti jarayoni mavjud bo‘lmasa, samarali bo‘lishi mumkin.

**Model 4. Sifatni integratsiyalashgan asosida nazorat qiladi [I].** Integratsiyalashgan outsorsing modeli outsorsingning barcha afzalliklarini olishni xohlaydigan, lekin sifat va mahsuldorlikni o‘zlari nazorat qilishga tayyor bo‘lmagan va hamkorlarga qaram bo‘lishni istamaydigan tashkilotlar uchun samarali bo‘lishi mumkin. Maktabgacha ta’lim tashkilot – buyurtmachi va outsorser bilan butun mas’uliyatni birlashtiradi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida outsorsing xizmatlaridan foydalanish mexanizmi outsorsing tashkilotlarini tanlash, shartnomalarni ishlab chiqish, ularni amalga oshirish va manfaatdor sheriklar o‘rtasidagi munosabatlarni tiklash uchun mantiqiy harakatlar iqtisodiy mexanizm, nazorat (boshqaruv), xodimlarni boshqarish, mahsulot sifatini boshqarish o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tizim sifatida qurilgan.

2. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlarining samaradorligini baholash zarurati ilmiy asoslandi. Tadqiqotda outsorsing xizmatlari samaradorligini baholashning qiymat usuli tanlandi, bu ichki birlikni saqlash xarajatlari va outsorsing xarajatlarini solishtirish imkonini berdi.

3. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida outsorsing loyihasidan foydalanish samaradorligini baholash uchun har bir xizmat turi bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlardan (KPI) foydalanish taklif etildi, ular shartnomani bajarishdan oldin va keyin taqqoslanishi kerakligi asoslandi.

4. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlar sifatiga umumiy standart yondashuvlar asosida outsorsingning mualliflik ta’rifi shakllantirildi. Shu bilan birga, sifatni tushunishda ikkita komponent ajralib turadi: outsorsing xizmatlaridan foydalanishda moddiy omil va inson omilidan foydalanish kerakligi asoslandi.

5. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida outsorsingda xizmatlar sifati uchun javobgarlikning 4 ta “**AMUI**” modeli batafsil ko‘rib chiqildi va ilmiy asoslangan takliflar berildi. Ularning eng yaxshisi mijoz va outsorser o‘rtasida mas’uliyat sohalarini taqsimlash bilan integratsiyalashdir degan xulosaga kelindi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda —2017-2021 yillarga maktabgacha ta’lim tashkilotlari tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori

2. Гилмиярова М.Р. Проблемы и перспективы развития бухгалтерского аутсорсинга // Вестник ВГУ. Серия: Экономика и управление, 2017. - № 2. - С. 76-80.

3. Федорова Е.А., Ермолов А.Б. Анализ современных тенденций в аутсорсинге бухгалтерского учета // Финансовая аналитика: проблемы и решения. - 2016. - № 27 - С. 4-14.

4. Корнейчик М., Лягуская Н. Развитие бухгалтерского аутсорсинга в Республике Беларусь

5. Васильев А.С., Миргородская Т.Б. Проблемы и перспективы аутсорсинга бухгалтерского учета в России // Международный научно-исследовательский журнал, 2015. - Выпуск № 1. Част 2. - С. 19-21.

6. Ескова Л.Ф., Дрозд А.М., Маневич А.Б. Аутсорсинг в Республике Беларусь

7. Пардаев М.Қ. Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари.—Т.: «Иқтисод—молия». 2008. — 260 б.

8. Урозов Б.К. ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш соҳаси корхоналарида бухгалтерия ҳисоби ва аудитнинг долзарб масалалари. — Т.: “Иқтисодиёт” нашриёти, 2011. — 260 б.

9. Ergasheva N. Outsorsing xizmatlarining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati. // “Servis” ilmiy-amaliy jurnali. – Samarqand, 2023 – № 1. – B. 91-95. (08.00.00; №20).

**Kobilova Shozoda Timurovna** – Zarmed universiteti Iqtisodiyot va moliya kafedrası dotsenti

## TADBIRKORLIK UNIVERSITETLARIDA INNOVATSION TA'LIM MODELİ

**Annotatsiya:** Maqolada tadbirkorlik universitetlarida innovatsion ta'lim modelini shakllantirishning asosiy tamoyillari va mexanizmlari yoritiladi. Innovatsion ta'lim talabalarning startup faoliyatini qo'llab-quvvatlash, texnopark va inkubatorlar bilan integratsiya, shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgani ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari innovatsion ta'lim modeli universitetning raqobatbardoshligini oshirish va innovatsion ekotizimni rivojlantirishda muhim omil ekanini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** tadbirkorlik universiteti, innovatsion ta'lim modeli, startup ekotizimi, texnopark, inkubator, raqamli ta'lim, kompetensiya, amaliy ko'nikma, universitet–biznes hamkorligi, tijoratlashtirish.

**Abstract:** The article discusses the main principles and mechanisms for shaping an innovative education model in entrepreneurial universities. It highlights that innovative education is aimed at supporting students' startup activities, strengthening integration with technoparks and incubators, and developing practical competencies through digital technologies. The research results show that the innovative education model plays an important role in enhancing the university's competitiveness and advancing the innovation ecosystem.

**Keywords:** entrepreneurial university, innovative education model, startup ecosystem, technopark, incubator, digital education, competence, practical skills, university–business cooperation, commercialization.

**Аннотация:** В статье рассматриваются основные принципы и механизмы формирования инновационной модели образования в предпринимательских университетах. Отмечается, что инновационное образование направлено на поддержку стартап-инициатив студентов, укрепление интеграции с технопарками и инкубаторами, а также развитие практических компетенций с использованием цифровых технологий. Результаты исследования показывают, что инновационная модель образования играет важную роль в повышении конкурентоспособности университета и развитии инновационной экосистемы.

**Ключевые слова:** предпринимательский университет, инновационная модель образования, стартап-экосистема, технопарк, инкубатор, цифровое образование, компетенция, практические навыки, сотрудничество университет–бизнес, коммерциализация.

**KIRISH.** Bugungi kunda dunyo bo'yicha innovatsion ta'lim va tadbirkorlik yondashuvlari tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Innovatsion ta'lim modeli universitetlarda talabalarning startup loyihalari yaratishi, amaliy

kompetensiyalarini rivojlantirishi va iqtisodiyotning zamonaviy tarmoqlarida raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllanishini ta‘minlaydi. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston oliy ta‘limida tadbirkorlik universitetlarining roli nafaqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, balki texnoparklar, inkubatorlar va raqamli platformalar orqali amaliy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion ta‘lim modelini shakllantirish bilan bog‘liq. Zamonaviy innovatsion ta‘lim modeli talabalarning startap ekotizimi bilan integratsiyalashuvini, universitet–biznes hamkorligini mustahkamlashni va tijoratlashtirish ko‘nikmalarini oshirishni ta‘minlaydi. Shu bois, tadbirkorlik universitetlarida innovatsion ta‘limni rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish masalalari ilmiy jihatdan dolzarb va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Bugungi kunda jahon hamda mamlakatimizda innovatsion iqtisodiyot va ta‘lim tizimlari sezilarli sur‘atlar bilan rivojlanmoqda. Ushbu jarayon doirasida, tadbirkorlik universitetlari nafaqat nazariy bilim manbai sifatida, balki startaplar, innovatsiyalar va amaliy kompetensiyalarni shakllantirish markazlariga aylanishi dolzarb bo‘lmoqda.

So‘nggi yillarda davlat tomonidan bu yo‘nalishga qaratilgan muhim huquqiy-huquqiy islohotlar qabul qilindi. Xususan, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish to‘g‘risidagi qaror orqali oliy ta‘lim muassasalarida innovatsion ishlab chiqarish korxonalari, spin-off va ilmiy-texnik ishlanmalar yaratish rag‘batlantirildi. Shuningdek, 2025-yil 22-yanvardagi e‘lon qilingan reja doirasida mamlakatda 22 ta yangi texnika universiteti tashkil etilishi va mavjud muassasalar kengaytirilishi ko‘zda tutilgan. Bu esa muhandislik, axborot texnologiyalari, innovatsion yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlash va universitet–sanoat integratsiyasini kuchaytirishni maqsad qilgan. Bundan tashqari, 2025-yil 3-noyabrdagi qaror bilan — bitiruvchilarga ishga joylashishni ta‘minlash va ularning startap hamda innovatsion loyihalarini qo‘llab-quvvatlash dasturlari joriy qilindi. Qarorda oliy ta‘lim dasturlarida biznes ko‘nikmalarini rivojlantirish, startap va innovatsion loyihalar uchun grantlar ajratilishi, bitiruvchilarning mehnat bozoriga o‘tishi uchun bank kreditlari orqali qulay shartlar belgilanishi nazarda tutilgan. Shu tariqa, hozirgi paytda O‘zbekiston oliy ta‘limida innovatsion ta‘lim modeli joriy etilishida — davlat siyosati, huquqiy baza va amaliy infratuzilma moslashtirilgan: universitetlar startap ekotizimini qo‘llab-quvvatlaydigan markazlarga aylanmoqda, texnoparklar va ilmiy korxonalar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilmoqda, talaba va yoshlar uchun bilim, ko‘nikma va tijoratlashtirish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu sababli, tadbirkorlik universitetlarida innovatsion ta‘lim modelini chuqur o‘rganish, uning samaradorligi va istiqbollari ustida tahlil olib borish bugungi kundagi eng dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biridir.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.**

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida tadbirkorlik va innovatsion ta‘limga bo‘lgan e‘tibor sezilarli darajada oshdi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion ta‘lim modeli universitetlarda faqat bilim berish emas, balki talabalarni amaliy tadbirkorlik faoliyatiga yo‘naltirish, ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilish va innovatsion mahsulot yaratishga rag‘batlantirishga qaratilgan. Shu

bilan birga, tadbirkorlik universitetlarida innovatsion ta‘limning samaradorligi bir qancha ichki va tashqi omillarga bog‘liq ekanligi ta‘kidlanadi.

Ilmiy adabiyotlarda tadbirkorlik universitetlaridagi innovatsion ta‘lim modeli quyidagi komponentlardan iborat deb ko‘riladi:

Pedagogik innovatsiyalar – interaktiv o‘quv metodlari, loyihaviy va problemaga asoslangan ta‘lim, startap-laboratoriyalar orqali amaliy bilim berish (Kuratko, 2016; Neck va Solomon, 2020).

Ilmiy-tadqiqot faoliyat bilan integratsiya – talabalarning ilmiy-tadqiqot institutlari va texnoparklar bilan ishlash imkoniyatlari (Etzkowitz, 2008; Guerrero et al., 2016).

Tadbirkorlik kompetensiyalari shakllantirish – moliyaviy savodxonlik, biznes-reja tuzish, innovatsion mahsulotni bozorda taqdim etish bo‘yicha ko‘nikmalar (Fayolle, 2013).

Rag‘batlantirish mexanizmlari – startap grantlari, inkubator va akseleratorlar, universitet ichidagi innovatsion fondlar va investorlar bilan aloqalar. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlik universitetlarida innovatsion ta‘lim modeli murakkab va ko‘p qirrali tizim bo‘lib, uni shakllantirishda iqtisodiy, texnologik, ijtimoiy, huquqiy va pedagogik omillar muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, adabiyotlarda innovatsion ta‘lim samaradorligini oshirish uchun yagona tasniflangan metodologiya yoki model mavjud emas. Shuning uchun, har bir universitet o‘z resurslari va hududiy imkoniyatlariga mos ravishda innovatsion ta‘lim tizimini ishlab chiqishi lozim.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**


Tadqiqot jarayonida tadbirkorlik universitetlarida innovatsion ta‘lim modelining shakllanishi, rivojlanishi va samaradorligini o‘rganishda ta‘lim jarayonining iqtisodiy-menejment tizimlari hamda innovatsion mexanizmlarini tahlil qilishga dialektik va tizimli yondashuv, kompleks baholash, qiyosiy va solishtirma tahlil, statistik va dinamik yondashuv hamda guruhlash usullaridan foydalanildi. Tadbirkorlik universitetlarida innovatsion ta‘lim jarayonini tashkil etishning konseptual asoslari, universitet–biznes–davlat hamkorligida shakllanadigan ta‘lim ekotizimi bo‘yicha kompleks baholash ko‘rsatkichlari, talabalarning innovatsion salohiyatini oshirishga qaratilgan o‘qitish metodlari samaradorligi hamda universitet doirasida startap va ilmiy-amaliy loyihalarni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari o‘rganildi. Shuningdek, innovatsion ta‘lim modeli elementlarining (startup-inkubatorlar, texnoparklar, akseleratsiya dasturlari, innovatsion laboratoriyalar) faoliyatini tahlil qilish orqali tadbirkorlik universitetlarida ta‘lim jarayonini optimallashtirish yo‘nalishlari aniqlandi. Tahlil davomida rivojlangan mamlakatlar tajribasi bilan qiyosiy yondashuv asosida innovatsion ta‘lim modelining ustunliklari va kamchiliklari baholandi. Tadqiqotda statistik va dinamik tahlil usullaridan foydalanib, universitetlarda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari ko‘rsatkichlari, startaplar soni va ularning kommercializatsiya darajasi, grantlar va innovatsion loyihalarning o‘shish tendensiyalari o‘rganildi. Guruhlash usuli orqali innovatsion ta‘lim shakllari tasniflandi va ularning o‘zaro farqlari belgilandi. Umuman

olganda, tadqiqot tadbirkorlik universitetlarida innovatsion ta‘lim modelini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari, samaradorligi va rivojlanish mexanizmlarini aniqlash hamda uni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqishga qaratildi.

### **Tahlil va natijalar.**

So‘nggi yillarda mamlakatimizda innovatsion iqtisodiyotga o‘tish jarayonlari jadallashgani sayin ta‘lim tizimi, xususan, oliy ta‘lim muassasalarining tadbirkorlik faoliyatini kuchaytirish, amaliy innovatsiyalarni yaratish va tijoratlashtirish bo‘yicha yangi model — tadbirkorlik universitetlari konsepsiyasini shakllantirishga bo‘lgan ehtiyoj tobora oshib bormoqda. Tadbirkorlik universitetlari innovatsion ekotizimning markazida turib, ilmiy izlanishlar, startaplar, texnoparklar va biznes hamkorlikni yagona tizimga birlashtiruvchi institut sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlik universitetlari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari — ilmiy ishlanmalar soni, ularning tijoratlashtirilish darajasi, startap va innovatsion loyihalar soni, xalqaro hamkorlik ko‘lami yildan-yilga ortib bormoqda. Masalan, 2023–2024 yillar yakuni bo‘yicha O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalarida 2 150 dan ortiq innovatsion loyihalar ro‘yxatga olingan bo‘lib, shundan 430 tasi tijoratlashtirilgan, bu esa umumiy loyihalarning qariyb 20 foizini tashkil etadi. Mazkur ko‘rsatkich 2020 yilda atigi 8–9 foizni tashkil etganini inobatga olsak, qisqa davrda sezilarli o‘shish kuzatilmoqda. Respublikadagi innovatsion infratuzilma kengayib borayotgani ham tadbirkorlik universitetlari faoliyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Hozirda mamlakatimizda: 22 ta texnopark, 37 ta innovatsion laboratoriya, 50 dan ortiq startup-inkubatorlar, IT-Parkning 17 ta hududiy filiali muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. 2024 yilda texnoparklar tomonidan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar hajmi 3,2 trln so‘mni tashkil etib, 2020 yilga nisbatan 2,4 baravarga oshgan. Shuningdek, tadbirkorlik universitetlarida “triple helix” (universitet–biznes–davlat) modeli tobora mustahkamlanib bormoqda. Oliy ta‘lim muassasalari bilan biznes subyektlari o‘rtasidagi hamkorlikda 2023 yilda 1 800 dan ortiq grant shartnomalari tuzilgan. Ularning umumiy qiymati 620 mlrd so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2021 yilda 370 mlrd so‘m bo‘lgan. Innovatsion ta‘lim modelining amaliy samaradorligini ko‘rsatuvchi indikatorlardan biri – talabalar startap faolligidir. O‘zbekistonda 2024 yil yakuniga ko‘ra 12 mingdan ortiq talaba startap loyihalarida ishtirok etgan, bu 2019 yildagi ko‘rsatkichdan qariyb 5,5 baravar ko‘pdir. Ulardan 1 200 tasi pre-inkubatsiya bosqichini, 280 tasi inkubatsiya bosqichini, 70 tasi esa investitsiya bosqichini muvaffaqiyatli yakunlagan. Yevropa va Osiyoning ilg‘or universitetlari tajribasi bilan qiyosiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion ta‘lim modelining muvaffaqiyatli ishlashi uchun quyidagi omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi: Ilmiy tadqiqotlarga investitsiyalar ulushi – rivojlangan davlatlarda R&D xarajatlari YaIMning 2–4 % ini tashkil etsa, O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 2023 yilda 0,9 % ni tashkil etdi. Universitet ichida iqtisodiy muhitning erkinligi, xususan, universitetga o‘z ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, patentlarni sotish yoki tijoratlashtirishdan olingan daromaddan

foydalanish imkoniyati. Tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan o‘quv dasturlari — 2024 yildan boshlab O‘zbekistonda 40 dan ortiq OTMda “Startup management”, “Innovatsion muhandislik”, “Texnologiyalarni tijoratlashtirish”, “Biznes-acceleratsiya” kabi fanlar o‘qitila boshladi. Professor-o‘qituvchilar va ilmiy xodimlarning innovatsion salohiyati — 2023 yilda OTMlar tomonidan 5 100 dan ortiq patent arizalari berilgan, 2 200 dan ortig‘i tasdiqlangan. O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida ham tadbirkorlik universitetlarini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Xususan, strategiya doirasida 2026 yilga borib innovatsion ta‘lim dasturlarini joriy etgan OTMlar sonini 2 baravarga oshirish, universitetlarda ilmiy ishlanmalar natijasida yaratiladigan mahsulotlar ulushini 30 % ga yetkazish vazifasi qo‘yilgan. Yuqoridagi tahlillar shundan dalolat beradiki, tadbirkorlik universitetlari nafaqat ta‘lim tizimi samaradorligini oshirmoqda, balki mamlakatning innovatsion rivojlanishida, yuqori texnologiyali mahsulotlar yaratishda, ilm-fan natijalarini tijoratlashtirishda va global bozor raqobatiga kirishda muhim rol o‘ynamoqda.



1-rasm. Innovatsion ta‘lim modeli

Tadbirkorlik universitetlarida innovatsion ta‘lim modeli innovatsion iqtisodiyotning asosiy drayverlaridan biri sifatida shakllanib bormoqda. Tadbirkorlik universitetlarida innovatsion ta‘lim modeli startup ekotizimi, innovatsiyaga yo‘naltirilgan ta‘lim dasturlari, tadbirkorlik kurslari hamda zarur axborot va resurslar integratsiyasi orqali amalga oshiriladi. Bu elementlarning uyg‘unlashuvi talabalar g‘oyalarini amaliy loyihaga aylantirish, innovatsion ko‘nikmalarni rivojlantirish va bozor talablariga mos kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Model natijasida universitetlar nafaqat ta‘lim muassasasi, balki innovatsion faoliyat markaziga aylanadi.

#### **Xulosa va takliflar.**

Tadbirkorlik universitetlarida innovatsion ta‘lim modeli — zamonaviy iqtisodiyot talablariga mos, amaliy ko‘nikmalarga ega, kreativ va tashabbuskor kadrlarnitayyorlashga qaratilgan kompleks tizimdir. Ushbu model startup ekotizimi, innovatsiyaga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlari, tadbirkorlik kurslari

hamda axborot va resurslar bilan ta‘minlangan muhitning o‘zaro integratsiyasi orqali samarali ishlaydi. Modelning joriy etilishi natijasida universitetlar nafaqat bilim beruvchi, balki yangi texnologiyalar, startaplar va innovatsion yechimlar yaratuvchi markazga aylanadi. Bu esa mamlakatda innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi, raqobatbardosh biznes loyihalar paydo bo‘lishi va yoshlarning entrepreneurial salohiyatining ortishiga xizmat qiladi.

#### Takliflar

- Startap infratuzilmasini kengaytirish
- Universitetlarda texnoparklar, akseleratorlar, IT-inkubatorlar sonini oshirish va ularga davlat–xususiy sheriklik asosida qo‘shimcha mablag‘ yo‘naltirish.
- Innovatsiyaga yo‘naltirilgan o‘quv rejalari yaratish
- Ta‘lim dasturlariga Design Thinking, Project-Based Learning, digital skills kabi zamonaviy metodlarni majburiy asosda joriy etish.
- Biznes hamkorlikni kuchaytirish
- Mahalliy va xorijiy kompaniyalar bilan qo‘shma loyihalar, amaliyotlar, mentorlik dasturlarini kengaytirish orqali talabalarni real bozor muammolari bilan tanishtirish.
- Professor-o‘qituvchilarni qayta tayyorlash
- O‘qituvchilar uchun tadbirkorlik, startap boshqaruvi, innovatsion pedagogika bo‘yicha malaka oshirish dasturlarini yo‘lga qo‘yish.
- Talabalar g‘oyalarini moliyalashtirish tizimini yaratish
- Mini-grantlar, universitet fondlari, investorlar bilan bog‘lovchi platformalar orqali talabalar startaplariga moliyaviy ko‘mak berish.
- Raqamli ekotizimni kuchaytirish
- Universitetlar axborot resurslar bazasini kengaytirish, onlayn platformalar, sun‘iy intellekt asosidagi yordamchi tizimlarni yo‘lga qo‘yish.
- Innovatsion muhitni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat siyosatini mustahkamlash
- Innovatsion ta‘limga soliq imtiyozlari, grantlar, subsidiya va qo‘llab-quvvatlov dasturlari ajratilishi samaradorlikni oshiradi. Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlardan ko‘rishimiz mumkinki Tadbirkorlik universitetlarida innovatsion ta‘lim dasturini joriy qilish universitet va biznes sektori o‘rtasida integratsiyani kuchaytiradi

### FOYDALANILGAN ADABYOTLAR

1. Innovative Teaching Methods and Entrepreneurship Education: A Review of Literature (Samuel & Rahman, 2018)
2. Entrepreneurship Education in Universities: A Review of Current Practices and Future Directions (Politeknik Prasetya Mandiri va boshq., 2023)
3. The Disruptive Innovation and Entrepreneurship Education: The Literature Review and Current Practices (Indiran va boshq., 2023)

4. Innovative Teaching Strategies in Business and Entrepreneurship Education: A Bibliometric Analysis (Zainol & Ab Wahid, 2024)
5. Exploration of Innovation and Entrepreneurship Education Management to Improve Students' Employability (Qiuyan Xu & Nik Hasnaa Nik Mahmood)
6. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va ularning samaradorligi (bozorov & tadjibayev, 2025)
7. Innovatsion jarayonlarning ta'limdagi o'rni (bozorova & sobirova, 2025)
8. ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar (umirkulova, 2023)

## MUNDARIJA :

<b>I SHO‘BA. BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH VA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI YASHIL VA INNOVASION IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA JADAL RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK MUAMMOLARI VA ULARNI HAL QILISHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI</b>		
Po‘latov Muxiddin Egamberdievich	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IQTISODIY O‘SISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	4
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Бекзот Орифович Мамаюнусов	ФИРИБГАРЛИКНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШДА АНТИФРОД УСУЛЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ	7
A.N.Xoliqulov	RAQOBATNING MOHIYATI, SHAKLLARI VA USULLARI TO‘G‘RISIDA TUSHUNCHA	11
O‘roqov Firdavs Ortiqniyoz o‘g‘li	XIZMATLAR SOHASI TARKIBIDA TIBBIY XIZMATLARNING TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI	14
Shakhzoda Shukhratovna Mirzakhadjayeva	THEORETICAL INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF POPULATION WELL-BEING AND MODERN APPROACHES	18
Худайназарова Дилноза Гафуровна	ФАРМАЦЕВТИКА КОРХОНАЛАРИДА НАРХ СИЁСАТИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ МЕЪЁРИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ	23
Qurbanov Feruz Вахрамович	MILLIY IQTISODIYOTDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEХANIZMLARI (O‘ZBEKISTON MISOLIDA)	27
Абдурасулов Жамшидбек Ахмад уғли	ҚЎШИБ ЮБОРИШ ЖАРАЁНЛАРИДА КОРХОНА ФАОЛИЯТИНИ ТУГАТИШНИ ҲИСОБ ВА ҲИСОБОТДА АКС ЭТТИРИШ МАСАЛАЛАРИ	33
O‘roqov Firdavs Ortiqniyoz o‘g‘li	TIBBIY XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NAZARIY MASALALARI	38
Olim Ergashev	MINTAQADA MAXSUS IQTISODIY ZONANI TASHKIL ETISH YO‘LLARI	43

Abduraxmanova Aqida Fayzulla qizi, Sharipboyev Husanboy Marks o‘g‘li	BARQAROR RIVOJLANISHDA DAVLAT INVESTITSIYA SIYOSATINING O‘RNI	48
Rajabaliyeva Iroda Alisherovna	TRANSPORT-LOGISTIKA INFRATUZILMASINING MINTAQA IQTISODIYOTIGA TA‘SIRI	55
<b>II SHO‘BA. XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI YASHIL VA INNOVATION IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH, KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH, AHOLI BANDLIGI, FAROVONLIGI, YASHASH DARAJASI VA SIFATINI OSHIRISH MASALALARI</b>		
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Озода Мамаюнусова Пардаева Ботир Рахматуллаевич Пардаев	ИҚТИСОДИЁТНИНГ ТУРЛИ БОСҚИЧЛАРИДА ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШНИНГ МАЗМУНИ	60
Рахматulla Ergashev	QASHQADARYODA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH IMKONIYATLARI	65
V.V.Qarshiev	PULLIK TIBBIY XIZMATLAR BOZORIDA TASHKILOTLARNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA SHARTLARI	74
Xudoynazarov Faxriddin	ISLOMIY MIKROMOLIYALASHTIRISHDA HUQUQIY-INSTITUTSIONAL MUHITNING KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHGA TA‘SIRI: KONSEPTUAL MODEL	72
Б.Каршиев	ОПРЕДЕЛЕНИЕ ВЛИЯНИЯ ФАКТОРОВ НА КАЧЕСТВО ОБСЛУЖИВАНИЯ В СИСТЕМЕ ДЕТСКОГО ЗДРАВООХРАНЕНИЯ	85
Насиба Акбаржановна, Усманова Акбаров Бехзод	ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ НА ОСНОВЕ ПРИНЦИПОВ ЗЕЛЁНОЙ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ, СОКРАЩЕНИЯ БЕДНОСТИ, ПОВЫШЕНИЯ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ, БЛАГОСОСТОЯНИЯ, УРОВНЯ И КАЧЕСТВА ЖИЗНИ	90

Ermetova Iqbol Tajiboyevna	MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASIDAGI KLASTERLARNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY ZARURIYATI	92
Irgashev Abbas Jumanazarovich	ANOR YETISHTIRISH VA SOTISHDA DAROMADLARNI BAHOLASH	97
Eshimov Sardor Tulqin o‘g‘li	SMART CITIES AND THE GREEN ECONOMY: A SUSTAINABLE URBANIZATION MODEL	101
Aliqulov Humoyun Tohir o‘g‘li	QASHQADARYO VILOYATIDA AGROTURIZM SOHASIDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH	108
Irgashev Abbas Jumanazarovich	ANOR ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	112
<b>III SHO‘BA. BARQAROR IQTISODIY O‘SISH VA HUDUDLARDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI YASHIL VA INNOVATION IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA JADAL RIVOJLANTIRISH ORQALI XALQARO VA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI</b>		
Raxmatulla Xidirovich Ergashev, Jamshid Norboyevich Uzaqov	MINTAQA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION VA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARINING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	116
Д.К.Усманова	АНАЛИЗ ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ СФЕРЫ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	123
Давронова Бону Бахтиёрвна	СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	131
Baxriddin Davlanov	MINTAQA MEHMONXONALARINING RAQOBAT USTUNLIKLARINI SHAKLLANTIRISHDA AUTSORSINGDAN SAMARALI FOYDALANISH	137
Aliqulov Humoyun Tohir o‘g‘li	AGROTURIZMNI YASHIL VA INNOVATSION IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANTIRISH	141
Усманова Насиба Акбаржановна, Синько Юлианна	ВНЕДРЕНИЕ ПРИНЦИПОВ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ В СИСТЕМУ ГОРОДСКИХ	145

Викторовна	ТУРИСТИЧЕСКИХ СЕРВИСОВ САМАРКАНДА: ЦИФРОВЫЕ РЕШЕНИЯ ДЛЯ УПРАВЛЕНИЯ ПОТОКОМ ТУРИСТОВ И СНИЖЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ НАГРУЗКИ	
Davlanav Bahriddin	MINTAQADA MEHMONXONALARIDA KEYTERING XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH	149
Asror Abduvaliyev Abdusoliyevich, Qudratova Dilfuza Xujamshukur qizi, Mixliyeva E‘zoza Bekzod qizi,	XALQARO VA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI (QASHQADARYO VA SAMARQAND HUDUDLARI MISOLIDA)	154
Давронова Бону Бахтиёрвна	СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	161
<b>IV SHO‘BA. XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI YASHIL VA INNOVATION IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ORQALI HUDUDLARDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISH VA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISH JARAYONIDA MARKETING VA MENEJMENT IMKONIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI</b>		
Tuychiyev Alisher Jurayevich	HUDUDLARNING BARQAROR IQTISODIY O‘SISHIDA LOYIHA RESURSLARINI BOSHQARISHNING O‘RNI	167
Pulatov Shahron Axmedovich	QURILISH TASHKILOTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY ASOSLARI	174
Олтаев Шавкат Собирович	РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА АҲОЛИНИНГ МОЛИЯВИЙ САВОДХОНЛИГИ ВА УНИ ДАРАЖАСИНИ ОШИРИШНИНГ ИННОВАЦИОН ЙЎЛЛАРИ	179
Azgarov Abdumutalib Alisher o‘g‘li	DIGITAL TRANSFORMATION OF THE RESTAURANT BUSINESS: STRATEGIES FOR ADAPTING TO NEW CHALLENGES AND INTERNET MARKETING TRENDS	183

<b>V SHO‘BA. XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI YASHIL VA INNOVASION IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ORQALI HUDUDLARDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISH VA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHDA INVESTISIYALARNI JALB QILISH VA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI</b>		
Исроилов Боҳодир Ибрагимович Муҳаммадиев Рамз Зоиржон ўғли	ТИББИЙ ХИЗМАТЛАР КўРСАТИШНИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ- МОЛИЯВИЙ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	190
Ermetova Iqbol Tajiboyevna	XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	197
Олим Эргашев	ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШ ОРҚАЛИ МАХСУС ИҚТИСОДИЙ ЗОНАЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ	203
Gadayev Jaxongir Muhammadi o‘g‘li	ISLOMIY MOLIYA TIZIMIDA TAKAFUL SUG‘URTASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH MEKANIZMLARI (O‘ZBEKISTON TAJRIBASI)	210
<b>VI SHO‘BA. XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI YASHIL VA INNOVASION IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ORQALI HUDUDLARDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISH VA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHDA BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT MUAMMOLARINI BARTARAF QILISH MASALALARI</b>		
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Озода Мамаюнусова Пардаева Тўлқин Исматулло ўғли Яхяев	БИЗНЕС-ТАҲЛИЛНИНГ ЮЗАГА КЕЛИШИ ВА УНИНГ МАЗМУНИ	215
А.Н.Холиқулов	РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ХИЗМАТ КўРСАТИШ КОРХОНАЛАРИ САМАРАДОРЛИГИНИ ИФОДАЛОВЧИ КўРСАТКИЧЛАР ВА УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ	223
Imamova Nasiba Muzafarovna	IFRS S1 ASOSIDA BARQARORLIK AXBOROTLARINING MOLIYAVIY HISOBOT TIZIMIGA INTEGRATSIYASI	229

Абдурасулов Жамшидбек Ахмад уғли	КОРХОНАЛАРНИ ҚЎШИБ ЮБОРИШ ЖАРАЁНИДА КОРХОНА ФАОЛИЯТИНИ ТУГАТИШНИ БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ ВА ҲИСОБОТИДА АКС ЭТТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ	235
А.Н.Холиқулов	САВДО КОРХОНАЛАРИ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ОШИРИШ ВА СОТИШ ТАРМОҒИНИ ШАКЛЛАНТИРУВЧИ ОМИЛЛАР	240
Djumayeva Guzal Axtamovna	YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA YASHIL IJARA HISOBINING ANAMIYATI	244
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Хонкул Қахарович Самаров Обид Мамаюнусович Пардаев	БИЗНЕС-ТАҲЛИЛ – ТАҲЛИЛИЙ ИШЛАРНИНГ ЯНГИ ЙЎНАЛИШИ	247
<b>VII SHO‘BA. XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI YASHIL VA INNOVASION IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ORQALI HUDUDLARDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA‘MINLASHDA RAQOBATBARDOSH KADRLARNI TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI</b>		
Nasiba Ergasheva	МАКТАБГАЧА ТА‘ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА AUTSORSING XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASH	254
Kobilova Shozoda Timurovna	TADBIRKORLIK UNIVERSITETLARIDA INNOVATSION TA‘LIM MODELI	260



**«XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI YASHIL VA  
INNOVATSION IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA  
BARQAROR RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI»**

**MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA  
MATERIALLARI TO‘PLAMI**

**2026-yil 20-21-fevral kunlari**

**“STAP-SEL” MChJ. nashriyoti.  
Samarqand - 2026.**

**ISBN: 978-9910-225-40-6**

Tasdiqnona № 033337 (27.07.2022)  
© “STAP-SEL” MChJ. nashriyoti,  
Samarqand-2026

0070



**Qog‘oz bichimi A5, 60x84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>, Ofset qog‘ozi.  
“Times New Roman” garniturasini.  
Nashr bosma tabog‘i 15,62  
Buyurtma № 0009A/26. Adadi 25 nusxa**

---

**Samarqand iqtisodiyot va servis institutining  
matbaa bo‘limida chop etildi.**

**LICENSE № 025316.**

**REESTR № X-119112.**

**Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko‘chasi 60-uy.**